

R.RAJABOV

IBTIDOIY JAMOA TARIXI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

RAVSHAN RAJABOV

IBTIDOIIY JAMOA TARIXI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan 5110600
- Tarix o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi talabalari (o‘quvchilari) uchun o‘quv
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2013

UO‘K: 37.013.42
KBK 63.3 (0) 2ya73
R-11

R-11 Ravshan Rajabov. Ibtidoiy jamoa tarixi. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 140 bet.

ISBN 978–9943–10–990–2

Ushbu o‘quv qo‘llanma Tarix fakulteti Tarix o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi 1 kurs talabalari uchun qadimgi dunyo tarixining ibtidoiy jamoa davri bo‘limini o‘rganish uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tayyorlangan. Qo‘llanmada odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi jarayoni hamda ibtidoiy jamoaning asosiy bosqichlari, ibtidoiy madaniyat ko‘rib chiqiladi. Tarixgacha bo‘lgan antropoidlarning tadqiqotini zamonaviy paleoantropologik va arxeologik usullari oddiy va tushunarli tilda tushuntiriladi. Talabalar uchun takrorlash savollari hamda bo‘limni o‘rganish, mustaqil ishlar mavzulari va zaruriy adabiyotlar tavsiya etilgan.

UO‘K: 37.013.42
KBK 63.3 (0) 2ya73

Taqrizchilar:

Sirojiddin G‘iyosov – tarix fanlari nomzodi, dotsent;
Jumaboy Nurullayev – tarix fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978–9943–10–990–2

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

KIRISH

Ibtidoiy jamoa tarixiga kirish

1. Ibtidoiy jamoa tarixi predmeti va uni o'rganish manbalari

1. *Ibtidoiy jamoa tarixi predmeti.* 2. *Tarixiy manba tushunchasi.*

3. *Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish manbalari*

1. Ibtidoiy jamoa tarixi predmeti. Yerda odamning paydo bo'lishidan ilk sinfiy jamiyat va davlat shakllanishigacha bo'lgan uzoq vaqtni o'z ichiga oladigan davr ibtidoiy jamoa tarixi predmeti hisoblanadi. Turli mamlakat olimlari bu davrni ibtidoiy jamoa, eng qadimgi jamiyat, davlatgacha bo'lgan jamiyat deb ataydilar. Bu davr insoniyat tarixining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ibtidoiy jamoa tarixi asosan etnologiya, arxeologiya va paleoantropologiya fanlari ma'lumotlari asosida shakllantirilgan fandir.

Ibtidoiy jamoa tarixining nomlanishida ham turli fikrlar mavjud. Ba'zilar fanda qo'llaniladigan «tarixgacha bo'lgan davr», «tarix arafasi», «tarixdan oldingi davr» nomlariga turlicha qarashlar mavjud. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishning ahamiyati shundaki, insoniyat hayotining ko'pgina hodisalari, jumladan, hozirgi hayot asoslari eng qadimgi davrda paydo bo'ldi.

Ibtidoiy jamoa tarixini aniq qayta tiklash insoniyat tarixiy taraqqiyotining juda murakkab bo'lgan bosqichi hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi bo'lgan ibtidoiy jamoa tuzumi yerda odamning paydo bo'lishidan ilk sinfiy jamiyat va davlatlar paydo bo'lishigacha bo'lgan uzoq vaqtni qamrab oladi. Insoniyat mavjudligining ana shu bosqichi ibtidoiy jamoa tarixining predmeti hisoblanadi.

Insoniyat hayotidagi keyingi ko'pchilik voqealar, shu jumladan, zamonaviy hayot eng qadimgi ibtidoiy jamiyatdagi jarayonlar asosida rivojlandi. Turar-joy, dehqonchilik va chorvachilik, ijtimoiy mehnat taqsimoti, nikoh va oila, axloq va yurish-turish, yozuv, tabiiy bilimlar, san'at va diniy e'tiqodlar—ulardan ayrimlari aynan ibtidoiy davrda shakllandi.

Moddiy madaniyatning qator unsurlari evolutsiyasi, ijtimoiy normalar va mafkuraviy qarashlarni to'g'ri tahlil qilish uchun, zarur

bo'lgan manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Bu manbalar juda xilma-xil bo'lib, bu davr haqida atroflicha bilim hosil qilishga imkon beradi. Hozirgi davrda bu fan bo'yicha to'plangan manbalarning ilmiy-mantiqiy, nazariy va amaliy, bir-biri bilan aloqadorlikda tahlil qilish ilmiy jihatdan qimmatli xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ibtidoiy jamoa tarixi fanini o'rganishning ahamiyatli tomoni ham shundadir.

Hozirgi vaqtda Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Okeaniya va Avstraliyaning ichki hududlarida ayrim xalqlar yaqin vaqtlargacha ibtidoiy jamoa tuzumining turli bosqichlarida turgan edi yoki bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda. Ibtidoiy davr insoniyat tarixining eng uzoq davom etgan davri bo'lib, million yildan ko'proq vaqtni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda ko'pgina olimlar, eng qadimgi odam 1,5-1 mln. yil oldin paydo bo'lgan deb aysalar, ba'zilar 2,5 mln. yil oldin paydo bo'lgan deb hisoblaydilar. Ammo bu oxirgi raqam emas. XX asrning so'nggi yillaridagi ilmiy kashfiyotlar bu sanani uzaytirishi mumkin. Buning uchun ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish zaruriyati mavjud.

Ibtidoiy tarixning eng yuqori chegarasi turli qit'alarda so'nggi 5 ming yillikka borib taqaladi. Osiyo va Afrika mamlakatlarida er.avv. IV-III ming yilliklar oralig'ida, Amerikada er.avv. I ming yillikda, oykumenning boshqa hududlarida yanada kechroq shakllandi.

Ibtidoiy davr tarixini davrlashtirish bo'yicha maxsus va umumiy (tarixiy) davrlashtirish bo'yicha bir necha yonma-yon turadigan yo'nalishlar mavjud. Maxsus davrlashtirishning eng muhimi—bu ilk odamlar o'z ehtiyojini qondirish uchun foydalangan xomashyo turlari va mehnat qurollari tayyorlash texnikasiga asoslangan arxeologik davrlashtirishdir. Fanda ilk bor qadimgi Xitoy faylasuflari eng qadimgi tarixni uch asrga: tosh, jez va temir asrlariga bo'lgan edilar. Qadimgi Xitoy faylasuflarining bu xulosalari XIX–XX asr boshlarida fanda to'plangan boy ilmiy ma'lumotlarga asoslanib, yana bir bor o'z isbotini topdi. Tosh, jez va temir asrlari fanda mustahkam o'rnashib qoldi.

Arxeologik davrlashtirish ibtidoiy davr tarixining mutlaq va nisbiy xronologiyasi bo'yicha keng imkoniyatlarni ochadi. Arxeologik davrlarni Yer tarixining geologik davrlari bilan moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Odamning mavjudlik vaqti to'rtlamchi geologik davrga to'g'ri keladi. Uni fanda ikki davrga: muzlikdan oldin (pleystosen) va muzlikdan keyingi (golotsen) davrga bo'lish qabul qilingan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida muzliklarning to'rt marta bostirib kelishi va

chekinishi aniqlangan. Arxeologik jihatdan pleystosen paleolitga va to'la mezolitga to'g'ri keladi. Neolit golosen vaqtiga mos keladi.

Ibtidoiy tarixni paleoantropologik davrlashtirish insonning biologik evolutsiyasi mezonlariga asoslanadi. Bu eng qadimgi (arxantrop), qadimgi (paleoantrop) va zamonaviy odam qazilmasi (neoantrop)ning yashagan davrlarini ajratishdir.

Insoniyatning eng qadimgi davrini umumiy tarixiy davrlashtirish keyingi yuz yildan ko'proq vaqtda etnik-etnografik va arxeologik ma'lumotlar asosida davom etmoqda.

Bu yo'nalishda amerikalik etnolog I.G.Morgan (XIX asr boshlari) ilk bor ilmiy-amaliy tadqiqot ishini amalga oshirdi. U XVIII asrda qabul qilingan tarixiy jarayonni yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiyaga bo'linishiga, ishlab chiqarish kuchlarining («hayot uchun ishlab chiqarish vositalari») rivojlanish darajasi mezonlariga asoslanib, yuqorida aytilgan har bir davrni quyi, o'rta va oliy bosqichga bo'ldi. Yovvoyilikning quyi bosqichi odamda nutq-so'zlashuvning paydo bo'lishi bilan boshlanadi degan tushuncha shakllandi. O'rta bosqich – baliqchilikning paydo bo'lishi va olovdan foydalanishdan, oliy bosqich – o'q-yoyning kashf etilishidan boshlanadi. Varvarlikning quyi bosqichiga o'tish kulolchilikning tarqalishi bilan, o'rta-dehqonchilik va chorvachilikning o'zlashtirilishi, oliy - temirni tatbiq etish bilan boshlanadi.

Bu davrlashtirish tarix fani bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borgan F.Engels tomonidan o'zlashtirilib, ilmiy-nazariy jihatdan qayta ko'rila boshlandi. F.Engels L.Morganning davrlashtirishini umumlashtirdi: yovvoyilik davrini – o'zlashtiruvchi, varvarlik davrini – ishlab chiqaruvchi xo'jalik davri deb, ibtidoiy jamoa tarixining o'ziga xos boshlang'ich vaqtini, ya'ni yovvoyilikning quyi bosqichini «odamlar podasi» davri deb nomladi. Ibtidoiy jamoaning rivojlanishidagi asosiy bosqichlarida taqsimot va mulkchilik munosabatlaridagi muhim o'zgarishlar ibtidoiy iqtisodni o'rganish asosida belgilandi.

Ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirishda, ko'pgina olimlar, uni to'rt bosqichga bo'ladilar: jamoa arafasi (ibtidoiy odam podasi), ilk ibtidoiy va so'nggi ibtidoiy, ibtidoiy qo'shni (dehqon jamoasi arafasi) jamoalar. Ibtidoiy jamoa tarixini umumiy davrlashtirishga qarab, tarixchilar egalitar va stratifikatsiyalangan yoki toifaviy jamiyatlarni belgilaydilar. Egalitar (jamoada birdamligi) jamiyatlar ibtidoiy jamoa davri jamiyatlariga, stratifikatsiyalangan jamiyatlar sinflarning shakllanish davri jamiyatlariga mos keladi. Ibtidoiy jamoa tarixi jamoada arafasi

(ibtidoiy odam podasi, antroposotsiogenez)dan boshlanadi. Bu davr maqsadli mehnat faoliyatining yuzaga kelishi, hozircha mo'rt ishlab chiqarish jamoasini tashkil qilgan eng qadimgi odam-arxantroparning paydo bo'lishi bilan belgilanadi.

Bu davrning asosiy mazmuni – mehnat faoliyati jarayonida odamsimon maymunlar to'dasi va ilk odamsimonlardan meros bo'lib qolgan hayvoniy qoldiqlarni bartaraf qilish, ijtimoiy aloqalarni yuzaga keltirish va mustahkamlash, shu bilan birga odamning o'zida biologik rivojlanishning tugallanishi edi.

Bu davrning xronologik chegarasi va davrlashtirish anchagina munozarali. Uning quyi chegarasini belgilashda odam oldi va haqiqiy odam o'rtasidagi farqlar bo'yicha qarashlar bir-biridan farq qiladi. Davrning yuqori chegarasi o'rta paleolit vaqti va paleoantrop har xil tahlil qilinadi. Yaqin kunlargacha olimlar, bu davrni jamoa arafasi deb tushundilar va unda jamoa tuzumining belgilarini ko'rmadilar. Keyingi 50 yil ichida juda ko'p manzilgohlar, mehnat qurollari va boshqa arxeologik daliliy ashyolarning topilishi bu davr xronologiyasini qayta tuzishga asos bo'ladi. Yangi topilmalar o'sha vaqtdayoq jamoaning sun'iy turar-joylari paydo bo'lganidan, ibtidoiy odam to'dalarining ilk jamoalarga uyushganining aniq belgilari yuzaga kelganidan dalolat beradi. Ilgari fanda bu jarayon faqat yuqori (so'nggi) paleolitning kirishi bilan belgilanar edi. Bu jamoa arafasi davrining yuqori chegarasini o'rta paleolit va paleoantrop vaqti deb tushurishni talab qiladi. Lekin bu vaqtda paleoantroparning biologik qiyofasining o'zgarishi hali davom etmoqda edi.

Ibtidoiy jamoa davri ijtimoiy tashkilotning tartibga solingan shakllari urug' va urug' jamoasining paydo bo'lishi bilan boshlandi. Aynan shu ijtimoiylashuv jarayonida ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy belgilari bo'lgan ishlab chiqarish va iste'molda u yoki bu darajada qat'iy jamoachilik, umumiy mulk hamda teng taqsimot ko'rinadi. Bu belgilar ilk ibtidoiy jamoa bosqichida o'zining yaqqol ifodasini topdi. So'nggi ibtidoiy jamoa bosqichida ular hukmron o'rin tutmasada, lekin saqlanib qoldi. Davrning quyi chegarasi o'rta paleolit (paleoantrop vaqti) yoki yuqori paleolit (neoantrop vaqti), yuqori chegarasi – qoidaga ko'ra, neolit deb hisoblanadi.

Agarda jamoa arafasi davri shakllanish vaqti bo'lsa, ibtidoiy jamoa davri – yetuklik vaqti, sinflarning shakllanish davri – ibtidoiy jamoaning yemirilish vaqti. Bu so'nggi davr hamma joyda xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini rivojlanishi va ortiqcha mahsulotning o'sishi bilan

belgilanadi. Jamoaning umumiy mulki alohida uy xo'jaliklarining xususiylashtirilgan mulki bilan siqib chiqarila boshlandi. Mahsulotning teng taqsimoti mehnat bilan siqib chiqarila boshlanib, urug'-jamoalarga aloqalari uzilib, qo'shni jamoaning ibtidoiy ilk shakliga o'ta boshladi.

O'zgalar mehnatidan foydalanishning boshlang'ich shakllari paydo bo'lib, ortiqcha mahsulot qo'shimcha qiymatga aylana bordi. Natijada yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqelik: xususiy mulk, ijtimoiy sinf va davlatchilikning paydo bo'lish jarayoni yuz beradi. Davrning quyi chegarasi rivojlanayotgan jamiyatlarda so'nggi neolitda, unchalik rivojlanmagan jamiyatlarda esa metall davriga to'g'ri keladi. Yuqori chegarasi sinfiy jamiyat va davlatlarning paydo bo'lishi, ilg'or jamiyatlarda esa hozirgi vaqtgacha davom etmoqda.

2. Tarixiy manba tushunchasi. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish xilma-xil manbalar asosida amalga oshiriladi. Manbaning ilmiy-nazariy tavsifi qanday?

Manbalar ustida ishlash natijasida maxsus manbashunoslik fani shakllandi. Tarixiy manba tushunchasini nazariy jihatdan tavsiflagan olim L.Danilevskiy hisoblanadi. Nazariy bilishga ko'ra, «manba»ning empirik ma'lumot bilan bizni hissiy qabul qilishimiz mumkin bo'lgan har qanday ma'lumot bo'lishi mumkin. Ilmiy-empirik ma'noda u o'zi uchun emas, balki uning yaqin vositasi bilan boshqa obyekt to'g'risida bilim olinadigan har qanday mavjud obyekt manba deb atalishi mumkin. Tarix fani sohasida taklif etilayotgan bu tushuncha obyektning mavjudligi va uning boshqa obyektini o'rganish uchun yaroqliligi tushunchasi kiritiladi. Aslida, tarix fani bilan shug'ullanadigan har qanday tadqiqotchi uchun bunday obyekt, uning ongidagi «ma'lumot» sifatida tasavvur qilinadi. Tadqiqotchi nafaqat uni o'z tushunchasi deb tan olib qolmaydi, balki uning mazmuniga amalda mavjudlikni ko'radi. Aks holda, manba tadqiqotchining hissiy qabul qiladigan obyekt bo'lmay qolishi mumkin. Manbalar asosida bu obyekt voqelikni bilishi imkonini mavjud bo'lmaydi. Chunki har qanday tarixiy tadqiqot ma'lum manba bo'yicha voqelikning bilish maqsadini qo'yadi.

Shu bilan birga, bu obyekt boshqa obyektini bilish uchun qay darajada yaroqli vosita bo'lish bilan manbaga aylanadi. Demak, har qanday mavjud ma'lum obyekt boshqa obyektini bilish uchun tarixiy manba deb aytishga asos bo'ladi. Tarixiy manba va tarixiy dalil o'rtasidagi farq shundaki, agar tarixiy dalil tushunchasiga yakkalikning moddiy muhitga ta'siri tushunchasi kiritilsa, shunda har qanday tarixiy manbani tarixiy dalil deyish mumkin. Lekin tarixchi bunday dalillardan

boshqa dalilni bilish uchun manba sifatida foydalanadi. Tarix fani uchun manba deb har qanday mavjud obyekt uning o'zi uchun emas, boshqa obyekt to'g'risida ma'lumot beradigan, dalil to'g'risida bilim olish uchun bu obyektni tarixiy manba deb aytish mumkin. Tarixiy manba keng ma'noda inson ijodiyoti natijasidir. Ko'p hollarda manba muallifi noma'lum bo'ladi. Agar manba bir guruh odamlar tomonidan yaratilsa, bu ijod «ommaviy» nomini oladi (misol uchun, til, xalq qo'shiqlari va dostonlar).

Tarixiy manbalarni tadqiqot maqsadlariga ko'ra, turlicha tizimlashtirish mumkin. Ulardan eng umumiy si tarixiy manbalarning tarixiy bilim uchun ahamiyatini belgilashdan iborat. Shunday ma'noda manbalarni ularning qimmati darajasi bo'yicha yoki ma'lum bir xil tarixiy dalillar o'rganiladi. Shu asosda, ularning qimmatli mazmunini tavsiflaydigan manbalarning darajasi bo'yicha osongina farqlash mumkin.

Manbalarni ularning eng asosiy turlari bo'yicha guruhlashtirishda manbashunoslik metodologiyasining asosiy vazifasidan kelib chiqiladi. Manbashunoslik metodologiyasining asosiy vazifasi manbada ma'lum bo'lgan o'sha dalil haqiqatan ham mavjud bo'lganini, uning tarixiy voqelikni bilish uchun ahamiyatini manba sifatida bilish qimmatini aniqlashdir.

Tarixchi manbalar asosida o'tmish voqelik to'g'risida fikr yuritganda, manbaning ichki mazmuni to'g'risida o'zining hissiyatini qabul qilgan moddiy obraz asosida xulosa qiladi. Bu holatda tarixchi manbalarning barcha obrazlari ham o'rganilayotgan dalilning borligi to'g'risida bir xil taassurot qoldirmasligini his qiladi. U manbalarning moddiy obrazlarini qay miqdorda yaroqligiga qarab farqlashi mumkin. Shunday manbalarni ko'rsatish mumkinki, tarixchi ularni hissiy qabul qilishda ularda aks etadigan dalillarning bevosita borligini boshqalardan ko'ra yaxshi his qiladi. Misol uchun, tarixchi biror-bir podshoning sag'anasida, uning o'ligini barcha detallarida o'zi ko'rishi, boshqalarning bu sag'ana tasvirini o'qigandan ko'ra yaxshiroq tasavvur qiladi. Manbaning moddiy shaklini uning qoldiqlarida, misol uchun, ranglar yoki tovushlarda ifodalaydigan manbani qabul qilishda, tarixchi dalilning o'zini qabul qilganidek, faqat manbaning o'zinigina emas, balki manba haqida tasavvurni his qilishi mumkin edi.

U manbani o'rganishga kirishib, dalilga tegishli yaxlit hissiy obrazni u yoki bu darajada boshdan kechiradi. Tarixchi qandaydir ramziy belgilar (ko'pincha yozma) bilan ifodalangan manbani, borliq shaklidagi

manbani qabul qilishda, bu dalilning u yoki bu darajada saqlangan obrazini qabul qilmaydi. Mavjud dalilni moddiy shaklda aks ettiradigan belgilar asosida tarixchi mavjud dalilni ilmiy tadqiq qilish uchun o'zida obraz yaratilishi lozim.

Yuqoridagilarga asoslanib, manbalarni ikki guruhga: tasvirlovchi va belgilovchi dalillarga bo'lish mumkin. Manbalarni shunday asosda, ya'ni ularni empirik buyum yodgorliklari, so'z va yozma yodgorliklarga bo'lish mumkin. Ular tashqi ko'rinishi bilan bir-biridan farq qiladi. Dalilni ifodalaydigan manbalar buyum yodgorliklarining manbalari bilan, belgilaydigan dalil so'z va yozma yodgorliklar bilan mos keladi. Shunday manbalar borki, unda har ikki holat qo'shiladi (misol uchun, Qadimgi Misrdagi Karnak ibodatxonasi yozuvlari).

Mavjud adabiyotda manbalarning bo'linishi zaif asoslangan. Tarixchilar manbalarni faqatgina ashyoviy va yozma yoki «yozma bo'lmagan va yozma» manbalarga bo'lish bilan cheklanadilar. Tadqiqotchi Berngeym uni «sof tashqi» deb ataydi. Metodologlar Langlua va Senobos: «Hujjatlar (manbalar)ning ikki xil ko'rinishini farqlash mumkin. Ba'zida sobiq dalil moddiy iz (ulkan inshoot yasalgan buyum) qoldiradi, ba'zida dalilning izi psixologik tartibda bo'ladi. U yozuvda yoki yozma xabarda o'z ifodasini topadi.». Ular birinchi ko'rinishdagi «hujjatlarni» moddiy tasviriy hujjatlar deb, ikkinchi ko'rinishdagilarni esa «ramziy» deb aniqroq fikrlaydilar.

Dalillarni tasvirleydigan ba'zi manbalarni qabul qilishda tarixchi boshqalardan ko'ra dalil to'g'risida bevosita bilim oladi. Dalilni tasvirlovchi manba va uning qoldig'i (misol uchun, sag'ana va boshqalar) tarixchi uchun dalilni tasvirleydigan, lekin u to'g'risida afsona ko'rinishidagi (misol uchun, o'sha sag'anani tasvirleydigan rasm ko'rinishida) manbadan ko'ra qimmatliroq bo'ladi. Dalilni bildiradigan boshqa manbalar to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Ularning orasida qoldiqlar deb aytish mumkin bo'lganlari bor. Misol uchun, huquqiy akt, xalqaro traktat va dalil to'g'risida hikoya qiladigan hech bo'lmaganda o'sha huquqiy bitim yoki xalqaro shartnoma to'g'risidagi hikoyani aytish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, manbalarni madaniyat qoldiqlari va tarixiy esdalikka bo'lish mumkin. Madaniyat qoldiqlari – uning avvalgi hayotiyiligini ba'zi qoldiqlari va madaniyat taraqqiyotidagi o'sha davr saqlanishda davom etadi. Chunki ular asrlar davomida to'la moslikda turmaydi. Madaniyatning bunday o'lik qoldiqlariga tilning ba'zi unsurlari, turli o'yinlar, odatlar, axloq qoidalari, rasm-rusumlar,

muassasalar va shunga o'xshashlar kiradi.

Madaniyat asarlari – uning qoldiqlari tarixchilar tomonidan ularni o'rganish vaqtigacha saqlanib qolib, ular qachonlardir sobiq madaniyatning natijasi bo'ladi va aynan ular qayta tiklanmaydi. Ulardan nusxa yaratish mumkin. Ammo ular shunday tarzda saqlanib qoladiki, endi o'zlaricha yashab, rivojlana olmaydi. Madaniyat asarlariga qadimiyat buyumlari, adabiyot asarlari va hujjatlar kiradi. Ularga ijodiyot tarixidagi dalillar qoldig'i, insoniyatning ideallari sifatida qaraladi.

Manbalarni mazmuni bo'yicha ham bo'lish mumkin:

1. Daliliy mazmundagi manbalar.

2. Normativ mazmundagi manbalar.

Daliliy mazmundagi manbalarning o'zini g'oyaviy mazmunli manbalar va maishiy mazmundagi manbalarga bo'lish mumkin. Ma'lum vaqtda, ma'lum joyda yashagan odamlarning fikr va his-tuyg'ularini o'rganish uchun ashyo beradigan manbalar g'oyaviy mazmunli manbalar hisoblanadi. Misol uchun, diniy e'tiqod buyumlari, poetik va prozaik adabiyotlar asarlari. Bunday xildagi manbalarni ularga xos bo'lgan g'oyalar, kechinmalar va ularni aks ettiradigan sujetlarning har xilligiga qarab guruhlashtirish mumkin. Misol uchun, adabiyot asarlarini sujetlar bo'yicha turkumlash va hokazo.

Maishiy mazmundagi manbalarga ma'lum vaqtda aniq hududda yashagan odamlarning maishiy turmushi mazmuni aks etadi. Misol uchun, maishiy turmush texnikasi, turli xil ish qog'ozlari.

Normativ mazmundagi manbalar o'z navbatida, yana bir necha guruhlarga, aynan sof normativ manbalar va utilitar normativ mazmunli manbalarga bo'linadi. Sof normalar bizning ongimizdagi mutlaq qadriyatlarni belgilash mumkin. Sof normativ xususiyatga ega bo'lgan manbalar mantiqiy va ilmiy normalarning bayonini o'zida aks ettirishi mumkin (mantiqqa yoki boshqa fanlarga oid traktatlar, axloqiy normalar bayoni, misol uchun, qandaydir axloqiy ta'limot, qonunchilik tizimi).

Utilitar-normativ tusdagi manbalar tarkibiga texnika qoidolari kiradi. Misol uchun, she'rlarni yod qilish qoidolari, industrial texnika qoidasi, qonunchilik –huquqiy hujjatlari qoidolari.

Tarixiy manbalar nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan ular tarixiy voqelikni bilish uchun, amalda esa unda harakat qilish, insoniyat madaniy hayotida ishtirok etish muhim va zarurdir.

Tarixiy manbalar anchadan beri mavjud bo'lmagan dalillar to'g'risidagi mulohazalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun,

tarixiy manbalar asosida buyuk Temur to'g'risida yoki yanada qadimgiroq xorazm, so'g'd va baqtriya yozuvlari to'g'risida so'zlash mumkin.

Tarixiy manbalar bo'lmasa, insoniyat o'tmish tarixini qayta tiklab bo'lmaydi. Chunki insoniyatning o'tmish taraqqiyoti o'zining yaxlitligida hozirgi kunda mavjud emas. U hozirgi kungacha yetib kelgan ayrim izlar, qoldiqlar bo'yicha ma'lum. O'tmish izlari, qoldiqlarini tarixiy manbalarda bevosita tarixiy tadqiqot qilish mumkin. Moziy dalil tarixiy manbaning bag'rida yotadi. Manbadagi dalilsiz insoniyat tarixini qayta tiklash mumkin emas. Dalil mavqeini olish uchun u tasdiqlanishi lozim. Tarixiy manba shaklan barqaror bo'lishi natijasida, u uzoq muddat o'rganilishi mumkin. Tadqiqotchi unga bir necha bor murojaat etishi mumkin.

Barcha manbalar ham tarixiy voqelikni qurish uchun bir xil qimmatga ega bo'lmaydi. Shunga ko'ra, tadqiqotchilar manbalarning ma'lum bir turi o'zini qiziqtirgan dalillarning qurilmasi uchun qanday ahamiyatga egaligi va manbalarning qaysi turi ularga xos xususiyatlarni o'rganish uchun ko'proq yaroqli ekanini aniqlashga urinadi.

Tadqiqotchi tasvirlovchi manbalarga asoslanib, o'z hissiy qabul qilishining ma'lumotlarida dalilning qoldig'ini bevosita sezadi, belgilovchi manbalardan foydalanishda dalil to'g'risidagi o'zining qarashlarini shartli belgilar asosidagina quradi. Tasvirlovchi manbalar begona tafakkur to'g'risida ko'rgazmali tasavvur berishi mumkin. Misol uchun, tarixiy mavzularda yaratilgan rasm-tasvirlar. Mashhur Pompey mozaikasi, Issa yonidagi Doro va Iskandar qo'shinlari o'rtasidagi Arrian tasvirlagan jang tasviri ko'rgazmali tasavvur beradi.

Tasvirlovchi manba ma'lum bir madaniyat yoki dalil to'g'risida uning lahza kesimida tasavvur hosil qiladi. Ashyoviy yodgorlik bizda asosan rasm-kartina tarzida ko'rinadi. Rasm-kartina so'z emas, u bir daqiqada ko'zdan kechiriladi. Bu lahza ichida ma'lum voqelik vaqt chegarasida emas, bo'shliqda uning unsurlari to'g'risida tarixchiga tushuncha beradi. Ashyoviy manba bu voqelikning evolutsiyasini, vaqt bo'yicha uning yurishini bera olmaydi.

Demak, voqelikni bilishga tortilgan har qanday tanlab olingan hujjat tarixiy manba deyiladi. O'tmish to'g'risida ma'lumotni o'zida aks ettirgan, ammo tarixchi tomonidan foydalanilmagan hujjat uning uchun manba bo'lib xizmat qilmaydi. Odatda, tarixiy manba tushunchasi ostida tarixiy voqelik va jarayonlar to'g'risida ma'lumot beradigan turli xil guvohliklar tushuniladi. Hozirgi kunda tarixchilar aniqrog'i manbalarni

shartli ravishda ikki guruhga bo'ladilar: bevosita yoki bilvosita ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan manbalar. Birinchi guruh manbalariga tangalar, markalar va gerblar; ikkinchi guruhga yilnomalar, xronikalar, kundaliklar va boshqalar kiradi.

Tarixiy o'tmish qanday bo'lishi mumkin? U to'g'risidagi qandaydir ma'lumotlarga ega turli xil axborot vositalari yordamida bilish mumkin. Bu ma'lumotlarni obyektlar o'zlarida saqlaydilar. Bunday obyektlarda saqlanadigan axborot xolisona mavjud bo'ladi, lekin ulardan faqat subyekt tadqiqotchining qayta ishlovidan so'nggina foydalanish mumkin. Bu qayta ishlash o'zida qator tadqiqot bosqichlarini kiritadi va bu bosqichlar qanchalik to'la va puxta bo'lsa, ularning yordami bilan xolisiyrog va ko'p tomonlama tarixiy bilim olish mumkin.

Tarix fanida hozirgacha o'tmish haqida axborot obyektlari mavjud bo'lgan va tarixiy manba nomini olgan obyektlar qanday bo'lishi va ularni qayta ishlash bosqichi qanday bo'lishi to'g'risida bahslar davom etmoqda. Bu bahs-munozaralar hozir ham davom etmoqda. Bu munozaralarning asosida tarixiy manbalar sifatida faqat yozma hujjatlar va tarixiy o'tmishning boshqa izlari bo'ladimi yoki ularning tarkibiga insoniyat jamiyati tarixiga hamrohlik qilayotgan geografik va biologik hodisalarning ma'lumotlarini keng doirasi ham kiradimi? degan savol yotadi. Nazariy jihatdan mutlaqo ravshanki, insoniyat tarixi ma'lum bir geografik muhitning ma'lum bir shart-sharoitlarida o'z qismlarini o'ynadi va insoniyat turining biologik dinamikasi insoniyat tarixining ko'pgina voqealarini rekonstruksiya qilish uchun boshqa tarixiy manbalar kabi muhim manba bo'la oladi. Shu sababli, tabiiy tarixiy axborot manbami yoki yo'qmi deb munozara qilish foydasiz. Tarixiy manba sifatida tarixiy ma'lumot olish mumkin bo'lgan har qanday obyekttni tushunish kerak.

Manbalar o'z mazmuniga ko'ra turli xil ahamiyat kasb etadi. U yoki bu darajada umumiy yaxlit guruhga mansub bo'lgan, turli xil tarkibi bilan til ham qoldiq madaniyatlar tarkibiga kiradi. Tilni manba sifatida o'rganish yozma manbada nutqning o'ziga xos yozish uslublari bilan bog'langan. Tarixiy xotiralar tarkibiga kiritiladigan manbalar toifasiga turli mazmunga ega bo'lgan, misol uchun, memuarlarni kiritish mumkin. Ular odamning ichki dunyosi, uning motiv va intilishlari, simpatiya, antipatyalari, harakat faoliyati, uning atrofidagi odamlar, voqealar to'g'risida tushuncha berishi mumkin.

Manba tarkibiga ko'ra, o'zining torroq mazmuni bilan farq qilishi mumkin. Misol uchun, qator afsunlar, qarg'ishlar, duolar, ularda jo

bo'lgan diniy e'tiqodlar, urf-odat, rasm-rusumlarni o'rganishda muhim o'rin tutadi; alohida dostonlar, ertaklar, qissalar, u yoki bu darajada murakkab tarixiy voqealar to'g'risida ma'lumot beradi (misol uchun, «Shohnoma» dostoni Turon va Eronning bir necha ming yillik tarixini, xilma-xil voqealari to'g'risida ma'lumot beradi). Musiqa asarlari ko'p hollarda chuqur hissiyot-kayfiyatlarni ifodalaydi, boshqa vositalarda bunday «ifodalash» mumkin emas.

Demak, yuqoridagilarga asosan tarixiy manba tarixiy voqelik, tarixiy jarayonni bilish va qurishda muhim o'rin tutadi. Albatta, uni hamma vaqt ham to'la talqin va tanqid qilishga erisha olmaymiz.

Manba inson tafakkurining boy xilma-xil xazinasini o'zida saqlaydi. Bu xazinaning tadqiqi bizning tariximiz, madaniyatimizning eng asosiy belgilari (qadriyatlarini) qayta tiklashga va madaniyatimizning kelajak rivoji uchun vorisiylikni ta'minlashga imkon yaratadi.

Shunday asosda, tarixiy manbalar amaliy jihatdan muhim o'rin tutadi. Uning yordamisiz odam voqelikni boshdan kechirmaydi, o'zligini anglash omilidan mahrum bo'ladi. O'tmish, kecha, bugun va ertani bog'laydigan eng muhim unsurdan mahrum bo'ladi.

3. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish manbalari. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish uchun gumanitar va tabiiy tarixiy sikllar bo'yicha turli fanlar manba bo'lib xizmat qiladi. Bular sirasiga quyidagi fanlar kiradi:

Arxeologiya – turli davr odamlarining moddiy madaniyat qoldiqlari, ularni topografik kenglik asosida o'rganish u yoki bu aniq jamiyatlar ichida ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy hayotni qayta tiklashga harakat qiladi. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda birinchi o'rinni egallaydi. Chunki u bu fan sohasini to'g'ri dalillar bilan ta'minlaydi. Arxeologik topilma madaniyat dinamikasining tashqi shakllari dinamikasini tipologik xillashtirish va stratigrafik qatlam asosida kuzatishga imkon beradi. Bunda ilk shakllar kechkilardan ajratiladi va ulardagi o'zgarishlarning xronologik ketma-ketligi o'rnatiladi. Ana shu asosda insoniyat madaniyati progressi butun ibtidoiy jamiyat tarixi davomida kuzatiladi.

Etnologiya – zamonaviy qoloq jamiyatlar madaniyatining barcha tomonlarini o'rganadi, ibtidoiylikda tarixiy jarayonning o'z kuzatishlari va xulosalarini loyihalashtiradi. Etnologiya fanining metodologik va metodik asoslari yoki bu xalqning madaniyati va turmushi, ijtimoiy muassasalari va ijtimoiy tuzilmasini tadqiqot predmeti sifatida tasvirlashdir. An'anaviy ravishda bunda ibtidoiy jamoa tuzumida yashaydigan xalqlarga eng asosiy e'tibor jalb qilinadi. Chunki bunday

shartli ravishda ikki guruhga bo'ladilar: bevosita yoki bilvosita ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan manbalar. Birinchi guruh manbalariga tangalar, markalar va gerblar; ikkinchi guruhga yilnomalar, xronikalar, kundaliklar va boshqalar kiradi.

Tarixiy o'tmish qanday bo'lishi mumkin? U to'g'risidagi qandaydir ma'lumotlarga ega turli xil axborot vositalari yordamida bilish mumkin. Bu ma'lumotlarni obyektlar o'zlarida saqlaydilar. Bunday obyektlarda saqlanadigan axborot xolisona mavjud bo'ladi, lekin ulardan faqat subyekt tadqiqotchining qayta ishlovidan so'nggina foydalanish mumkin. Bu qayta ishlash o'zida qator tadqiqot bosqichlarini kiritadi va bu bosqichlar qanchalik to'la va puxta bo'lsa, ularning yordami bilan xolisiyaroq va ko'p tomonlama tarixiy bilim olish mumkin.

Tarix fanida hozirgacha o'tmish haqida axborot obyektlari mavjud bo'lgan va tarixiy manba nomini olgan obyektlar qanday bo'lishi va ularni qayta ishlash bosqichi qanday bo'lishi to'g'risida bahslar davom etmoqda. Bu bahs-munozaralar hozir ham davom etmoqda. Bu munozaralarning asosida tarixiy manbalar sifatida faqat yozma hujjatlar va tarixiy o'tmishning boshqa izlari bo'ladimi yoki ularning tarkibiga insoniyat jamiyati tarixiga hamrohlik qilayotgan geografik va biologik hodisalarning ma'lumotlarini keng doirasi ham kiradimi? degan savol yotadi. Nazariy jihatdan mutlaqo ravshanki, insoniyat tarixi ma'lum bir geografik muhitning ma'lum bir shart-sharoitlarida o'z qismlarini o'ynadi va insoniyat turining biologik dinamikasi insoniyat tarixining ko'pgina voqealarini rekonstruksiya qilish uchun boshqa tarixiy manbalar kabi muhim manba bo'la oladi. Shu sababli, tabiiy tarixiy axborot manbami yoki yo'qmi deb munozara qilish foydasiz. Tarixiy manba sifatida tarixiy ma'lumot olish mumkin bo'lgan har qanday obyekttni tushunish kerak.

Manbalar o'z mazmuniga ko'ra turli xil ahamiyat kasb etadi. U yoki bu darajada umumiy yaxlit guruhga mansub bo'lgan, turli xil tarkibi bilan til ham qoldiq madaniyatlar tarkibiga kiradi. Tilni manba sifatida o'rganish yozma manbada nutqning o'ziga xos yozish uslublari bilan bog'langan. Tarixiy xotiralar tarkibiga kiritiladigan manbalar toifasiga turli mazmunga ega bo'lgan, misol uchun, memuarlarni kiritish mumkin. Ular odamning ichki dunyosi, uning motiv va intilishlari, simpatiya, antipatiyalari, harakat faoliyati, uning atrofidagi odamlar, voqealar to'g'risida tushuncha berishi mumkin.

Manba tarkibiga ko'ra, o'zining torroq mazmuni bilan farq qilishi mumkin. Misol uchun, qator afsunlar, qarg'ishlar, duolar, ularda jo

bo'lgan diniy e'tiqodlar, urf-odat, rasm-rusumlarni o'rganishda muhim o'rin tutadi; alohida dostonlar, ertaklar, qissalar, u yoki bu darajada murakkab tarixiy voqealar to'g'risida ma'lumot beradi (misol uchun, «Shohnoma» dostoni Turon va Eronning bir necha ming yillik tarixini, xilma-xil voqealari to'g'risida ma'lumot beradi). Musiqa asarlari ko'p hollarda chuqur hissiyot-kayfiyatlarni ifodalaydi, boshqa vositalarda bunday «ifodalash» mumkin emas.

Demak, yuqoridagilarga asosan tarixiy manba tarixiy voqelik, tarixiy jarayonni bilish va qurishda muhim o'rin tutadi. Albatta, uni hamma vaqt ham to'la talqin va tanqid qilishga erisha olmaymiz.

Manba inson tafakkurining boy xilma-xil xazinasini o'zida saqlaydi. Bu xazinaning tadqiqi bizning tariximiz, madaniyatimizning eng asosiy belgilari (qadriyatlarini) qayta tiklashga va madaniyatimizning kelajak rivoji uchun vorisiylikni ta'minlashga imkon yaratadi.

Shunday asosda, tarixiy manbalar amaliy jihatdan muhim o'rin tutadi. Uning yordamisiz odam voqelikni boshdan kechirmaydi, o'zligini anglash omilidan mahrum bo'ladi. O'tmish, kecha, bugun va ertani bog'laydigan eng muhim unsurdan mahrum bo'ladi.

3. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish manbalari. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish uchun gumanitar va tabiiy tarixiy sikllar bo'yicha turli fanlar manba bo'lib xizmat qiladi. Bular sirasiga quyidagi fanlar kiradi:

Arxeologiya – turli davr odamlarining moddiy madaniyat qoldiqlari, ularni topografik kenglik asosida o'rganish u yoki bu aniq jamiyatlar ichida ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy hayotni qayta tiklashga harakat qiladi. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda birinchi o'rinni egallaydi. Chunki u bu fan sohasini to'g'ri dalillar bilan ta'minlaydi. Arxeologik topilma madaniyat dinamikasining tashqi shakllari dinamikasini tipologik xillashtirish va stratigrafik qatlam asosida kuzatishga imkon beradi. Bunda ilk shakllar kechkilardan ajratiladi va ulardagi o'zgarishlarning xronologik ketma-ketligi o'rnatiladi. Ana shu asosda insoniyat madaniyati progressi butun ibtidoiy jamiyat tarixi davomida kuzatiladi.

Etnologiya – zamonaviy qoloq jamiyatlar madaniyatining barcha tomonlarini o'rganadi, ibtidoiylikda tarixiy jarayonning o'z kuzatishlari va xulosalarini loyihalashtiradi. Etnologiya fanining metodologik va metodik asoslari yoki bu xalqning madaniyati va turmushi, ijtimoiy muassasalari va ijtimoiy tuzilmasini tadqiqot predmeti sifatida tasvirlashdir. An'anaviy ravishda bunda ibtidoiy jamoa tuzumida yashaydigan xalqlarga eng asosiy e'tibor jalb qilinadi. Chunki bunday

xalqlar madaniyati ibtidoiy-tarixiy rekonstruksiya uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Agarda etnologik ma'lumotlar bo'lmaganda edi, ibtidoiy odamlar jamoalarining ijtimoiy munosabatlari va ijtimoiy tuzilmalarining ko'p qirralari ochilmas edi. Ular faqat etnologik tasvirlar bo'yicha ma'lum xolos. Ammo zamonaviy etnologiya fani o'z tadqiqot predmetini naqadar to'la tasvirlasada, uning bir kamchiligi mavjud. Qaysiki, etnologiya o'rganayotgan jamiyat tashqaridan tasvirlanadi. Bu chet kuzatuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli, etnologik kuzatishning batafsilligi doimo nisbiy bo'ladi. Ayniqsa, bu jamiyat hayotining diniy-ruhiy tasavvurlari, yashirin ittifoqlar, o'z-o'zini anglashga tegishlidir. Etnologik kuzatishlar bir necha asrlar davomida ma'lumotlarning juda katta zaxirasini to'pladi. Bu zaxira ibtidoiy jamoa tarixi uchun juda qimmatli ilmiy ahamiyat kasb etib, ibtidoiy madaniyatni ma'lum darajada tasvirlashga imkoniyat yaratadi.

Antropologiya – o'tmishdagi va hozirgi zamondagi odamlarning morfologik va fiziologik o'ziga xos tomonlarini o'rganadi. Shu bilan birga, uning ichida odamlarning maymunsimon qazilma qoldiqlarini o'rganadigan maxsus bo'lim–tarixiy antropologiya mavjud. Insoniyat rivojlangan to'rtlamchi geologiya – bizning sayyoramizni to'rtlamchi geologik tarixiy voqealarini qayta tiklaydi. Antropologiya, odatda, uch bo'limga – odam organizmi o'zgaruvchanligining umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi morfologiya, odamning kelib chiqishi – antropogenez va irqshunoslikka bo'linadi. Bu antropologiya fanini tadqiqot predmeti bo'yicha ajratadi. Lekin etnik antropologiya tushunchasi ham mavjud bo'lib, u xalqlarning antropologik o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, etnogenetik jarayonlarni rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanadi. Tadqiqot predmeti bo'yicha tarixiy antropologiya ham ajratiladi. Uning maqsadi antropologik tadqiqotlarning barcha shakllaridan tarixiy ma'lumotlarni ajratib olish va bu ma'lumotlardan tarix ehtiyojlari uchun foydalanishdir. Antropologiyani aynan shu yo'nalishi ibtidoiy jamoa tarixi bilan yaqin bog'langan va uning uchun eng ko'p asos beradi. Paleoantropologiya alohida odamlarni emas, biologik qarindoshlik bilan bog'langan, populatsiya deb nomlanadigan odamlar guruhini o'rganadi. Insoniyat irqi ham populatsiyalar guruhini tashkil qiladi.

Paleogeografiya – to'rtlamchi geologiya, ibtidoiy jamoa tarixchilariga, vaqt o'tishi davomida odam yashaydigan yer yuzasidagi o'zgarishlar, to'rtlamchi davr davomida okean sathi va bu sathning o'zgarishi, qirg'oq tektonikasining intensivligi, iqlim jiddiy o'zgarishlari, mahalliy o'ziga xos xususiyatlari, qaysiki, u oykumenning

turli hududlarida har xilligi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Geologik kuzatishlar, ibtidoiy jamiyat tarixi uchun tor amaliy ahamiyatga ega – geologik qatlamlarning yotishi, g'orlarda stratigrafik ustunlar, ochiq manzilgohlarda qatlamlarning izchil yotishi ibtidoiy jamoa tarixining davrlarini o'rnatishda muhim o'rin tutadi.

Paleogeografiya – to'rtlamchi geologiyaning ma'lumotlari, fizik geografiyaning natijalarini qayta rekonstruksiya qilib, to'rtlamchi paloelandshaftni qayta tiklash uchun geografik muhit dinamikasini qayta tahlil qiladi. Paleografik rekonstruksiyalar asosan qadimgi landshaftlarni qayta tiklashga qaratilgan. Bu vazifa biogeografik ma'lumotlarni keng jalb qilishni talab qiladi. Shu sababli, qirg'oq chizig'ining manzarasini o'zgarishi biogeosenoz dinamikasini ko'rib chiqishda, agar okean bo'yi qirg'oqlarida yoki iqlimning o'zgarishlarida, agar qit'a ichki hududlari ko'zda tutilsa, bu paleografik tadqiqotlar miqdori bo'yicha katta qismni tashkil etadi. Bundan tashqari, ular stratigrafik munosabatda, to'rtlamchi ko'milgan tuproqlarni o'rganish turli hududlar uchun stratigrafik ustunlar (kolonkalarini)ni olish imkoniyatini beradi va bu bilan bir-biridan ancha uzoqda bo'lgan yodgorliklarni sinxronlash-tirishga yordam beradi.

Iqlimning uzoq va yo'naltirilgan hamda qisqa muddatli o'zgarishlari to'rtlamchi davr davomida bir necha marta yuz berdi. Bu o'zgarishlarni faqat issiqni sevadigan yoki sovuqqa moslashgan flora va faunaning ustuvor shakllari tarkibi bo'yicha tasavvur hosil qilish mumkin. Bu o'z navbatida, paleolit davrida ovchilarning mavsumiy migratsiyasi va neolit dehqonlarini o'simliklarning qaysi navini almashlab ekkanlarining rekonstruksiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday tarzda, paleogeografiya ko'p hollarda to'rtlamchi geologiyaga qaraganda, samaraliroq ibtidoiy tarixning alohida voqealarini rekonstruksiya qilish imkoniyatini beradi.

Arxeozoologiya – eng qadimgi hayvonlar qazilma qoldiqlarini o'rganadi. Yovvoyi hayvonlar, qushlar, baliq va umurtqasizlarning suyak qoldiqlari, ovchilik, baliqchilik va termachilikning xususiyatini rekonstruksiya qilish uchun muhim o'rin tutadi. Xonaki hayvonlarning suyak qoldiqlari, hayvonlarni xonakilashtirish va qadimgi chorvachilikning shakllanishi muammosini tadqiq qilishda yagona, bevosita manba hisoblanadi. Podaning zot tarkibini aniqlash, iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash, ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlari va hatto, ovqat tarkibini aniqlashga yordam beradi. Arxeozoologiya bunda

arxeologik ishning boshqa jihatlari bilan qo'shiladi va uning rekonstruksiya imkoniyatlarini kengaytiradi.

Arxeobotanika – bu yo'nalish qadimgi flora dunyosining o'simlik qoldiqlari, don urug'lari, yovvoyi va madaniy o'simliklarning gul changlarini qazilma topilmalarini o'rganadigan yo'nalish. Hozirgi mavjud floraning o'tmish asoslarini tadqiq qilish retrospektiv amalga oshiriladi. Arxeobotanika ashyolar arxeologiya, ibtidoiy jamoa tarixini absolyut vaqt hisobi vositasi bilan ta'minlaydi, uning yordami bilan belgilanadigan vaqt bir yilgacha aniq belgilab beradi.

Lingvistika – insoniyatning yuqori paleolit va neolit davri tillari to'g'risida hech qanday ma'lumotlar yo'q. Faqat jez davrida turli hududlardagi tillarning holati to'g'risida birinchi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ma'lumotlarni olamiz. Lingvistlar til genezisi va til voqeligiga yuqoridan yondashdilar va tilni qavat-qavat rekonstruksiya qilib, tilning ilk nuqtasigacha chuqur tadqiq qiladilar. Ularning rekonstruksiya neolit yoki yuqori paleolit davrigacha yetib boradi. Ibtidoiy jamoa tarixining ilk davri uchun til axboroti mavjud emas, faqat bu yerda gipoteza bor xolos.

Yozuvning paydo bo'lishi. Alohida tillar va ularning oilalarini ilk holatlarining lingvistik rekonstruksiya yozma yodgorliklar bilan nazorat qilinadi va daliliy tus oladi.

Lingvistika jez davridan tadqiqotni boshlab, til taraqqiyotining ichki qonunlarini har bir til oilasining fonetik mosligini bilishga tayanib, alohida tillar va ularning genetik shoxlanishini qayta tiklash, ko'pgina til oilalari uchun til arafasi va til arafasi dialektlarini rekonstruksiya qilish va har bir til oilasining boshqa tillar bilan tashqi aloqalarini o'rnatish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Ba'zi til oilalarining ilk vatani muammosi yechimi bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Toponomika ham bu yerda muhim o'rin egallaydi, u yoki bu arxeologik madaniyatlarning egalari tili qaysi guruhga mansubligi to'g'risida munozaralar olib boriladi. Etnologlar o'z kuzatishlarida til oilalari va alohida tillarning tashqi aloqalariga jiddiy e'tibor beradilar. Bu aloqalar etnik tarixning voqealarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Informatika – hali yosh fan sohasi bo'lsada, bilimning turli sohasiga, jumladan, ibtidoiy jamoa tarixi sohasidagi tadqiqotlarda ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Tadqiqotlar jarayonini kompyuterlashtirish jarayoni uning mehnat hajmi darajasini keskin kamaytiradi va ma'lumotlar bazasini yaratish uchun formallashtirishni ishlab

chiqadi. Ibtidoiy jamoa tarixining dinamika jarayonlarini bilish uchun ilmiy modellash tirish amalga oshirildi. Hozirgi kunda etnologik va arxeologik manbalar banki yaratilgan va uni to'ldirish davom etmoqda. Etnologik va arxeologik ashyolarga nisbatan statistik tahlil metodikasi ishlab chiqilmoqda.

Yozma manbalar – arxeologik qazishmalar natijasida yozma manbalarining miqdori tez o'sib bormoqda. Ibtidoiy jamoa tarixi to'g'risida topilgan podsho yozuvlari, ibodatxona hujjatlaridagi ma'lumotlarda qisqa va uzuq-yuluq xalqlar tasvirlangan. Ilmiy mazmundagi matnlar, tarixiy-geografik tasvirlar qadimgi Yunon-Rim, Xitoy manbalarida ko'p uchraydi. Geografik, tarixiy etnologik matnlarda xalqlarning turmushi, urf-odati, xo'jalik hayoti to'g'risida boy ma'lumotlar mavjud. Lekin ular aniqlikda, to'ralikda ibtidoiy jamoa tarixi uchun yetarli emas. Matn ma'lumotlarida uchraydigan toponomik va onomastik atamalarining lingvistik tahlili u yoki xalqning til birligiga tegishli ekaniga asoslanadi.

Boshqa yana qator fanlar (kimyo, geofizika, yozuv) mavjud bo'lib, ular ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish uchun yordamchi manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. Ibtidoiy jamoa tarixi turli xususiyatlarga ega bo'lgan turli tarixiy manbalar asosida yaratiladi. Turli fanlarning to'plagan ma'lumotlarini umumlashtirish ibtidoiy jamoani har tomonlama qayta tiklash imkoniyatini beradi. Ibtidoiy jamoa tarixini faqat bir fan, misol uchun, arxeologiya, etnologiya asosida o'rganish mumkin emas. Bir fanning monopoliyasi ijobiy natija bermaydi va bir tomonlama yoritilishiga olib keladi.

Ibtidoiy jamoa tarixi ko'pgina fanlarning ma'lumotlarini qayta ishlash, umumlashtirish asosida vujudga kelgan sentetik fandır. Har bir fan ibtidoiy jamoa tarixini rekonstruksiya qilishda o'z imkoniyatlariga ega. Ayniqsa, arxeologiya ibtidoiy jamoa tarixining barcha bosqichlari uchun boy ashyolar beradi. Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati, qisman uy-ro'zg'or buyumlari, tasviriy san'at asarlari, diniy e'tiqod ashyolari, manzilgohlar tuzilishi va mehnat qurollari arxeologik topilmalardir. Ammo etnologiya fani ma'lumotlarisiz arxeologiya erishgan natijalarni mustahkamlash zarur bo'ladi.

To'rtlamchi geologiya va paleogeografiya ibtidoiy jamoa tarixining tabiat manzarasini tiklash uchun muhim o'rin tutadi.

Etnologiya esa, hozirgi zamonda paleolit sharoitida yashaydigan urug' jamoalari to'g'risida boy ma'lumot to'playdi.

Etnologik ma'lumotlar – zamonaviy turdagi odamning yashagan davri – o'rta va yuqori paleolit chegarasi 40-45 ming yilliklargacha borib taqaladi xolos. Arxeologik qazilmalar mo'l-ko'l paleoantropologik, arxeozoologik va arxeobotanik dalillarni beradi. Paleoantropologik material qazilma populatsiyalarning biologik rekonstruksiya-sining asosiy manbasi hisoblanadi. Arxeozoologiya – hayvonlarni qo'lga o'rgatish va ko'paytirish jarayoni, arxeobotanika–o'simliklarni madaniylashtirish jarayoni to'g'risida ma'lumotlar beradi. To'plangan dalillarning barchasidan arxeologiya fani kuzatishlari asosida yaratilgan xronologik davrlashtirishni asoslashda foydalanish mumkin. Arxeologiya o'z davrlashtirishini fizik va kimyo metodlar yordamida shakllantiradi. Bunga yana yozma manbalar va lingvistika ma'lumotlari kiradi. Yozma manba va lingvistika ma'lumotlari insoniyatning ibtidoiy davri til dinamikasining manzarasini chizadi.

Etnologiyaning rekonstruktiv imkoniyatlari yuqori paleolit davridan boshlanadi. Yozma manbalar, lingvistika boshda jez asridan, hozirgi kunda esa, izlanishlarni mezolit davri va yuqori paleolitgacha olib bormoqda.

Tayanch iboralar: Paleoantropologiya, «tarixgacha bo'lgan davr», «tarix arafasi», «tarixdan oldingi davr», oykumen, jez va temir asrlari, pleystosen, golotsen, paleoantropologik davrlashtirish, arxantrop, neoantrop, I.G.Morgan, yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya, F.Engels, egalitar (jamoat birdamligi), ibtidoiy odam podasi, antroposotsiogenez, tarixiy manba, L.Danilevskiy, arxeologiya, etnologiya, antropologiya, paleogeografiya, arxeozoologiya, arxeobotanika, lingvistika, informatika, yozma manbalar, etnologik ma'lumotlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Ibtidoiy jamoa tarixi predmeti to'g'risida tushuncha bering?
2. Ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtiring?
3. Ibtidoiy jamoa tarixi asosiy bosqichlarini ko'rsating?
4. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishning ahamiyati nimada?

Mustaqil ish mavzulari

1. Ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirish muammolari.

2. Ibtidoiy jamoa tarixining boshqa ijtimoiy fanlar orasida tutgan o'rnini.
3. Ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirishning asosiy nazariyalari.
4. Ibtidoiy jamoa tarixining asosiy bosqichlari.

2. Ibtidoiy jamoa tarixshunosligi

1. Qadimgi, o'rta asrlar va yangi davr. 2. XIX asrda ibtidoiy jamoa to'g'risidagi aniq bilimlarning to'planishi va umumlashtirilishi.
3. XX asrda ibtidoiy darvning tarixiy-etnologik rekonstruksiyasi

1. Qadimgi, o'rta asrlar va yangi davr. Qadimgi davrdan boshlab qabilalar, elatlar va xalqlar o'z qo'shnilari va yaqin-uzoqdagi xalqlar, ularning urf-odat, an'analari va turmush tarzi to'g'risida bilishga harakat qilganlar. Keyinchalik bu qiziqishlar asosida antropologiya, etnologiya, ularning ortidan ibtidoiy jamoa tarixi vujudga keldi.

Boshqa xalqlarni etnologik kuzatishning ilk yozma an'anasi Qadimgi Misrdan boshlanadi. Misrliklar o'zlarining g'arbiy, sharqiy va janubiy qo'shnilari giksoslar to'g'risida yozma mantlarda ko'p ma'lumot beradilar.

Antik dunyo xalqlari yunonlar va rimliklar o'zlaridan boshqa hududlarda yashaydigan xalqlarni qandaydir tushunarsiz qonunlar asosida yashaydigan varvar degan umumiy nom bilan atadilar. Antik yozuvchilar boshqa xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlari va an'analarini kuzatib, yozib qoldirdilar. Gerodot (er.avv. V asr) skiflar, sarmatlar, massagetlar to'g'risida; Ksenofont (er.avv.-V asr oxiri IV asrning birinchi yarmi) Kichik Osiyo xalqlari; Strabon (er. I asri) Kavkaz va Janubiy Yevropa xalqlari; Yu.Sezar (er. I asr) va Tatsit (er. I asri) germanlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar qoldirdi.

Demokrit (er.avv. V asr) insoniyatning o'tmishini hayvonsifat odamlar vahshiylarcha yashab, tirikchilik uchun hayvonlar kabi bir-birlari bilan kurashganlar va yashash uchun kurash ularni yovvoyilikdan olib chiqdi deb tushuntiradi.

Qadimgi Xitoy manbalari (er. I-II asrlari) O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida batafsil yozuvlar qoldirdi.

Rimlik faylasuf Tit Lukretsiy Kar (er.avv. I asr) «Narsalarning tabiati to'g'risida» poemasi insoniyat jamiyati, tabiat dunyosining shakllanishini falsafiy tasvirladi. Ibtidoiy jamoa tarixini ijodiy tushuntirish, qayta tiklashga harakat qildi. Poemada qadimgi odamlarning g'orda yashagani, olovni o'zlashtirishlari, poda bo'lib

yashab, so'yil va daraxt shoxlaridan birinchi qurol sifatida foydalanarlari bayon qilinadi.

O'rta asrlarda sharq dunyosi olimlari, jumladan, O'rta Osiyo olimlari etnografik kuzatishlar olib bordilar. Buyuk ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy o'zining «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» asarlarida bir necha xalqlarning islomgacha bo'lgan hayotini tasvirlaydi. «Hindiston» asarida hindlarning urf-odatlarini, naql-rivoyatlari haqida boy ma'lumot beradi.

Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) turkiy qabilalar to'g'risida ma'lumot beradi. Arab va fors tilida ijod qilgan Tabariy, al-Masudiy, Ibn Xavkal, F.Marvarudiy, Rashiddidin va boshqalarning asarlarida etnografik ma'lumotlar mavjud. Sharq olimlari etnologiya, geografiya, xalqlar tarixi bo'yicha yuzlab asarlar yozdilar.

Yevropalik sayyohlar Plano Karpini, Billem Rubruk va Marko Polo O'rta va Markaziy Osiyo to'g'risidagi geografik ma'lumotlarni Yevropaga berdilar. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab etnologik, etnografik ma'lumotlar to'planib bordi. XVI–XVIII asrlarda Yevropa o'ziga ma'lum bo'lmagan yuzlab xalqlar, hududlar va geografik kengliklar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ldi. Yevropaning XV asrdan Amerika, Afrika va Osiyoga kirib borishi, bu hududlarning an'anaviy turmush tarziga yashaydigan xalqlari uchun son-sanoqsiz ofat olib keldi. Yevropalik mustamlakachilar tomonidan o'nlab xalqlar, noyob madaniyatlar yo'q qilib yuborildi.

Amerika kashf etilgandan so'ng, Shimoliy va Janubiy Amerikaning ichki hududlari ma'lum darajada o'zlashtirildi. Afrikaning ichki hududlari noma'lum bo'lib qolaverdi. Osiyoda ham shunday bo'ldi. Yevropaliklar ko'z oldida mutlaqo boshqa madaniyat, urf-odatlar, marosimlar, diniy rasm-rusumlar, magiya, jamoa boshqaruvi, mehnat qurollari, uy-joy, ro'zg'or ashyolari va til gavdalandi. Aborigenlar hayoti to'g'risida ko'plab etnografik asarlar yaratildi.

XVI asrda yangi dunyo madaniyati to'g'risida fransuz M. Montening «Tajriba» asari, XVIII asrda fransuz monaxi J. Lafitoning Amerika hindilari haqidagi asari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ingliz olimi J. Toland (1724-yil) o'zining etnologik asarini chop etdi. Fransuzlar R. Sharlerua, Sharl de Bross, nemis G. Forster Amerika va Hind okeani havzasi orollari xalqlarining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari to'g'risida ma'lumot berdilar.

Fergyusson, Kondorse va Tyurgo ibtidoiy jamoa tuzumi hayotini tasvirlab, ovchi-baliqchi, chorvador va dehqonlar to'g'risida yozdilar va

uch bosqichli sivilizatsiya g'oyasiga keldilar. Fergussonning yovvoyilik (ovchi va baliqchilar), varvarlar (chorvadorlar) va sivilizatsiya (dehqonlar) atamaları L.Morgan orqali o'tib, bizgacha yetib keldi.

2. XIX asrda ibtidoiy jamoa to'g'risidagi aniq bilimlarning to'planishi va umumlashtirilishi. XIX asrda ibtidoiy jamoa tuzumi to'g'risidagi bilimlar.

XIX asrda ibtidoiy jamoa tarixi fan sifatida shakllanmadi, lekin etnologiya oraliqda shakllana boshladi. Etnologik dalillar XIX asr boshlarida haddan ziyod to'planib, ularni qayta ishlash va tegishli konsepsiyalar yaratilishi lozim edi. Birinchi turkumlash va umumlashtirishlar boshlandi.

Charlz Darvin tomonidan 1839-yilda evolutsiya nazariyasi asoslarining shakllantirishi bilan biologiya ibtidoiy jamoa tarixi ustida ishlayotgan tadqiqotchilarning fikrlashiga ta'sir qildi. U tarixiylik tamoyilini nazariy va amalda izchil o'tkazishda ifodalandi. Etnologiyada tarixiylik tamoyili XVIII asrda shakllangan tarixiy jarayonning dinamikasi va jamiyatning ijtimoiy muassasalarini qadimdan hozirgacha progressiv taraqqiyoti konsepsiyasiga asoslangan edi.

XVIII asrdan boshlab ilk arxeologik qazishmalar tarqoq o'tkazila boshlanib, ulardan ko'plab mehnat qurollari topildi. Topilgan mehnat qurollarini turkumlashda birinchi urinish daniyalik arxeologik Kaunsildora Tomsen tomonidan amalga oshirildi. Olim Kopengagen qadimiyatlar Milliy muzeyida ekspozitsiya tashkil qilib, uni 1836-yilda tasvirladi. Mehnat qurollari tosh, mis, jez va temir buyumlari asosida ketma-ketlikda, mehnat qurollarini ibtidoiy texnologiyasidan mukammallik tomon xronologiyada qo'yildi.

Uning izdoshi shved Sven Nilson tarixiy taraqqiyotning har xil bosqichlarida turgan turli xalqlarning madaniyatini arxeologik ashyolar bilan birga qiyosiy taqqoslab, o'zining ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirdi. To'plangan etnologik kuzatuvlarning juda katta zaxirasini umumlashtirish boshlandi. Nemis kulturologi Gustov Klemm insoniyat madaniyatining umumiy tarixiga bag'ishlangan 10 jildli (1843–1852–yillarda Leypsigda chop etilgan), umumiy kulturologiyaga oid 2 jildli (1854-yil) asarlarini yozdi. U Fergussonning turkumlashini takrorladi.

Yevropa sayyohlari Osiyo, Afrika, Amerika qit'alarining ichki hududlariga sayohat qilib, juda katta etnologik material to'pladilar. Ularning kuzatishlari ibtidoiy jamoa davrining tadqiqiga tez qabul qilindi. Nemis Aleksandr Gumbolt va fransuz Alsid Orbinining Janubiy Amerikaga, Genri Skularaft va Luis Genri Morganning Shimoliy

Amerikaga, ingliz David Livingstonning Afrikaga, Uilyam Bakslining Avstraliyaga, N. Prjevalskiy va qator rus olimlarining O'rta Osiyoga sayohati shular jumlasidan.

XIX asr etnologiyasi ibtidoiy jamoa muassasalarining rekonstruksiya-sidasida fundamental natijalarga erishdi. Nemis olimlari Adolf Bastian va Geodor Vayts etnologik materiallarning ilmiy tadqiqi asosida insoniyatning psixologik yaxlitligi g'oyasini ilgari surdilar. Ingliz Genri Meyn. Shveysar Ioxann va Yakib Baxofen qadimgi oila va ijtimoiy munosabatlarni rekonstruksiya qilishga harakat qildilar. G.L.Morgan o'zining «Qadimgi jamiyat» va boshqa asarlarida Shimoliy Amerika hindularining boy madaniyati, urf-odati va an'alarini batafsil tasvirladi.

Uch tadqiqotchi Jorj Mak-Ineri Angliya janubidan, fransuzlar P.Shmerling, Jan Bushe Pertu Belgiya va Fransiyadan tosh qurollar hamda ular bilan birga qolgan hayvonlarni topdilar. Bushe de Pert ibtidoiy jamoa tarixi predmetining yaxlit tushunchasini shakllantirdi.

XIX asrning 60-yillarida ingliz arxeologi Jon Lebbok tosh davrini toshga berish asosida paleolit va neolit bosqichlariga ajratishni taklif qildi. Tosh asrining texnologik dinamikasini XIX asr so'nggi choragida fransuz Gabriel de Mortilye ishlab chiqib, tosh asrini shell, ashell, mustye, solyutre va madlen bosqichlariga bo'lishni, mezolit uchun paleolit va neolit oralig'ini azil va gardenauzga bo'lishni taklif qildi. XX asr arafasida fransuz arxeologi Anri Breyl yuqori paleolitning boshlarini orinyak bosqichi deb belgiladi.

3. XX asrda ibtidoiy darvning tarixiy-etnologik rekonstruksiya-si. XX asr ibtidoiy arxeologiyasi va paleoantropologiyasi. Tosh davrini o'rganishda to'rtlamchi-geologiya, paleontologiya, paleobotanika va paleoklimatologiya fanlari erishgan yutuqlar muhim o'rin tutadi. Ibtidoiy odamlar g'orlardan manzilgoh sifatida keng foydalanganlari ma'lum bo'lgach, Yevropa, Osiyo va Afrikada ko'plab g'orlar ochildi. Yevropada, ayniqsa, ko'p g'orlarda dafn etilgan mayitlar, tosh qurollari va suyak buyumlari g'orlardan topilib, tadqiq qilindi (Lasko g'ori, Sen Shapel (Fransiya), Altamir (Ispaniya), Kapova (Boshqirdiston), Teshiktosh (O'zbekiston)). 1907-yilda ispan arxeologi Gugo Obermayerning «Tarixgacha bo'lgan odam» nomli asari nashr etilib, arxeologiya va paleoantropologiya to'plagan yutuqlar, paleolit va mezolit davrida madaniyatning turli shakllari, yuqori texnologiyalar, insoniyatning bu davrlardagi erishgan yutuqlari ko'rsatib berildi.

Neolit davri bo'yicha arxeologiya, antropologiyaga oid noyob materiallarni to'pladi. Neolit odami kulolchilik, mayda shoxli hayvonlarni qo'lga o'rgatgani, dehqonchilikni kashf qilgani ma'lum bo'ldi. Ingliz arxeologi Gordon Chayld 1930-yillar oxirida neolit inqilobi konsepsiyasini shakllantirdi. Janubiy Afrikadan avstralopitekklarning qoldiqlari 1924-yilda topilishi (ingliz arxeologi Raymon Dart bola bosh suyak qoldig'ini tadqiq qildi), Xitoydan 1927-yilda sinantrop qoldiqlarining topilishi (sinantrop qoldiqlarini dastlab ingliz paleontologi Davidson Bleyk, to'la nemis Frans Vaydenrayx tadqiq qildilar).

Ibtidoiy jamoa tarixidagi evolutsionizm yo'nalishi va uning taniqli vakili K.Marksning qarashlari L.G.Morgan va F.Engelsning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. K.Marks Morganning «Qadimgi jamiyat» asariga izohlar bilan konspektini tuzdi. F.Engels K.Marksning vasiyatiga ko'ra, qisqa vaqt ichida «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» kitobini (1884-yil) yozdi. Engels antropogenez jarayonida insonlashtirish omili va ibtidoiy jamoa tarixini davlatlashtirish muammosini hal qilishda o'z hissasini qo'shdi.

XX asrning birinchi 30 yilligida yuqori paleolit odami suyagi qoldiqlari (Janubiy Afrikadan 1924-yil avstralopitekklarning ilk qoldiqlari, Xitoydan 1927-yil sinantropklarning suyak qoldiqlari topilishi), neandertal odamning qoldiqlarini ochilishi hamda qator qiyosiy-morfologik tadqiqotlarning o'tkazilishi paleoantropologiya bo'yida bir necha muammolarini hal qildi. Nemis anatomi va morfologi Gustov Shvalbe Dyusseldorf yaqinidan 1856-yilda topilgan neandertal odamning bosh chanog'ini zamonaviy odamning bosh chanog'i bilan taqqoslab, ular o'rtasidagi morfologik aniq farqlarni ko'rsatib, 1907-yil neandertal odamni ibtidoiy odam deb tan olishni taklif qildi.

Bu XX asrning 30–70-yillari oralig'ida fanda erishilgan yutuqlar odamning paydo bo'lishi va ibtidoiy jamiyatning shakllanishining boshlanishi to'g'risidagi tushunchalarni o'zgarishiga olib keldi. Insoniyatning eng qadimgi izlarini ingliz ota-o'g'illar Luis Liki va Richard Likilar tomonidan Afrikadan (Sharqiy Afrika, Efiyopiya, Tanzaniya) topilishi Olduvay davri bilan belgilanib, antropogenezning yanada qadimiyligining yangi ufqlarini ochdi.

Tayanch iboralar: Ibtidoiy jamoa, Demokrit, Tit Lukretsiy Kar, Markaziy Osiyo, Afrika, marosimlar, diniy rasm-rusumlar, magiya, aborigenlar, Fergiyusson, Kondorse, Tyurgo, Charlz Darvin, evolutsiya, konsepsiya, arxeologik qazishmalar, Kaunsildor Tomsen, kulturologiya, Ion Lëbbok, paleolit, neolit, tosh asri, orinyak, geologiya, paleonto-

logiya, paleobotanika, paleoklimatologiya, sinantrop, neandertal, Luis Liki, Olduvay.

Takrorlash uchun savollar

1. Antik davrda ibtidoiy jamoa to'g'risidagi tasavvurlar.
2. O'rta asr etnologik kuzatishlar to'g'risida tushuncha bering.
3. Yangi davrda ibtidoiy jamiyat to'g'risidagi asarlarni ayting.
4. XIX asrda ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish bo'yicha asosiy yutuqlarni ko'rsating.
5. XX asrda ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.

Mustaqil ish mavzulari

1. Antik davr yozuvchilari ibtidoiy jamoa to'g'risida.
2. XVI – XVII asrlardagi birinchi etnologik umumlashtirishlar.
3. Ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirish (Ferguission, L.Morgan va boshqalar).
4. Arxeologiya fanining ibtidoiy odam qoldiqlari kashfiyotlari va ularning ahamiyati.
5. XX asr etno-arxeologik kashfiyotlar.
6. Ibtidoiy jamoa tarixining muammolari.

I bob. INSON EVOLUTSIYASI

1. «Odam maymunlar» va ilk odamlar

1. *Odam maymunning qarindoshi.* 2. *Odamsimonlarning turmush tarzi.* 3. *Odamning paydo bo'lishi.* 4. *Afrikalik avstralopitek.*
5. *Qudratli avstralopitek* 6. *Boys avstralopiteki.* 7. *Bilag'on odam.*
8. *Moddiy madaniyatning ilk ildizlari.* 9. *Ilk manzilgohlar.*
10. *Qadimgi Afrikaning hayvonot olami*

1. Odam maymunning qarindoshi. Odam va yirik odamsimon maymunlarning ajdodlari umumiyligi to'g'risida salmoqli, bevosita ma'lumotlarni bizga neoteniya (katta yoshli turlarda o'ziga xos xususiyatlarining saqlanib qolishi) beradi. Boshqa turlarda bu xususiyatlar faqat bolaligida uchraydi. Jumladan, katta yoshli odamlarda, shimpanze bolalarida uchraydigan, lekin yetuk yoshda yo'q bo'lib ketadigan ko'p sonli belgilar mavjud.

Odamlarga o'xshash shimpanze bolalarida ham badan siyrak junlar bilan qoplangan. Biznikidek, ularda ham yassi bosh chanog'i bilan qoplangan, nisbatan katta miya mavjud. Ularning bosh chanoqlari bizniki kabi yupqa va ochiq ifodalangan ko'z usti bo'rtma va yelka taroqlariga ega emas. Ularning yuzlari hali rivojlanmagan, shuning uchun oldinga chiqmagan. Tishlari va jag'lari uncha katta bo'lmagan, lekin iyagi oldinga chiqqan. Odamga o'xshab shimpanze bolalarida ham miya stvoli bosh miya bilan bosh chanog'ining o'rta qismida joylashgan teshik orqali birlashadi va shunday tarzda ikki oyoq bilan yurganda, bosh chanog'i yelka tizmasi ustida barqaror turadi.

Odam va shimpanzeda bolalik davomiy bo'lib, bu hol mavjudotning yurish-turishi instinkt bilan emas, balki o'rgatish jarayonida olingan malakalarga asoslanib davom etishi, uning hayotini boshqa sutemizuvchi mavjudotlarga qaraganda, uzoqroq bo'lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, katta miya, kichkina jag'lar va tik turish—bu belgilar bizni maymudan ajratib turadi. Ma'lum darajada bu neoteniya natijasidir.

Maymundan odamga aylantirgan mexanizmlar genlar to'plamlarini o'zgartirishda bo'lganlar, qaysiki, organizmning turli tizimlarining o'sish hajmi va tezligi boshqarila borib, ba'zida qo'shib, ba'zida to'xtab turgan. Bu jarayonda yetuklik yoshida bizning ajdodlarimizni tirik qolishiga yordam bergan o'sha bolalik belgilari saqlanib qoldi. O'zgarishlar asosan organizmga suyaklarning o'sishini rag'batlantiradigan somagrafik, jinsiy yetuklikni ta'minlashga yordam beradi.

Tabiiy tanlov jarayonida yetuklik yoshida bizning ajdodlarimizni tirik qolishiga yordam bergan o'sha bolalik belgilari saqlanib qoldi.

2. Odamsimonlarning turmush tarzi. Maymun-primatlarning turmush tarzida ham ular bilan odam o'rtasidagi o'xshashlik ko'rinadi. Quyi va odamsimon maymunlar ham ijtimoiy guruhlarda yashaydilar. Qaysiki, ular yosh, jins bo'yicha ma'lum bir katta-kichik toifalarga bo'ysunadilar. Boshqa mavjudotlarga qaraganda, (ayniqsa, qushlar) maymunlar guruhi ko'pincha barqaror bo'lib, har ikki jins vakillarini qamrab oladi va o'zlarini instinktga ko'ra tutmay, balki orttirilgan yurish-turish, ko'nikma-malakalarga asoslanib tutadilar.

Bu holatda odamga, eng avvalo, shimpanzelar yaqin turadi. Ular oliy darajadagi hayvonlar bo'lib, poda bo'lib yashaydilar. Podaning yadrosini chetdan tanlanadigan yosh urg'ochi shimpanzelar bir-birlariga kuchli, mustahkam yaqinlikni his qiladilar va bir-birlari bilan turli mimika-imo-ishora, turish va tovushlar bilan so'zlashadilar. Shimpanzeda tovush so'zlarining aniq ekvivalenti bo'lmasada, odamlar kabi ular bir-birlarini olqishlashlari, hurmat, g'azab qilishlari mumkin.

Ba'zi shimpanzelar faqat odamning qobiliyatiga xos deb hisoblangan qurollar tayyorlashlari mumkin. Shimpanzelar, ayniqsa, urg'ochilari novdalar yordamida tutiladigan termitlar bilan ovqatlanadilar. Bu novda uchlari termit uyalarini yo'llarini qazish mumkin bo'lgan darajada o'tkirlashtirilgan. Alohida shimpanzelar barglardan qilingan shimitgichlar, tayoqlardan richag sifatida foydalanadilar, dushmanga qarab kaltak o'qталadilar.

Ba'zi guruhlarda erkaklar bir-birlariga quyi maymunlarni ov qilishda yordam beradilar. Keyin esa ularning go'shtlarini bo'lib oladilar. Shimpanzelar o'zlarining ichida o'zaro urush olib bormasalarda, bir guruh erkak shimpanzelar boshqa guruh ustiga bostirib borib, ularni yanchib tashlaganlari ma'lum. To'g'ri, insonning faoliyati tufayli shimpanzelar yashaydigan o'rmon hududi kamayib, maymunlar sonining o'sib ketishi bunga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Qisqacha aytganda, shimpanzelar nisbatan doimiy tarkib topgan guruhlarini tashkil qiladilar. O'rmonning himoya qilingan joylarida yashaydilar. Bu yerda guruh a'zolari ozuqa teradilar, ov qiladilar, ko'payadilar, ba'zida oddiy qurollar yasaydilar. Agar bunga ikki oyoqda tik yurishni qo'shsak, tarixgacha yashagan mavjudotlarning turmush tarzini ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin. Qaysiki, ular bizning ajdodlarimiz maymunning eng qadimgi odamdan ajratgan chegarani bosib o'tdilar.

3. Odamning paydo bo'lishi. Bundan 4 mln. yil ilgari Afrikada odamsimon mavjudotlar, faqat ikki oyoqda yuradigan gominidlar paydo bo'ldi. Ikki oyoqda yurish ko'z va qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish, bosh miyaning rivojlanishiga yordam berdi. Inson primati *Hominus* shunday paydo bo'ldi. Ko'rinishidan uning eng qadimgi vakillariga *australopithecus* urug'i kiradi. Ko'pgina olimlarning fikricha, ana shunday «maymunodamlar» dan kichik *Homo habilis*–bizga ma'lum bo'lgan odamning *Homo* («inson») turlaridan biri kelib chiqadi.

Bundan 3,5 mln. yil ilgari muzlik davrining kuchayib borayotgan sovug'i ko'p suvni muzlik holatiga aylantirdi. Dunyoda yomg'ir yog'ishi keskin kamaydi va tropik savannalar maydoni kamayib borayotgan o'rmonlar o'rnini ola boshladi. Afrikada savanna hayotiga moslashgan yirik o'txo'r hayvonlar ko'paya boshladi. Shu bilan bir vaqtda, o'z tabiiy yashash joyidan mahrum bo'lgan o'rmonda yashovchi hayvonlar kamayib ketdi.

Driopitetsinlardan kelib chiqqan ayrim mavjudotlar daraxtdagi hayotga to'la moslashmaganligi sababli, ochiq joyda yashashga moslasha boshladilar. Bu «odammaymunlar» avstralopiteklar edi. Avstralopitek-lardan «birinchi haqiqiy odam» kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Ko'rinishidan gominizatsiya (insonning shakllanishi) bir-birini o'zaro mustahkamlagan o'zgarishlar yig'indisi bilan bog'langan edi. Ularning bir qanchasi to'g'risida topilgan qazilmalar orqali mulohaza qilish mumkin.

Yoshi 3.8 mln. yil bo'lgan qazilma tovonlarining izlari, bu vaqtda ikki oyoqda yurish mumkinligi, qo'llarning ozod bo'lganini ko'rsatadi. Bu hol mehnat quollarini ishlab chiqarish va ulardan muntazam foydalanishga o'tishga imkon berdi.

Ilk mehnat quollarining yoshi 2.5 mln. yilga teng. Tishlarning hajmi qisqardi, chunki mehnat quollari bu tishlarning vazifasini ko'proq bajara boshlagan bo'lishi mumkin. Mehnat quollarining tayyorlanishi va tik yurish bosh miya rivojlanishini rag'batlantirdi. Bu odamning o'simlik va hayvonlardan ozuqa tayyorlashga yo'naltirilgan, yashash uchun kurashni o'zida aks ettirgan yurish-turishning yangi strategiyasiga olib keldi. Vaqt o'tishi bilan ba'zi gominidlar tanasidagi jun qoplamini yo'qotdi va ularda teri to'qimalari paydo bo'ldi. Bu o'zgarishlar soyadan mahrum bo'lgan issiq tekisliklarda tananing qizib ketishi bilan kurashishga yordam berdi. Ko'p go'sht beradigan yirik hayvonlarni ovlash yoki yirtqichlar tomonidan o'ldirilgan o'limtiklarni iste'mol qilish to'da-to'da gominidlarning «turar-joylarda» endilikda ovqat

zaxiralarini birgalikda baham ko'rish imkonini berdi. Bu yerda ularning hamkorlik faoliyati o'zaro muomala va undan oldin nutqning paydo bo'lishiga yordam berdi. Bu yerda yoshlar kattalardan qurollarni yasash va undan foydalanish ko'nikmalarini o'rgandilar.

Evolutsiya tarixida birinchi bor aql-zakovat ustun bo'ldi. Endilikda qo'l kuchi yoki oyoqlarning tezligidan emas, bosh miya faoliyati gominidlarning tirik qolishi yoki yashashi uchun asosiy omil bo'ldi. Inson miyasi hajmining o'sishi, tishlarning o'zgarishi, sonlar va oyoqlarning yurishga moslashuvi — boshqa mavjudotlardan ajratadigan asosiy belgilar edi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan eng kamida ikkita urug' kiradi. Avstralopitek («Janub maymuni») va Homo («inson»). Ba'zi olimlar ramapiteklar urug'ini ham kiritadilar.

«Maymun odamlar» deb ataladigan avstralopiteklar Afrikada 4 mln. yil ilgari yoki undan oldin paydo bo'lgan. Ular ko'rinishidan odamsimon maymunlar-driopitetsinlarning ajdodlaridan kelib chiqdi. Taxminlarga ko'ra, bor-yo'g'i 3 yoki 4 tur paydo bo'ldi. 2 mln. yil ilgari ularning biridan bizning ajdodga tegishli birinchi tur kelib chiqdi. Ikki urug' (avstralo-pitek va Homo) yonma-yon yana 1 mln. yil (so'nggi avstralopiteklar o'lib ketgunga qadar) davomida yashadilar. Ular o'zlarining yanada aqlliyoq vorislari tomonidan qirib tashlangan bo'lishlari mumkin.

Avstralopitekarning badanlari jun bilan qoplangan bo'lishi mumkin. Ulardan ba'zilari shimpanzedan katta bo'lmagan gavda tuzilishiga ega edi. Boshqalari baquvvat bo'lib, kattaligi jihatdan hozirgi odamga teng edi. Ularda miya va gavdaning kattalik nisbati odamsimon maymunlarga qaraganda unchalik yaxshi emas edi. Maymunsimon boshi kirib ketgan, yuz qismi yapaloq burun va kesik tumshuqqa ega edi. Jag' va ildiz tishlar katta va kuchli bo'lib, tish aylanalari lotin harfi V yoki o'tkirlashgan U shaklida edi. Lekin odamsimon maymunlardan farq qilgan holda, avstralopitekarning quyi qismlari qo'ldan uzunroq bo'lib, eng avvalo, tik yurish uchun xizmat qilgan. Ko'rinishidan avstralopitekarning qo'llari yuklarni tashish va ularning tishlari donlarni maydalash va barglarni chaynash uchun yaroqli bo'lgan. Ular go'shtni kesish mumkin bo'lgan tosh qurollarni tayyorlash va undan foydalanishni o'rgandilar.

Avstralopitekarning uncha katta bo'lmagan guruhlar mevalar terib, yirtqich hayvonlar o'ldirgan hayvonlarning go'shtini yeb, ba'zida hatto ularni ov qilib, Sharqiy va Janubiy Afrikaning tropik o'rmonlarida

daydib yurdilar. Ularning ba'zilar Osiyo va Yevropaga o'tgan bo'lishlari mumkin.

4. Afrikalik avstralopitek. Bizga ma'lum bo'lgan birinchi «maymunodam» (afrikalik «Janub maymuni») bundan 4 mln. yil avval qaysidir so'nggi driopitetsinlardan paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. U o'z nomini Shimoliy afar uchburchagi deb ataladigan Efiopiyadagi topilmalardan oldi. Lekin afar avstralopitekining qazilma qoldiqlari Omo (Efiopiya) va Laetoli (Tanzaniya) kabi eng qadimgi mashhur odam izlari bo'lgan joylardan topilgan.

Bu mavjudotlar kichkina, lekin tik turadigan shimpanzega o'xshash edi. Ba'zi tadqiqotchilar, kattaroq mavjudotlarni erkak, kichkinalarini esa, ayollari deb hisoblaydilar. Boshqa tadqiqotchilar esa, ularni mutlaqo turli tiplar deb hisoblaydilar. Ularda o'lchami bo'yicha 6 yoshli qizchadan baland bo'lmagan, og'irligi atigi 30 kg bo'lgan katta yoshli namunalari ham uchraydi. Ularning miyasi shimpanzenikiga nisbatan kattaroq bo'lib, hali so'zlashish qobiliyatiga ega bo'lmagan bo'lishi mumkin. Yuz tuzilishi odamsimon maymundek past peshona, ko'z usti bo'rtib chiqqan, yapaloq burun, kesik tumshuq, lekin ildiz tishlari bilan turtib chiqqan jag'lari bo'lgan. Oldingi tishlari kemtik edi. Chunki ulardan yulib olish quroli sifatida foydalanganlar.

Afaralik avstralopitekning ozgina bukilgan oyoqlarining bukilgan suyaklari, u ko'p vaqtini daraxtlarda o'tkazganligi to'g'risida guvohlik beradi va ko'rinishidan ular yirtqich hayvonlar yeta olmaydigan daraxt shoxlari ustida uxlagan bo'lishlari mumkin. Avstralopitek ayollari hozirgi ayollarga qaraganda, torroq tug'ish yo'llariga ega edi va sonlari bir-biriga yaqin joylashgan. Shu sababli, ular hozirgi yangi tug'ilgan chaqaloqlarning boshi va bosh miyasi hajmiga qaraganda, kichikroq chaqaloqlarni tuqqan bo'lishlari mumkin.

Oilaviy guruhlar o'simliklardan ozuqalar to'plash bilan shug'ullanadi. Bu ozuqa o'simliklarning qattiq yoki tolasimon urug'lari yoki mevalaridan iborat edi. Ba'zida alohida erkaklar yirtqichlar o'ldirgan hayvonlarning suyagidan go'shtini ajratib olish uchun yog'och va toshdan qo'pol qurollar tayyorlagan bo'lishlari mumkin. Hech qanday shubha yo'qki, bundan 2,5 mln. yil ilgari afar avstralopitekklari o'lib ketgunlariga qadar, ulardan to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita boshqa avstralopitekklari va bizning urug'imiz Homo paydo bo'lgan.

Afrika avstralopiteki («Afrika janub maymuni») taxminan 3,5 mln. yil ilgari yerda tarqalib, bundan million yil ilgari o'lib ketdi. U afar

avstralopitekidan tarqaldi. Ba'zi olimlar, yarim hazil sifatida, u shimpanzening ajdodi degan farazni aytdilar.

Kichkina, nozik tuzilgan afrikalik avstralopitek odamsimon maymunga o'xshash bo'lib, bo'yi jihatidan uncha katta bo'lmagan Afrika bushmeniga teng va 12 yoshli Yevropa qizchasi og'irligiga teng edi. Uning oyoqlarini muskullari biznikidan farq qilsada, tik holda yurar edi. Qo'llari nisbatan uzun, ularning katta va boshqa barmoqlari bizga qaraganda, narsalarni kamroq, o'ng'aysiz ushlay olgan bo'lishlari mumkin.

Uning yuzini pastki qismi oldinga chiqqan, lekin odamsimon maymunga qaraganda kamroq chiqqan edi. Miyasi gorillaga qaraganda, katta emas edi. Ammo miya tuzilishi bo'yicha odamsimon maymunlar miyasidan farq qilgan. Afrikanus miyasi va gavdasining hajmlarini qiyosiy nisbatiga ko'ra, hozirgi odamsimon maymunlar va odamlar o'rtasidagi oraliq o'rinni egallaydi.

Olimlar, afrikanusning turmush tarzi to'g'risida turli xil fikrlarga ega. Tishlari va jag'larining tuzilishi bo'yicha maymunodam o'simlik ovqatni chaynagan hamda yirtqichlar o'ldirgan hayvonlar go'shtini iste'mol qilgan. Mutaxassislar, uning qurollarni tayyorlash qobiliyatini inkor etadilar: afrikanus qazilma qoldiqlari atrofidan topilgan suyak qurollar giena yoki boshqa yirtqichlar ovqatlarining oddiy qoldiqlari bo'lib chiqdi.

Ba'zi olimlar, afrikanus bu mustaqil tip emas, balki boshqa avstralopitek tipiga mansub gominidlarning erkagi deb taxmin qiladilar. Lekin bu tipning vakillari bizga ma'lum bo'lgan afrikanusning namunalariga ko'ra, keyingi davrga mansubdir. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, afrikanusning eng qadimgi topilmasi Keniyadagi Lotegamadan topilgan, yoshi 5,5 mln. yil bo'lgan jag' suyagi qoldig'i deb hisoblaydilar. Eng yosh nusxa esa 700 ming yillik yoshga teng. Lekin bu avstralopiteklar haqiqatan ham afrikanus tipiga tegishli deb to'la ishonch bilan tasdiqlash mumkin. Ko'pgina qazilma topilmalar Janubiy Afrikaning Sterkfonteyn g'oridan topilgan. Boshqa topilmalar afrikanus Efiopiya, Keniya va Tanzaniyada yashagani to'g'risida guvohlik beradi.

5. Qudratli avstralopitek. Qudratli avstralopitek bir vaqtning o'zida parantropus («odamga yaqin») deb atalib, Afrika avstralopitekiga qara-ganda, kattaroq va jismoniy yaxshi rivojlangan edi. Ba'zi tadqiqotchilar, bu ikki «Janub maymunlarini» bir xil tipdagi erkak va ayol deb hisoblaydilar. Ko'pchilik olimlar, bu taxminni qo'llab-quvvatlamaydilar. Avstralopitek ko'pgina yevropalik ayollar kabi 1,6 m

bo'yga ega bo'lib, ularning ko'pchiligiga qaraganda, og'irligi yengil vaznda –50 kg ga yaqin edi. Afrikanusga nisbatan u 550 sm³ atrofida bo'lgan bosh miyani sig'dirgan kattaroq yassi bosh chanog'i va keng yuzga ega. Old tishlari yirikroq edi. Shu bilan birga bizga ma'lum bo'lgan ko'pgina namunalarda ildiz tishlar qalin qatlamli emal bilan qoplangan bo'lsada, odatda kuchli yeyilgan. Bu hol mavjudotlar qattiq ovqat, jumladan, boshqoli o'simliklar donini iste'mol qilganlaridan guvohlik beradi.

Ko'rinishidan qudratli avstralopitek 2,5 mln. yil ilgari paydo bo'ldi. Bu tipning barcha qoldiqlari Janubiy Afrikadan topilgan bo'lib, ularni g'orlarga yirtqich hayvonlar sudrab kiritgan bo'lishi mumkin. Bu tip 1,5 mln. yil ilgari o'lib ketdi. Qudratli avstralopitek bosh chanog'ining tuzilishi uni gorillaning ajdodi bo'lganidan darak beradi. Boys avstralopiteki undan tarqalgan bo'lishi mumkin.

6. Boys avstralopiteki. Barcha avstralopiteklar ichida eng kuchli va katta bo'lgan avstralopitek, Sharqiy Afrikada paleontologik tadqiqotlarni amalga oshirishga mablag' bilan ta'minlagan angliyalik tadbirkor Charlz Boys nomiga qo'yilgan. Ch. Boys yordamida Sharqiy Afrikada olib borilgan qazilmalar natijasida 1959-yilda fanda ma'lum bo'lmagan «Janub maymuni» topildi. Boshida Boys avstralopiteki «Zinjanthrop» (Sharqiy Afrika odami) deb ataldi. Uning yashash vaqti 2,5 mln. yildan 1 mln. yilgacha.

Ba'zi paleantropolar, Boys avstralopitekini mustaqil tip emas, balki qudratli avstralopitekning mahalliy ko'rinishi xolos deb hisoblaydilar. Shunga qaramasdan, unga xos bo'lgan ko'pgina ajralib turadigan belgilar mavjud. Topilmalarning boshchanog'i suyaklari va boshqa suyaklar tadqiq qilinganda, bu turning ba'zi namunalarining bo'yi zamonaviy kishining bo'yiga tengligi aniqlandi. Ularning bosh miyasi hajmi avstralopitekning bosh miyasiga teng bo'lib, bizning bosh miyamizga nisbatan 3 marta kichik edi. U o'zining kuchli gavda tuzilishi bilan gorillani eslatadi. Gorilla kabi ularning erkaklari ayollariga nisbatan kattaroq bo'lgan.

Boys avstralopiteki gorilla kabi ko'z usti bo'rtmalari bilan kuchli og'ir suyaklari muskullarini birlashtirib turadigan markaziy suyak tarog'iga ega edi. Gorillaga qaraganda, Boys avstralopitekinin suyak tarog'i kichik, oldinga chiqqan bo'lib, yuzi yassi, tishlari kamroq rivojlangan. Mavjudot katta ildiz va ildiz oldi tishlariga ega. Lekin biomexanik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu tishlar ovqatga kuchli bosim o'tkaza

olmas edi. Unchalik qattiq bo'lmagan narsa, masalan, barglarni chaynashga moslashgan edi.

Boys avstralopitekinining yoshi 1,8 mln. yilga teng bo'lib, uning tosh bilan sindirilgan suyaklari topildi. Demak, bundan bu mavjudotlar amaliy maqsadlar uchun foydalangan bo'lishlari mumkin. Shu bilan birga bu turning vakillari tosh qurollardan foydalana biladigan o'z zamondoshlari bo'lgan uddaburon odamning qurbonlari bo'lgan bo'lishlari mumkin.

7. Bilag'on odam. Homo habilis («Bilag'on odam») umumiy fikrga ko'ra, bizning urug'imiz homo bo'lgan birinchi ma'lum tur edi. Homoda avstralopitekka nisbatan kattaroq miya bo'lib, miya koptogi katta, yuzi kichik va oldinga kamroq chiqqan. Tishlari kattaroq, tishlar oldi ochiq shaklda bo'lib, lotin harfi U ga o'xshash edi. Qo'llari oyoqlariga qaraganda kaltaroq, son suyaklari shakli ikki oyoqda yurish, katta boshli chaqaloqni tug'ish imkoniyatlarini berdi.

Homo habilis («Bilag'on odam»)ning bo'yi 1,5 m. dan kam emas edi. Uning yuzi hali ibtidoiy shaklda bo'lib, ko'z usti bo'rtmalari, yassi burun, turtib chiqqan jag'ga ega. Lekin bilag'on odamning boshi avstrolopitekka nisbatan aylanaroq shaklga kiradi va miyasi kattaroq bo'ladi. Lekin u bizning bosh miyamizning yarmiga teng edi. Jag'lari avstralopitekka nisbatan yengilroq, qo'l va son suyaklari, oyoqlari to'la zamonaviy shakl-da edi. Bu tur 2-1,5 mln. yil ilgari, mumkin yana uzoqroq vaqt mavjud bo'ldi. Ehtimol, u Avstraliya Afarasi yoki afrikalikdan tarqalgan. Lekin uning anatomiyasining arxaik o'ziga xos tomonlari tadqiqotchilarni Homo habilisning ilk topilmalarini avstralopiteklarga mansubligiga ishontirishga majbur qiladi. Bilag'on odam Sharqiy Afrikada, ehtimol, Janubiy Afrikada (telantropus) va Janubiy-Sharqiy Osiyoda (megantropus) yashadi.

Bilag'on odam suyaklari yonidan topilgan moddiy madaniyat qoldiqlari bu mavjudotlar tosh qurollarni yasash bilan shug'ullanganlarini, murakkab bo'lmagan manzilgoh qurganlarini, o'simliklardan hamda o'ldirgan hayvonlar go'shtining katta bo'laklarini tayyorlaganlarini, mayda yoki yetarlicha yirik hayvonlarni ov qilganliklarini ko'rsatadi. Homo habilisdan taxminan Homo erectus kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

8. Moddiy madaniyatning ilk izlari. Ilk odam yirik yirtqich hayvonlardan zaifroq va kam harakat bo'lib, tabiiy qurol bo'lgan tirnoq va qoziq tishlarga ega emas edi. Ilk gominidlar bu kamchiliklarning o'rnini to'ldirishni o'rgandilar. Ular kesish, qirish va qazishga imkon

beradigan tosh, suyak va daraxtlar parchalariga shakl bera boshladilar. Qoziq tish va tirnoqlarning o'rnini bosadigan suyaklarning parchalari, uchi o'tkir tayoqlar, ozuqa yig'ish uchun daraxt po'stlog'idan to'qilgan patnus bo'lishi mumkin. Asosan mustahkam bo'lmagan bunday qurollar saqlanib qolmadi. Faqat tosh uzoqroq saqlanib qoldi.

Biz Efiopiyadagi ilk gominidlar ongli ravishda go'shtni kesish uchun katta toshlardan qattiq, qirralari o'tkir kichikroq toshlarni maydalaganlarini bilamiz. O'sha vaqtda (2.5 mln. yil ilgari), taxminan 5 ming yillikkacha tosh odamlar texnologiyasida yetakchi o'rin tutdi.

Paleolit yoki qadimgi tosh asrining qurolini 10 ming yil oldin inson qadami yetgan barcha joylarda ilgari uchratish mumkin edi. Ilk paleolitning ustalari qirrali o'tkir toshlarni bir-biriga kuchli urib, o'tkir qurollarni yasashni o'rgandilar. Ular ustiga kerak bo'lgan yorig'lar atrofini urganda, yengil sinadigan toshlarnigina ajratib oldilar. O'simlik yoki hayvonlarning bo'laklari, materiallarni kesish, bo'lish yoki maydalashga imkon beradigan nisbatan katta tog' toshlarini qurol yasash uchun tanlab oldilar. Chaqmoq tosh, chaqmoqtoshli slanets, kvarsit va tosh billuri shunday tog' toshlaridan edi. Lekin ular hamma joyda uchramaydi. Sharqiy Afrikada eng qadimgi qurollar vulqon og'malaridan tayyorlangan. U chaqmoqtoshdan ko'ra, dag'al yuzli edi.

Qadimgi qurollarning eng mashhuri Tanzaniyadagi qurollardir. Bu joyda 1,9 mln. yil ilgari Homo habilis (yoki unga zamondosh qaysidir avstralopiteklar) bazalt va kvarsit toshlarini maydaladi va unga qo'pol (chopper) deb ataladigan shakllarni berdi. Bu yerda tadqiqotchilar, ularning ko'rinishlariga qarab, diskoid, ko'p qirrali (poliedir) yoki subsferoidga bo'ladilar.

Ba'zi tadqiqotchilar, haqiqiy qurollar deb, yuqorida sanab o'tilgan shakllar emas, balki ularning yadrosidan parchalab olingan parchalarni hisoblaydilar. Shubhasiz, 1,5 mln. yil ilgari Keniyadagi Turkona ko'li yonida gominidlar antilopa go'shtini maydalash uchun kichkina tosh parchalarini ishlatganlar. Hayvonlar suyaklaridagi tishlardan qolgan izlar ilk gominidlar yirtqichlar tomonidan o'ldirilgan hayvonlar tanasidan go'shtlarni qirib olganlari to'g'risidagi fikrga olib keladi. Shuning bilan birga, ilk odamlar ov uchun qurol tayyorlagan bo'lishlari mumkin.

Olduvaydagi qayish kamarlar bilan bog'langan sharlar ov snaryadiga aylanib, uni irg'itib, antilopaning oyog'idan chalish mumkin edi. Hozirgi kunlarda kovboylar hayvonlarni irg'itiladigan shar-bola yordamida tutib oladilar.

Olduvay qurollari va uning keyingi namunalari ilk tosh davrida Afrika va Osiyoning ko'pgina qismiga tarqaldi. Ba'zi joylarda 200 ming yil ilgari tosh davrining yanada mukammalroq texnologik usullari kashf qilinganidan so'ng, bu usul keyingi uzoq yillarda gullab-yashnadi.

9. Ilk manzilgohlar. Tanzaniyaning Olduvay g'oridan topilgan tosh va suyaklar 2 mln. yil ilgari ilk odamlar manzilgohlarda guruh bo'lib to'planganligini ko'rsatadi. Manzilgohlarda ular o'ljani burdalar, qurol tayyorlar va ovqat iste'mol qilar edilar. Yana shuningdek, ular dunyoda ilk bor boshpana qurgan bo'lishlari mumkin.

O'tkirlashtirilgan toshlar, yirik o'txo'r hayvonlarning maydalangan suyaklari daryo qirg'oqlarida tasodifiy to'dalar emas, balki istiqomat manzilgohlari bo'lib, bilag'on odam oilalari yoki boshqa gominidlar o'zaro ovqat taqsimlaganlaridan darak beradi. Ular bu g'orlarga yirtqichlar o'ldirgan hayvonlar suyaklari, yaqin tog'lardan vulqon oqmalarini qayta ishlash uchun olib keldilar. Ular 1,7 mln. yil ilgari 16 km uzoqlikda bo'l-gan tog'dan tayyor qurollarni ham olib keldilar. Bu hol eng birinchi savdoning unsurini bildiradi.

Juda aniq tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Olduvaydagi ilk manzilgohlarning taxminan 20 tasidan ko'prog'i parrandalarga boy bo'lgan sho'rxok ko'lga toza suv quyilgan joylardan tanlangan. Keyinchalik bu yerda yashagan qadimgi odamlar uy-joy qura boshladilar. Bir manzilgohda suyak va toshlarning joylashuvi shamol esadigan tomondan odamlar butalardan chetan yoki shox-shabbalar bilan himoyalanganini ko'rsatadi. Boshqa manzilgohda 4 m diametrda toshlar doirasi chayla qurilishida ishlatilgan shox-shabbalarni ushlab turadi. Bunga o'xshash chaylalar hozir ham Afrikaning ayrim joylarida uchrab turadi. Bu chayla boshpananing yoshi 1,8 mln. yilga teng bo'lib, dunyodagi bizga ma'lum bo'lgan odam qurgan ilk inshoot hisoblanadi.

10. Qadimgi Afrikaning hayvonot olami. Sharqiy Afrikaning ilk odamlar yashab, hayvonlarning go'shtini maydalash bilan shug'ullangan ilk manzilgohlari atrofidagi yerlar hayvonlarning minglab maydalangan suyaklari bilan qoplangan. Tanzaniya, Keniya bundan 2-1,5 mln. yil ilgari ilk odamlar bilan bir qatorda, o'nlab yirik va mayda hayvonlar savanna, o'rmon va ko'llar qirg'oqlarida yashaganligidan guvohlik beradi. Quyida Olduvay darasining tarixgacha mavjud bo'lgan kesishgan ko'llar hududi qirg'oqlarida joylashgan sobiq manzilgohlarda, eng chuqur tadqiqotlar natijasida bu havzada o'tmishda yashab, o'lib ketgan va hozirgi hayvonlarning ba'zilari to'g'risida hikoya qilamiz.

Tilapia, sixlida – chuchuk suv balig‘i, qaysiki, sho‘r suvda ham yashashi mumkin. Uzunligi 36 sm. gacha.

Xenopus, shporsevaya qurbaqa – shpors qurbaqasi, suvda yashaydigan kulrang, rangsiz ko‘krakli. Uzunligi 15 sm. gacha.

Chamaleo jasksoni – sekin yuruvchi kaltakesak, chivinlarni uzun, yopishqoq tili bilan tutadi. Erkaklarining boshida 3 shoxi bor. Uzunligi 30 sm. gacha. Yashash joyi butazor va ochiq o‘rmonli joy.

Phoeniconaias – kichik flamingo, uzun oyoqli, egri tumshuqli botqoq qushi. Uzunligi 1 metrgacha. Yashash joyi sho‘rxok ko‘llar.

Megantereon – sher kattaligida bo‘lgan qilichsimon tishli mushuk bo‘lishi mumkin. U yirik o‘txo‘r hayvonlarni o‘zining xanjarsimon yuqori qoziq tishlari bilan tishlagan.

Einothorium – «fil» quyi jag‘ida pastga yo‘naltirilgan qoziq tishlari bilan. Bu tishlar bilan ildizlarni qazish uchun xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Bo‘yi 4 metr.

Pelorovis – shoxlarining uzunligi 2 metrgacha bo‘lgan ulkan Afrika buyvoli. U Bovidae (yarim shoxli, yirik shoxli hayvon, antilopa va h.k)

Olduvay topilmalarining katta qismini ushbu bo‘yvollarning suyagi tashkil qiladi.

Tayanch iboralar: Afaralik avstralopitek, Qudratli avstralopitek, Boys avstralopiteki, Bilag‘on odam, Tik yuradigan odam, kromanon, neoteniya, gominid, Homo habilis, HOMO, gominizatsiya, avstralopitek, parantropus, Charlz Boys, zinjanthrop, telantropus, megantropus, diskoid, poliedir, subsferoid, ilk boshpana.

Takrorlash uchun savollar

1. Odam maymunning qarindoshi tushunchasini izohlab bering?
2. Odam evolutsiyasini gominidlar bo‘yicha izchillikda ko‘rsating?
3. Odamning paydo bo‘lishida mehnatning roli qanday bo‘lgan?
4. Afrikalik avstrlopitek, qudratli avstralopitek va boys avstrlopiteklari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsating?
5. Bilag‘on odamga xos xususiyatlar nimalardan iborat edi?
6. Odam yashagan ilk manzilgohlarni tavsiflang?

1. Insonning paydo bo'lishi.
2. Afrikalik avstrlopitek, qudratli avstralopitek va boys avstrlopiteklari.
3. Ilk moddiy madaniyat izlari.
4. Antroposotsiogenez.
5. Bilag'on odamga xos xususiyatlar.

2. Tik yuradigan odam

- 1. Antroposotsiogenez jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari. 2. Tik yuradigan odam. 3. O'zgaruvchan dunyo. 4. Tik yuradigan odam Afrikada. 5. Tik yuradigan odam Yevropada. 6. Tik yuradigan odam Osiyoda. 7. Keskich va chopperlar. 8. Ov. 9. Uy-joy va olov.*

1. Antroposotsiogenez jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari. Ch. Darvin odamning paydo bo'lishi jarayoniga biologik qonuniyatlar ta'sirini joriy qilib, jinsiy tanlovga jiddiy ahamiyat berdi. Uning naza-riyasiga ko'ra, odamni primatlar bilan taqqoslaganda, jismoniy tuzilishi-ning o'ziga xosligi morfologik ularda xususiyatlarning mavjudligidir. Bu morfologik alohidalik, ma'lum bir afzallik dumlarni ayollar tomonidan tanlab olinishi natijasi edi. Shu sababli, ko'payish jarayonida erkaklar eng ko'p avlod qoldirdilar va odam turining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdilar.

Ko'pgina olimlar, tik yurishni maymundan odamga aylanishda hal qiluvchi qadam sifatida ko'rsatdilar. Tik yurish odam morfologiyasining o'zgarishiga ta'sir qildi va odamni hayvonot dunyosidan ajratadigan, o'tib bo'lmaydigan tubsizlik bo'ldi. Boshqalar hal qiluvchi rolni qo'lga berdilar. Haqiqatan ham odamning qo'lga ega bo'lishi atrof-tabiati o'zgartirishga katta umidlar tug'dirdi. Uchinchi guruh olimlar, miyaning rivojlanishiga asosiy e'tiborni qaratdilar.

Antropogenez jarayonida turli morfologik tuzilmalarni birinchi o'ringa qo'yish bilan birga, hayvonlar ustida o'tkazilgan qiyosiy-morfologik tadqiqotlarning ba'zi natijalarini odamga nisbatan qo'llashga uriniladi. Antropogenezning «yasharish» farazlaridan biri ana shunday paydo bo'ldi. Bu farazga ko'ra, zamonaviy odamning o'ziga xos jismoniy tipi o'sishning jadallashuvi oqibatida zamonaviy katta yoshli kishi odamsimon maymunning bolasini eslatadi. Antropogenez muammosida bu farazlarning barchasi bir tomonlama, barcha omillarni

hisobga olmaydi. Eng asosiysi faqat morfologik ma'lumotlarga asoslanib, odamning ijtimoiy tabiatini e'tibordan chetda qoldiradi.

Odamning paydo bo'lishidagi ijtimoiy omilga antropogenezning mehnat nazariyasi hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Bu nazariyani F. Engels o'zining «Tabiat dialektikasi» nomli tugallanmay qolgan asarining boblaridan biri «Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli»da shakllantiradi (1873–1876-yillar).

Antropogenezning mehnat nazariyasi mohiyatini Engelsning bir so'zi bilan shakllantirish mumkin: Mehnat odamni o'zini yaratdi. Odamlarning mehnat faoliyati, eng avvalo, oziq-ovqat topish va o'z xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan edi. Bu jarayon odamning qiyofasini o'zgartirgan, keyin kishilik jamiyatini yaratishga olib kelgan qudratli rag'batlantirish edi.

Odamlarning bevosita ajdodlari bo'lgan antromorf maymunlar uchinchi bosqichning oxirida zamonaviy primat-ijtimoiy mavjudot edilar. Ular birgalikda ozuqa topib, yirtqich hayvonlardan birgalikda himoyalana edilar. Lekin ularning atrof-muhitga ta'siri boshqa sutemizuvchilardan farq qilmas edi. Mayda hayvon, parrandalarni ovlash, yeyishga yaroqli ildizlarni kovlash, mevalarni daraxtlardan urib tushirish, hayvonlardan himoya uchun tasodifan qo'lga tushgan tosh, daraxt novdasi, so'yilni hozirgi maymunlar olganidek ishlatganlar. Lekin bu hodisalar hali haqiqiy mehnat faoliyati emas edi. Haqiqiy mehnat faoliyati tosh, suyak va yog'ochdan qurollar tayyorlash bilan boshlandi. Eng qadimgi odamlarning ongli mehnat faoliyatidan oldin, ehtimol, ularning bevosita ajdodlarining shartli-reflektorli hayvoniy tarzdagi faoliyati bo'lib o'tgan.

Ibtidoiy odamning muntazam ravishda qurollardan foydalanishi boy flora va faunadan o'z ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish uchun faol foydalanish imkoniyatini yaratdi. Jumladan, oziq-ovqat xilmaxilligini ko'paytirdi. Bu o'z navbatida, ibtidoiy jamoaning kuch-qudratini o'stirdi. Shu bilan birga, birgalikda doimiy ozuqa topish, ov qilish, dushmanlardan birgalikda o'zini himoya qilish, hamkorlikda mehnat qurollarini tayyorlash va ovqatlanish ibtidoiy jamoani jipslashtirdi. Jamoaning alohida a'zolari aloqalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ishlab chiqarish ko'nikmalari, hayotiy tajribani keyingi avlodga uzatish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ibtidoiy jamoa tarixining birinchi davri–ilk paleolit tabiiy tanlov, harakat va ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar bosqichidir. Bu bosqich davomida tabiiy tanlovning roli asta-sekin kamaydi, ijtimoiy omilning

salmog'i muntazam o'sib bordi va oxir-oqibatda yetakchi o'rinni egalladi.

2. Tik yuradigan odam. 1,6 mln. yil ilgari HOMO habilisdan yanada kattaroq, katta bosh miyaga ega bo'lgan HOMO erectus – tik yuradigan odam kelib chiqqani ehtimolga yaqinroq. Yanada yuqori taraqqiy qilgan aql-zakovat va yanada takomillashgan qurollarni tayyorlash texnikasi ilk tosh asrining bu ovchisiga yangi yashash joylarini, unchalik katta bo'lmagan guruhlar bilan Afrika, Yevropa va Osiyoni egallashiga yordam berdi. Mahalliy ko'payish jarayoni ko'rinishidan turli xil yo'llar bilan kechdi. Bundan 400 ming yil avval Yevropada ba'zi odamlarda bizning HOMO sapiens turimizning ayrim vakillarida uchraydigan belgilar paydo bo'ldi. Bundan 200 ming yil avval HOMO erectus ehtimol qirilib ketdi. U o'zining avlodlari tomonidan raqobat qurboni bo'lgan bo'lishi mumkin.

HOMO erectus (tik yuradigan odam)ning ajdodi, ehtimol, Homo habilisga qaraganda kattaroq miya va gavdaga ega edi va ko'p hollarda o'zining mustahkam tuzilgan bevosita avlodi zamonaviy odamga o'xshash edi. Uning bosh chanog'i inson tribi (urug'i)ning boshqa barcha vakillarining bosh suyagiga qaraganda, eng qalin bo'lib, ibtidoiy belgilarni saqlab qoldi. HOMO erectusning bosh suyagi uzunroq va past qo'yilgan, orqadan botiq suyakli, qalin ko'z usti bo'rtmalari biznikiga qaraganda yuz qismi yanada yassi. Yirik, oldinga chiqqan jag'lari Homo habilisga qaraganda kichikroq, biznikiga qaraganda katta tishlari bo'lgan, lekin iyagi yo'q edi. Bo'yni orqasidagi kuchli muskullari orqa bosh suyagi do'ngiga qo'shilgan bo'lib, og'ir yuz qismi bilan boshni oldinga osilishga yo'l qo'ymay ushlab turar edi. Miya hajmi o'rtacha $880-110\text{ sm}^3$ (tadqiqotchilar fikri turlicha) bo'lib, aqlli odamga qaraganda kichik. Ba'zi balog'atga yetganlarining bo'yi 1,8 m gacha yetgan va og'irligi, ehtimol, bizning og'irligimizga teng edi.

HOMO erectus – bundan 1,6 mln. yildan to 200 ming yilgacha va yana ko'proq yashagan bo'lishi mumkin. Ilk bor Afrikada paydo bo'lgan. Keyinchalik alohida guruhlar Yevropa, Sharqiy Afrika (bunga Pekin odami yoki sinantrop ham kiradi) va Janubiy-Sharqiy Osiyoga (Yava odami yoki Pitcanthropus) tarqaldi. Ko'rinishidan alohida, bir-biridan ajralgan guruhlarining ko'payish evolutsiyasi sur'ati har xil bo'lgan edi. Ilg'or texnologiya, yirik hayvonlarni ov qilish, turli xil mehnat qurollari to'plamini qo'llash, olovdan foydalanish va qurilish usullarining takomillashuvi tik yuradigan odamni uzoq o'tmishda

mavjud bo'lgan gominidlarga qaraganda oldinga siljitdi va bu turga yangi tabiiy va iqlim sharoitlarida yashash imkoniyatlarini berdi.

3. O'zgaruvchan dunyo. Tik yuradigan odamning yashash davri taxminan 1,6 mln. dan toki 200 000 yilga qadar, geologik davr ilk va o'rta pleystosen davri 2 mln. dan toki 10 ming yilgacha taxminan mos keladi. Bu muzlik asri muntazam sovuq, muzlash, muzlik qatlamlari, tog' muzliklari Shimoliy Amerikaning shimoliy hududi va Shimoliy-G'arbiy Yevroosiyogacha birinchi bosqich bo'ldi. Keyin orqaga qaytish, sovuqlik va issiqlik bosqichlarining bir-biriga aralashuvi muzliklar oralig'i bosqichlari nomini oldi. Muzliklar vaqtida Yevropa, G'arbiy va Sharqiy Osiyoning muzlik egallamagan qismi har yilda faqat bir oygina sovuqlardan xoli edi. Shu sababli, ularning landshaftlari mo'tadil, sovuq haroratli tundra yoki o'rmonlarga aylandi. U yerlarda archa va buk daraxtlari ko'pchilikni tashkil etar edi. Iqlimning sovushi yirik sutemizuvchilar: misol uchun, Xitoyda gienalar, ulkan bobrlar, kiyiklar va tarixgacha bo'lgan karkidon va fillar tarqalishiga shart-sharoit yaratdi. Muzliklar davrida subtropiklarda hozirgidan ko'ra ko'proq yomg'irlar yog'di. Tropik o'rmonlari esa bir-biridan ajralgan orollarga aylandi.

Bepoyon muzlik qatlamlarining paydo bo'lishi bilan suvning oqib kelishidan mahrum bo'lgan okeanlar hajmi qisqardi. Dengizlarning sathi hozirgiga qaraganda, 100 m pastga tushib, quruqliklar chiqib qoldi. Natijada Janubiy-Sharqiy Osiyoning katta orollariga odamlarning ko'chib kelishiga imkoniyat tug'ildi.

Muzliklar oralig'i davrida ayrim shimoliy hududlarda iqlim hozirga qaraganda, iliy boshladi. Issiqsevar sutemizuvchilar bo'lgan gippopotam va merk karkidonlari shimolda, Janubiy Angliyaga tarqaldi. Shu bilan birga, dengizning sathi hozirgiga qaraganda, 50 m ga ko'tarildi va ayrim qirg'oq bo'yi orollarni quruqlikdan ajratdi.

HOMO erectusning iqlim o'zgarishlari natijasida bir-biridan ajralishi oqibatida ko'payishi o'zlari qaram bo'lgan shart-sharoitlarda bir-biridan ozgina farq qilgan holda rivojlanish imkoniyatini tug'dirdi.

4. Tik yuradigan odam Afrikada. Afrikadan topilgan qadimgi odam qoldiqlari shuni ko'rsatadiki, bu qit'ada odamni qo'llar, qurollar va miyadan tobora ko'proq foydalanilishi bilan HOMO urug'ining miyali, yanada rivojlangan tafakkur va ko'proq moslashgan turi HOMO erectus paydo bo'ldi.

Tik yuradigan odamning bizga ma'lum bo'lgan qoldiqlari Sharqiy Afrikadan kelib chiqqan bo'lib, 1,6 mln. yoshga teng. Bundan 70 ming

yil avval boshlangan davrga qadar bo'lgan davrga oid skeletlardan biri yaxshi saqlanib qolgan gominiddir.

Boshqa qazilma topilmalari ko'pincha bosh chanog'i yoki jag' suyaklari tik yuradigan odam Sharqiy Afrikadan qit'aning eng uzoq chekkalariga tarqalganidan guvohlik beradi. Lekin ko'pgina qazilma topilmalar bir-biri bilan kam bog'langan bo'lib, izchil evolutsiya to'g'risida to'la tushuncha bermaydi va bu turni bizning turimizdan ajratadigan chiziqliq aniq ifodalanmagan. Shu boisdan, tik yuradigan odamning Afrika va Yevropa qoldiqlari 400 ming yildan yosh bo'lganlari uchun HOMO sapiens turiga mansub emasmi degan tushuncha tug'iladi. Mana Afrikadan topilgan ayrim mashhur topilmalar:

Ternifin, yirik tishlar bilan og'ir quyi jag', boshqa ikki jag' va bosh chanog'i bilan yonma-yon topilgan. Jazoirning Ternifin degan joyidan topilgan. Yoshi 700 ming yil bo'lishi mumkin.

Koobi Fora, ko'z usti og'ir bo'rtmalari bilan bosh chanog'i, eng to'la va eng qadimgi HOMO erectus bosh chanog'i qatoriga kiradi. Yoshi 1,6 mln. yil bo'lishi mumkin. Joyi Koobi Fora, Keniyaning Turkana (Rudolf) ko'lidan sharq tomonda.

Svartkrans, besh tishli quyi jag' parchasi, kalla suyagi «telantropus» keyinchalik avstralopitek'larga yoki HOMO hobilisga mansub deb hisoblangan. Yoshi 1 mln. yil bo'lishi mumkin. Joyi Janubiy Afrika, Svartkrans. Janubiy Afrikada bu paytda qulay iqlim sharoiti vujudga kelgan bo'lishi mumkin. Odamsimonlar bu yerda ilk manzilgohlarini bunyod qilganlar.

5. Tik yuradigan odam Yevropada. Qadimgi qurollarning guvohlik berishicha, HOMO erectus Yevropada 1,5 mln. yil ilgari paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo bu yerdan topilgan unga tegishli suyak qoldiqlari 500-300 ming yillik yoshga ega yoki bosh chanog'ining oddiygina parchalaridir. Ularning deyarli barchasi HOMO sapiens turiga mansub ayrim o'ziga xosliklarga ega. Tadqiqotchilar, bu topilmalar ikki tur o'rtasidagi oraliq shakllarga mansub deb hisoblaydilar. HOMO erectus turiga tegishli bo'lgan ularning ajdodlari Yevropaga muzlik qatlamlari chekinganda, issiq fazada kelgan bo'lishlari mumkin.

Keyin ular muzlik davrida boshqa odamlar turidan ajralib qolib, bizning tur yo'nalishida rivojlandilar. Yevropaning bu xil odamlarini turkumlash masalasi juda qiyin. Geydelberg odami, tishlari bilan og'ir quyi jag', iyaksiz, oldinga chiqqan keng yuzga ega. Yoshi 500 ming yil atrofida. Joyi Mauer qishlog'i, Geydelberg yaqinida, Germaniya.

Totavel bosh chanog'i, katta qosh usti bo'rtmalari bilan keng yuz va burun teshigi, uzun tor miya qopqog'i va yassi peshona bilan. Yoshi 400 ming yil atrofida. Joyi Totavel yaqinidagi Arago g'ori, Janubiy-G'arbiy Fransiya.

Verteshsyoll yosh bosh chanog'i, bo'yin suyagi parchasi yo'g'on, bo'yin muskullarini biriktirgan suyak tarog'i bilan, miya hajmi biznikiga to'g'ri kelishi mumkin. Yoshi 400 ming yil atrofida. Joyi Verteshsyoll qishlog'i, Budapeshtdan g'arb tomonda, Vengriya.

Petralon bosh chanog'i, keng asos va keng yuz qismi, egilgan qosh usti halqasi bilan, burishgan peshona, burchaksimon bo'yin suyagi bilan, ammo miyasi katta hajmda 1230 sm^3 . Yoshi 300 ming yil atrofida. Joyi Petralon g'ori, Salonika yonida, Gretsiya.

6. Tik yuradigan odam Osiyoda. HOMO erectusning ko'pgina qazilma qoldiqlari Osiyodan kelib chiqadi. Deyarli ularning barchasi Yava yoki Xitoydan topilgan edi. Tik yuradigan odamga tegishli bir bosh suyagi Hindistondan topilgan. Markaziy Osiyodagi Jetis deb ataladigan qatlamlardan topilgan «pitekantrop» ning eng qadimgi ilk namunalari yoshi 1,5 mln. yil bo'lishi mumkin. Trinilning Yava qatlamlaridan yoshi 700 ming yilga teng bo'lgan suyaklari topilgan qazilma odam – sinantrop (uni Pekin odami ham deb atashadi) Pekin yonidan topilgan 40 dan ortiq qoldiqlar asosida ma'lum. Ularning barchasi II jahon urushi davrida g'oyib bo'ldi, lekin ularning qoliplari saqlanib qoldi. Sinantropning miyasi eng qadimgi Osiyo shakllaridan ko'ra, kattaroq. Sinantrop iqlim sovuqlashuvi natijasida bundan 360 ming yil avval yashadi.

Barcha Osiyo gominidlari shimoliy muz qatlamlarini bostirib kelishi natijasida gohida suv bilan to'ladigan, gohida quriydigan, geologlar ulkan chuqur bilan qiyoslaydigan Janubiy Xitoy dengizi qirg'oqlari yaqinida yashadilar. HOMO erectus suvning pasayishi va soviy boshlashi fazalarida hozir Indoneziya va Xitoy oralig'idagi dengizdan past bo'lgan Zond shelfini o'zlashtirdi. Bu ikki hudud o'rtasida paydo bo'lgan quruqlik bo'yicha yurdilar.

«Pitekantrop 4» yirik qalin devorli bosh chanog'ining parchasi va og'ir yuqori chag'. Yoshi 1 mln. yil atrofida. Joyi Sangiron, Yava oroli.

Lantyanidan topilgan bosh chanoq, kichik (780 sm) hajmda qalin devor bilan og'ir egilgan halqali ko'z usti qavariqlari bilan lantyanidan alohida topilgan iyaksiz, quyi jag'da uchdan bir qism ildiz tishlar yo'q. Yoshi 600 ming yil atrofida. Lantyan okrugi, Shensi provinsiyasi, Xitoy.

«Sinantrop» pastqam, keng bosh chanog'i (1075 sm hajmda), nisbatan mayda tishlar, eng qadimgi Osiyo shakllaridan ko'ra jag' qisqa. Yoshi 360 ming yil. Joyi Chjoukoudyan qishlog'i, Pekin yaqinida, Xitoy.

7. Keskich va chopperlar. 1,6 mln. yillar atrofida Sharqiy Afrikada tosh qurollarning yangi o'ziga xos tiplari paydo bo'ldi. Qo'l chopqisi deb ataladigan bu qurol musht hajmidagi tosh parchasi bo'lib, unga kaft yoki pachoqlangan nonni eslatadigan shakl berilgan edi. Toshning o'tkir qirralari ikki tomondan tosh parchalarini ushatish yo'li bilan hosil qilingan. Tajribalarning ko'rsatishicha, bu qurollar asosan boltasimon tig'lar (kliverlar) shaklida, o'tkir tosh parchalari yordami bilan terisi shilingan hayvon tanasini maydalashda foydalanilgan.

Eng birinchi qo'l chopqilari HOMO erectus bilan taxminan bir vaqtda paydo bo'ldi. Chunki bunday bir xil qurollarni yasash uchun anchagina tushuncha, fikrlash talab qilinardi. Ularning faraz qilnadigan kashfiyotchisi yuqori darajada taraqqiy qilgan gominid edi. Qadimgi tosh asrining qurollariga chopqi, boltasimon kliverlar, qirg'ich va tosh parchalari kiradi. Ular Shimoliy Fransiyada, Sen-asheldagi topilmalar nomi bilan ashell davri qurollari deb ataladi. Ularning yoshi 300 ming yilga teng. Qurollar tayyorlashning ashell texnologiyasi Hindiston va Yevropada tarqaldi va taxminan 100 ming yil mavjud bo'ldi. Bu texnologiya ko'rinishidan Indoneziya va Xitoygacha yetib bormadi.

Shu bilan rldovon tipiga mansub yanada qo'pol bo'lgan, kesadigan qurollar (chopperlar) tayyorlash madaniyati Yevropada va Osiyo, Yaqin Sharq, Yava, Filippin va Shimoliy Xitoydagi Chjoukoudyangacha tarqaldi.

Ba'zi joylarda ashell texnologiyasi va chopperlarni tosh o'zagidan tayyorlash yonma-yon bordi. Boshqa joylarda esa mehnat qurollarini tayyorlash u yoki bu joyda mavjud bo'lgan xomashyo yoki zarur bo'lgan ishga bog'liq bo'ldi.

Tik yuradigan odamning boshqa qurollari qoldiqlariga «sandonlar» (ish taxtalari) va bolg'alar kiradi. Bizga ma'lum bo'lgan ba'zi parma, tig' va qirg'ich kabi tosh, yog'och qurollarning ilk namunalari Ispaniyadagi Torralbedan, yog'och kosa qoldiqlari Fransiyadagi Nitssadan topilgan.

8. Ov. Ibtidoiy odamlar birdaniga ov bilan shug'ullanmaganlar. Birgina terimchilik ularning ozuqaga bo'lgan ehtiyojini qondira olmas edi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, sinantrop bug'u, ohu, yovvoyi ot

va hatto karkidon kabi yirik hayvonlarni ov qilgan. Tik yuradigan odamning bir necha manzilgohlaridan topilgan jiddiy dalillar shuni ko'rsatadiki, bu uddaburon gominidlar faqatgina o'simliklarni yig'ish va yirtqich hayvonlar o'ldirgan jonivorlarning tanasidan go'shtni kesib olish bilan cheklanib qolmay, balki yirik hayvonlarni faol ov qilganlar. Buning uchun ular birgalikda hayvonlarga tuzoq qo'yish va ta'qib qilish uchun guruhlarga birlashganlar. Uch qit'adan topilgan topilmalar ov usullari va uning obyekti bo'lgan hayvonlar to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Olgeseeylida (Keniya) 50 maymun-simopiteklar qoldig'i bo'lgan bir manzilgoh mavjud. Taxminan, qadimgi odamlar hozirgi vaqtda o'lib ketgan yirik babuinlarning (maymun) uxlab yotgan butun bir podasini kaltaklar bilan urib o'ldiradilar. Hozirgi kunlarda ham, ba'zi bir Tanzaniyadagi qabilalar bu maymunlarning avlodlarini xuddi shunday tarzda ov qiladilar.

Torralbeda (Markaziy Ispaniyaning shimoliy qismi) ovchilar o'nlab daydib yurgan fillar, yovvoyi ho'kizlar, otlar, kiyik va karkidonlarni (nosorog) tabiiy tuzoq bo'lgan tik qoyali vodiya, botqoqli jarlikka haydash uchun olovdan foydalanadilar. Bu yerda hozirgi vaqtda to'g'ri xartumli, o'lib ketgan turga mansub 30 ga yaqin fillar halok bo'lgan. Bu fillar hozirgi Afrika filiga qaraganda yirik edi. Torralbe va qo'shni Ambroneda yovvoyi hayvonlar ko'plab o'ldirilgani faraz qilinadi.

Osiyoda yaxshi taassurot qoldiradigan ma'lumotlar Pekin yaqinidagi Chjoukoudyan g'origa tegishli. Chjoukoudyan g'oridagi qoldiqlarning guvohlik berishicha, tik yuradigan odam to'ng'iz, bizon, kiyik, ohu, otlar va karkidonlarni o'ldirgan. Odamlarning sindirilgan bo'g'inlari va bosh chanoqlarining majaqlangan suyaklari, bu yerdagi ovchilar kannibal bo'lib, o'zlarining urug'iga mansub odamlarning bosh miya va umurtqa miyalarini iste'mol qilishni yoqtirganlaridan guvohlik beradi.

Qadimgi odamlar yirik hayvonlarni qanday o'ldirganlari to'g'risidagi savolga javob noaniq bo'lib qolmoqda. Ba'zi ma'lumotlar ular tosh uchli yog'och nayzalardan foydalanganlari to'g'risida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Ammo qanday usullar qo'llanilgan bo'lmasin, ov o'ta xavf-xatarli bo'lib, bu holni HOMO erectusning ko'pgina bosh chanoqlarida eski tuzalib ketgan, lat yegan izlar bilan izohlash mumkin.

9. Uy-joy va olov. Suyaklar va tosh qurollar to'plami HOMO erectusning oilaviy guruhlari yoki yanada kattaroq birlashmalari o'zlarining manzilgohlarini tiklagan joylardan topilmoqda. Bu manzilgoh-

larning ko'pchiligi bir necha kunga istiqomatgoh bo'lib xizmat qilgan. Bu yerda odamlar ovning rejasini tuzar, o'ldirilgan hayvon terisini shilib, uning go'shtini o'zaro bo'lishib olib, yeyish mumkin bo'lgan o'smliklarni terib, jilg'a yoki ko'l suvini ichib, tosh, suyak va yog'ochdan ov qurollarini yangilar, dam olib, uxlar edilar. Tropiklarning iliq iqlimi sharoitida faqatgina quruq joy topishning o'zi yetarli edi.

Ammo tik yuradigan odam o'z manzilgohini shimoliy salqin hududlarda barpo qilgani topilmalardan ma'lum. Torralbe va Ambronedan (Ispaniya) doira qilib yotqizilgan toshlar topildi. Hozirgi kunda bunday tosh doiralari eskimoslarning teridan tikilgan, o'rta qismi markaziy yog'och bilan ko'tarib turiladigan, chetlari og'ir toshlar bilan yerga bosiladigan chodirlari o'rnida saqlanib turibdi.

Fransuz shahri Nitssa yaqinidagi Tera Amata manzilgohida 235 km maydonda qadimgi yashash joylari saqlanib qolgan. Uning o'rnida shox-shabbalardan to'qilgan, toshlar bilan mahkamlangan chaylaning ichida tosh qurilma bilan shamoldan himoya qilingan o'choqlarda olov yoqilgan. Dengiz sohilidagi bu mavsumiy manzilgohning eng katta chaylalariga 20 kishigacha sig'dirish mumkin edi.

Fransuz Pireneyidagi Totavel yaqinida va Pekin yaqinidagi Chjoukoudyanda odamlar g'orlarda yashar edilar. Ko'rinishidan Arago (Fransiya) g'orida odamlar u yoki bu mavsumlarda ko'chib yurgan hayvonlar orqasidan kelganlar. Lekin Chjoukoudyandan topilgan 6 metrli kul qatlami odamlarning uzoq turib qolganlarining oqibati bo'lishi mumkin.

Yuqori paleolit davri odamlari tog'lik joylarda turar-joy sifatida tarmoqlanib ketgan ichki yo'llar bilan yetarlicha chuqur g'orlarni ishlatishni davom ettirdilar. O'rta Osiyo, Qrim, Kavkaz, Ispaniya, Fransiya, Shvetsariya va Bolqon yarim orolida shunday g'orlarda bo'lgan ko'plab manzilgohlar topilgan. Ochiq joylarda ham turar-joylar qurilgan. Ba'zida turar-joylar yetarlicha keng, uzunligi 35 metr, eni 15 metr bo'lib, bir necha o'choqlar mavjud bo'lgan. Ularning asosi yirik hayvonlarning suyaklari, yopiladigan material, hayvon terilari va shox-shabbalar bo'lgan. Uncha chuqur bo'lmagan yerto'lalar (ba'zida, 200 m² ga yetadigan) qazilgan. Ularning tomi uzun xodalar bilan mustahkamlangan va havo aylanishi, tutun chiqishi uchun teshiklar qo'yilgan.

Er.avv. 300 000–1800-yillar

Ilgari ibtidoiy odamlar tarixgacha turar-joy qurmagan deb taxmin qilinadi. Ular o'zlariga turar-joy qurishni bilmaganlar. Shu sababli,

ular g'orlarda yashashga majbur bo'lganlar deb hisoblanar edi. Lekin bunday emasligini turar-joy qoldiqlari isbotlab berdi.

Muzlik davri boshlanishi bilan daraxtlar yo'q bo'ldi. Paleolit davri ovchilari tikilgan terilar, po'stinlar, yirik hayvonlar shoxlari bilan mustahkam turar-joylarni bunyod qilganlar. Bunday turar-joylar er.avv. 35 000 va 10 000 yilliklar oralig'ida Rossiya, Ukraina va Chexiya cho'llaridan topilgan. Ovchilar bundan 120 000 yillar atrofida qishni yog'och xodalar va hayvonlar terisidan qilingan uzun chodirlarga o'xshash «uzun uylarda» hayot kechirganlar. Shunday har bir chaylada bir necha oila joylashgan. Baliqchi oilasi kulbasi xodalardan qilinib, chim bilan qoplangan (Lepenskiy Vir, Yugoslaviya, er.avv. 5000–4600 y.).

Er.avv. 300 000 yil - er.avv. 1 800 yil

Eng qadimgi turar-joylar yomg'ir-qor, sovuq kabi tabiat noqulayliklaridan himoya qilgan. Uylar qo'lga tushgan materiallardan qurilgan. Daraxt bo'lgan joylarda uylar cho'p-yog'ochdan va dashtlarda hayvonlar terisi, mamont suyaklaridan chaylaga o'xshash inshootlar bunyod qilinir edi.

Gollandiyadagi Sittardda er.avv. 4000 yillikda bu uy-joy g'o'la va shox-shabbalardan qurilib, loy bilan suvalgan. Bunga o'xshash uylar Vengriya va Germaniyadan ham topilgan.

Bu piramidaga o'xshagan uy er.avv. 4000 yillik atrofida boy Xitoy oilasiga tegishli. Devorlar poxoldan bo'lib, loy bilan suvalgan.

Olov. Ko'rinishidan olov odamlarga HOMO erectusning paydo bo'lishigacha tanish bo'lgan. Olovni yoqishni bilmaganlari uchun urug'ning ayollari va erkaklari navbat bilan uning o'chmasligi uchun kecha-kunduz shox-shabba tashlab turar edilar.

Ibtidoiy odamlar hatto eng og'ir kunlarda ham bo'ron, toshqinlar va yomg'irdan olovni himoya qilar edilar. Olov sherlar, g'or ayiqlari va kulrang ulkan ayiqlar, mamont, yo'lbars, qoplonlardan, qo'rqinchli atrofda odamni himoya qilib, odam uning atrofida jon saqlar, baxtli lahzalarini kechirar edi. Olov go'shtning yoqimli hidini taratib, yumshatar, so'yil, tayoqlarning uchini mustahkam qilib, toshlarni darz ketishga majbur qilib, odamlarni qorong'u o'rmonlar, bepoyon savanna, jungli va g'or ichkarisida dadillashtirar edi. Olov qo'riqchi, qutqaruvchi va hayot manbai, shu bilan birga jilovdan chiqsa o'rmonlar va quruq savannalarda hayotning zavoli, yirtqich hayvonlardan ham ko'ra shafqatsiz edi. Olov o'chib qolsa, ibtidoiy odam qo'rqinchli dunyoda

ojiz qolib, halok bo'lishi mumkin edi. Shu sababli, u qo'riqlanar, kimnidir aybi bilan o'chib qolsa, u o'lim jazosiga mahkum bo'lar edi.

Keniyadagi Turkana ko'li yonida 2,5 mln. yoshga teng kuylan tuproq ma'lum. Odam vulqon otilishi yoki yashin chaqnashi natijasida paydo bo'lgan olovni saqlash yoki ushlab turishi mumkin edi. Yana shuni tasdiqlash mumkinki, aynan *HOMO erectus* birinchi bo'lib olovdan isinish, ovqat tayyorlash, yirtqichlardan himoya va yovvoyi hayvonlarni ov qilish uchun muntazam foydalana boshladi. Olov ibtidoiy odam hayotida muhim o'rin tutgan. Odamning tabiatning qudratli kuchini bo'ysundirishi, ko'p marta odamning imkoniyatlarini kengaytirdi. Olov izg'irin sovuqda odamlarni isitdi. Ovqat tayyorlashda foydalanildi. Qovurilgan, qaynatilgan va cho'g'da ko'mib pishirilgan go'sht va boshqa ovqatlarni odam organizmi yaxshi hazm qilar edi. Bundan tashqari, olovdan hayvonlarni haydab ovlash, yirtqich hayvonlarni qo'rqitish, yog'och qurollarning ishchi qismlarini kuydirish va boshqa ishlarda foydalanildi. Olovni o'zlashtirish uzoq davom etgan. Odam olovdan qo'rqan. Yashin tushib, olov ichida qolgan o'rmondan uzoqroq yurishga harakat qilgan. Asta-sekin o'rmon yong'inidan olov cho'g'larini g'orlarga olib kelib, g'orlarda uni muntazam saqlaganlar. Uzoq ko'chishlar davrida cho'g'lanib turgan yog'och yoki cho'g' parchalarini loy suvalgan savatda olib yurganlar. Sun'iy olov yoqish, ehtimol, qurollar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan. Bir toshni ikkinchisiga urib, ushatishda (misol uchun, kremniy va prit) uchqunlar sachrab, quruq o't va barglar yongan bo'lishi mumkin. Yog'och qurollarni tayyorlashda, ishqalanish oqibatida yog'och yonib ketishi mumkin. Ishqalash va toshni bir-biriga urish bilan olov hosil qilish usulidan hozirgi kunda ham ibtidoiy urug'-qabilalar keng foydalanadilar. So'nggi muzlik davrida uy-joy qurish, olovni qo'llash hamda katta miqdorda protein mavjud bo'lgan ovqat (teridan tikilgan kiyim ham bo'lishi mumkin) odamga, hatto, sovuq shimoliy hududlarni egallashga ham imkon berdi. Olovda ovqat tayyorlash esa ilgari hazm qilish mumkin bo'lmagan o'simlik turlarini iste'mol qilish imkoniyatini yaratdi. Insoniyat uchun bu yutuqlarning barchasi muhim o'zgarishlarni bildirar edi. Endilikda madaniy rivojlanish biologik evolutsiyadan ko'ra muhim o'rin egalladi.

Tayanch iboralar: *HOMO erectus*, trib, *pitecanthropus*, Ternifin, Koobi Fora, Svartkrans, Geydelberg odami, Totavel, Verteshsyoll, Petralon, «Pitekantrop 4», Lantyan, klever, sandon, ashell texnologiyasi, Torralbe, Nitssa, Olorgeseyli, simopitek, nosorog.

Takrorlash uchun savollar

1. Antroposotsiogenez jarayonining harakatlantiruvchi kuchlarini ko'rsating?
2. Odamning paydo bo'lishida ijtimoiy omil nima uchun hal qiluvchi o'rin tutgan deb hisoblaysiz?
3. Tik yuradigan odamning antropologik tuzilishini tasvirlang?
4. Afrikadagi tik yuradigan odam to'g'risida nima deya olasiz?
5. Osiyo tik yuradigan odamlari, qazilma topilmalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Tik yuradigan odamlar foydalangan qurollarni tavsiflang?

Mustaqil ish mavzulari

1. Tik yuradigan odamning yer yuzida tarqalishi.
2. Tik yuradigan odamning yashash tarzi.
3. Tik yuradigan odamning mehnat qurollari.
4. Osiyo tik yuradigan odamlari qazilma topilmalari.

3. Inson evolutsiyasi va yo'nalishi

1. Neandertal odam. 2. Tafakkur va nutqning paydo bo'lishi.

3. Oilaning vujudga kelishi. 4. Muzlash. 5. Yevropa neandertallari.

6. Osiyo va Afrikadagi neandertallar. 7. Neandertallarning qurollari.

8. Ov. 9. Ibtidoiy birdamlikning rivojlanishi. 10. G'orlar, chaylalar va kiyimlar. 11. Dafnlar, an'analar, san'at

1. Neandertal odam. 300 ming yil oldin HOMO sapiensning ba'zi ibtidoiy shakllari neandertal odam uchun xos bo'lgan xususiyatlarni ola boshladi. U bizga yoshi 40 mingdan 70 ming yilgacha bo'lgan qurol va suyak qoldiqlari bilan yaxshi ma'lum. Bu yevropoid quyi osti turiga kirgan ovchi-terimchi o'zi bilan ko'pgina yangiliklarni olib keldi. U qadimgi paleolitning o'rta davrida yashadi va iqlimning kuchli sovuqlashuvini boshidan kechirishga qobiliyatli edi. O'lganlarning dafnlari shuni ko'rsatadiki, bizga ma'lum ba'zi his-tuyg'ular ko'rinda boshladi. Baribir neandertallar zamonaviy odam kelib chiqqan o'sha evolutsiya daraxtning yon shoxchasi bo'lishi mumkin. Ko'rinishidan bu shoxcha 30 ming yil ilgari o'lib ketdi.

Inson evolutsiyasining yo'nalishi HOMO erectus bundan 30 ming yil ilgari to'la zamonaviy odamga aylana boshladi. Lekin turli joylarda evolutsiya sur'atlari turlicha bo'lib, mutatsiya ilgari tish yoki muskullar yordamida bajariladigan og'ir ishlar uchun qurollarning keng qo'llanilishi, ba'zi populatsiyalarning migratsiya va izolatsiyasi kabi omillarga bog'liq edi. Hatto odamlar gavdasining turli qismlarining evolutsiyasi notekis bordi. Bu, misol uchun, zamonaviy va ibtidoiy xususiyatlar xos bo'lgan bosh chanoqlarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Paleoantropologlar, so'nggi muzlik davri odam qoldiqlarining har xilligiga qaramasdan, ularni bir tur-HOMO sapiensning ibtidoiy shakllari deb hisoblashadi.

HOMO sapiensning ibtidoiy shakllari, jumladan, ba'zi «proto-neandertal» deb ataladigan shakllaridan misollar keltiramiz:

Svanskombalik odam; ayol bosh chanog'i, qalin devorli, katta miya hajmi 1300 sm^3 . Yoshi 250 ming yil bo'lishi mumkin. Joyi Angliya, London yaqinidagi Svanskomb.

Shtengeymlik odam; pastak bosh chanog'i, ko'z usti bo'rtmalari bilan va miya hajmi 1100 sm^3 . Doirasimon g'ordan to'g'rilangan yuz qismi va mayda tishlar. Yoshi 300 ming yil atrofida. Joyi Germaniyaning Shtutgart shahri yonidagi Shtengeym.

Brokenxillik odam («Rodeziya odami» yoki «Kabvedagi bosh chanog'i») bosh chanog'i, yassi peshona, kuchli ko'z usti halqalari, burchaksimon yelka, lekin zamonaviy tipdagi daxanli, miya hajmi 1300 sm^3 . Yoshi 200 ming yil atrofida. Joyi Zambiyadagi Kabve.

Saldaniya buxtasidagi bosh chanog'i; Broken xilidagi odamning bosh chanog'iga o'xshash. Yoshi 200 ming yilga teng. Joyi Janubiy Afrikadagi Saldaniya buxtasi yaqinidagi Xoupfild.

Solo daryosidagi odam; qalin devorli bosh chanog'i qopqog'i, silliq peshona, pachoq peshona suyagi va orqa qismi taroqsimon rivojlangan miya yuzasi hajmi $1035\text{--}1255 \text{ sm}^3$. Yanada qadimiyroq bo'lgan Pekin sinantropi bosh chanog'iga o'xshash. Yoshi 100 ming yil bo'lishi mumkin. Joyi Yava orolidagi Solo daryosi qirg'og'idagi Ngandrong.

Chjotsiyaodagi odam; Xitoydan topilgan og'ir bosh chanoqlari guruhidan biri. HOMO erectus bosh chanog'iga o'xshash. Guruh bosh chanoqlarining barchasini yoshi 250–100 ming yilga teng. Joyi Xitoydagi Shansi provinsiyaqidagi Datun.

2. Tafakkur va nutqning paydo bo'lishi. Ilk davrda odamning so'z boyligi juda qashshoq edi. So'z zaxirasi o'ttiz yoki qirq tovushlardan tashkil topgan. Ular so'z emas, aynan tovushlar edi. Ular doimiy ahamiyatga ega bo'lmay, unga qo'shimcha yoki boshqa tovush qo'shib bo'lmagan. Ilk odam faqat o'z tovush-so'zini uzoqlik va balandlikda tezlashtirish yoki sekinlashtirishi bilan ohangini o'zgartirgan. Qandaydir tovushning ahamiyati uni tez yoki asta-sekin chiqarilishi bilan o'zgargan.

Odam faqat atrofdagi aniq narsalar to'g'risida o'ylab, aniq buyumlar to'g'risida tovush chiqargan. Imo-ishora usuli ilk odamning boshqa odam bilan aloqasining asosiy vositasi edi. Qandaydir oddiy, mavhum mushohada ilk odamning tafakkurida umuman yot edi. Qachondir kimnidir miyasiga bir o'y kelib qolsa, u o'z fikrini boshqalarga uzatishi juda qiyin edi. Buning uchun tovushlar yo'q edi.

Ibtidoiy odam kinetik nutq-imo-ishoralar tiliga ega edi. U ovozli tilga aylana bordi. Tilning ovozli rivojlanishi uchun ma'lum oraliq vaqt o'tdi. Odamlar orasida tug'ilib borayotgan ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash uchun imo-ishora mazmunga ega bo'ldi. U qandaydir xabarni olib keldi. Xabar va imo-ishora abadiylashdi. Xabar imo-ishoraga bog'landi. Imo-ishoralar bilan unga bog'langan ma'lum bir mazmunlarning mosligi nutq taraqqiyotida tovushgacha bo'lgan bosqich edi. Imo-ishora kommu-nikatsiyasi tizimi o'zaro tushunish uchun rivojlandi. Til leksikasi asta-sekin o'sdi va uni amalda odamlar orasidagi munosabatlarda ishtiroki kuchaydi. Bu uning boyishiga olib keldi. Qachon nutq paydo bo'lgani to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q.

Ibtidoiy jamoa davrida til rivojlanib borgan. Turli urug'-qabilalar ko'p tillar va ularning shevalarida gaplashganlar. Bir-biridan uzoqda yashagan va aloqada bo'lmagan urug'-qabilalarning tillari bir-biridan farq qilgan. Lekin yaqinda joylashgan qo'shni tillar o'zaro tushunarli bo'lgan. Yaqin qo'shnilar bir-birlari bilan mahsulot ayirboshlash, nikoh aloqalari va boshqa munosabatlarni amalga oshirganlar. Til aloqa vositasi bo'lib, ular bir-biriga tushunarli bo'lib, o'zaro boyigan.

Tilning umumiylikligi etnik birliklar bilan, boshqacha aytganda, bir madaniyat (til ham qo'shiladi)ga ega bo'lgan odamlar birligi bo'lgan etnik birliklar o'zligini anglash o'zligi nomida aks etadi. Odatda, turli darajadagi va asosiy darajadagi etnik birliklar mavjud bo'ladi. Ular etnoslar deb ataladi.

Ba'zi etnologlar, etnoslarning ikki ko'rinishini belgilaydilar: faqat madaniy til birligiga ega bo'lgan (etnikoslar) va ijtimoiy-potestar (lotin

tilida potestus-hokimiyat, etnologiyada davlatgacha bo'lgan jamiyatda hokimiyatni tashkillashtirish) tashkilot bilan bog'langan birlik (etno-ijtimoiy organizmlar). Ibtidoiy jamoaning ilk davrida eng qadimgi etnoslar – qabilalar mavjud edi. Lekin ular hali etno –ijtimoiy organizm bo'lmay, etnikos edilar.

3. Oilaning vujudga kelishi. Insoniyat tarixining ilk bosqichi– jamoa arafasi odamlar guruhida biologik va ijtimoiy asoslar o'rtasidagi kurash jinsiy munosabatlarda ko'rinadi. Bunda hayvoniy instinktlar alohida kuch bilan ko'rinadi va oqibatda u rivojlanayotgan jamiyat bilan kuchli tazyiqqa uchrab, o'zgarishi mumkin edi. Eng avvalo, savol tug'iladi. Odam ajdodining ilk biologik qo'shilishi qanday edi? Bunga o'xshash holatlarni fan uchun muhim bo'lgan predmetlarning o'zaro munosabatlarida ko'rish mumkin. Fan keyingi o'n yilliklarda maymunlarning bu holatini o'rga-nishda katta yutuqlarga erishdi. Hozirgi maymunlarning bir xillari–shimpanze va gorilla juft oila bo'lib yashaydilar. Boshqalari esa yirik, kuchli erkak maymun boshchiligida, o'ndan ortiq maymunlar haram oila bo'lib yashaydilar. Haram oilada yo'lboshchidan tashqari, boshqa yosh erkaklar ham mavjud bo'lib, yo'lboshchi bilan raqobatga bardosh bera olmasligi sababli, jinsiy ko'payishda ishtirok etmaydilar. Bir necha oilalar podaga birlashadilar, lekin urg'ochi maymunlar uchun doimo janjal bo'lib turadi.

Odam ajdodlarida ham shunga o'xshash tartiblar bo'lgan. Har holda haram oila yoki boshqa zoologik oila podaga teskari edi. Shu sababli, etnologlarning fikricha, jamoa arafasidagi odamlar guruhi unda zoologik oilalarning singib ketishi va balog'atga yetgan erkaklarning o'zaro yon berish ko'nikmasi mavjudligi tufayli shakllandi. Bunday guruhda bosh-qarilmaydigan, tartibsiz jinsiy munosabatlarning o'rnatilishi – **pro-muskitet** o'rnatiladi. Olimlar mantiqiy mushohada orqali emas, balki aynan hozirgi zamonda yashayotgan ibtidoiy urug'-qabilalarda **pro-muskitet**, orgiastik bayramlarning mavjudligida jinslarning ilk davrdagi jinsiy erkinliklarining qoldiqlarini ko'rish asosida shunday xulosaga keldilar.

Odamlar jamoasining xavfsizligini ta'minlash ehtiyoji, o'zining kelajagini yaratishga intilishi jinsiy aloqalarni tartibga solishga majbur qildi. Oilaning evolutsiyasi davom etdi. Vaqt o'tishi bilan jinsiy aloqalar tartibga solindi. Urug' jamoasi yuqori paleolitda matriarxat shaklida vujudga keldi. Urug' ichida jinsiy aloqa – nikoh (egzogamiya) taqiqlandi va urug'dan tashqari uylanish tavsiya qilindi. Egzogamiya atamasini fanga XIX asrning 60-yillarida Mak Lennan kiritdi. Mak Lennanning

fikricha, egzogamiyaning asoslari jangovar yovvoyilarning urushga yaroqsiz bo'lgan qizlarni o'ldirib yuborishlari va shu sababli, o'zlariga chetdan xotin izlashga majbur bo'lganlariga borib taqaladi.

Darvin bug'u haydaydigan itlarning erkaklari begona urg'ochi itlarni o'z podalaridagi urg'ochi itlardan afzal ko'rishlariga e'tibor qaratdi. Egzogamiyaning kelib chiqishini bir-biri bilan kundalik muloqot qiladigan qarindoshlar o'rtasidagi jinsiy aloqaga o'zaro jirkanish yuzaga kelganida deb tushuntiradi.

L.Morgan egzogamiyaning taqiqlarini paydo bo'lishi sababini, yaqin qarindoshlar orasida jinsiy aloqalarning biologik zararli oqibatlarini oldini olishdir deb tushuntiradi.

Qator olimlar (Yu.I.Semyonov), egzogamiyaning paydo bo'lishini ibtidoiy jamoalar ichida xo'jalik hayotini tartibga solish zaruriyati bilan bog'laydi. Qaysiki, tartibga solinmagan jinsiy aloqalar uzluksiz rashk asosida uzluksiz to'qnashuvlarga olib kelib, jamoaning xo'jalik va ijtimoiy jipsligining yemirishiga olib keladi. Bunday salbiy holatlarga qarshi jamoa o'z ichida jinsiy aloqalarni cheklab, umuman taqiqlashga erishadi.

Jinsiy hayotni jamoa doirasidan chiqarib, uni mustahkamlash, boshqa jamoalar bilan o'zaro munosabatlarni barqaror qilish uchun ikki egzogam guruhni bir muntazam o'zaro nikohga birlashtirish asta-sekin endogam qabilaning paydo bo'lishiga olib keldi. Aholining o'sishi bilan endogam guruhlar yana yangi guruhlarga bo'linib ketdi. Egzogam guruhlarining hayotga qobilligi, o'zini saqlab qolishi yuqori darajada bo'lib, ular o'z qo'shnilarini siqib chiqardilar. Egzogamiya anglangan rag'batlantirish, qon-qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga tabu (taqiq) keng tarqaldi va uzoq davom etdi.

Ilk jamoaga qaraganda, shakllangan jamoa haqiqiy insoniyat jamiyati edi. Unda ibtidoiy jamoatchilik, yaqin hamkorlik va jamoatchilarning ahilligi o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Qarindoshlik iqtisodiy munosabatlar – qarindoshlik munosabatlar kabi anglandi. Natijada, qarindoshlik aloqalari ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Bu hol o'tmish jamoa arafasi guruhi o'rniga kelgan ishlab chiqarish jamoasini asosiy qonunlashtirgan belgisi edi. Bu jarayon taxminan er. avv. 40 ming yilliklarda boshlangan.

Urug' tashkiloti paydo bo'lishi bilan ibtidoiy jamiyatdagi dual egzogamiyaga mos, jinslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan alohida muassasa-nikoh paydo bo'ldi. Shu bilan bir vaqtning o'zida, boshqa fikrlarga ko'ra, kechroq er-xotin, ota-onalarning bolalar

bilan munosabatini tartibga soladigan oila muassasasi vujudga keladi. Nikohning boshlang'ich shakli to'g'risidagi masala hali yechilmagan. Etnologiya va qisman arxeologiyaning ma'lumotlari bo'yicha tarixiy rekonstruksiya uning ikki asosiy tushunchasini beradi. Birinchisi: boshlang'ich ko'rinish guruhiiy nikoh bo'lib, keyinchalik, yakka nikoh va yakka oilaning turli shakllari bilan almashadi. Ikkinchisi: boshidan yakka nikoh va yakka oila mavjud bo'lib, ular o'z rivojlanish jarayonida turli shakllarni oldilar.

Birinchi tushunchani ilk bor etnograf olim E.G.Morgan shakllantirdi. U bir-birini tizimli almashtiradigan oilalarning besh shaklini ko'rsatdi: qon-qarindosh oila (bir avlodning barcha odamlari o'rtasidagi nikoh birligi), punalual (shunday birlik, lekin undan siblinglar (qarindosh aka-singillar) chiqarib tashlanadi), juft (mustahkam bo'lmagan va iqtisodiy asosdan mahrum er-xotinlar birligi), oraliq patriarxal (er hokimiyati bilan ifodalangan oila) va monogam (yakka er-xotin nikohi birligi). Ikki birinchi shakllar guruhiiy nikohga asoslangan, qolganlari yakka nikohga asoslangan. Lekin tezda qon-qarindosh va punalual oilaning mavjudligiga qarshi guvohliklar olindi. Bir qism olimlar, ular qarindoshlikning eng ibtidoiy tizimining tahliliga va saqlanib qolgan qator oila-nikoh tartiblariga asoslanib, bu konsepsiyani yo'qlaydilar. Qarindoshlik tizimining ikki tipi mavjud: klassifikatsiyalangan yoki klassifikatorli va tasvirlanadigan. Har ikkalasi ham sof holda ifodalanmaydi. Sinfiiy jamiyatlarga xos bo'lgan tasviriiy tizimlarda alohida qarindoshlar uchun – «ota», «ona», «o'g'il», «qiz» atamaları mavjud. Bunga teskari, aksincha ibtidoiy jamiyatlar uchun xos bo'lgan klassifikatsiya tizimlarida, o'sha bir xil atamalar bilan ma'lum bir yosh va nikoh klassifikatsiyadagi yoki toifasidagi barcha erkak va ayollar belgilanadi. Guruhiiy qarindoshlik guruhiiy nikohning tarixiiy ustuvorligi konsepsiyasi tarafdorlari bu holatni o'z qarashlarining eng muhim dalili deb qaraydilar.

Guruhiiy nikohning ikkinchi dalili sifatida, ilk ibtidoiy jamoa sharoitida etnologiya belgilangan nikoh birligining ba'zi belgilarida ko'riladi. Jumladan, bu Avstraliya aborijenlarida nikoh sinflari deb ataladigan tizimida aniqlangan. G'arbiy Viktoriya avstraliyaliklarida qabila ikkiga: Oq va Qora kakaduga bo'lingan. Bu har bir yarim yillikdagi erkak tug'ilganidan boshlab boshqa yarim yillikdagi ayollarning eri deb hisoblanadi. Ayollar ham shunday deb hisoblaganlar. Boshqa avstraliyaliklarda ham shunga o'xshash va yanada murakkabroq to'rt yoki sakkiz nikoh sinflari mavjud. Nikoh sinflari tizimi, tegishli

sinf erkak-ayollari amaldagi guruhliy nikohda bo'ladi degani emas. Chunki ular o'zlariga tegishli sinfdagi erkak yoki ayolni ma'lum bir vaziyatlarda (misol uchun, ayrim bayramlarda yoki uydan uzoqda borganda) o'zlarining potensial xotinlari yoki erlari deb hisoblab, o'zaro ular bilan jinsiy aloqaga kirishlari mumkin. Avstraliya aborijenlarida nikoh umumiyligining boshqa belgilari ham mavjud. Jumladan, erkaklar yoki ayollarga bir necha «qo'shimcha» xotin yoki er huquqini beradigan «pirauru» yoki «piraungaru» odati mavjud. Bu nafaqat nikohdan tashqari aloqalar, qaysiki, ular keng qo'llaniladi. Aynan shunday nikohlarki, tegishli marosim bilan rasmiylashtiriladi. Bunga o'xshash nikohlar shunday rivojlanish bosqichida bo'lgan boshqa qabilalarda, misol uchun, semanglarda ma'lum. Ular etnograf N.N. Mikluxo-Maklay tomonidan tasvirlangan: «Qiz bir erkak bilan bir necha kun yashab, ko'ngilli ravishda erining roziligi bilan boshqasiga o'tadi. U bilan qisqa yoki davomiy turadi. Shunday tarzda, u guruhning barcha erkaklari bilan jinsiy aloqada bo'ladi. Shundan so'ng u yana birinchi eriga qaytadi, lekin u bilan doimiy birga qolmaydi. Vaqtinchalik yangi nikohlarga kiradi, ular tasodif va xohishga bog'liq bo'ladi. Erkak ham o'z xotinlari bilan xuddi shunday munosabatda bo'ladi.

Olimlarning ko'pchiligi, guruhliy nikohning birlamchiligini inkor qiladilar. Hatto eng quyi baliqchilar, ovchilar va termachilarda ham juft nikoh va oila mavjud bo'lganini dalil ko'rsatadilar. Bu bosqichdagi arxeologik topilmalar uncha katta bo'lmagan bir o'choqli uylarni keng tasvirlaydi. Bir o'choqli va katta jamoa uylari azaldan bo'lganligini bilvosita isbotini ko'rish mumkin. Olimlarning fikricha, ilk nikoh davrida er-xotinlar birgalikda turmaganlar, o'z guruhlarida yashab qolganlar, qayerdadir epizodik, masalan, o'rmonda uchrashganlar.

4. Muzlash. Shimoliy hududlarning iqlimi bundan 200 000 ming yildan toki 40 ming yil ilgarigacha muzlanish bilan belgilanib, iliq oraliqlar vaqti-vaqti bilan almashinib turadi. Neandertallar va ularning bevosita o'tmishdoshlari aynan shu davrga to'g'ri keladi. An'ana bo'yicha geologlar, pleystosen davrining bu qismini muzlashning ikki bosqichiga (ularni Yevropada ko'pincha riss va vyurm deb ataydilar) muzlashlar oraliqlari bilan bo'ladilar. Tadqiqotlar natijalari amalda muzliklar va ular o'rtasidagi oraliqlar ko'p sonli bo'lganligini ko'rsatadi. Ular bilan bog'liq iqlimning o'zgarishi dengiz sathiga ta'sir ko'rsatdi.

Shimoliy Amerikada kuchli muzlash davrida mamontlar janubga chekindilar. Yevropada esa ularning ba'zi turlari shimoldan siljib

kelayotgan muzliklar va alp muzliklari o'rtasida tuzoqqa tushib qoldilar. G'arbiy va Markaziy Yevropadagi mo'tadil iqlimning o'rmon polosalari cho'l yoki tundraga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Bu yerda faqat sovuqqa moslashgan hayvonlar qoldi. Bunday yangi turga jun bilan qoplangan mamont, junli karkidon va muskus buqasi (qo'y ho'kiz) mansub bo'lgan hayvonlar kelib o'rnashdilar. Muzlik qatlamlari qisqargan yoki chekingan paytda, bu turlar cho'l va o'rmonlarning chekinishi jarayonida shimolga ko'chdilar. Janubdan shimolga gippopotam, to'g'ri xartumli fillar, ulkan los, sher va leopardlar yashagan o'rmonlar ham siljidi. Muzlash qayta boshlanganda migratsiya teskari tomonga yo'naldi. Bu yerda biz sovuqqa moslashgan 4 sutemizuvchini misol keltiramiz:

Mammuthus primigenius—junli mamont; uzun qora jun, qalin jun osti kichik quloqlari va yuqoriga qayrilgan katta shoxlari bilan. Bo'yi 2,9 m. Vaqti o'rta va so'nggi pleystosen. Joyi Yevroosiyo va Shimoliy Afrika.

Koklodonta antiquitatis—junli karkidon; paxmoq jun va ikki shoxga ega bo'lib, oldingi shoxi uzunroq edi. Bo'yi 2 m. Vaqti o'rta va so'nggi pleystosen. Joyi Yevroosiyo va Shimoliy Afrika

Vrsus spelaeus—g'or ayig'i; kuchli jag'lari bilan, barcha narsani iste'mol qiladigan, yirik va karlik ko'rinishidagi turlari mavjud edi. Burni uchidan dumigacha uzunligi 2,7 metrgacha. Vaqti so'nggi pleystosenning o'rtalari. Joyi Yevroosiyo.

Ovibos moshatus—muskus buqasi (qo'y-ho'kiz); uning boshi katta, shoxi va og'ir jun osti qoplamasi hamda uzun yergacha osilgan qora junlari bilan. Bo'yi 1,5 m. Vaqti o'rta pleystosendan hozirgacha. Joyi Shimoliy Yevroosiyo va Shimoliy Amerika.

HOMO sapiens neanderthalensis o'z nomini Germaniyadagi Dyusseldorf yaqinidagi Neandertal vodiysidan topilgan qazilmadan oldi. Yevropadagi klassik neandertal deb atalgan odam katta uzunchoq boshga ega. Uning miyasi biznikidan kattaroq. Bosh chanog'i suyagi biznikidan qalinroq, HOMO erectusnikiga qaraganda yupqaroq. Tik yuradigan odamga neandertal o'zining ko'z usti kuchli qabarig'i va qiya peshonasining valik qabarig'i bilan o'xshash edi. Neandertalda aniq ifodalangan, g'urraga o'xshash katta asosli yelka qabarig'i mavjud bo'lib, qaysiki, unga bo'yin muskullari iyak osti bilan birlashtirilgan. Keng yuz qismi oldinga kuchli turtib chiqqan va biqinlarga tomon qayrilgan, bu daxan suyaklariga egilgan shakl bergan. Katta burun yalpoq yoki turtib chiqqan bo'lishi mumkin. Iyaksiz kuchli jag'ning

kurak tishlari biznikiga qaraganda yirikroq. Ildiz tishlari esa og'iz bo'shlig'ini to'ldirgan. Klassik neandertallar past bo'yli, favqulodda muskulli va baquvvat, katta oyoq va qo'l bo'g'inlariga ega edilar. Gavda mutanosibligi bilan ular eskimoslarga o'xshash. Eskimoslarning to'ladan kelgan jussasi sovuq iqlim sharoitida gavgani issiq saqlashga yordam beradi.

Neandertalning kenja turi-HOMO sapiensning ibtidoiy shaklidan, bundan 200 ming yil oldin kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Neandertallarning jismoniy dalillari va ilg'or texnik usullari, o'rta paleolit odamlarining ba'zilarini sovuq iqlim sharoitida, qish qiyinchiliklarini yengishga qodir bo'lgan odamlarga aylantirgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, neandertallarning marosimlari, yurish-turishlari ularning inson hissiyoti va o'zligini anglashning yuqori taraqqiyot darajasiga erishganlaridan guvohlik beradi. Shunga qaramasdan, ko'rinishidan bu guruh bundan 30 ming yil oldin o'lib ketdi. Ba'zi tadqiqotchilarning aytishicha, neandertallar qayerdadir, boshqa joyda shakllangan odamning to'la yangi zamonaviy tipi tomonidan yo'q qilingan. Boshqa farazlarga ko'ra, neandertallar bizlarning kenja avlodlarimiz bilan chatishdilar yoki o'zlari rivojlanib, yangi bosqichga chiqib, yangi tipga aylandilar. Agar bu fikr to'g'ri bo'lsa, ularning genlari hozir yashaydigan odamlarda saqlanib qolganiga hech qanday shubha yo'q.

5. Yevropa neandertallari. XX asrning 80-yillarida olimlar, Yevropada taxminan 200 neandertal yoki «protoneandertallarning» qoldiqlarini topdilar. Qoldiqlarning ko'p qismi g'orlardan topildi. Bularga har qanday qit'adan topilgan qadimgi odamlarning eng yirik qazilma qoldiqlari kiradi. Ularning ba'zi birlaridan ko'rinadiki, birgalikda bir guruhda yashagan turlari bir-biridan bosh chanog'i va jag'larining tuzilishi bilan ancha ajralib turadi. Topilgan qazilmalarning yarmidan ko'pi Fransiya tegishli. Bu 30 dan ortiq manzilgohda 116 odamning qoldiq parchalaridir. Fransiya hududidan topilgan qoldiqlarning ko'pchiligi ikki manzilgoh—Ort va Lakinga to'g'ri keladi. Neandertallarga xos bo'lgan belgilar Krapinadagi (Yugoslaviya) manzilgohdan 20 ga yaqin qazilmalar, Italiyadan 11 ta, Belgiyadan 10 ta, Germaniyadan 8 ta, boshqalari Buyuk Britaniya, Ispaniya, Gibraltar, Chexoslovakiya va Qrimdan topilgan odamlar qoldiqlariga xos.

Topilmalarning yoshi 250 ming yildan 30 ming yilgacha tebranadi. Lekin eng «yetuk» neandertallar so'nggi muzlash (vyurm) ning birinchi

yarmi, bundan 70-30 ming yil ilgarigi vaqtga to'g'ri keladi. Biz misol keltirayotgan topilmalar turli davrlar va hududlarga tegishli.

Erendorf bosh chanog'i. Bu qoldiqlarga neandertal turidagi bosh chanog'i, baland peshona va iyaksiz jag', lekin mayda tishlar bilan. Yoshi 200 ming yil atrofida bo'lishi mumkin. Joyi Germaniya, Uells, Rila yaqinidagi Pontnevidd g'ori.

Pontnevidd. 1980-yillarda topilgan tish va jag' parchalari neandertallarga tegishli xususiyatga ega. Yoshi 250 ming yil atrofida. Joyi Shimoliy Uells, Rila yaqinidagi Pontnevidd g'ori.

Fonteshevad. Bu manzilgohdan ko'z usti bo'rtmasi va bo'rtmasiz bosh chanog'i parchalari topilgan. Yoshi 150 ming yil atrofida. Joyi G'arbiy Fransiya-dagi Fonteshevad.

La-Shapel-o-sen. Bu manzilgoh artrit bilan kasallangan chol-klassik neandertalning skeleti bilan ma'lum. Yoshi 150 ming yil bo'lishi mumkin. Joyi Markaziy Fransiyaning janubiy qismi, La-Shapel-o-sen.

Gibraltar. Bu yerdan jag' suyagi amalda neandertal vodiysidan oldin topilgan. Yoshi 50 ming yil.

Chircheo. Bu yerdan odamning majaqlangan bosh suyagi topilgan. Yoshi 45 ming yil atrofida. Joyi Italiya, Rim yaqinidagi Monte-Chircheo.

Nander. Adabiyotda tasvirlangan birinchi neandertallarning skeletlari. Nander daryosi qirg'og'idagi g'ordan topilgan. Yoshi 50 ming yil atrofida. Joyi Germaniya, Dyusseldorf yaqinidagi «Neander vodiysi».

Krapina. Bu yerda keng, qisqargan bosh chanog'i, kuchli ko'z usti bo'rtmalari topilgan, Bu odamlar kanniballar bazmi qurboni bo'lishlari mumkin. Yoshi 100 ming yil atrofida. Joyi Shimoliy Yugoslaviya, Krapina.

6. Osiyo va Afrikadagi neandertallar. Neandertallar Janubiy-G'arbiy Osiyo, Afrikada ham yashadilar, lekin ularning ba'zilarida klassik Yevropa shakllariga xos bo'lgan qo'pol belgilar yo'q edi. Yevropa neandertallarida bunday belgilar muzlik davrining kuchli sovuqlariga moslashuvi natijasida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Ba'zi bir Afrika va Osiyo neandertallari to'g'ri va ingichka oyoqlarga, kuchli bo'lmagan ko'z usti bo'rtmalari va qisqargan, salmoqli bo'lmagan bosh chanog'iga ega edi. Ko'z usti bo'rtmalari va oldinga chiqqan yuz qismi bilan ayrim bosh chanoqlari baland peshona va doirasimon miya qopqog'iga ega edi. Janubiy-G'arbiy Osiyoning neandertallari zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan odamlar bilan birga yashadilar.

Quyida tasvirlangan bosh chanoqlarini to'la zamonaviy deb turkumlash mumkin:

Jabal-Irxud – Uzunroq va baland bo'lmagan bosh chanog'i, yirik ko'z usti qabarig'li, lekin zamonaviy qiyofadagi yuz tuzilishi va uncha katta bo'lmagan yelka tarog'i bilan. Yoshi 7 ming yil atrofida. Joyi Isroil, Jabal - Irxud.

Tabun – bosh chanog'i baland bo'lmagan qiya peshona bilan, ko'z usti qabarig'i va kattalashgan qoziq tishlari bilan. Shunga qaramasdan, yuz qismi va yelkasi zamonaviy qiyofada. Quyi jag'ida iyak chiqishi mavjud. Bo'g'inlarning egilgan suyaklari Yevropa neandertallari suyagini eslatadi. Yoshi ming yil. Joyi Isroil, Karmel tog'i, Tabun g'ori.

Sxul –V – miya bo'shlig'ining katta hajmi, ko'z usti qabarig'i, anchagina baland peshona, yuz qismi va zamonaviy tipdagi yelka mos. Yoshi 40 ming yil. Joyi Isroildagi Karmel g'oridagi qabr, Sxul boshpanasi.

Amud – 1 – neandertal tipdagi hajmi 1740 sm³ bosh chanog'i (hozir ma'lum bo'lgan bosh miyalarning eng yiriklaridan biri hisoblanadi) va bo'g'inlarning uzunlashgan suyaklari. Yoshi 45 ming yil bo'lishi mumkin. Joyi Isroil, Tiveriad ko'li yonidagi Amud g'ori.

Kafzex – oldingiga o'xshash bosh chanog'i. Yoshi 45 ming yil bo'lishi mumkin. Joyi Isroil, Kafzex g'ori.

Shanidar – klassik neandertal katta bosh miya bilan, lekin ko'z usti qabariqlari Yevropa neandertallari kabi birlashmagan. Yoshi 70-45 ming yil atrofida bo'lishi mumkin. Joyi Shimoliy Iroq, Shanidar g'ori.

Teshiktosh – rivojlanmagan ko'z usti qabariqlari va boshqa klassik belgilari bilan bolaning bosh chanog'i, bosh chanog'ining yuz qismi va bo'g'inlari zamonaviy tipda. Yoshi 45 ming yil atrofida bo'lishi mumkin. Joyi O'zbekiston, Teshiktosh g'ori.

1938-yilda N.Okladnikov boshchiligidagi ekspeditsiya Hisor tog' yonbag'ridagi dengiz sathidan 1500 metr balandlikdagi g'orda yoshi 9-10 da bo'lgan neandertal bolaning skeletini topdi. G'or ichidagi qatlamlardan mustye madaniyatiga tegishli o'rta paleolit mehnat qurollari, tog' echkisi va boshqa hayvonlarning ko'p miqdordagi suyaklari topildi. Ko'rinishidan g'orda yashagan neandertallar, asosan tog' echkilarini ov qilish bilan tirikchilik qilganlar. Skelet atrofida bu hayvonlarning suyaklari juft holda turgan. Ular ataylab qo'yilgan. Agar haqiqatan shunday bo'lsa, neander-tallar o'lganlarni an'ana bo'yicha dafn qilganlar. Bu neandertallarda u dunyo to'g'risida qanadaydir e'tiqod va tasavvurlar mavjud bo'lganligini bildiradi.

Skelet bir necha antropologlar tomonidan tadqiq qilingan. Tekshirishlarga ko'ra, u «klassik neandertallardan» farq qilgan. Zamonaviy tipdagi odamlarga tomon yo'nalgan evolutsiya harakatini aks ettiradi.

Yaqinda Teshiktosh g'oridagi bolaning suyaklaridan olingan DNK natijalariga ko'ra, u HOMO sapiens turi vakiliga yaqin emas degan tushuncha paydo bo'ldi. M.M.Gerasimov Teshiktosh neandertalining qiyofasini to'liq tikladi. Uning tekshirishlariga qaraganda, bosh suyagi shu yoshdagi zamonaviy bolaning bosh suyagidan kuchli, ancha katta. Qosh usti hozirgi zamonaviy odamdan ko'ra, uning rivojlanish darajasidan yuqori turadi. Peshona yassi, bosh katta, gavda uncha katta emas. Yoshi 9-10 atrofida. O'z yoshidan katta ko'rinadi. Kuchli yelkalari, qo'llari, oyoqlari qisqa va yo'g'on.

7. Neandertallarning qurollari. Fransiya'dagi Le-mustye g'oridagi topilmalarga ko'ra, neandertallarning qurollari mustyelik deb ataladi. Ular chopper va chopqilarning ilk madaniyatiga qaraganda, bir qadam oldinga tashlash edi.

Asosiy yangiliklarga, yadrodan (nukleus) tayyorlanmagan, balki yadrodan parchalab olingan. Parchalardan nozik tayyorlangan turli ixtisoslashtirilgan qurollar kirar edi. Kremniy va obsidian kabi mayda donador shishasimon turlardan foydalanib, neandertallar allaqachon ma'lum bo'lgan, to'g'ri keladigan yadrodan bir yoki ikki yirik parchani ajratib oladigan levalluz deb atalmish texnologiyani takomillashtirdilar. Bundan tashqari, neandertallar mayda, qirralari o'tkir yupqa siniqlarni parchalab, parma, arrachalar yasadilar. Kaltak-tayoqlarni silliqlash uchun kichik tosh parchalarini yana ushatdilar. Bu asboblarning o'ljani o'ldirish, go'shtni teridan ajratish va maydalash, yog'och qurol va kiyimlar tayyorlash uchun ishlatilgan bo'lishi mumkin.

Mustye qurollarining Yevropa tipining bir necha xillari turli davr va madaniyatlarga mansub bo'lib, turli maqsadlarda ishlatilgan bo'lishi mumkin. Mustye qurollari eski ashell texnologiyasi va chopqi-chopper madaniyatining yanada rivojlanishi bo'lib, bundan 100 ming yildan 35 ming yil ilgarigacha Yevropa, Shimoliy Afrika va Janubiy-G'arbiy Afrikada tayyorlandi. Bunga o'xshash qurollar hatto Janubiy Afrika va Xitoyda ham yasaldi. Misol sifatida, qurollarning besh o'ziga xos tipini keltiramiz:

1. O'tkir uchli qurol; uzun o'tkir uchburchakli shakldagi tosh parchasi, yog'och tayoqqa bog'langan bo'lishi, nayza yoki kamon o'qi sifatida ishlatish hamda tayoq yorig'iga qistirish uchun yasalgan bo'lishi mumkin.

2. Qirg'ich; yassi qirg'ich, yo'g'onlashgan ishchi qismi bilan terilarni qayta ishlash uchun ishlatilgan bo'lishi mumkin.
3. Pichoq; o'tkir tig'li, ichki tomoni o'tmas uzun tosh parchasi, yog'ochga ishlov berish, go'shtni teridan ajratish, maydalash uchun ishlatilgan bo'lishi mumkin.
4. Tishi chiqarilgan arracha; arrasimon kesadigan qirralari bilan yog'ochga ishlov berishga yaroqli edi.
5. Sug'iriladigan qurol; tayoqni silliqlash uchun ishlatiladigan sug'iriladigan tosh parchasi, tayoq va nayza o'rnida ishlatilgan bo'lishi mumkin.

8. Ov. Ibtidoiy jamoaning shakllanishida ov muhim o'rin tutdi. Dunyoning turli hududlari geografiyasi, iqlimi, flora va faunasiga qarab ov o'ljalari har xil bo'lgan. Tropik hududlarda yovvoyi ho'kizlar, tapir, antilopa, karkidonlar asosiy ov o'ljalari edi. Ba'zi ashell manzilgohlaridan topilgan hayvon suyaklari ichida fil kabi yirik hayvon suyaklari uchrab turadi. Shimoliy iqlimi sovuq hududlarda ot, bug'u, to'ng'iz, zubr, ba'zida g'or ayiqlari va g'or yo'lbarslari ov qilingan. Tog'li-dasht hududlarda tog' arxarlari, tulki, kiyik va turli parrandalar ov o'ljalari bo'lgan. Bu O'zbekiston hududidagi Teshiktosh g'or manzilgohidan topilgan hayvon suyaklarida yaqqol ko'rinadi. Ov miqdori to'g'risida manzilgohlardan topilgan yuzlab, hatto minglab hayvon suyaklarini sanash orqali bilish mumkin. Bunday ashell davri manzilgohlariga Chjoukoudyan (Xitoy,) Torralbe (Ispaniya) va Observatoriya g'ori (Italiya)ni ko'rsatish mumkin. Manzilgohlarning biridan 30 dan ziyod fillarning suyaklari topilgan.

Qadimgi odam yirik hayvonlarni, ayniqsa, bu hayvonlarning poda bo'lib yuradiganlarini faqat haydab ov qila olgan. Ashell-mustye davrlari ovchilarining quroli juda zaif edi. Ular hayvonga bevosita duch kela olmasdilar. Faqat ba'zi hollarda podadan ajralib qolgan yarador, kasal, zaif hayvonlar yakka tartibda ov qilingan. Qadimgi ovchilar faqat hayvonlar podasini jarlik, ungurlarga haydab borib, ov qila olganlar. Hayvonlar tik qiyaliklardan daraga ketme-ket tushib ketgan va halok bo'lgan. Ovchilarga faqat ularni jarlikdan chiqarib olish va iste'mol qilish qolgan xolos. Hayvonlarni haydab, jarlik tomon yo'naltirish, ularni qo'rqitish, shovqin-suron ko'tarish, olov va toshlardan foydalangan bo'lishlari mumkin. Bunday ov usullari bilan tirikchilik qilish odamlar jamoasini yashashga rag'batlantirib, uning a'zolarini mehnat jarayonida hamjihat bo'lishga majbur qilib, jamoaning kuchini namoyon qildi. Shu bilan birga, ov go'sht ozuqasi olishning eng

samarali usuli edi. Qadimgi odamlar faqat sutemizuvchilarni ovlabgina qolmay, turli kemiruvchilar, hasharotlar, sudralib yuruvchilar va baliqlarni ovlaganlar. Lekin yirik hayvonlarni ov qilish odamning jismoniy shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Go'sht inson organizmi uchun zarur bo'lgan oqsil, uglevod va yog'larni berdi. U faqat to'yimli ovqat bo'lib qolmay, ayniqsa, olovda pishiril-ganidan so'ng, yaxshi hazm bo'lib, ibtidoiy odam gavdasining o'sishiga yordam berdi, uning hayotiy faoliyatini yaxshiladi.

Neandertallar o'z davrining eng uddaburon ovchilari bo'lgan bo'lishlari mumkin. Aks holda, ular muzlik davrining qahraton sovuq iqlimi sharoitida yashay olmas edilar. Yozda ildiz, mevalar bilan kun ko'rishi mumkin edi. Qishda esa neandertal guruhlar tundra va sovuq mintaq o'rmonlarida yashaydigan sutemizuvchi hayvonlarni birgalikda ov qilish bilan go'sht topishlari mumkin edi.

G'orlardan va ochiq manzilgohlardan topilgan suyaklarga ko'ra, Yevropa neandertallarining asosiy o'ljasi yirik hayvonlar: bizonlar, g'or ayiqlari, otlar, shimol bug'ulari, yovvoyi ho'kizlar, jundor mamontlar va junli nosoroglar bo'lgan. Ba'zi ovchilar bizonlarga (Shimoliy Kavkazdagi Il manzilgoh), boshqalari – shimol bug'ulariga (Germaniyadagi Zaltsgittyer – Lebenitadt) ixtisoslashgan. Mayda o'ljaga tulki, quyon, parranda va baliqlar kirar edi. Faqat bitta vengr manzilgohidan yirik va mayda jonivorlarning 45 turining 50 mingdan ko'p suyaklari topildi (Biroq ba'zi manzilgohlardan ayiq va mamontlarning ko'pgina suyaklari tabiiy o'lim topgan hayvonlar tanasidan olingan ko'rinadi). Shubhasiz, ba'zi hayvonlarning faqat go'sht va suyaklari emas, balki suyak va paylari kiyim, turar-joy va tuzoq yasash uchun foydalanildi.

Bizda bu odamlar qanday ov qilganlari to'g'risidagi ma'lumotlar kam. Ular nayza otganlari, bog'lam sharlar irg'itgan bo'lishlari, katta qiyalardan katta toshlarni dumatatgan bo'lishlari mumkin yoki tuzoq qo'yib, ov o'ralari qaziganlar. Ovchilarning o'ljalari kasal, qari, juda yosh yoki zaiflashib qolgan hayvonlar yoki qishki uyqudagi ayiqlar bo'lgan. Odamlar olov yordamida qo'rqib ketgan otlarning butun to'dalarini jarlikka haydashlari va u yerda ommaviy qirg'in uyushtirishlari mumkin edi.

Ovchilikning bunday nozik usullarini qo'llash uchun hayvonlarning yurish-turishi, qanday ovqatlanishi, qayerda suv ichishi, qaysi joylarda ko'chib yurishini yaxshi bilishi kerak edi. Ovni puxta

rejalashtirish va ovchilarning o‘zaro harakatini muvofiqlashtirish zarur edi.

Janubiy-Sharqiy Osiyoda davriy sovuqlar zonasidan tashqarida erkaklar guruhlari shubhasiz yirik hayvonlar-yovvoyi ho‘kiz, qo‘y va echkilarni katta masofada ta‘qib qilib borar va o‘ldirar edilar. Shu bilan bir paytda, ayol va bolalar manzilgoh atrofida kemiruvchi, sudralib yuruvchi, ildiz, meva, asal, smola va o‘simlik urug‘lari, rezavorlarni terib-termachlar edilar.

9. Ibtidoiy birdamlikning rivojlanishi. Odamning hayvonot dunyosidan ajralishida mehnat asosiy omil bo‘ldi. Mehnatning o‘zi odamning jamoa shaklida tabiatga ta‘sir qilishi edi. Oddiy mehnat operatsiyasini bajarish ham faqat jamoada yurish-turishning ijtimoiy shakllari ko‘rinishida yuz berishi mumkin edi. Bu holat antropotsiogeneznining ilk bosqichlarida va ibtidoiy jamoa tarixida ozuqani izlab topish va taqsimlashda, jinsiy munosabatlarda boshqarish mavjud bo‘lgan deb aytishga imkon beradi. Bu jarayon tabiiy tanlov bilan kuchaydi. Tabiiy tanlov natijasida ijtimoiy jihatdan kuchli, o‘zaro yordam jipslashish asosida tashqi dushmanlar tazyiqini yengib, tabiat ofatlaridan omon qolgan jamoa o‘zini saqlab qoldi hamda o‘zini mustahkam tashkilot sifatida namoyon qildi.

Ovning ibtidoiy shakli bo‘lgan haydab ov qilish, yirtqich hayvonlardan birdamlikda himoya, olovni saqlash–bularning hammasi jamoa arafasi bo‘lgan odamlar guruhi shaklida dastlab instiktiv, keyinchalik, anglangan holda o‘zaro yordamning rivojlanishiga olib keldi. Shuningdek, til ham rivojlandi. Ayniqsa, mustye davrida jamoa orasidagi odamlar guruhida progress o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Aynan shu vaqtda jamoa a‘zolari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilina boshlangan – neandertallar vafot etganlarni dafn qila boshlaganlar.

10. G‘orlar, chaylalar va kiyimlar. Yevropa neandertallari muzlik davrining qahraton qishlarida issiq kiyimlar va qulay boshpana hozirlab, yashashlari uchun o‘ziga xos mikroiklim yarata oldilar.

Ba‘zi joylarda g‘orlar sovuqdan saqlanadigan tabiiy boshpana edi. Janubiy-G‘arbiy Fransiyadagi Dordondagi o‘nlab ohakli g‘orlarining har birida 40 kishiga yaqin odamlar guruhi yashagan. Rossiyaning Yevropa qismida yigirmaga yaqin g‘or ma‘lum. Fransiya-dagi Komb-Grenal g‘origa kiraverishda ustunning chuqurchasi shamol, qor va yomg‘irdan himoya qiladigan teridan qilingan parda mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Shimoliy Ispaniyadagi Kueva Morin g‘orining ichida, hatto tosh devor saqlanib qolgan.

G'orlar bo'lmagan ochiq joylarda ovchilar o'zlari uchun boshpana qurdilar. Tabiat ofatlaridan saqlanadigan bunday boshpanalar ichida juda ko'p yirik parrandalar mavjud bo'lgan. Ukraina daryo vodiylaridagi katta chayla va kulbalar katta taassurot qoldiradi. Odamlar bu yerda shox-shabbdan uzunligi 9 m, kengligi 7 m va balandligi 3 m bo'lgan qurilmalar barpo qildilar. Ko'rinishidan kulbaning devorlari terilar bilan qoplanib, mamontning og'ir suyaklariga mahkamlangan (ular kulba atrofidan topilgan) edi. Eski o'choqlarning izlari neandertallar o'z chayla va g'orlarini o'tin yoki suyak yoqib isitganlarini ko'rsatadi. Ular olovni bilardi, chaqmoqtosh parchalarini bir-biriga urib, uchqun chiqarar edilar.

Kiyim to'g'risida bevosita dalillar asosida xulosa chiqarish mumkin. Ko'rinishidan odamlar jun terilarni bichish uchun tosh pichoqlardan foydalanganlar. Terilarga tosh yoki suyak ignalar bilan teshik ochib, keyin bu terilarni paylar bilan tikkanlar. Ular tulki, quyonlar, bo'rilarining terilarini shilganda, ko'rinishidan ba'zida bu terilarni bog'lash uchun hayvon oyoqlarini saqlaganlar. Natijada dag'al ishton, ko'ylak, qalpoq va oyoq uchun paytavalar paydo bo'lgan.

11. Dafnlar, an'analar, san'at. Dafnlar, an'analar va ibtidoiy san'at neandertallarni yuqori darajada o'zligini anglash, ijtimoiy manfaatlarni tushunishlari o'zlarining ajdodlari HOMO erectusga qaraganda, mavhum fikrlash qobiliyatiga ega ekanliklaridan dalolat beradi.

Neandertallar o'z o'liklarini tizimli ko'mgan birinchi odamlar hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmi boshlarida olimlar, asosan Yevropadagi deyarli barcha g'orlardan 68 qabrni topdilar, bu qabrlardan 150 jasad topilgan. Shubhasiz, dalillar o'lganlarni ko'mish an'ana-odat ekanligini ko'rsatadi.

Suyaklar g'orlardagi qazilgan chuqurlarda ko'milgan bo'lib, ko'plari uxlab yotgan odam holatida yotqizilgan va vafot qilganda, u dunyoda hamrohlik qilishi lozim bo'lgan ashyolar qo'yilgan. Bu tosh qurollari, qovurilgan go'sht parchasi, tosh yostiq, atrofga sochilgan bahorgi (gullardan qolgan changlar bo'yicha fikrlash mumkin) gullar edi.

Bularning barchasi, neandertallar odamning hayoti va o'limiga ahamiyat berilganini, u dunyodagi hayotlari to'g'risida o'ylagan bo'lishlari mumkinligidan dalolat beradi. Ular bir-birovlari uchun g'am chekkanlari bo'lishi mumkin. Iroqdagi Shanidar manzilgohida yarim ko'r, artrit kasaliga chalingan, qurib qolgan qo'lli cholga faqat g'amxo'r urug'doshlari uzoq qaragan bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, baribir o'zlarining o'tmishdoshlari kabi bu odamlar ham ba'zida, bir-birlarini, goho bosh

chanog'i va suyak bo'g'inlarini sindirib, miyani olib yer edilar. Bu bilan o'zlari yegan odamlarining kuchiga ega bo'lishga ishongan bo'lishlari mumkin.

Kannibalizmdan tashqari, boshqa urf-odatlar mavjud edi. Bir g'orda neandertallar tog' echkilari shoxlarini doira qilib qo'yanlar, boshqasida o'lgan g'or ayig'ining bosh chanoqlarini o'yib qo'yanlar edilar. Bu bilan ular o'zlari o'ldirgan hayvonlarning ruhlarini rahmdil qilmoqchi bo'lgan bo'lishlari mumkin. Neandertallarning san'atlari ham ritual xarakterda bo'lgan bo'lishi mumkin. Biz bu to'g'risida suyak tumor, tirnab yozilgan tosh, temirning qizil okislangan parchasi va kukun qilingan merganets (odam badanini bo'yashga ishlatilgan bo'lishi mumkin) orqali bilamiz.

Tayanch iboralar: Paleoantropolog, Svanskombalik odam, Shtengeymlik odam, Rodeziya odami, Saldaniya buxtasidagi bosh chanog', Solo daryosidagi odam, Chjotsiyaodagi odam, kinetik nutq, etnikos, ijtimoiy-potestar, promuskitet, egzogamiya, Mak Lennan, tabu, sibling, mammunthus primigenius, vrsus spelalus, ovibos moshatus, pontnevidd, Fonteshevad, La-Shapel-o-sen, Chircheo, Nander, Krapina, Jabal-Irxud, Tabun, Sxul-V, Amud-1, Kafzek, Shanidar, Teshiktosh, neandertal qurollari, nukleus, mustye qurollari, sug'iriladigan qurol, levalluaz texnologiyasi, chopper, Komb-Grenal g'ori, Kueva Morin g'ori.

Takrorlash uchun savollar

1. Qaysi tur zamonaviy odamdan oldin sovuqqa chidamli bo'lib, uzoq vaqt yashadi?
2. Odamlarning imo-ishoralari nima uchun tovush va so'zlarga aylana boshladi deb o'ylaysiz?
3. Go'sht iste'mol qilish inson organizmi uchun qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
4. Ov jarayoni ibtidoiy odamlarda qanday sifatlarning shakllanishiga yordam berdi?
5. Nima uchun ekzogamiyaning shakllanishini xo'jalik faoliyati bilan bog'lash mumkin?
6. Muzlash hayvonot dunyosiga qanday ta'sir qildi?

Mustaqil ish mavzulari

- 1.Ovning qadimgi odamlarning ijtimoiylashuvidagi o'rni.
- 2.Neandertal odam.
- 3.Yevropa, Osiyo va Afrika neandertallari.
- 4.Neandertallarning mehnat qurollari va ov.

4. Zamonaviy odam yerni o'zlashtiradi

- 1. Zamonaviy odamning kelib chiqishi. 2. Odam irqi. 3. Iqlim, teri rangi va gavda tuzilishi. 4. Zamonaviy odam Yevropada. 5. Zamonaviy odam Afrikada. 6. Zamonaviy odam Osiyoda. 7. Odam Amerikaga keladi. 8. Birinchi avstraliyaliklar***

1. **Zamonaviy odamning kelib chiqishi.** Afrika, Osiyo va Avstraliya. Yevropada bizning turimizni quyi osti odamlari tez tarqala boshladi. Zamonaviy odam bundan 100 ming yil avval Afrikada yashagan Homo sapiensning ibtidoiy shakllarining biridan tarqalgan bo'lishi mumkin. XX asrning 80-yillarida Yevropa kromanonlari neandertallardan kelib chiqqan yoki ular dunyodagi birinchi to'la zamonaviy odamlar bo'lgan edi degan tushuncha ishonchsiz bo'lib ko'rindi. Skeptiklarning fikriga ko'ra, neandertaldan kromanonga tomon har qanday evolutsion sakrash bizga ma'lum. Zamonaviy odam Afrikada Homo sapiensning arxaik shaklidan, bundan 100 ming yil oldin kelib chiqqan deb taxmin qiladilar.

Hozirgi kunlarda qazilma bosh chanoq topilmalari bizning ajdodlarimiz aynan Afrikadan chiqqan degan fikrni keltirib chiqaradi. Shunga o'xshash boshqa guvohliklarni turli irq guruhlar tomonidan meros qilib olingan genlar shaklida ko'rish mumkin.

Odam irqi (avstroloid, mongoloid, negroid, yevropoid)ning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalardan biri DNK oqsillari va molekulalari hamda xromosomada mavjudligi tadqiqoti asosida tushuntiriladi. Qachonlardir olimlar, bu guruhlar ishonchsiz tashqi belgilar, gavda tuzilishi va terisining rangi bo'yicha turkumladilar. Keyinchalik biologlar, barqaror o'ziga xos jihatlar, qon guruhlar va ular bilan bog'liq proteinlarni qiyoslay boshladilar. Lekin DNKdagi nukleotidlarning turli xil izchilligini protein mahsulotlarining bir xilligidan tuzilgan genlar yaratishi mumkin. Shuning uchun odamlar guruhining uzoq muddatli vorisiylik aloqalarini kuzatishning eng ishonchli usuli DNKdagi nukleotidlarning o'z izchilligini taqqoslashdir.

Bunday taqqoslashni biologlar bajaradilar. Ingliz olimi Jeyms Ueynskot va Adrian Xill gemogloblin qizil qon tomirchalari molekulari qismini olish uchun javob beradigan DNKning besh parcha-sini gendan ajratish uchun enzim deb ataladigan biologik mahsulotlardan foydalanish mumkinligini aytdilar. Ular bu parchalarning turli ko'rinish-larini afrikalik, hind, melaneziyalik, tailandliklar va inglizlar kirgan 600 kishida aniqladilar. Shu narsa ma'lum bo'ldiki, umumiyliklarning cheklangan soniga afrikaliklar ega. Ular boshqa guruhlarda yo'q bo'lgan umumiyliklarga ega. Olimlar aniqladilarki, dunyodagi barcha xalqlar bir-birlari bilan qon-qarindoshlik aloqalari orqali bog'langan va tarixgacha bo'lgan afrikalik-larning kichik bir guruhidan kelib chiqqan.

Bu nazariyaning tarafdorlari, ko'pgina odam Afrikada bundan 100 ming yil oldin paydo bo'ldi, keyinroq Osiyoga tarqaldi va bundan 30 ming yil oldin Antraktidadan boshqa barcha qit'alarga kirib keldi deb hisoblaydilar. Amerikalik olimlar Rebekka Kani va Mark Stoun faqat ayollar orqali uzatiladigan mitoxondriya genlarining geografik taqsimotini o'rganib, shunga o'xshash xulosaga keldi. Demak, bu turi bundan 200 ming yil oldin Afrikada yashagan bir ayoldan tarqalgan. Bundan keyin olib boriladigan genetik tadqiqotlar boshqa turlarning kelib chiqishini aniqlab berdi.

2. Odam irqi. Hozirgi zamonaviy odam bir turga mansub insoniyatning birligi, kelib chiqishining umumiyliigi, tuzilishining o'xshashligi, avlodining ma'lumligi turli irq vakillari o'rtasidagi nikohdan kelib chiqadi. Barcha odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanishining umumiy darajasi bir xil. Homo sapiens turi ichida uchta katta irq: negroid, yevropoid va mongoloid ajratiladi. Ularning har biri kichik irq'larga bo'linadi. Irqlar o'rtasidagi farqlar teri rangi, ko'z, burun, lab shaklining o'ziga xosligiga borib taqaladi. Bu farqlar odam populyatsiyalarining mahalliy tabiat sharoitlariga moslashuvi natijasidir.

Odamning butun yer sharida tarqalishi irqiy ajralishga olib keldi. So'nggi paleolit odamlarining bosh chanoqlari topilmalarida hozirgi vaqt-da mavjud insoniyat irqiy bo'linishining asosiy xususiyatlari yetarlicha aniq ifodalangan. Ular qit'a chegaralari bo'yicha aniq mos tushadi. Yevropoid irqi ko'proq Yevropada, mongoloid – Osiyoda, negroid irqi Afrika va Avstraliyada shakllandi va joylashdi. Chegara hududlar – O'rtayer dengizi, Yevropa qirg'oqlarida negroid irqi, Afrikada – yevropoid guruhleri; Kavkaz va O'rta Osiyoda yevropoid irqi vakillari o'rnashdi. Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda negroidlar mongoloid va yevropoid-lar bilan aralashdi. Uch asosiy irqning

morfologik har xillikda shakllani-shida asosiy o'rinni ikki omil egalladi – turli qit'alarda har xil bo'lgan muhitga moslashuv; qit'alar o'rtasida yetarlicha keskin ajralib turadigan tabiiy chegaralar tufayli butun bir qit'alarning bepoyon kengliklarida yopiq, boshqalardan ajralgan holda yashashga moslashuv.

Negroid irqining klassik vakillari juda qora teri, jingalak sochlar, juda keng burun, qalin lablarga ega. Bu belgilar majmuasi juda yuqori harorat va katta miqyosdagi namlik iqlimiga qulay fiziologik moslashuv misolidir. Odatda tropik iqlim sharoitida osiyo va yevropa irqi o'zini juda yomon his qiladi. Afrikaliklar esa bu iqlimda o'zini juda yaxshi his qiladi. Chunki afro-avstraliyaliklardagi morfologik o'ziga xoslik o'zini yaxshi his qilishiga sabab bo'ladi. Ularda terining qora rangi teri qatlamlarida uni kuyishdan saqlaydigan alohida melanin pigmenti tufayli hosil bo'ladi. U boshqa irq vakillari terisida ham mavjud, lekin kam miqdorda bo'ladi. Jingalak sochlar bosh atrofida uni qizib ketishidan saqlaydigan alohida havo o'tkazadigan qatlamni hosil qiladi. Ko'rinishidan bunga negroid irqining ko'pchilik vakillariga xos bosh chanog'ining balandligi va uzunchoq shakli undan qizib ketishga yo'l qo'ymaydigan geometrik gavda hosil qiladi. Yirik burun teshiklari bilan keng burun va keng yuzaga ega bo'lgan qalin lablar issiq berishni kuchaytiradi. Negroidga xos gavdaning yuzasi birligi ter chiqishining katta miqdorini hosil qiladi.

Mongoloid irqi issiq, lekin quruq kontinental iqlimli hududlarda, yarim sahro va cho'l landshafti sharoitlarida, quruq va sovuq shamol havoda juda katta miqdorda changni ko'taradigan hududlarda shakllandi. Bundan iqlim qandaydir himoya vositalarining hosil qilinishiga sabab bo'ldi. Shu sababli, mongoloid irqi vakillari yuzi yevropoid va negroid irqlari yuzidagi yog' qatlamidan ko'p miqdorda qalin bo'lgan yog' qatlamiga ega. Ko'zning tor kesimi va ko'zning ichki burchagi – epikantasda alohida burmalar mavjudligi bilan belgilanadi. Mongoloid irqining bu o'ziga xos morfologik xususiyatlari iqlimga moslashish natijasida paydo bo'ldi. Bu holatni Markaziy Osiyo landshaftiga to'g'ri keladigan Janubiy Afrikaning cho'l va yarim cho'l sharoitida yashaydigan bushmen va gottentotlar morfologiyasida kuzatish mumkin.

Yevropoid irqining eng asosiy morfologik belgisi – oldinga kuchli chiqqan uzun burunning mavjudligi iqlimning irqlarning shakllanishidagi ta'siri natijasi deyish mumkin. To'rtinchi bosqich oxirida Yevropaning nisbatan sovuq iqlimi odam organizmini sovuqdan saqlash uchun mosla-shuvni shakllantirish zaruriyatini tug'dirdi. Uzun va

oldinga chiqqan qirra burun bo'shlig'i havoning nafas olish yo'llarigacha borishini uzaytirdi va uning isishiga yordam berdi.

Tabiiy tanlov jarayonida shakllangan bu foydali belgilar bilan birga, hozir mavjud bo'lgan irqlarda biror-bir irqqa mansub deb bo'lmaydigan neytral belgilar mavjud. Bu burun, quloq va og'iz tuzilishining mayda detallari, yuz va bosh chanog'i o'lchamlarining boshqa nisbatlari. Ko'rini-shidan bu barcha alohidaliklarning shakllanishida tasodifiy o'zgarishlar va izolatsiyaning o'rni salmoqli. Boshqacha aytganda, belgilarning neytral komplekslarining shakllanishi – bu belgilarning tasodifan to'planishi, insoniyat asosiy irqlarining bo'linishini yopiq havzalarda tarqalishi natijasidir. Ko'rinishidan ikki belgidan birining o'zgarishi ikkinchi belgi-ning o'zgarishi oqibatida yuz bergan. Shu bilan birga, boshqa bir belgi orqasidan o'zgargan belgi organizmga foydali bo'lmasligi ham mumkin. Misol sifatida, yuz kengligi, kalla suyagining o'zgarishi, sochlar rangining intensivligi orasidagi aloqa, ko'z va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, muhitga moslashuvga harakatlar, tasodifiy o'zgarishlar va evolutsiya eski dunyoning uch katta qit'alarida insoniyat uch irqining shakllanishiga olib keldi. Uch irq o'rtasidagi farq so'nggi paleolit oxirida yetarlicha yaqqol ko'rindi. Tabiiy tanlov harakati bilan birga, muhitga moslashuv kamaydi. Shunda irq shakllanishi jarayonida turli irqlar vakillarining aralashib ketish ta'siri kuchaydi. Bundan tashqari, yana bir hodisa harakatga kirdi – ma'lum bir yo'nalishda vaqt bo'yicha belgilar o'zgardi. Ayniqsa, bu hodisaning aniq harakati davrlar bo'yicha bosh chanog'ining qolipi, uning uzunligining qisqarishi va kengligiga o'sishi kalla suyagining og'irligi darajasini aks ettirdi. Og'ir bosh chano-g'ining yanada nozigiga almashuvi yuz berdi. Bu o'zgarishlar ko'pgina sabablarni, jumladan, bo'yning o'sishi va ijtimoiy muhitning murak-kablashuvi ta'siri ostida jinsiy yetuklikning jadallashuvi, dehqonchi-lik madaniyatiga kirish–bu ozuqaning o'zgarishi va umuman xo'jalik hayotining butun rejimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Paleoantropologiya va arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, katta irqlar doirasida yirik shoxobchalarni ajralishi mezolit davriga tegishli. Mongoloid irqi ichida osiyo, amerika shoxlari, yevropoid irqi ichida shimoliy va janubiy shoxlar ajraladi. Negroid stvoli afrika va avstroloid tip guruhlariga ajraladi. Bu vaqtda, kontakt zonalarida metis tiplari vujudga keladi.

Lokal irqlarning ko'pchiligi yopiq yashash ta'siri ostida shakllandi. Bu birinchi navbatda, avstraliya va amerika shoxlariga

tegishli. Yevropa irqining shimoliy va janubiy shoxlari ko'k ko'z va sariq sochlar turli irqalar, jumladan, negroidlar iqlim omili ta'sirini his qilganlar. Shunday tarzda irqalarni rivojlanishining omillari turli hududlarda har xil irq tiplariga nisbatan turlicha ta'sir qildi. Turli irqalar har xil omillar ta'siri ostida shakllandi. Qadimgi bo'lmagan u yoki bu irq tipining shakllanishida aralashib ketish va belgilarning yo'naltirilgan o'zgarishlari muhim rol o'ynadi. So'nggi irqiy tiplarning ko'pchiligi keyingi uch-ikkinchi ming yilliklar davomida shakllandi va ularning shakllanishi ibtidoiy jamoa tarixi xronologik doirasidan chiqadi.

3. Iqlim, teri rangi va gavda tuzilishi. Bizning turimiz butun dunyoga tarqalish jarayonida odamlarning har xil guruhlar turli iqlim zonalariga tarqaldi. Tabiiy tanlanish jarayonida odamlar jismoniy jihatdan turli tabiiy sharoitlarga moslashdilar. Buning natijasida qora, oq va sariq tanli odamlar paydo bo'ldi. Badan rangi u yoki bu irqqa mansublikni aslo bildirmaydi (umumiy kelib chiqishi jihatidan bog'langan odamlarning biologik guruhi). Negrlar va melaneziyaliklarda qora badan xos, ammo ular bir-birlari hamda oq, sariq tanli kishilar bilan juda kam bog'langanlar. Shu bilan birga bu odamlarning barchasi bir xil turga kiradi.

Endi terisi oq, qora va sariq tanli odamlarning gavda tuzilishiga va ular o'rtasidagi jiddiy farqlarning paydo bo'lishiga issiq yoki sovuq iqlimning ta'sirini qisqacha ko'rib chiqamiz. Boshida teri rangini olamiz. Oq tanli odamlarda kuchli tropik quyoshga toblanishdan teri po'st tashlab, shishlar bilan qoplanadi. Muntazam ultrabinafsha nurlanish, hatto, teri rakini paydo qilishi mumkin. Qora tanli odamlarda teri melanin qora pigment bilan bo'yalgan bo'lib, bu narsa zararli ta'sirlardan himoya qilingan. Lekin tropik mamlakatlardan uzoqda joylashgan hududlarda osmon ko'pincha bulutlar bilan qoplangani terining rangsizroq, oqroq bo'lishi o'z afzalliklariga ega. Chunki u suyaklarning barqaror rivojlanishga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatadigan odam organizmi tomonidan D vitaminini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan zaif ultrabinafsha nurlanishni yetarli miqdorda yutishga imkon beradi. Salqin, tumanli mamlakatlarda qora tanli bolalar tez-tez raxit bilan kasal bo'ladilar.

Gavda tuzilishi, gavdaning shakli va o'lchamiga ta'sir ko'rsatadigan qator muhim omillar mavjud. Baland bo'yli oriqli negritlar uzun oyoqlari bilan gavdasining yuzasi juda katta, uning gavdasining hajmi bilan qiyoslaganda, bunday mutanosiblik tropiklarda issiqda azob chekmaslik uchun iqlimga mosdir. Shunday sharoitda

o'zining baland bo'lmagan bo'yi, katta yuzaga ega bo'lmagan to'la gavdali eskimos (mongoloid) issiqdan azob chekkan bo'lar edi. Lekin teri osti yog'lari bilan himoyalangan bunday gavda tuzilishi Arktika qishlari sharoitida hayot faoliyati uchun muhimdir. Qaysiki, oriqdan kelgan gavda tuzilishiga ega bo'lgan odam organizmi uchun halokatli bo'lgan gavdasining sovib ketishidan azob chekar edi. Albatta, bu oddiylashtirilgan manzara. Hanima mongoloidlar ham eskimoslardek gavda tuzilishiga ega emas. Lekin yuqorida tasvirlanganga o'xshash biologik moslashuv paleolit davri odamiga yashash uchun yaroqli bo'lgan barcha qit'alarni egallash imkonini berdi.

4. Zamonaviy odam Yevropada. Homo sapiensning yoshi 40 ming yilga teng bo'lgan turosti to'la zamonaviy odamning vakillari bir-biridan uzoq bo'lgan joylar-Borneo oroli (Kalimantan) va Yevropadagi ko'plab qazilma topilmalari bilan ma'lum. Ba'zi eng qadimgi skeletlarda zamonaviy u yoki bu irqalar; yevropoid, mongoloid, negroid yoki avstroloidga tegishli aniq o'xshashliklar mavjudligi aniqlangan.

Ilk zamonaviy yevropaliklarning bizga ma'lum bo'lgan suyak qoldiqlari Janubiy-G'arbiy Fransiyadagi Kro-Manon g'oridan topilgan skeletlarga ko'ra, bo'yi baland kromanonlar neandertallarga qaraganda, gavdasi kamroq dag'al tuzilgan. Ularning suyagi HOMO erectusga qaraganda ingichka edi. Neandertallarga qaraganda, kromanonlarning boshi nisbatan baland, yuziga yo'nalgan qisqargan bo'ynining orqasi, bosh qopqog'i yanada dumaloq va o'rtacha hajmi 1400 sm^3 bo'lgan kichikroq miyaga ega edi. Boshqa alohidaliklar: bosh to'g'ri o'tkazilgan, yuz qismi to'g'ri, oldinga turtib chiqmagan, ko'z usti bo'rtmalari yo'q yoki zaif rivojlangan burun va jag'lar nisbatan katta emas, tishlar jipsroq turadi, iyak osti yaxshi rivojlangan.

Ba'zi paleoantropolar, to'la zamonaviy odam bir qit'ada «eng avvalo, Afrikada» paydo bo'ldi. Homo sapiensning ibtidoiy mahalliy shakllarini almashtirib, boshqa qit'alarda tarqaldi deb hisoblashadi.

Boshqa tadqiqotchilarning fikricha, ibtidoiy mahalliy shakllar bir-biridan mustaqil ravishda bizning (podvid-turosti) turga aylandilar. Murosaviy nazariyalarga ko'ra, zamonaviy odam bir joyda paydo bo'ldi. Uning yanada qadimyroq mahalliy shakllar bilan aralashuvi hozirgi zamonaviy shakllarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Qazilma qoldiqlariga ko'ra, bizning turimiz nima uchun shunday omadli bo'lganini aniqlash qiyin. Haqiqatan ham, bundan 10 ming yil oldin-paleolit davrida bizning ajdodlar ovchilik va terimchilik bilan shug'ullanib yurar edilar. Baribir ular barcha qit'alarni o'zlashtirishga

muvaffaq bo'ldilar. Antraktida bundan mustasno. Ular shunday qurol, texnik usullar va yurish-turishning yangi shakllarini yaratdilar. Bu hol kishilarning hayot tarzini tubdan o'zgartirishga olib keldi va aholi sonining keskin o'sishiga sabab bo'ldi.

Homo sapiens ostki turiga mansub to'la zamonaviy odamning paydo bo'lishi to'g'risidagi birinchi ma'lumotlar Fransiya janubiy-g'arbidagi Kro-Manon dasaridan topilgan suyaklar edi. Yevropaning ko'pgina qismlarida kromanonlardan skeletlar va moddiy madaniyat ashyolari qoldi. Bu yerda taxminan bundan 40 ming yildan 10 ming yil oldingacha zamonaviy yevropoid yoki kavkaz irqiga mansub odamlarning ajdodlari yashagan edi. So'nggi paleolitning ovchilari muzlik davrining qattiq qiyinchiliklarini tosh va suyakdan yanada takomillashgan qurollarni yasash bilan yengdilar. Bu qurollardan qit'ada daydib yuradigan, ko'p go'sht beradigan hayvonlarni ov qilishda foydalandilar.

Bu davr o'rniga mezolit – o'rta tosh davri er.avv. 12 ming yillikdan 5 ming yilgacha davom etgan bosqich keldi.

5. Zamonaviy odam Afrikada. Afrikada boshqa qit'alarga qaraganda, eng qadimgi odam qazilma topilmalari topilgan edi. Janubiy Efiopiyada (Omo-I) ko'pgina zamonaviy belgilarga ega bo'lgan, yoshi taxminan 60 ming yilga teng to'la bo'lmagan bosh chanog'i topildi. Janubiy Afrikaning Klazis daryosi yuqorisidan yoshi taxminan 100 ming yilga teng «zamonaviy qoldiqlar», Border g'oridan yoshi 90 ming yil bo'lgan «zamonaviy» quyi jag' topildi.

Ba'zi bir boshqa qadimgi topilmalarni hozirgi negr va bushmenlar bilan bog'lash mumkin. Taxmin qilinishicha, bu guruhlariga tegishli vorisiylikning o'ziga xos sifatlari bo'lgan, yoshi 100 ming yilga teng bo'lgan Floristad (Janubiy Afrika)dan bosh chanoq topilgan. Lekin o'ziga xos bushmen tipidagi bola bosh chanog'iga o'xshash tip bizga ma'lum bo'lgan 12 ming yoshga ega negrlar qoldig'idan ham qadimiyroqdir. Ko'rinishdan bushmen-gottentot guruhlariga qachonlardir butun Janubiy Afrikani egallaganlar. Ovchi-terimchi bushmen guruhlariga bugungi kunda ham Botsvana hududidagi Kalaxari sahrosida deyarli paleolit turmush tarzida hayot kechiradilar.

6. Zamonaviy odam Osiyoda. Osiyoning turli hududlari, Falastindan Yava oralig'igacha 40 ming yillik yoshga teng bo'lgan bosh chanog'i qazilmalari topilgan. Ularning barchasida iyak osti chiqib turadi yoki boshqa «zamonaviy» belgilari mavjud. Osiyoning g'arbi va janubi-sharqida neandertallarga xos bo'lgan ibtidoiy alohidalikning

mavjud shakllari tadqiqotchilarni esankirاتب qo'ydi. Chunki ular yanada qadimgi odamlar-HOMO erectusga o'xshashdir. Mutaxassislar buni har xil tushuntiradilar.

Xitoydagi ba'zi bosh chanoqlariga qaraganda, bu yerda 20 ming yil oldin zamonaviy Osiyo mongoloidlarining ajdodlari bo'yi baland bo'lmagan, baquvvat, oq yoki qizg'ish terili, to'g'ri qora sochli, badanida zaif jun qoplamasi, ko'zining yuqori qovog'ida alohida teri qatlami, yassi yuz, keng dahan va qisiq ko'zli odamlar yashagan.

Osiyodagi ba'zi zamonaviy odam qoldiqlari:

1. Kafzexdagi bosh chanog'i – neandertallarnikiga o'xshash, ko'z usti bo'rtmalariga qaramay, bu bosh chanog'i zamonaviy tipga kiradi. Yoshi 33 ming yil. Joyi Isroil, Kafzeh darasi.

2. Niaux g'oridagi odam – nozik gavda tuzilishiga ega o'smirning bosh chanog'i, tishlari va oyoq suyaklari parchalari bo'yicha ma'lum. Yoshi 40 ming yil. Joyi Indoneziyadagi Borneo (Kalimantan) oroli, Niaux g'ori.

3. Vadyaklik odam – uzun bosh chanog'iga ega, yassi peshona, ko'z usti bo'rtmalari, oldinga turtib chiqqan og'iz jag'lari. Yoshi noaniq. Joyi Yava oroli, Vadyak g'ori.

4. Motszyanlik kishi – anatomik tuzilishiga ko'ra, Xitoydagi zamonaviy odamning ilk vakili hisoblanadi. Yoshi 20 ming yil. Joyi Lyutszyan, Guansi provinsiyasi, Xitoy.

5. Osiyo mongoloidi – yassi yuz, qisqa burun va burchakli dahani bilan bosh suyagi. Bu belgilar Xitoydagi ba'zi bir qazilma topilmalariga xosdir.

7. Odam Amerikaga keladi. Birinchi bor odamlar Shimoliy Amerikaga bundan 70 ming va 12 ming yil ilgari paydo bo'lgan bo'lishlari mumkin. Katta muzlash davrlarida, bu vaqtda dengiz chekinib, Bering quruqlik bo'yni paydo bo'ldi. Hozir bu yer Bering bo'g'ozini bilan suv bosgan. Ovchi-terimchilar Sibir va Alyaskadan oyoqqa nam tekkizmay, Bering bo'ynidan o'tdilar. Ular janubga, muzdan xoli bo'lgan yo'l orqali siljib, Buyuk tekisliklar bo'ylab tarqaldilar va Janubiy Amerikaga kirib, Patagoniyaga yetdilar.

Antropologlarning fikricha, bu paleo – hindular bo'lib, ularda to'g'ri qora soch, mis rang teri, qora ko'zlar, keng dahanlar va kuraksimon tishlar mavjud edi. Yuqorida sanalgan mongoloid belgilar hozirgi Amerika hindularida saqlanib qolgan.

Hozirgacha Amerikaga ularning ajdodlari qachon kirib kelgani to'g'risidagi bahs-munozaralar tugagani yo'q. Kech kirib kelish

tarafdorlari, ilk qazilma topilmalar bor yo'g'i 12 ming yoshga ega deb hisoblaydilar. Taxminan shu vaqtda Alyaskadan Meksikagacha bo'lgan hududda nayzalar uchun asosida san'atkorona o'yiqlar qilingani bilan o'ziga xos uchliklar paydo bo'ldi. Klovis deb ataladigan madaniyatga tegishli bu uchliklarning paydo bo'lishi, qachonki, paleohindular shimoliy muzlik qatlamlaridan siljib, janubda hayvon va parrandalarga boy bo'lgan yerni topishlari bilan bog'liq edi.

Qadimshunos sana tarafdorlari, odamlar Amerikaga bundan 40 ming yil ilgari kelganini tasdiqlaydilar. Lekin Kaliforniyadagi Del-Mar odami-ning bosh chanog'ining sanasi aniqlangach, ilgari taxmin qilingan 48 ming yilga teng yoshdan uning yoshi 11 ming yilga kamaytirildi. Shunday qilib biz, o'rta sanada odam Amerikaga 30 ming yil oldin kelgan degan xulosaga kelamiz. Bu sana Yukondagi Eski Karga havzasidagi topilmalar bilan mustahkamlanadi. Bu yerdan, jumladan, terini tozalash uchun suyak qirg'ichlar topilgan. Ko'rinishidan uning yoshi 27 ming yilga teng. Boshqa asosli topilmalar Meksikadagi yoshi 22 ming yil bo'lgan o'choqlar va suyaklardir. Qaysiki, ularning yoshi 20 ming yil yoki undan qadimiy-roqdir.

Paleoantropologlar, hali ham odam qachon Shimoliy va Janubiy Amerikada paydo bo'ldi va bu migratsiya bir necha birin-ketin yuz bergan to'lqinlar tarzida (qaysiki, kechroq kelgan kelgindilar eskimoslardan oldin yuz bergan) yuz berdi deb munozara qiladilar. Hech qanday shubha yo'qki, odamlar joylashmagan, lekin odam yashashi uchun yaroqli bo'lgan oxirgi bu ikki qit'a bundan 11 ming yil oldin boshdan oxirigacha odamlar joylashgan hudud edi.

Amerika odamlari va hayvonot dunyosi. Bundan 12 mingdan 5 ming yilgacha Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko'plab yirik hayvonlari, go'yoki qirilishning ulkan to'lqini bilan supurib tashlandi. Uning qurbonlari tarixgacha bo'lgan fillarning yetti turi (mamontlarning to'rt turi va mastodontlarning uch turi), tuyalarning uch turi, uzun shoxli bizon, ot, ba'zi panshaxasimon shoxli antilopalar va muskus ho'kizlari, yerda yuruvchi ulkan yalqovlar (megateriyalar), ulkan zirxlilar (gliptodontlar) va qilichsimon tishli mushuklar bo'ldi.

Bu hayvonlarning qirilishi, yo'q bo'lib ketishining cho'qqisi bundan 12 ming yildan – 10 ming yilgacha bo'lgan oraliqqa to'g'ri keladi. Bu vaqtda, qachonki paleohindular har ikki qit'ani egalladilar. Shu boisdan ba'zi olimlar, hayvonlarning bu turlari odamlar tomonidan qirib yuborilgan deb hisoblaydilar.

Bir mutaxassisning tasdiqlashicha, yuz kishi Kanadadan janubga tomon 1 yilda 16 km. tezlikda harakat qilsa, 300 yilda 300 ming kishigacha ko'payib, Meksika qo'ltig'igacha yetishi va yo'l-yo'lakay shu vaqtning ichida 100 mln. sutemizuvchilarni yo'q qilishi mumkin ekan. Ammo bu hayvonlarning o'lib ketishi iqlimning tubdan o'zgarishi bilan shimoliy muz qatlamining erish vaqtiga mos keladi. Haroratning tebranishi va yomg'ir namligining miqdori o'simliklarga keskin ta'sir qilib, o'txo'r hayvonlarning ba'zilarini ovqatdan mahrum qildi. Shunday tarzda iqlimning o'zgarishi o'txo'r hayvonlar bilan oziqlanadigan yirtqichlarning och qolishini bevosita sababchisi bo'ldi.

Uchinchi nazariyaga ko'ra, hayvonot dunyosining yo'q bo'lishiga odam ham, iqlim ham aybdor. Ushbu nazariyaga ko'ra, iqlimning o'zgarishi o'simlik dunyosiga ta'sir qilib, hayvonlarning ma'lum bir turlari ovqatlanadigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Bu hududlarda to'plangan va ovqat yetishmasligi oqibatida zaiflashgan butun podalar ovchilarning qurboni bo'ldi.

Mamontlarning yo'q bo'lib ketishi, odamlar sonining o'sishi mamontlarni ov qiluvchi ovchilar madaniyatlari klovis va fols madaniyatlarining bir-birini o'rnini olishi bilan bundan 10 ming yil oldin bizonlarni ov qilish va yovvoyi o'simliklarni terish madaniyati plano kirib keldi. Shimoliy Amerika hindularining madaniyati ovchilik bosqichi aralash holda iqtisodiyot tipidagi madaniyat bilan almashdi. Bu madaniyat arxaik bosqichda yashadi va bundan 2300 yil ilgari yakunlandi.

X. Birinchi avstraliyaliklar. O'choqlar izlari va yoshi aniqlangan qazilma topilmalar zamonaviy odam Avstraliyada bundan 40 ming yil oldin yashaganidan dalolat beradi. Ba'zi mutaxassislar fikricha, odamlar bu yerga bundan 120 ming yil oldin kelganlar. Qachonki, bu vaqtda yangi Janubiy Uelsda butazorlarning yonib ketishi keskin o'sib, yuqori haroratga chidamli o'simliklarning zamonaviy turlari keng tarqaldi. Lekin Avstraliyada bu davrga tegishli bo'lgan odam skeletlari qoldiqlari yoki qurollar topilgan emas. Ehtimol, ilk bor bu yerda odamlar bundan 55 ming yillikdan toki 35 ming yillar oralig'ida paydo bo'ldilar. Qachonki, okean sathi hozirgiga qaraganda, 50 metr past edi va ko'pgina orollar bir butunni tashkil qilar edi. Janubiy-Sharqiy Osiyo aholisi kanoe yoki sollarda Meganeziya qit'asiga (Avstraliya ham shuning bir qismini tashkil etadi) 65 km dengizni suzib o'tishi mumkin edi.

Birinchi avstraliyaliklar bir-biriga o'xshash emas edilar. Bundan 30 ming yil oldin qit'aning janubiy-sharqida Mungo ko'li yonida

zamonaviy tipdagi odamlar yashar edilar. Ular nozik gavda tuzilishi, skeletiga ko'ra, hozirgi xitoyliklarni eslatar edilar. Lekin bundan 13 ming yil avval Kau-Suomi hududida yashagan odamlar gavda tuzilishi to'ladan kelgan, salmoqli bosh chanog'i, oldinga chiqqan jag'lar va ko'z usti bo'rtmalari hamda yassi peshona bilan Yava orolidagi Solo manzilgohida yashagan ibtidoiy Homo sapiensga tegishli belgilarga o'xshash edilar.

Shuning uchun ba'zi olimlar, Avstraliyaga ko'chishning ikki to'qlini bo'lgan deb taxmin qiladilar. Ayrim mutaxassislarning tasdiqlashicha, tarixgacha bo'lgan odamlarning turli shakllari hozirgi aborijenlar ajdodlarining chetki variantlarigina xolos. Hozirgi aborijenlarning ko'z usti bo'rtmalarining tuzilishi eng qadimgi vorisiylik alomatlaridir.

Bundan ikki asr oldin yevropaliklar Avstraliyaga ilk bor kirib kelgan vaqtlarida aborijenlar so'nggi paleolitda hayot kechirar edilar. Deyarli yalang'och odamlarning katta bo'lmagan yarim ko'chmanchi guruhlarining har biri o'zining doimiy hududida daydib yurar edilar. Nayza va bumerang bilan qurollangan erkaklar ov bilan mashg'ul edilar. Mifologiya va urf-odatlar ularning hayotida muhim o'rin tutar edi: bu raqslarda, tasviriy san'atda, og'zaki tarqaladigan qo'shiq va afsonalarda o'z aksini topdi. Bularning barchasi hozirgi kunda ham saqlanib qoldi. Shu sababli, avstraliyalik aborijenlarning urf-odatlarini o'rganish dunyoning boshqa chekkalaridagi tarixgacha bo'lgan odamlarning turmush tarzini yaxshi tushunishga yordam beradi.

Birinchii avstraliyaliklar o'zlariga tegishli bo'lgan hududda ozuqa izlab muntazam ko'chib yurganlar. Ular vaqtinchalik turar-joylar, chaylalar quradilar. Lekin joylarda mavsumiy-o'troq qo'rg'onlar 120 kv. m gacha bo'lgan tomli uylar qurilgan. Avstraliyada tunda harorat 0° gacha tushadi va sovuqdan himoya qilishga to'g'ri keladi. Isitadigan opossum yoki yosh kenguru terilaridan hamma ham foydalana olmagan. Ko'pincha yog' bilan yoki yog' va oxra (bo'yoq) aralashmasi badanga surtilgan. Sovuqdan asosiy himoya olov bo'lib, uni ishqalash yo'li bilan hosil qilganlar. Yerdan o'yilgan chuqurlarda olov yoqilib, hayvon go'shtini qovurganlar yoki yopib dimlaganlar.

Tayanch iboralar: Homo sapiens, kromanon, avstroloid, mongoloid, negroid, yevropoid, Borneo oroli, mezolit, Omo-I, Niaux g'oridagi odam, vadyaklik odam, motszyanlik kishi, Osiyo mongoloidi, klovis madaniyati, megateriy, gliptodont, fols madaniyati, plano madaniyati.

Takrorlash uchun savollar

1. Irqlarning kelib chiqishi to'g'risidagi tushunchalarning o'zgarishi, DNK tadqiqotlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Afrika, Osiyodagi zamonaviy odam to'g'risida ma'lumot bering.
3. Amerikaga odamlarning kelib o'rinishi to'g'risida tushuncha bering.
4. Birinchi avstraliyaliklar kimlar edi?
5. Golotsen davrida qanday iqlim o'zgarishlari yuz berdi?
6. Golotsen davri iqlim o'zgarishlari bosqichlarini tushuntirib bering.

Mustaqil ish mavzulari

1. Zamonaviy odam Afrikada.
2. Amerikaning o'zlashtirilishi.
3. Avstraliyaning birinchi odamlari.
4. Iqlim o'zgarishlari va ularning asosiy bosqichlari.

5. Mezolit

- 1. Muzlik davridan so'ng iqlimning isishi. 2. Mezolit davri mehnat qurollari. 3. Tosh va suyakka ishlov berishning yangi usullari. 4. Dehqonchilikning boshlanishi. 5. Chorvachilik. 6. Ov usullari, ov o'ljalari. 7. Ovqat va gavda tuzilishi. 8. Aholi sonining o'sishi. 9. Kromanonlar madaniyati. 10. Uy-joy va kiyim. 11. San'at va urf-odatlar. 12. Kromanon dafnlari***

1. Muzlik davridan so'ng iqlimning isishi. Muzlik davrining tugash vaqtidan keyingi 10 ming yil ichida odam jismoniy jihatdan kam o'zgardi. Lekin madaniy evolutsiya insoniyatni o'zgartirdi. Golotsen yoki «yangi» geologik davr bundan 10 ming yil atrofida boshlanib, ulkan madaniy progress bilan belgilandi. U oxir-oqibatda odamning yerda hukmronligiga olib keldi. Bu madaniy yutuqlar muzlik davrining so'nggi uzoq muzlash to'liqinidan iqlimning o'zgarishi bilan pleystosenning tugashi vaqtiga to'g'ri keldi (haqiqatan ham, golotsen vaqtida muzlash davrining boshlanishi oldidan qisqa muddatli oraliq bo'lgan bo'lishi mumkin).

Bundan 15 ming yil oldin shimoliy muz qatlamining eriy boshlashi bilan yer sharida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Okeanga quyilayotgan

suv uning sathini yana 130 metrga ko'tardi. Dengiz Osiyo va Shimoliy Amerika, Indoneziya va Malayziya, Britaniya orollari va Yevropani birlashtirgan quruqlikni yo'q qildi. Yer sharining yigirmadan bir qismini suvlik egalladi. Shu bilan bir vaqtda, muzlik qatlamlarining qisqarishi bilan ilgari muz qoplagan quruqlik ochildi. Kanada va Skandinaviyaning ba'zi hududlarida qirg'oq chizig'i hozirgi dengiz sathidan 300 metrga ko'tarildi.

Tadqiqotchilarning izlanishlariga ko'ra, golotsen davrida Yevropa iqlim o'zgarishlarining bir necha bosqichlaridan o'tdi. Ularning har biri yer va yerdagi faunaga o'z ta'sirini o'tkazdi. Boreal oldi va boreal vaqtida (10000–7750 yil ilgari) muzlik qatlamlari va tog' muzliklari mavjud hajmidan qisqardi. O'rta kenglik va tropiklarda yomg'ir miqdori sezilarli ko'paydi. Hozirgi Saxara va yerning qurg'oqchil joylari nam o'tloqlar bilan qoplandi. Yevroosiyo yovvoyi ho'kizlari, echki va qo'ylar shimolga ko'chdi. Ular u yerda los va shimol bug'ularini almashtirdi. Janubiy-G'arbiy Osiyoda birinchi dehqonchilik manzilgohlari paydo bo'ldi.

Shimoliy mamlakatlarda atlantika vaqti (bundan 7750–5100 yil oldin) iqlimi hozirgiga qaraganda iliq edi. Bu yerda o'simliklar boshqa dunyo bo'ylab tarqaldi. Faqat baland tog' cho'qqilari bundan mustasno.

Shimoliy tundraning sezilarli qismi o'rmonlarga o'z o'mini bo'shatib berdi. Ovchi hindular Shimoliy Amerikaning qachonlardir muzliklar bilan qoplangan qismiga joylashdilar. Dehqonchilik butun Yevroosiyo bo'ylab tarqaldi.

Subboreal vaqti (bundan 5100–2200 yil oldin)da qit'alarining shimoliy viloyatlarida va o'rta kengliklarida qish sovuqroq va quruqroq kela boshladi. Cho'l va o'tloq hayvonlari ko'paydi. Markaziy Amerikada dehqonchilik rivojlana boshladi. Ba'zi qit'alarda shahar hayoti boshlandi. Ba'zi joylarda voqealarning yozma bayonlari paydo bo'la boshladi. Insoniyat o'zining tarixgacha bo'lgan o'tmishi bilan aloqasini uzdi.

Bundan 2200 yil ilgari, hozir biz yashayotgan subatlantik vaqt o'zining iqlimiy tebranishlari bilan boshlandi.

2. Mezolit davri mehnat qurollari. 10 ming yil oldin pleystosenning sovuq davri o'z o'mini golotsenga yoki «mutlaqo yangi» davrga bo'shatib berdi. Bu hozir hukm surayotgan yumshoq iqlim davri edi. Iqlimning iliqlashuvi Yevropadagi o'rmonlar hududining kengayishi-ga turtki bo'ldi. O'rmonlar sobiq tundraning katta maydonlarini egallab, bostirib kela boshladi. Dengiz sathi esa ko'tarila

borib, past qirg'oq bo'yi va daryo vodiylarini suv bosdi. Iqlimning o'zgarishi, kuchayib ketgan ov kromanonlar uchun ozuqa bo'lgan ulkan yovvoyi podalarning yo'qolib ketishiga olib keldi. Lekin quruqlikda o'rmon sutemizuvchilari, suvda esa baliq va boshqa suzuvchi parrandalar mo'l-ko'l edi.

Mezolit davri mehnat qurollari va asboblari odamlarga quruqlik va suvda ov qilish imkoniyatini berdi. Natijada ovchi va terimchilarning o'ziga xos guruhleri mezolit yoki «o'rta tosh davri» deb ataladigan madaniyatni yaratdilar. Bu madaniyatning shunday nomlanishiga sabab bo'ldi. U qadimgi tosh davridan keyin keldi. Qaysiki, u hayvonlar podasiga ov qilish bilan tavsiflanib, yangi tosh davriga xos bo'lgan dehqonchilikdan oldingi davr edi. Bu 10 ming yildan 5 ming yilgacha bo'lgan qisqa vaqt-mezolit tarixgacha bo'lgan davrning qisqa lahzasi edi. Mezolit manzilgohlaridan topilgan suyaklarga ko'ra, mezolit ovchilarining o'ljasi bug'u, kiyik, to'ng'iz, yovvoyi ho'kiz, bo'ri, tulki, o'rdak, g'oz va cho'rtan baliqlar edi. Molluska chig'anoqlarining ulkan to'dalari Atlantika va Shimoliy dengizning qirg'oqlarida odamlar ular bilan oziqlanganidan darak beradi. Shuningdek, mezolit odamlari ildizlar, meva va yong'oqlarni terish bilan mashg'ul bo'lganlarini ko'rsatadi. Odamlar guruhi ko'rini-shidan ovqat manbalarini mavsumiy o'zgarishlariga mos holda joydan-joyga ko'chib yurdilar.

~~Arxeologlarning fikriga ko'ra,~~ Mezolit davri odamlari ularning ajdodlari bo'lish ehtimoli bo'lgan yirik hayvonlarni ov qilgan kromanon ovchilariga qaraganda, kichik guruhlarda yashadilar. Ammo ozuqani topish butun yil davomida yanada barqaror holatda turdi. Natijada, manzilgohlar miqdori va aholi soni o'sib bordi. Ko'rinishidan yashashning davomiyligi o'sdi. Yugoslaviyadagi Dunay oqimidan topilgan o'nlab katta yoshli erkaklarning skeletlarini guvohlik berishicha, agarda inson bolalik davrida tirik qolish imkoniyatiga ega bo'lsa, bu qulay joyda ayollar o'rtacha 35 yoshga, erkaklar 50 yoshgacha umr ko'rganlar. Aksincha, paleolit davrining ozgina odamlari uzoq yashay olgan edilar.

Yangi tosh asboblari va qurollari mezolit davri odamlarining shimoliy muz qalqoni erigach, Shimoliy-G'arbiy Yevropaning o'rmon va dengiz-larini o'zlashtirishlariga yordam berdi.

Ovchilik qurollarining asosiy turlaridan biri bo'lgan o'q-yoy so'nggi paleolitda kashf qilingan bo'lishi mumkin. Odam o'q-yoyni og'ir nayzaga qaraganda, o'zi bilan taqib yurishi yengil edi. Shuningdek, ular nishonni yanada yuqori aniqlash, uzoqqa otish imkonini berib,

kamroq muskul kuchini talab qilar edi. Mohir kamonchi tog' echkisini 32 metr masofadan nishonga tekkizib, yiqitishi mumkin edi. Agarda birinchi o'q nishonga tegmasa, keyingi o'qni uning orqasidan otish mumkin edi. Kamon o'qlari odatda tishi chiqarilgan yoki mikrolit deb ataladigan kichik o'tkir kremniy parchasi shaklidagi uchlik edi. Mikrolitlarning ko'pchiligi uzunligi 1 sm dan uzun bo'lmay, yarim doira, tayoq, uchburchak yoki trapetsiya shaklida edi. Mikrolitlar bug'u mo'gizidan yasalgan qisqa tayoqchaga yopishtirilar edi. Agar ular o'tmas bo'lib qolsa yoki yopishmay qolsa, uni almashtirish oson edi. Bundan tashqari, mikrolitlarni tayyorlash xomashyoni tejash imkonini berar edi. Malakali usta 92,5 m kesuvchi yuzani tayyorlash uchun, boryo'g'i 987 gramm kremniyni ishlatar edi.

Yirik tosh qurollarning yangi namunalari mezolit davri odamlariga qayiq, eshkak, chang'i va chana tayyorlashga yordam berdi. Bularning barchasi birgalikda bepoyon suv havzalarini baliq ovlash uchun o'zlashtirish, qorda va botqoq joyda yurishni yengillashtirdi.

3. Tosh va suyakka ishlov berishning yangi usullari. Birinchi to'la shakllangan zamonaviy odamlarning paydo bo'lishi bilan paleolit o'z taraqqiyotining so'nggi yoki o'zining yangi bosqichining gullab-yashnagan davriga kiradi. Yevropa va Osiyoda u bundan 35 ming yildan 10 ming yilgacha davom etib, oxirgi pleystosen muzlash davrigacha davom etdi.

Neandertallarning mustye madaniyati kabi so'nggi paleolit kromanonlarining madaniyatlarida ov uchun mo'ljallangan qurol va tosh qurollar yetakchi o'rin tutar edi. Shu bilan birga, Yaqin Sharq madaniyatidan o'zlashtirilgan ajoyib yangiliklar ham bor edi.

Birinchidan, kromanonlar tosh tig'lar tayyorlashning yangi eng samarali usullarini ishlab chiqdilar. Ishlov berishga tayyorlangan tosh chetiga bug'u shoxidan tayyorlangan uskunani qo'yib, suyak, tosh, yog'och yoki hayvon shohidan qilingan bolg'a bilan urildi. Yo'naltirilgan zarba ostida toshdan o'tkir qirrali parchalar ushalardi. Ushatilgan bu tosh parchalarining tegishli joylariga bolg'a bilan urib, yanada kichikroq tosh parchalarini hosil qilish mumkin edi.

Bunday usullar orqali bir toshdan ilgari qo'llanilgan texnologiyaga qaraganda, katta miqdorda puxta ishlangan qurollarni tayyorlash mumkin edi. Kromanonlar o'tmishdoshlari neandertallarga qaraganda, yanada ko'proq miqdorda pichoqlar, qirg'ich, arra, nayza uchi, parma va boshqa tosh qurollarni ishlab chiqardilar. Kromanonlarning barcha asboblarning yarmi yog'ochga qaraganda, mustahkam va uzoqqa

chidamli suyakdan yasalgan edi. Tosh keskichlar hayvon shohi, daraxt va fil suyagidan qurollar tayyorlash uchun qo'llanildi.

Ushbu materiallardan kromanonlar tegishli ignalar, baliq tutish uchun qarmoqlar, garpun va nayza irg'itgichlar kabi yangi qurollarni tayyor-ladilar. Oddiy ko'ringan bu barcha qurollar odamlarni tabiat ustidan ulkan darajada himoyalanihini kuchaytirdi.

4. Dehqonchilikning boshlanishi. Dehqonchilik va chorvachilik qachon paydo bo'ldi? Chorvachilik eh'timol paleolitda paydo bo'ldi. Arxeologik ma'lumotlar va ko'pchilik paleontologlarning guvohlik berishicha, yuqori paleolit odamlari itni qo'lga o'rgatib, undan ovda foydalanganlar. Bungacha odamlar to'dasi ov qilganda, yovvoyi itlar galasi ularga ergashib yurgan. Hayvonlarni haydab ov qilganda, itlar ham odamlarni haydashga yordam bergan va ov o'ljasidan o'z ulushini olgan. Itning xonakilashtirilgan nusxasi Reyn daryosining so'l qirg'og'idagi Madlen qatlami manzilgohidan topilgan. Otni xonakilashtirish paleolitning so'nggi vaqtida deb taxmin qilinadi. Ammo mahsulot beradigan hayvon-larni xonakilashtirish keyinroq, mezolit davrida yuz beradi.

Ov xo'jaligi barqaror emas edi. Chunki tabiiy sharoit, iqlim o'zgarishi ilgari mo'l-ko'l bo'lgan hayvonot dunyosiga salbiy ta'sir qildi. Ko'pchilik hayvonlar noqulay iqlim, ozuqa tanqisligidan keskin kamayib ketdi yoki umuman, yo'q bo'lib ketdi. Odamlarning ov o'ljalari ham kamayib, ochlik hatto bir necha yilga cho'zilib, ibtidoiy odamning doimiy hamrohi bo'lgan. Zamonaviy botanik, geografiya fanining yutuqlariga asoslanib, akademik N.I. Vavilov dehqonchilik paydo bo'lgan yetti markaz yoki o'choqni ajratdi:

1) Janubiy-G'arbiy Osiyo o'chog'i (Ichki va Sharqiy Kichik Osiyo, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo). Bu hududda yumshoq bug'doy, javdar, kanop, olma, nok, shirin olcha va bir qator boshqa o'simliklar madaniylashtirilgan.

2) Hindiston yarim oroli, Hindi-Xitoy bilan. Bu yerda sholi, tariq va arpaning bir necha turlari, soya, Osiyo paxtasi kelib chiqqan.

3) Tog'li va Sharqiy Xitoyning daryo va vodiylari. Bu yerda sholg'om, sitrus mevalar, choy, no'xat va tut daraxtlari kelib chiqqan.

4) O'rtayer dengizi mamlakatlari (Kichik Osiyo qirg'og'i, Suriya, Falastin, Misr, Tunis, Jazoir, Marokko, Italiya, Ispaniya va Bolqon yarim oroli). Bu hududlarda anjir, no'xat, zaytun, xurmo va suli madaniylashtirilgan. Bug'doy, tariq boshqa markazlardan olib kelingan, lekin, yangi sharoitda ular ancha o'zgargan.

5) Sharqiy Afrikaning tog'li hududlari, asosan Efiopiya. Bu yerda N. I. Vavilovning fikricha, bug'doy, tariq, sorgo va kofe mustaqil madaniylashtirilgan.

6) Janubiy Meksika. Bu yerda mais (shirin kartoshka), Amerika paxtasi va kakao kelib chiqqan.

7) Peru-Boliviya kartoshkaning vatani.

10 ming yil oldin dehqonchilikning kashf qilinishi bilan insoniyatning yangilanishi boshlandi. Hosildor yerning ma'lum bir qismi ovchi-terimchilardan ko'ra, ko'proq dehqonlarni to'ydirishi mumkin edi. Shu sababli, qayerda dehqonchilik tarqalgan bo'lsa, o'sha yerda aholi ko'paydi. Bundan tashqari, ekinlarni parvarish qilish manzilgohlarida o'troq hayot tarziga intilishga shart-sharoit yaratdi. Manzilgohlarda ustalar silliqlangan tosh qurollar yasar va kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash va ayirboshlash bilan shug'ullanar edilar.

Dehqonchilik yoki chorvachilik bilan bog'langan neolit (yangi tosh davri) ning bu madaniyatlari paleolit va mezolit madaniyatlarini almashtirdi. Ular jez va temir asrlari madaniyatlaridan oldingi bosqichni boshdan kechirdi. Turli neolit madaniyatlari ko'rinishidan bir-biridan mustaqil ravishda, turli joylarda va turli vaqtda paydo bo'ldi. Dehqonchilik birinchi bor bundan 10 ming yil oldin Misr, Janubiy-G'arbiy Osiyo va Fors qo'ltig'i qirg'oqlarini qamrab olgan «hosildor yarimoy» deb ataladigan hududning ichida va yaqinida paydo bo'lgan. Bu yerda birinchi dehqonlar bug'doy, tariq, chechevitsa va no'xat yetishtirish bilan shug'ullanar edilar. Taxminan 7 ming yil ilgari xitoyliklar tariq, soya, sholi, taro va yams o'stira boshladilar. 5 ming yil ilgari Mezoamerika yoki Markaziy Amerika (Janubiy Meksika, Gvatemala va Gonduras) dehqonchilikning uchinchi buyuk markaziga aylandi. Bu yerda makkajo'xori, no'xat, oshqovoq va paxta yetishtira boshladilar.

Olimlar, tosh asri odamlari qachon va nima uchun o'troq turmush tarzi va dehqonchilikka o'tganlari to'g'risida bahslashadilar. Ko'pgina ovchi - terimchilar o'zlarining ovqatlari uchun yetarli yemish topa boshladilar va ko'p bo'sh vaqtga ega bo'ldilar. Ilk dehqonlar ko'p mehnat qilib, ozroq turli oziq-ovqat mahsulotlari oldilar va hosilsizlik bo'lib qolganda, och qolishlari mumkin edi.

Lekin ba'zi hududlarda aholining o'sishi ov o'ljasining o'sishidan o'zib ketdi. Bu ovchilarni o'simliklar orqali qo'shimcha oziq-ovqat topishga undadi. Boshqa kuchli omil yeyish mumkin bo'lgan yirik donli o'simliklarning tarqalish imkonini bergan bo'lishi mumkin.

13 ming yil avval yovvoyi donli o'simliklarni terish Yaqin Sharqda hech bo'lmaganda bir guruh aholining asosiy ozuqa manbasi bo'ldi. Natufiy madaniyati odamlari zamonaviy bug'doy va tariqning yovvoyi ajdodlarining yetilgan boshloqlarini kesish uchun kremniy tig'li o'roqlardan foydalandilar. Vaqt o'tishi bilan terimchilik bilan shug'ullanadigan bunday odamlar guruhi ishlov berish osonroq bo'lgan bug'doy va tariqning navlarini tanlab, urug' eka boshladilar. Bunday turlar seleksiyasi mayda urug'li, yovvoyi o'sadigan o'simliklarni hozirgi kunda ovqat sifatida bizga xizmat qiladigan meva, ildiz va barglarni yirik xonaki navlarga aylantirish lozim edi.

Dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojidadagi boshqa siljishlar bilan birga bordi. Eng avvalo, tosh mehnat qurollarini tayyorlash texnikasi ancha rivojlandi. Tosh qurollarni silliqlash texnikasi takomillashdi. Mezolitda ma'lum bo'lgan toshni silliqlash, arralash va parmalash neolit davrida yanada ko'proq tarqaldi. Chunki o'rmonlardan ekin yerlarini ochish uchun daraxtlarni chopish, kavlab olish uchun yanada samaraliroq bo'lgan bolta va arralar yasash kerak edi. Endi odamlar ilgarigi tosh qurollariga qaraganda, qattiqroq va mustahkamroq bo'lgan mineral turlari-nefrit, jadeit, obsidianni qayta ishlay boshladilar. Yer ostidagi toshlarni qazib oladigan va ishlov beradigan tosh qurollar «ustaxonalari» paydo bo'ldi. Dehqonchilik ehtiyoji nafaqat boltalarni, balki boshqa mehnat qurollarini ham takomillashini talab qildi. O'simlik ildizlarini qazib olishda ishlatiladigan uchi o'tkir tayoqlar va yovvoyi donli o'simliklarni o'rishda ishlatiladigan ibtidoiy pichoqlar haqiqiy motiga va o'roqlarga aylandi. Donni maydalaydigan tosh taxtalar xo'jalikka keng kirib keldi. Ko'p joylarda yerga eng oddiy mineratsiya usullari qo'llanila boshladi. Misol uchun, Old Osiyoda irrigatsiya yoki Yangi Gveniyada zax suvni qochirish uchun ariqlar qazila boshlandi.

Yuqori darajada ixtisoslashgan ovchi-baliqchilik, terimchilik xo'jaliklarida ham mehnat qurollari ancha takomillashdi. Cho'l, dasht, tog'larda ov uchun murakkab qopqonlar, tuzoq va halqalar qo'llanila boshlandi. Dengiz ovi va baliqchilikda takomillashgan garpunlar, to'rlar va halqasimon qarmoqlar paydo bo'ldi. Harakatlanishning yangi vositalari, butun bir daraxtdan o'yib yasalgan qayiq, sollar paydo bo'ldi. Shimolda esa chana va chang'ilar yasali, vaqt o'tishi bilan ularga itlarni qo'shish malakasi paydo bo'ldi. Bunday mehnat qurollari va transport vositalarini tayyorlash uchun silliqlangan boltalar ko'proq qo'llanila boshlandi.

Ishlab chiqaruvchi yoki yuqori darajadagi o'zlashtiradigan xo'jalikka o'tish mezolit davriga nisbatan yuqori o'troqlik natijasida amalga oshdi. Bu o'z navbatida nisbiy o'troqlikni mustahkamlashga sabab bo'ldi. Shu sababli, endilikda vaqtinchalik ibtidoiy chaylalar uzoq muddatli yerto'la yoki yarim yerto'lalar bilan almashti. Keyinchalik esa ular yer usti mustahkam uylari bilan almashti.

Turli iqlim sharoitlarida belga o'raladigan hayvon terisidan yoki junli teridan qilingan to'liq kiyimlar paydo bo'ldi. Neolit davrida to'qish va oddiy tikuvchilikning paydo bo'lishi bilan o'simlik tolalaridan, keyinchalik jundan kiyim-kechaklar paydo bo'ldi. Uy ashyosining eng katta yangiliklaridan biri kulolchilik kashfiyoti natijasida loy idishlarning paydo bo'lishi bilan to'ldirildi. Kulochilikni nisbatan ozroq jamiyatlar bilganlar.

5. Chorvachilik. Yemish terish dehqonchilikning paydo bo'lishiga olib kelganidek, ovchilik hayvonlarni xonakilashtirishga olib keldi. Nima uchun ayrim hayvonlarga xonakilashtirilgan? Odam minglab yillar davomida tabiat qo'ynida hayvonlar, parrandalar bilan yonma-yon, birgalikda yashadi. U hayvon va parrandalarning yurish-turishi va yashash tarzini juda yaxshi bilib olgan edi. Chunki ularni ov qilar edi. Odamlar o'zlaridan hurkmaydigan, og'ir-vazmin, beozor hayvonlarni qo'lga o'rgatganlarini zoologlar e'tirof etadilar. Shu bilan birga, paleolit va mezolit davrlarida hayvon va parrandalar odamdan qo'rqmay, ular bilan yonma-yon yashagan. Qaysiki, ularning qirilib ketishi natijasida odam ularni tizimli ta'qib qilishi, hayvon va parrandalarning o'z xavfsizligini ta'minlash uchun odamdan qo'rqish instiktining keyinchalik shakllanishiga olib keldi. Odamdan qo'rqqan hayvon va parrandalar o'zlarini saqlab qolib, hozirgacha yetib kelgan xolos. Odam ham ular kabi faunaning tabiiy bir unsuri edi. Ov ham yirtqich hayvonlar sutemizuvchilarni ov qilganidek tabiiy jarayon edi. Misol uchun, Afrika savannalari, Amerika preriyalarida ham yirtqich hayvonlar sutemizuvchilar bilan bepoyon kenglikda birgalikda kezdilar. To'g'ri, ayrim yirtqichlar sutemizuv-chilarga nisbatan kam sonli (Bugungi kunda, bir Afrika sheriga o'n ming buyvol to'g'ri keladi). Yana Janubiy-G'arbiy Osiyo asosiy markaz bo'ldi. 13 ming yil ilgari itlar qo'lga o'rgatilgan bo'rilardan kelib chiqqan bo'lib, Janubiy-G'arbiy Osiyo ovchilariga poda va yovvoyi, tuyoqli sutemizuv-chilarning alohida guruhlarini o'ldirish uchun daralarga haydashga yordam berdi. Bundan 8,5 ming yil ilgari ba'zi ovchilar o'zlariga go'sht va kiyim-kechak sifatida xizmat qiladigan qo'y, echki va yirik

qoramolni ko'paytiruvchi cho'ponlarga aylandilar. Bu guruhlarning har biriga mansub bo'lgan hayvonlarning odamlar iste'mol qilishi mumkin bo'lmaydigan o'simliklar bilan oziqlanishi qulay edi. Echkilar daraxt va butalarni kemirar edi. Qo'ylar tepalik yonbag'irlaridagi o'tlarni yer, yirik shoxli qoramollar vodiylardagi boy o'tloqlarda o'tlar edi. Shu bilan bir vaqtda, yovvoyi to'ng'izlardan tarqalgan cho'chqalar qishloqda axlatning «foydali tozalovchilari» edi. Hayvonlarning bu zotlarining seleksiyasi natijasida o'zlarini yovvoyi ajdodlariga qaraganda, kalta shox va tishlarga ega, ko'proq go'sht, sut va jun beradigan beozor hayvonlarga aylandi. Bu to'g'risida qadimgi hayvon qo'ralaridan topilgan suyaklar guvohlik beradi.

Bundan 5 ming yil ilgari xonakilashgan ho'kiz, tuya, eshak va otlar, shuningdek, Janubiy Amerikadagi lamalar yuk tashir edi. Bu esa quruqlikda sayohat qilishni tubdan o'zgartirdi.

Ovqat uchun go'shti ishlatiladigan va butun dunyoga tarqalgan quyidagi to'rt hayvonning yovvoyi ajdodlarini ko'rsatish mumkin:

1. **Ovis orientalis** – yovvoyi qo'y, xonaki qo'yga qaraganda, shoxlari, jun va oyoqlari uzunroq. Xonakilashtirilgan vaqti bundan 11 ming yil oldin. Joyi Turkiya, Eron yoki Iroq.

2. **Capra aegagrus** – yovvoyi echki, xonaki echkilarda ko'rish mumkin bo'lgan spiralsimon burmalarsiz birdan orqaga bukilgan shoxlar bilan. Xonakilashtirilgan vaqti bundan 10 ming oldin. Joyi Eron.

3. **Bos primigenius** – tur ilgari xonakilashtirilgan yirik shoxli hayvondan ko'ra, jangariroq. O'rgatilgan vaqti bundan 8,5 ming yil ilgari. Joyi hozirgi Turkiya bo'lishi mumkin.

4. **Sus scrofa** – yovvoyi to'ng'iz, xonaki cho'chqalarga qaraganda, uzunroq tumshuq va qalinroq junli. O'rgatilgan vaqti bundan 9 ming yil ilgari. Joyi Turkiya bo'lishi mumkin.

6. **Ov usullari, ov o'ljalari.** Arxeologik topilmalar kromanonlarning qurollari va ovchilik usullari neandertallarga qaraganda, anchagina takomillashganidan dalolat beradi. Bu ovqat resurslarining ko'payishi va aholi sonining o'sishi uchun katta ahamiyatga ega edi. Nayza otildigan uskunaning paydo bo'lishi odam qo'liga kuch qo'shdi. Ovchi nayza otadigan masofani uzaytirdi. Endi ovchi o'z o'ljasini u qo'rqib qochishigacha bo'lgan katta masofada urib olishi mumkin edi. Dunyoning ko'pgina daryo, dengiz qirg'oqlarida istiqomat qiluvchi odamlar uchun baliq muhim ozuqa mahsuloti bo'lib qoldi. Nayzalarning o'tkir uchlik qilib yasalishi jonivorni qattiq yaralab, ularning o'limini tezlashtirdi. Kromanonlar qushlarni tuzoq bilan ushladilar. Shubha

yo'qki, aynan ular qushlar, bo'ri, tulki va yanada kattaroq hayvonlar uchun halokatli tuzoqlarni aynan o'ylab topdilar. Ba'zi mutaxassislarning aytishicha, ana shu tuzoqlarga yuzlab mamontlar tushdi. Qaysiki, ularning qoldiqlari Chexoslovakiyadagi Pavlovadan topilgan edi.

Kromanonlar yirik hayvonlarni ov qilishda ming yillik ko'nikma, tajribaga ega bo'lganlar. Ular yirik hayvonlarni ov qilishda qachonlardir yashagan mohir ovchilar edilar. Tanlangan joyda mavsumiy yashash shuni ko'rsatdiki, ular shimol bug'usi va tog' echkisini (kozerog) yangi o'tloqlarga mavsumiy migratsiya vaqtida ta'qib qilganlar. Suyaklarning ulkan to'dalari ovchilar hayvonlarni o'ldirish oson bo'lgan joylarga haydashni o'rganganliklaridan guvohlik beradi. Janubiy Rossiyaning jarliklarini birida o'ldirilgan minglab bizonlarning topilmasini shu bilan isbotlash mumkin. Markaziy Fransiyaning sharqidagi Somotre yonidagi qoya ostidan topilgan 10 ming yovvoyi ot skeleti katta taassurot qoldiradi. Bundan 17 ming yil ilgari ovchilar bu qoyaning tepasiga butun bir podani haydab kelib, keyin qoya ostida o'ldirgan ko'rinadilar.

Kromanonlar bunday usul va qurollarni qo'llab, yuqori darajada deyarli tuganmas to'yimli ovqat manbasiga ega bo'ldilar. Bu ko'rinishidan ularning ko'payishiga Sibirning qahraton sovuq hududlarini o'zlashtirishga yordam berdi.

Ov o'ljalari. Yevropa so'nggi tosh davrida yirik sutemizuvchi hayvonlar bilan to'lib-toshgan edi. Ulardan ko'p miqdorda go'sht va jun olish mumkin edi. Shundan so'ng, hech qachon hayvonlarning miqdori va xilma-xilligi bunday darajada ko'p bo'lmadi. Hayvonlarning ko'p xillari ko'rinishidan neandertallarga ma'lum edi. Kromanonlar ovining mo'l-ko'l, keng tarqalgan izlari o'sha vaqtda ov qanday bo'lgani, ov o'ljasi, uning qayerda yurishi va tarqalgani manzarasini tiklashga yordam beradi.

Yovvoyi otlar, shimol bug'ulari, bizonlar, mamontlar, sayg'oq va junli karkidonlar ochiq cho'llarda o'tlagan.

O'rmon yonbag'irlari va vodiylarda kiyiklar, yovvoyi veprlar, g'or ayiqlari va bo'rilar yashirinar edi.

Tog' echkilari, yovvoyi echkilar baland tog'lardagi yozgi yaylov-larga chiqar edi. Yovvoyi turlari esa cho'llar va unga tutash joylarda juda ko'p edi.

Hayvon suyaklari topilmalariga ko'ra, so'nggi paleolit boshlarida Shimoliy Germaniya hududida shimol bug'usi va yovvoyi ot ko'p bo'lgan. Germaniya janubida esa mamont va karkidonlar, undan yanada

sharqqa tomon—Qora dengiz bo'ylarida ho'kiz va otlar ko'pchilikni tashkil etgan. Lekin hayvonot dunyosi tarkibi doimiy emas edi. Italian manzilgohlarining birida ovchilikning dastlabki obyekti yovvoyi ho'kizlar, otlar, bug'u va to'ng'izlar edi. Keyin esa o'lja ichida birinchi o'ringa otlar va yovvoyi eshaklar va keyinchalik ularning o'rnini to'ng'izlar, shimol bug'ulari va ho'kizlar oldi. Hayvonlarning turli guruhlarining soniga iqlimning davriy o'zgarishi ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

Quyida kromanonlarning oзуqasini asosiy manbalari bo'lgan hayvonlarning besh turi keltirilgan:

1. **Rangiber tarandus** – shimol bug'usi, erkak va ayollarida shoxi bo'lgan bug'uning yagona turi. Bo'yining balandligi 1,4 m. Vaqti pleystosendan hozirgi kungacha. Joyi Shimoliy qutb.

2. **Gervus elephas** – blagorodniy bug'u. Bo'yining balandligi 1,5 m. Vaqti pleystosendan bizning kunlarga. Joyi Yevroosiyo va Shimoliy Afrika.

3. **Bos primigenius** – tur ulkan ho'kiz. Bo'yi 1,8 m. Vaqti pleystosendan 1627-yilgacha. Joyi Yevroosiyo va Shimoliy Afrika.

4. **Eguus caballus**: ot, zamonaviy xonaki otning kichik yovvoyi turosti. Bo'yi 1,4 m. Vaqti pleystosendan bizning kunlarga. Joyi Shimoliy yarim sharqit'alari.

5. **Capra pyrenaica** – Pireney tosh echkisining turosti; erkaklarida uzun oldinga, balandga qayrilgan shox. Bo'yi 76 sm gacha. Vaqti pleystosendan bizning kunlarga. Joyi Ispaniya va shu bilan bir vaqtda Janubiy-G'arbiy Fransiya.

7. **Ovqat va gavda tuzilishi.** Muzlik davri va undan so'ng ovqat va uni tayyorlash usullari ham gavdaning tuzilishi va uzunligiga ta'sir qildi. Ba'zi etnik guruhlar ishonchsiz ovqat yoki uning yetarli bo'lmagan manbalari bilan bo'yining pastligi yoki hech qachon ovqatning taqchilligini sezmagani guruhlarga qaraganda, mo'rt, kichikroq gavda tuzilishiga ega bo'ladi. Genetik jihatdan kichik odamlarga Markaziy Afrikadagi karlik negrlar, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Papua – Yangi Gveniya orollarida sochilib ketgan negritoslar kiradi. Bir vaqtlar ularning barchasi pigmeylar deb atalib, bir guruhning avlodlari deb hisoblanar edi. Lekin hozirgi olimlar, bu ovchi-terimchilar qachonlardir normal bo'yli mahalliy kishilardan kelib chiqib, uzoq vaqt ishonchsiz ovqat manbalariga qaram bo'lganliklari sababli, bo'ylari kichraygan degan fikrga keldilar. Chunki uncha baland bo'lmagan bo'yli kishilar

uzun bo'yli kishilarga nisbatan oz miqdordagi yemish bilan cheklanishlari mumkin.

Misrdan to Xitoygacha bo'lgan mamlakatlarda aholining haddan tashqari ko'payib ketishi normal bo'yli, lekin gavda tuzilishi nozik odamlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Yetarlicha bo'lmagan ozuqa-o'simliklarga uzoq vaqt qaram bo'lish o'z oilasi uchun yetarlicha miqdorda ozuqa topishga majbur qildi. Lekin ular o'zlari o'stirishlari mumkin bo'lgan miqdordan ko'proq ovqat iste'mol qilishlari mumkin edi. Bu holat ko'p ham yirik bo'lmagan odamlarni shakllantiradi. Bu odamlar zaruriy ishni bajarish mumkin bo'lgan uncha kichik bo'lmagan gavdali edilar.

Oziq-ovqatning yaxshilashi ba'zi guruhlar bo'yining genetik jihatdan cheklanmagan o'sishiga olib keldi. Qaynatilgan ovqatni iste'mol qilish va mehnat qurollarini qo'llash odam yuz tuzilishini o'zgartirdi. Yumshoq qaynatilgan ovqatni yeyish va qachonlardir tishlar bilan amalga oshirilgan ishlarni bajarishda mehnat qurollaridan foydalanish ishlab turish vazifasini o'taydigan yuz tuzilmasining kichraytirishiga sabab bo'ldi. Asosan uzoq vaqt qaynatilgan ovqat iste'mol qilgan odamlarning tishlari kichraydi. Eng kichik tishlar Yaqin Sharq, Xitoy va Yevropada bo'lgan. Eng katta tishlar Avstraliya aboriginlarida bo'lib, jez asridan boshlab quyi jag'lar kichrayish an'anasini boshdan kechirdi. Bu yuqori jag' tishlari quyi jag' qismini berkitishgacha va to'g'ri tishlash noto'g'ri tishlash o'rnini olgunga qadar davom etdi.

So'nggi paleolit davridan qurollardan foydalanishning kuchayib borishi kuchli muskul va suyaklarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirdi. Shunga mos ravishda skeletlar mo'rtlasha boshladi.

8. Aholi sonining o'sishi. Bundan 3 mln. yil ilgari yer yuzida boryo'g'i bir necha 10 ming gominid yashagan bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqt 2011-yil noyabriga kelib, yer sharida aholi soni 7 milliard kishiga yetdi. Ammo tarixgacha bo'lgan davr davomida aholi sekin o'sdi. O'sish bizning ajdodlarimizni evolutsiyasi davomida bosqichma - bosqich yangi yerlarni o'zlashtirish va ozuqa resurslarining ko'payishi bilan birga bordi.

Bir hisob-kitobga ko'ra, 2 mln. yil ilgari 1 mln. o'txo'r avstralopitekklar bir qit'ada faqat bir necha joylarda yashar edi. Bundan 500 ming yil ilgari ovchilik va terimchilik bilan shug'ullanadigan Homo erectus Afrikaning turli landshaftlari, Osiyo va Yevropaning anchagina qismini egallagan edi. Lekin cheklangan yer maydoni terimchi-

ovchilarni o'txo'r mavjudotlarga qaraganda, kamroq ozuqa bilan ta'minlar edi. Shu boisdan, ba'zi olimlar, o'sha vaqtda yer yuzida bor-yo'g'i Homo erectus tipidagi 1,7 mln. mavjudot yashagan deb hisoblashadi.

10 ming yil oldin Homo sapiens Antraktidadan boshqa barcha qit'a va iqlim zonalarini o'zlashtirdi. Baribir ko'pchilik odamlar o'z ozuqa resurslarini boshqara olmaydigan terimchi va ovchilarning turmush tarzini olib bordi. O'sha vaqtda dunyoda 10 mln. kishi yashar edi.

Aholining soni faqat bundan 7 ming yil oldin jadal oshdi. Qaysiki, dehqonchilik madaniyati oziq-ovqatning keskin oshishiga sabab bo'ldi. Natijada ilgari ochlikdan halok bo'ladigan kishilar endi tirik qoldilar. Yangi qurol va texnologiyalar oziq-ovqatning xilma-xilligi va aholi sonining o'sishiga olib keldi.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, er. avv. 500 yillarda yerning aholisi 100 mln.ga yetdi. Keyinchalik dehqonchilik madaniyatlari, xonaki hayvonlarning global hajmda almashinuvi, sanoat texnologiyasi va ilmiy tibbiyot aholi sonining o'sishini yanada tezlashtirdi. 2020-yilda aholi zich joylashgan planetada 7 milliarddan ko'proq odam yashashi mumkin.

Insoniyatning kelajagi. Evolutsiya tashqi muhitdan zaif himoyalangan primat guruhlaridan sermahsul ko'payishning noyob qobiliyatiga ega bo'lgan, sayyoramizni o'zgartirishga, ko'chib yurishga qodir bizning turimizni tanlab oldi.

Inson evolutsiyasi davom etadimi? Hozirgi vaqtda biz «yo'q» deb javob berishimiz kerak. Madaniy evolutsiya zaif, sekin va yomon anglaydigan tiplardan xolos qildi. Endilikda mashinalar, kompyuter, kiyim, ko'zoynak va zamonaviy tibbiyotning mavjudligi odamlar o'tmishdan meros qilib olgan kuchli gavda tuzilishi, aql-zakovat, qobiliyat, pigmentatsiya, ko'zning o'tkirligi, kasalliklarga chidamliligining qadrsizlanishiga olib keldi. Hozirgi davrda har bir jamiyatda jismoniy zaif yoki yomon shakllangan odamlar yuqori foizni tashkil qiladi. Shuningdek, yomon ko'rish qobiliyatiga ega, o'zlari yashaydigan tabiiy iqlim sharoitiga moslashmagan kishilar ko'pchilikni tashkil etadi.

100 yil oldin jismoniy zaif odamlar bolalikda o'lib ketar edilar. Endilikda ular yashamoqdalar. Ular o'zlaridan zaif, kasalliklarga chidamsiz, tibbiy yordamga doim muhtoj bo'lgan avlod qoldirmoqdalar. Shu bilan birga ular kelajak avlodlarga o'z naslining defektlarini o'tkazmoqdalar.

Inson evolutsiyasining to'xtab qolishiga uning migratsiyasi imkoniyat yaratdi. Hozir aholining biror-bir guruhi ham uzoq vaqt yopiq holda yashay olmaydi. Uzoq vaqt tashqi dunyodan ajralib yashash pleystosen davrida bo'lganidek, yangi turga aylanish imkonini berar edi. Irqiy farqlar Yevropa, Afrika, Hindiston va Xitoy xalqlari vakillari o'rtasida aralash nikohlar soni o'sishi bilan yo'qolib ketdi.

Mohiyat jihatidan insoniyatning evolutsiyasiga ko'ra, uning o'lib ketishi ehtimoli ko'proq. Aholining tez o'sishi oziq-ovqat va energiya ishlab chiqarishning keskin o'sishiga bog'liq. U va boshqalar bizning planetamiz tabiiy resurslarini keskin ekspluatatsiya qilishiga olib keladi. Tuproqni kuchli qayta ishlash eroziyaga olib keladi. Bu hosildorlikni keskin kamaytiradi. Iqlim o'zgarishlari ham bu muammolarni yanada chuqurlashtiradi. O'ta ko'p sonli inson zoti oziq-ovqat, yoqilg'i taqchilligi, ochlik, urush yoki epidemiyalardan o'lib ketishi mumkin.

Ko'pgina mavjudot turlarining yashashi davomiyligi 3 mln. yilni tashkil etadi. Barcha mavjudotlar ichida eng aqllisi bo'lgan bizning turimiz uchun, bu muddatning hech bo'lmaganda yarmisigacha yashashi talab qilinadi.

Hozirgi kunda fan yutuqlari yuqori darajaga yetdi. Hayvonlarning ustida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida klonlashtirish loyihasi amalga oshirildi. Bu loyihani inson nasliga nisbatan ham qo'llash mumkin yoki oddiy qilib aytganda, o'lib ketgan odamning DNKsi yordamida uni qayta dunyoga keltirish imkoniyati yaratildi. Bu insoniyatning kelajak evolutsiyasi uchun juda katta kashfiyot va yutuq. Ammo sun'iy muhitda insonni qayta yaratgandan ko'ra, hozirgi kunda ekologik halokatning oldini olib, inson turining kelajagini yana bir necha million yil mobaynida uyg'un yashash muhitini shakllantirish muhimroqdir.

9. Kromanonlar madaniyati. Yevropa kromanonlari qo'llagan qurollar vaqti va joyi bilan o'zgardi. Ba'zi arxeologlar fikricha, u yoki bu qurollardan kishilarning turli guruhlari foydalandilar. Boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, bu qurollar to'plami ustalarning turli maktablarini aks ettiradi.

Qurollar va boshqa predmetlar asosida G'arbiy Yevropa uchun so'nggi paleolitning 5 asosiy madaniyati ajratiladi. Ularning qoldiqlari bilan, ayniqsa, Janubiy-G'arbiy Fransiya boy. Dunyoning boshqa minta-qalarida ham bu madaniyat katta miqyosida mavjud.

Yoshi taxminan 35-36 ming yil bo'lgan perigor madaniyati uchun xos bo'lgan qirg'ich, arra ichki doirasimon tomoni bilan, qaysiki,

boshlanishi mustye an'analariga borib taqalib, neandertallarning Shatelpetron madaniyati vaqtidan tayyorlana boshladi. Gravetti tipidagi gravetti madaniyati yanada kechki, uzun kichrayib boradigan ko'p sonli keskich va suyak qurollari bilan Fransiyadan Rossiyagacha bo'lgan keng geografik bo'shliqda 10 ming yil oldin mavjud edi.

Orinyak madaniyatidan (taxminan 35-29 ming yil avval) ko'p sonli 162 qirg'ich, parma va dolot (iskana) saqlanib qoldi. Lekin u pichoq tipidagi keskichlarga qaraganda ibtidoiy edi. Yaqin Sharqda esa bunday texnologiya yanada oldinroq, qadimgi davridayoq mavjud bo'lgan.

Solyutrening uzoq davom etmagan madaniyatida ikki tomondan puxta ishlov berilgan, ingichka bargsimon uchliklarni tayyorlashga alohida e'tibor berildi.

Madlen madaniyati (18,5-11 ming yilliklar atrofida) nayza otishga mo'ljallangan qarmoqli to'g'ri yog'och, baliq ovlashga mo'ljallangan tishi chiqarilgan qarmoq va garpungacha bo'lgan qurollari bilan ma'lum.

10. Uy-joy va kiyim. Kromanonlar qurilishda asosan eski neandertal an'analarini davom ettirdilar. Ammo ba'zi uy-joylarda va barcha kiyimlarda yangiliklar paydo bo'ldi. Qaysiki, u ploystosenning oxirgi ming yilligi sharoitida yashash imkoniyatini berdi.

G'orda yashagan o'tmishdoshlari neandertallar kabi Yevropa kromanonlari Janubiy-G'arbiy Fransiyada, ayniqsa, Dordon daryosi yoqasidagi ohak g'orlardan va Pireneyning shimoliy yonbag'ridagi qiyaliklardan foydalandilar. Ko'pgina g'orlar janubga chiqadigan og'izga ega bo'lib, quyosh isitgan va shimol shamollaridan himoya qilingan edi. G'orlar mo'l-ko'l suv manbalari yonida joylashgan. U yerdan o'txo'r hayvonlar o'tlab yurgan yaylovning manzarasi yaqqol ko'rinib turar edi. Yil davomida ozuqa mo'l bo'lgan joylarda, bir katta g'orda bir necha o'n kishi yashashi mumkin edi. Lekin ba'zi g'orlarda biz odamning mavsumiy yashaganini ko'ramiz. Neandertallarga o'xshab, Rossiyadagi gravetti madaniyati vakillari o'zlarining qishki manzilgohlarini daryo vodiylarida qurganlar. Ba'zi turar-joylar toshdan qurilib, qolganlari yerdan qazilgan. Ko'pgina devorlar va toshlar teridan chodirsimon shaklda qurilib, mamontning son-suyaklari tirab qo'yilgan bo'lib, pastda chetlari boshqa og'ir suyak va xartum suyaklari bilan mahkamlangan. Yirik qurilmalar jumlasiga, Don daryosi qirg'og'idagi Kostenko manzilgohidagi uzunligi 27 m bo'lgan uzunchoq turar-joy kiradi: terilar bilan qoplangan chayla ichki tomonida markaz bo'yicha qurilgan o'choqlar bu chaylada bir necha oilalar qishlaganidan dalolat beradi.

Fransiya g'orlaridagi topilmalar va tasvirlar ko'chmanchi ovchilar hozirgi ko'chmanchilar kabi yengil yozgi chaylalar qurishganini ko'rsatadi. Muzlik davri sharoitida odamning yashash va mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lishiga kiyimning yangi turlari va qurilishning yangi usullari hamda olovdan foydalanish qo'l keldi. Suyak ignalari va yungli jun kiyimli odamlarning tasvirlari ularning badanga mahkam yopishadigan ishtonlari, ustki kiyim va puxta tikilgan qo'lqop, oyoq kiyimlarini ko'rib, bu kiyimlar odamlarni sovuq havoda issiqni yaxshi saqlaganidan dalolat beradi.

11. San'at va urf-odatlar. Tasviriy san'at shakllangan insoniyat jamoasida yuqori paleolit chegarasida paydo bo'ldi. Ibtidoiy tasviriy san'atning birinchi namunalari plastinka, grafika va tasviriy san'atdir. Orinyak – solyutre davrida ayollar haykalchalari, madlen davrida hayvon tasvirlari paydo bo'ldi. Orinyak davrida hayvonlar tasviri, o'simlik va odam tasvirlari kamroq bo'lib, ibtidoiy yakka chizgilar bilan bajarilgan. Mezolit davrida ov va maishiy tushdagi ko'p shaklli kompozitsiyalar paydo bo'ldi. Bushmenlarning qoyatosh tasvirlari, hayvonlar, odamlar, ov va harbiy manzaralar, raqslar va diniy marosimlarning ifodasi aniqroq ifodalangan. Mezolit davridan amaliyotdan shartlanganlik tomon harakat boshlanadi. Misol uchun, Avstraliyaning aranda qabilasida odam C ramzi bilan ifodalanadi, gulxan oldidagi ikki odam [O] ramzi bilan ifodalangan.

Yuqori paleolitda musiqa (yon tomonlari parmalanib, teshik qilingan naysimon shoxlar, parmalangan mo'gizlar) va raqs paydo bo'ladi. Raqslar maishiy va marosim, ov, harbiy, erkaklar va ayollarniki bo'lgan. Raqs ko'pchilik holda ijro etilib, ko'p hollarda niqoblar yordamida imitatsiya qilish, xo'jalik faoliyati, jinsiy aloqalar va hokazo ifodalangan.

Folklorning eng qadimgi ko'rinishi to'g'risida etnologik ma'lumotlar orqali tushuncha hosil qilish mumkin. Bu ma'lumotlar meh-nat, sevgi, harbiy marosim qo'shiqlari, nasihatomez hikoyalar, maishiy va fantastik ertaklar, muqaddas miflar keng tarqalganidan dalolat beradi.

Yevropa bundan 35-10 ming yilliklarda o'zining tarixgacha bo'lgan san'atning buyuk davrini boshdan kechirdi. San'at asarlari doirasi keng edi: bug'u shoxlari, fil suyagi va tosh parchalariga tushirilgan hayvon va odam tasvirlari, loy va tosh haykallar va relyeflar, oxra, marganes va yog'och ko'miri bilan chizilgan rasmlar hamda g'or

devorlariga somon naycha orqali puflangan bo'yoq bilan tushirilgan tasvirlar.

Ba'zi olimlar, 100 ta g'or va qoya boshpanalarni tadqiq etish natijasida kromanonlar san'ati o'z taraqqiyotining 4 bosqichini bosib o'tdi degan xulosaga keldilar. Birinchi davr uchun (32-25 ming yil avval) odamlar o'zlari bilan olib yurgan kichik buyumlarga ko'p hollarda, yomon chizilgan hayvonlar va boshqa predmetlar xos. Ikkinchi davr (25-19 ming yil bundan ilgari) g'or san'ati hisoblanib, qo'llarning izi bor. Uchinchi davr (19-15 ming yil bundan ilgari) g'or san'atining yuqori cho'qqisi bo'lib, otlar va turlarning ajoyib bajarilgan dinamik tasvirlarini Fransiya janubiy-g'arbidagi Lasko g'ori va boshqa relyef haykaltaroshligi namunalari bo'yicha ko'rish mumkin.

To'rtinchi davr uchun (15-10 ming yil bundan ilgari) kichik buyumlardagi o'ziga xos tasvirlar hamda Shimoliy Ispaniyadagi Altamir va Fransiya Fon-de-gom g'orlaridagi hayvonlarning hayotiy tasvirlari va ramziy belgilar alohida o'rin tutadi. Ko'pgina tasvirlar g'orlarning ichkarisida bo'lib, bu yerda rassomlar yonayotgan yog'och yoki jin chiroqlar yordamida ishlaganlar. Ba'zi tasvirlar yarim odam, yarim hayvon shakllarini, taxminan sehrar yoki shomonlarni tasvirlaydi. Ko'pgina manzaralar semiz ov o'ljasi tasviri bo'lib, bu ovchilik magiyasi yoki seksual ramz bilan tushuntiriladi.

Hosildorlik ramzi esa o'tirgan ayollarning belgilari ifodalangan. Geometrik chiziqlar shartli belgi tizimlari bo'lishi mumkin. Qaysiki, ulardan birida oy fazasi tasvirlangan bo'lishi mumkin. Ushbu talqinlarning barchasi munozaralidir.

12. Kromanon dafnlari. Bir-biridan uzoqdagi joylar-Fransiya va Rossiyadagi qabrlar kromanonlarning hayotini tushunishga yordam beradi. Skeletlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, kromanonlarning 32 foizi 20 yoshga yetgan. Qachonki, ularning o'tmishdoshlari neandertallarda bunday odamlar bu miqdorning yarmini ham tashkil etmagan edi. Kromanon-larning 10 tadan 7 tasi 40 yoshga yetishi mumkin edi. Neandertallarning esa 20 tadan bittasi shu yoshga yetishi mumkin edi. Bu raqamlar uncha ko'p bo'lmagan namunalarni miqdoriga asoslangan bo'lsada, ular hayotining davomiyligi o'sganligini tushunish mumkin.

Kromanonlarning dafnlari bo'yicha to'la ishonch bilan ularning ramziy urf-odatlarini, boyliklari va ijtimoiy mavqeining o'sishi to'g'risida fikr yuritish mumkin. Vafot etganlar jasadiga ko'p hollarda, qizil ohak sepganlar. Faraz qilishicha, bu hayot ramzini bildirgan. Bu yana

kromanonlarda u dunyoda hayotning mavjudligi to'g'risida tushuncha bo'lganligidan guvohlik beradi. Ba'zi jasadlar zeb-ziynat buyumlari bilan dafn qilingan. Bu ovchi-terimchi jamoasida boy va obro'lik odamlar paydo bo'lganligining ilk belgilaridir. Quyida dafnlarning bor-yo'g'i bir necha namunalari berilgan:

Italiyadagi Grimmal'didan bundan 30 ming yil oldin turli g'orlarda ko'milgan 16 kishi jasadi topilgan.

Grotduy-Kaviyon g'oridan bug'u tishlaridan toj kiygan bosh kiyim bilan, yuzlab chig'anoq molluskalari bilan bezalgan erkak jasadi topildi.

«Bolalar Groti» g'oridan molluska-trubachi chig'anoqlari bilan bezatilgan ikki bola topildi.

Barme-Grandidan hayvon umurtqasidan qilingan munchoq shodasi bilan odamlar qoldiqlari topildi.

Janubiy-G'arbiy Fransiyaning Lez-Eyzi joyi yonidagi qoya ostidagi boshpanadan 5 ta katta yoshli va bir go'dak qoldig'i topildi. Ularning qoldiqlari qizil ohak bilan bo'yalib, orinyak qurollari teshiklar qilingan dengiz chig'anoqlari topildi.

Chexoslovakiyaning Prjemosti nomli joyidan 29 kishi, loy haykalchalar va hayvon shoxi, suyakdan yasalgan qurollar bilan birga dafn qilingan.

Moskvadan sharqda Sungiridan bundan 23 000 yil ilgari yasalgan narsalar bilan dafn qilingan ovchilar jasadlari topildi. Bu yerda yungli kiyimlarda munchoqlar bilan mohirona bezalgan chol, uning yonida munchoqlar bilan bezalgan yungli kiyim kiygan, fil suyagidan uzuk va bilakuzuklar, ularning yonida mamont qoziq tishidan uzun nayzalar va ikkita hayratga soladigan suyakdan o'yilgan, asoga o'xshash batons de commandement (qo'mondon jezli) deb ataladigan ikkita tayoq ham bor edi.

Qirg'oqbo'yi mezolit urug' jamoalari. Qirg'oqbo'yida yashaydigan mezolit jamoalari o'ziga xos turmush tarzida yashaganlar. Osiyo, Yevropa, Shimoliy Afrika va Amerika qirg'oqbo'yi qabilalari turmush tarzi tadqiq qilingan. Ular baliq ovlaganlar, chig'anoq va qisqichbaqalarni terib, dengiz hayvonlari va qushlarini ovlaganlar. Qirg'oqbo'yidan ildizlar, mevalar va qo'ziqorin terganlar. Asosiy ov quroli nayzalar va suyak uchli garpunlar, qarmoq, tosh yoki suyak uchli o'q-yoy bo'lgan. Ko'pgina qurollar: pichoq, qirg'ich, bigiz va boshqalar chig'anoq va suyaklardan yasalgan. Olti metrgacha uzunlikdagi qayiqnlarni po'stloqdan to'qiganlar. Turar-joy daraxt va shox-shabbalardan qurilgan, qishda uni tyulen terilari bilan yopganlar. Kulba

o'rtasida (qayiqning o'rtasida ham) doimo olov yonib turgan. Ovqatni qovurganlar yoki olovga ko'manganlar. Chig'anoq kosalaridagi suvga qizigan toshlarni tashlab, suvni isitganlar. Dengiz hayvonlari va vidra (dengiz hayvoni) terilaridan kalta kiyim tikilgan.

Tayanch iboralar: Boreal vaqti, atlantika vaqti, subboreal vaqti, subatlantik vaqti, gravetti madaniyati, orinyak madaniyati, solyutre madaniyati, madlen madaniyati, dehqonchilik, N.I.Vavilov, sorgo, mais, taro va yams, natufiy madaniyati, nefrit, jadeit, obsidian, chorvachilik, Ovis orientalis, Capra aegagus, Bos primigenius, Sus serofa, kozerog, Rangiber tarandus, Gervus elephus, Eguus caballus, Capra pyrenaica, eroziya, shatelpetron madaniyati, batons de commandement.

Takrorlash uchun savollar

1. Muzlik davridan keyin mehnat faoliyatidagi o'zgarishlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Mezolit davrining o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
3. Mezolit davrida mehnat qurollarida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
4. Dehqonchilik va chorvachilikning boshlanishining asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?
5. Mehnat qurollarini yasashdagi yangi texnologiyalarni ayting?
6. Ibtidoiy jamoadagi ma'naviy-madaniy o'zgarishlar to'g'risida tushuncha bering.
7. Akademik N.L. Vavilov aniqlagan dehqonchilik paydo bo'lgan yetti markazni ko'rsating.

Mustaqil ish mavzulari

1. Muzlik davridan keyin dehqonchilikning boshlanishi va chorvachilik.
2. Inson evolutsiyasi.
3. Zamonaviy odamning kelib chiqishi.
4. Kromanonlarning turmush tarzi.
5. Mezolit davri qurollari.
6. Ilk dehqonchilik o'choqlari.
7. Mehnat qurollarining takomillashuvi.
8. O'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish omillari.
9. Dunyodagi ilk dehqonchilik markazlari.

6. Ilk ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar

1. Ilk ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar. 2. Aholi soni va uni takror ishlab chiqarish. 3. Jins-yosh tashkiloti

1. Ilk ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Ilk ibtidoiy jamoa to'g'risida faqat etnologiya ma'lumotlari bo'yicha tasavvur hosil qilish mumkin. Etnologiya asosan mezolit qiyofasidagi ilk ibtidoiy jamoalar to'g'risidagi ma'lumotga ega. Mezolit davrida oykumen-ning katta qismida tabiiy muhit o'zgardi. Jamoalar ancha harakatchan holatga keldi. Bu uning hayotini turli sohalarida o'z aksini topdi.

Ilk ibtidoiy jamoaning barcha bosqichlari davomida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi pastligi tufayli, odamlar birgalikda meh-nat qilish orqaligina tirik qolishlari mumkin edi. Oziq-ovqat mahsulotlari faqat odamlarning jismoniy mavjudligi uchun zarur bo'lgan yetar-yetmas miqdorda zo'rg'a topilar edi.

So'nggi paleolitda Yevroosiyoning muzlikka yaqin hududlarida mamont va junli karkidonlarni ovlash, otlar, buqalar, bug'ular va boshqa hayvon podalarini haydab ov qilish yuqori paleolit davrida ham davom etib, mezolitda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Shuningdek, turli qarmoqlar bilan baliq ovlash, uy-joy qurish, qayiq-larni yasash – bu hamma vaqt jamoaning birgalikdagi, muhim o'zlashtiradigan xo'jalikning barcha sohalarining mehnat natijalari hamma vaqt ham omadli bo'lmasligi mumkin edi. Shu sababli, yakka tartibdagi ov, baliqchilik, terimchilikdagi omad boshqalarning omadsizligi o'rnini to'ldirishi zarur edi.

Yana bundan tashqari, jamoaning yil davomida o'zlashtiruvchi xo'jalik sohalaridagi olingan mahsuloti hayotiy ehtiyojni to'la qondira olmas edi. Albatta, mahsulot zaxiralari yaratiladigan mavsumlar ham bo'lar, bunday zaxiralar nisbatan ko'proq tashkil topadigan hududlar ham mavjud edi. Lekin quyi ovchi, termachi, baliqchilarning o'zlashtiruvchi xo'jaligi, odatda, tirikchilikni ta'minlaydigan mahsulotni olishga qodir edi xolos. Shu asosda, ibtidoiy jamoa uchun jamoa mulkchiligi zaruriyati teng taqsimoti yoki barcha jamoa a'zolarini bir tekisda ta'minlaydigan taqsimoti zaruriyati shakllandi.

Ko'rinishidan jamoa mulkchiligida, eng avvalo, ishlab chiqarish vositasi yer bo'lgan. Bu holatda xo'jalik yuritiladigan hudud o'zining chegarasidagi ov, baliqchilik, termachilik joylari, qurol-ashyolar ishlab

chiqarish xomashyo manbalariga kirar edi. Bunday tartib hozirgi kunda Avstraliya aborigenlari, yaganlar va boshqa ular darajasidagi taraqqiyotda bo'lgan boshqa etnologik guruhlarda kuzatilgan. Shu bilan bir vaqtda, ba'zi shunday guruhlar (alakalufklar, eskimoslarning bir qismi, Sharqiy Afrikadagi xadralar)da faoliyat ko'rsatadigan hududlarda mulk bo'lmagan. Shunga asoslanib, bir qism olimlar, ilk ibtidoiy jamoa bosqichida yer-suv, yaylov, o'tloq va o'rmonlarga mulkchilik bo'lmagan deb hisoblaydilar. Bu munozarali fikr. Ko'proq favqulodda shart-sharoitlar bo'lgan hududlarda qo'shni guruhlar hech kimniki bo'lmagan eng muhim yerlardan birgalikda foydalanishga majbur bo'lganlar. Ov hududlariga, baliq mo'l-ko'l joylarga qayiqlar, uy-joy va olovga jamoa mulkchiligi keng tarqalgan. Shu bilan birga, mehnat qurollari – bolta, nayza, o'q-yoy va turli xil uy ashyolari, kiyim va taqinchoqlarning alohida kishilarga tegishli bo'lishi muammosini qanday tushunish mumkin? Etnologik tasvirlarda ular, odatda, shaxsiy mulk deb tavsiflanadi va bevosita tasdiqlanadiki, egasining vafot etishi bilan ular egasi bilan birga dafn qilingan yoki yaqinlariga meros qolgan. Bunday dafnlar Sibirdagi Sungiri yuqori paleolit manzilgohidagi arxeologik buyumlardan ma'lum. Shu bilan birga, individual qurollar va ro'zg'or buyumlarining shaxsiy mulk bo'lishining yana bir sababi, egasining o'zining shaxsiy sifatlariga mos kelishi, ulardan samarali foydalana olishning yana bir omili edi.

Ko'rinishidan qator quyi ovchilar, baliqchilar, termachilarda va insoniyatning ilk ancha rivojlangan guruhlarida o'lja qoldiq ozuqa mahsulot sifatida, ishtirok etayotganlar yoki umuman, jamoaning barcha a'zolari orasida teng taqsimlanadi. Shu bilan birga, eng omadli ovchi yoki termachi boshqalardan ko'ra ozgina ko'proq ulush olmagan. Avstraliya aborigenlarining ko'pgina jamoalarida kenguruni o'ldirgan ovchi, unga o'zining o'ljasidan taqsimot paytida, uni go'shtining yaxshiroq bo'lagini olish huquqi yo'q edi. Unga go'shtning yomon bo'lagi tushib qolishi mumkin edi. Taniqli qutb tadqiqotchisi K. Rasmussenning guvohlik berishicha, Kanada eskimoslarining guruhlaridan birida odamlar jamoa-chilikning yuqori ifodalangan darajasida yashaganlarki, ovchi ulushlari bo'lmagan va barcha ovqatlanish marosimlari birgalikda bo'lgan.

Ch.Darvin «Bigl» kemasida sayohat qilgan paytda, olovli yer aborigenlarining bir guruhida shunday bir hodisani kuzatgan: ular bir bo'lak surp matosini sovg'aga olganda, har bir kishi o'z ulushini olishi uchun uni teng bo'lakchalarga bo'lib, yirtganlar. Bunday jamoachilik

ibtidoiy o'zlashtiruvchi xo'jalik sharoitida uning mehnat unumdorligining o'ta pastligi va oziq-ovqatning tez-tez yetishmay qolishi bilan bog'liq edi. Faqatgina tirik qolish uchungina zo'rg'a topiladigan mahsulotni jamoa o'zining barcha a'zolari o'rtasida teng taqsimlashga, birovga ko'proq ulush tegib, boshqa och qolishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan. Lekin shu bilan birga, taqsimot bir tekisda bo'lmay, jins va yosh ehtiyoji hisobga olingan. Shafqatsiz tabiat ofatlari, ovning natijasizligi, qahraton qish, oylab davom etadigan qor bo'ronlar, yomg'ir mavsumlarida mehnatga qobiliyatli jamoa a'zolarining (ovchi, baliqchilar) kuchini saqlab qolish hayotiy zaruriyat edi. Shu sababli, bunday hollarda, favqulodda vaziyatlarda mehnatga qobiliyatlilar oxirgi ozuqa bo'laklarini olishlari, boshqa mehnatga qobiliyatsiz keksalar, ayollar va bolalar och qolishlari mumkin edi. Misol uchun, Avstraliya aborigenlari yoki eskimoslarda favqulodda vaziyatlarda infantitsid (infans lotin tilida – bola va caedes- o'ldirish) qo'llanilgan. Ayniqsa, bu qiz bolalar va keksalar (gerontitsid)ga nisbatan qo'llanilgan. Ayrim shimol xalqlarida yoshini yashab bo'lgan keksalarni ko'chish paytida eski manzilgohda ma'lum bir o'tin zaxirasi bilan yoqilgan gulxan oldida qoldirib ketish an'anasi bo'lgan. Antik tarixchisi Gerodot massagetlar to'g'risida shunday yozadi: «Agar ulardan kimdir juda keksa yoshga yetsa, barcha qarindosh urug'lar yig'ilishib, qariyani qurbonlik keltiradilar. Boshqa qurbonlikka keltirilgan hayvonlarning go'shti bilan birga pishirib yeydilar. Ular uchun bunday o'lim topish buyuk sharaf». Yana shuningdek, kichkina bolalarni uning ilgari o'lgan onasi bilan qabrga ko'mganlar. Bunday dafnlar cho'l va dasht chorvador qabilalarida ko'plab uchraydi.

Ayrim hollarda ilk urug' jamoasi davrida jamoa nafaqat tirikchilik uchun yetarli zaruriy mahsulotga ega bo'lib qolmay, balki ortiqcha mahsulotga ham ega bo'lgan. Bunday vaziyatlarda bir tekis taqsimot o'rniga sarflangan mehnatga yarasha mahsulot ulushi berilgan. Shu tarzda ortiqcha mahsulot va mehnat taqsimoti bilan ayirboshlash tug'ilgan.

Ayirboshlash jamoalar o'rtasidagi shaklda paydo bo'ldi. Turli urug' jamoalari bir-birlarini o'z tabiiy muhitlarining o'ziga xos boyliklari bilan ta'minlaganlar. Misol uchun, tosh va daraxtning oliy navlari, chig'anoqlar, tabiiy bo'yoqlar (oxra), zumrad, nefrit, fil, mamont suyaklari va hokazolar.

So'nggi paleolitdagi jamoalararo ayirboshlash to'g'risida Sibirga Kavkazdan keltirilgan obsidian, Old Osiyodan topilgan Badaxshan la'li

topilmalari guvohlik beradi. O'sha davrda qandaydir ayirboshlash ekviva-lenti bo'lmagan: sovg'a ayirboshlash yoki etnologiyada aytilganidek, sovg'a almashish bo'lgan. Xomashyo yoki mehnat natijalari bilan ayirboshlashga ko'plab jamoalar, xususiyl kishilar ishtirok etganlar. Natijada ijtimoiyl aloqalar kengayib, mustahkamlangan. Bu ayirboshlash jarayonlari bayram, ziyofatlar bilan mustahkamlangan. Ilk ayirboshlashlar bir-biridan uzoq masofadagi jamoalar o'rtasida tilsiz-soqov (unsiz, imo-ishora bilan) tarzida yuz bergan. Bir tomon ma'lum bir miqdordagi buyumlarni belgilangan joyga qoldirgan. Ikkinchi tomon uni olib, o'rniga o'z mahsulotini qoldirgan. Agar birinchi tomon o'z mahsulot miqdoridan qoniqmasa, qoldirilgan mahsulotni olmagan. Shunda u tomon buni chetdan kuzatib turib, yana ustiga qo'shgan.

Etnologik kuzatishlarning natijalariga ko'ra, urug' yaxlit ishlab chiqaruvchi jamoa bo'lmagan. Chunki egzogamiya odatiga ko'ra, qarindoshlarning bir qismi o'z jamoasidan boshqa jamoaga ketgan. Urug' iqtisodiy jihatdan nufuzli o'ringa ega bo'lgan. Urug'da ov qilinadigan hududning egasi bo'lgan jamoa a'zolarini emas, qon-qarindosh odamlarning aloqasi yaqin va mustahkam bo'lgan. Misol uchun, XIX asr oxirida Avstraliya aborigenlarining bir guruhida qarindoshlar birgalikda yashab, birgalikda ovqatlanishgan. Bir-birlari bilan xotinlarini almashganlar hamda hamjihat bo'lganlari etnologik kuzatilgan. Urug' ijtimoiyl nufuzli bo'lib, jamoani jipslashtiradigan egzogon asosning tashuvchisi va boshqa jamoalar bilan aloqani tashkillashtiradigan asosiy bo'g'in bo'lgan.

Demak, jamoaning ilk davrida qarindosh urug' munosabatlari birinchi o'rinda bo'lgan. Chunki yer-hududning egasi urug' bo'lgani uchun u o'zining to'la tarkibida ijtimoiyl-iqtisodiy tashkilot jamoani tashkil etadi. Shunday tarzda, ilk ibtidoiy jamoa bosqichida ishlab chiqarish aloqalari urug' aloqalari bilan mos tushgan. Ammo ayrim olimlar, ibtidoiy jamoaning har qanday bosqichida asosiy bo'g'in jamoa bo'lgan. Urug' esa faqat oila-nikoh munosabatlarini boshqargan deb tushuntiradilar. Shuningdek, urug' ov hududlarining nominal egasi, amalda esa xo'jayin ilk ibtidoiy jamoa bo'lgan deb tushuntiradilar. Shunga qaramasdan ilk jamoa davrida urug' va ishlab chiqarish munosabatlari asosan bir-biriga mos kelgan. Shu bilan birga, urug' ham, ilk jamoa ham davrning iqtisodiy asosi bo'lmagan. Bir qism qarindoshlar boshqa jamoalarda nikohga kirishib, o'z urug'lari bilan aloqani yo'qotganlar. Bir qism o'z urug'ida qolgan qarindoshlar ilk

jamoaning asosini tashkil etgan. Aynan shu sababli, «ibtidoiy jamoa» va «urug' jamoasi» bir xil ma'noda ishlatiladi.

Ijtimoiy normalar. Har bir jamoa uning balog'atga yetgan a'zolari va yoshi katta oqsoqollarning erkin xohish-irodasi bilan boshqarilgan. Jamoa a'zolarining qat'iy rioya qilishi shart bo'lgan yurish-turishning ijtimoiy qoidalari mavjud bo'lgan. Mehnat taqsimoti qoidasi, hamkorlik, o'zaro himoya, teng taqsimot, mehnatsevarlik, umumjamoa manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, sabr-toqat, qiyinchiliklarga bardosh berish, egzogamiya, urf-odatlarga rioya qilish va boshqa shunga o'xshash jamoaning hayotiy ehtiyojlariga javob berib, ularga qat'iy amal qilingan. Bu qoidalar avloddan-avlodga o'tib kelgan ko'nikma, malaka sifatida shakllanib, odatga aylangan. Ular mafkuraviy jihatdan diniy qoidalar, rivoyat va miflar bilan mustahkamlangan.

Urug' jamoasida umumiy qoidalar, urf-odatlarni buzish hollari ham bo'lgan. Bunday holda jamoa tomonidan ijtimoiy ta'sir-qoralash, majbur-lash choralari qo'llanilgan. Aybdorga nisbatan turli choralar-qoralash, ustidan kulish, tan jazosi, jamoadan haydash, hatto, o'lim jazosi qo'llanilgan. Misol uchun Avstraliya aborigenlari vebb, senolarda egzogamiyani buzgan odam jamoani tark etishi yoki o'lishi lozim edi. Inisiatsiyaning sirlarini oshkor qilgan o'smirni ham qattiq jazo kutar edi. Bunday hollarda jazoni oqsoqollar belgilab, o'zlari ijro qilganlar. Ko'pincha aybdorning eng yaqin qarindoshlari ijrochi bo'lganlar. Aksincha, sezilarli ijtimoiy aha-miyatga ega bo'lmagan ayblar, misol uchun, shaxsiy mulk daxlsizligining buzilishi yoki jinsiy buzuqlik manfaatdorlar tomonidan ko'rib chiqilgan.

2. Aholi soni va uni takror ishlab chiqarish. Oddiy mehnat unumdorligi past o'zlashtiruvchi xo'jalik va unga xos ibtidoiy ijtimoiy munosabatlar, kundalik og'ir mehnat va xavfga to'la hayot ilk ibtidoiy jamoa sharoitida aholi sonini keskin chekladi.

Quyi ovchilar, termachilar va baliqchilar o'zlari ov, termachilik qilayotgan hudud chegaralari doirasidan topilgan ozuqa bilan o'zlarini ta'minlashlari uchun, jamoadagi odamlar soni hududdagi mavjud oziq-ovqat resurslariga mos kelishi lozim edi. Aholi zichligi ma'lum miqdordan oshmasligi kerak edi. Bundan tashqari, jamoa aholisi miqdorining quyi va yuqori chegarasini belgilaydigan boshqa omillar ham bor edi. Jumladan, jamoa hayot qobiliyati va xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan miqdorda balog'at yoshidagi erkak yetarli bo'lishi, lekin juda ham ko'p bo'lmashligi kerak edi. Chunki erkaklar juda ko'paygan taqdirda, ibtidoiy-ijtimoiy tashkilot o'z normal

yashashini ta'minlay olmasligi xavfi tug'ilar edi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, ilk ibtidoiy jamoaning o'rtaacha soni 25-30 kishini tashkil qilgan.

V.A. Shurelmanning to'la umumlashtirishlariga ko'ra, jamoalarning kam soni tabiiy omillarning tartibsiz harakati bilan va ma'lum bir ijtimoiy-madaniy mexanizmlar yordamida tartibga solib turilgan. Davomiy ochlik, sovuq va kasalliklar o'limni ko'paytirgan, tug'ilishni kamaytirgan. Ayniqsa, ayollar, bolalar va keksalar o'limi ko'p bo'lgan.

Ijtimoiy omillardan: qizlarning juda erta nikohi va uning oqibatida jismoniy majruhlik va tug'maslik; ayollarning og'ir mehnati natijasida ularning reproduktiv davrining qisqarishi; yangi tug'ilgan qiz chaqaloqlarning bir qismini o'ldirilishi va onalar o'limining yuqoriligi natijasida jinslar o'rtasidagi proporsiyaning buzilishi; qariyalarning ko'p xotinliligi tufayli yosh erkaklarning bir qismini majburiy bo'ydoqligi.

Tug'ilishning pasayishiga turli diniy tasavvurlar ham ta'sir qiladi. Ayniqsa, turli xil katta xo'jalik tadbirlarini o'tkazish mavsumida jinsiy aloqalarga keng taqiqlar, tug'ilishdan keyin ko'pincha uzoq muddatli ba'zi rasm-rusumlarning davom etishi tug'ilishning keskin kamayishiga olib kelgan. Bunday taqiqlarni buzish ovchilarga omadsizlik keltiradi, bolaga ziyon yetkazadi va hokazolar deb hisoblangan.

Ko'rinishidan ibtidoiy urug' jamoalarida tug'ilishni turli vositalar bilan ongli cheklab qo'yish va boshqa shu turdagi usullarni bilganlar. Ibtidoiy jamoa odamlari tug'ilishni boshqarishga urinib, hozir aytilganidek, iqtisodiy-etnografik maqsadlarni ko'zlamaganlar. Ularni tug'ilishni cheklashga bevosita maishiy ehtiyojlar majbur qilgan. Ikki yoki undan ko'proq kichkina bolasi bo'lgan ayollar to'la qonli ishchi bo'lganlar va jamoaning tez-tez ko'chib yurishida ikki bolani ko'tarib yura olmagan hamda o'z ko'krak suti bilan boqa olmagan. Shu sababli, etnografik ma'lumotlarga ko'ra, barcha quyi ovchi, baliqchilar va termachilar tug'ilishlar oralig'i kamida uch yildan kam bo'lmasligiga harakat qilganlar. Agar bolalar tez-tez tug'lsa, ularni ko'p holda o'ldirganlar. Ayniqsa, ko'proq egizaklarning birini o'ldirganlar. Bu ilk ibtidoiy jamoada sof amaliy asosda shakllangan. Keyinchalik ko'p jamiyatlarda endi bunday an'ana diniy motivlar bo'yicha saqlanib qolgan. Bunday bolalar taqdirini butun jamoa hal qilgan, chunki butun jamoa xo'jalik va maishiy to'siqlarni hal qilishdan manfaatdor bo'lgan.

3. Jins-yosh tashkiloti. Jins va yosh bo'yicha mehnatning tabiiy taqsimoti va u bilan bog'langan xo'jalikning ixtisoslashuvi ilk ibtidoiy

jamoaning ijtimoiy hayotiga chuqur iz qoldirdi. Ularning asosida alohida jinsiy yosh guruhlari (sinflar, bosqichlar va hokazolar) shakllandi. Ularga mansub bo'lish jamoa va uzoq aloqalari bilan bog'langan aloqalarni tug'dirdi. Bu hollarga, misol uchun, Avstraliya aborijenlarida bunday guruhlar ma'lum darajada rasmiylashgan, eskimoslarda esa norasmiy tusga ega, lekin kundalik hayotda ayollar, erkaklar va bolalar guruhlari o'z majburiyatlari, huquqlari ijtimoiy mavqega ega bo'lib, ular belgilangan huquq-majburiyatlar doirasida faoliyat ko'rsatganlar.

Urug' jamoalarida yosh-jins guruhlari o'rtasida ma'lum chegara shakllangan edi. O'smirlikdan balog'at yoshiga o'tishga katta e'tibor berilgan. Bu o'tish inisiatsiya nomi ostida ma'lum bir sinovlar va maxfiy tantanali rasm-rusumlar bilan amalga oshirilgan.

Tug'ilgan bolani qor yoki sovuq suvga tashlaganlar. Agar u tirik qolsa, keyinchalik jasur yigitga aylanadi deb o'ylashgan. Eng qadimgi davrda O'rta Osiyo cho'l-dashtlarida yashagan ko'chmanchi urug' jamoalarida bolalar yoshligidan ovchilikka o'rgatilgan: «Bolalar qo'yga minishni o'rganishlari bilan kamondan qushlar va kichik mavjudotlarni ovlaydilar hamda ularni ovqatga ishlatadilar».

Inisiatsiya turli jamiyatlarda turli ko'rinishda o'tgan. Lekin asosan bir maqsadni: o'smirlarni, odatda har bir jinsni alohida jamoaning to'la qonli a'zolari sifatida xo'jalik, ijtimoiy va mafkuraviy hayotiga olib kirishni ko'zlagan. Eng qadimgi davrdan vatanimiz hududida yashagan sak qabilalarida 15 yoshli o'smirlar jasurlik kamarini bog'lab, dushman jamoaga bosqinga yuborganlar. Agar u dushmanning boshini olib kelsa, haqiqiy «ikki marta tug'ilgan» erkak bo'lgan. Agar u qaytib kelmasa, hech kim uni eslamagan. Avstraliya aborijenlarida o'smirlar ov va jang qurolini egallashga o'rgatilgan. O'smirda sabr-toqat, chidamlilik, o'zini tuta bilish, intizom sifatleri shakllantirilgan. Uni urug'ning maxfiy urf-odatleri va e'tiqodi bilan tanishtirganlar. Uni og'ir sinovlarga duch qilganlar. Jumladan, ochlik, jarohat yetkazish, olov bilan badanni kuydirish, sochlarni yulish, cho'l-u biyobonga ma'lum muddatga tashlab kelish, yirtqich hayvonga ro'baro' qilish kabi sinovlardan o'tkazilgan. Yaganlar, alakalufklar va bushmenlarda o'smirlar bir-ikki yil davomida og'ir ishlarni bajarishlari, ovqatning ba'zi turlaridan voz kechishlari, o'zlarida chidamlilik, sabr-toqat, bo'ysunish va qunt qilishni shakllantirishlari lozim edi. Inisiatsiyaga bardosh bera olmaganlarni uyat-nomusga qolar, yoki qayta sinovdan o'tishar edi. Inisiatsiya muvaffaqiyatli o'tishi munosabati bilan turli rasm-rusumlar, qo'shiq va raqslar bilan marosim-bayramlar o'tkazilgan.

O'zbeklarda ham yaqin-yaqinlargacha o'smirlarning balog'at yoshiga yetishini turli marosimlar bilan belgilaganlar. Misol uchun, muchalni belgilash, soch olish yoki bo'lg'usi kuyovning o'tin yorishi va hokazolar.

Odatda qizlar murakkab sinovlarga duch qilinmagan. Uni ba'zi bir ovqatlarni iste'mol qilishini taqiqlaganlar. Unga nikoh paytida o'zini qanday tutishni o'rgatganlar va qo'shiq, dostonlarni yod oldirganlar. Qizning boshida har xil diniy marosimlar bajarganlar. Gerodotning yozishicha, sarmat (sak)larda dushmanni o'ldirmagan qiz turmushga chiqmagan. Umuman, ayollarning inisiatsiyasi erkaklarnikiga qaraganda kam rivojlangan. Jinslarning ijtimoiy mavqeidan mustasno holda erkaklardan ko'proq chidam, jasorat, tashabbus, qat'iyat talab qilingan. Shu sababli, erkaklarning inisiatsiyasiga jiddiy e'tibor qaratilgan.

Inisiatsiyaning tarkibiy qismlaridan biri nikoh hayotiga tayyorlanish edi. Yangi oila qurayotganlarga oila-nikoh bilan bog'langan urf-odatlarni faqatgina tushuntirish bilan cheklanib qolmaganlar. Ularning jinsiy organ-lari ustida har xil operatsiyalar o'tkazilgan (o'smirlarni sunnat qilish, qizlar sun'iy defloratsiya qilingan). Erkaklarni sunnat qilish keng tarqalgan. Uning kelib chiqish sabablari to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Taxminlarga ko'ra, bunday usul bilan inisiatsiya qilinganlarni vaqtinchalik jinsiy hayotdan tiyib turganlar. Boshqa operatsiya yoki manipulatsiyalar ham qilingan. Misol uchun, Avstraliya aborijenlarida qiz bolaning ko'ksi moy va oxra bilan ishqalangan. Bu uning o'sishiga yordam beradi deb hisoblangan. Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar alohida guruhlariga bo'lingan va ular ajralgan holda yashaganlar. Ba'zi ilk ibtidoiy jamoalar manzilgoh-larida ayollar va erkaklar alohida yashaganlar. Alohida ovqat tayyorlaganlar. O'zlarining yashirin bayramlari, e'tiqodlari, ba'zida o'z «yashirin» tillari bo'lgan. Erkaklar va ayollarning o'ziga xos majburiyatlari va imtiyozlari mavjud bo'lgan. Erkaklarning mehnat qurollari ularning mulki, ayollarniki – ayollar mulki bo'lgan. Bir-birlarining qurollariga tegishga ruxsat berilmagan. Boshqa jamoalarda, masalan, Avstraliya aborijenlari, semanglar yoki bushmenlarda bo'ydoqlar va qizlar alohida yashaganlar. Mifologiyada erkaklar va ayollar alohida yashagan davrlar to'g'risida xotiralar saqlanib qolgan. Alohida jamoalar (misol uchun, alakalufklar)da alohida erkaklar uylari bo'lib, bu uylar yig'inlar joyi, turli marosimlar bajari-ladigan va birinchi navbatda, inisiatsiyalar o'tkaziladigan joy bo'lgan.

Ilk ibtidoiy jamoada jins-yosh tashkiloti erkak va ayollar o'rtasidagi munosabatlarda tengsizlik tug'dirmagan. Har ikki tomon ham jamoa uchun foydali bo'lgan ikki xil mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan. Shu sababli, jinslar o'rtasida hukmron yoki bo'ysunuvchilar bo'lmagan.

Ilk ibtidoiy jamoa davrida o'rta yoshli va keksalar o'rtasida munosabat qanday bo'lgan? Avstraliya aborigenlarini kuzatish ma'lumotlariga ko'ra, bu davrda obro'li keksalar qatlami – jamoa rahbarlari ajralib chiqqan. Bu hol bu davrda gerontokratiya mavjudligidan dalolat beradi. Ibtidoiy jamoalar juda qiyin iqlim sharoitlarida yashaganlar. Paleodemografiya ma'lumotlariga ko'ra, odamlar ko'pincha qirq-ellik yoshgacha yashamay o'lib ketgan. O'sha darvdayoq ko'p jamoalarda keyinchalik ham saqlanib qolgan gerontitsid (ko'ngilli o'lim) odati saqlanib qolgan. Mehnat qobiliyatini yo'qotgan keksalardan hamda ochlikdan, kasallikdan holdan toyganlardan, boqish imkoni bo'lmagan bolalardan qutulishga harakat qilganlar va ularni o'limga mahkum qilganlar. Ilk ibtidoiy jamoa tenglar jamoasi edi, lekin tirik qolish uchun shafqatsiz kurashda ishlab chiqarish jamoasining faqat sog'lom, kuchli va to'la qonli a'zolari teng edilar. Jangda dushmanning boshini olmagan erkakni uyatga qoldirganlar va olingan o'ljadan mahrum qilganlar. Jasur va omadli jangchilar hurmat-e'tiborda bo'lgan. Xitoy tarixchisi xunlar to'g'risida shunday yozadi: «Kuchlilar yog'li va eng a'lo ovqatni yeydilar, keksayganlar ulardan keyin ovqatlanadilar. Yosh va kuchlilarni hurmat qiladilar. Keksayganlar va zaiflarga kam e'tibor beradilar». Shuningdek, Gerodot yozadi: «Skif birinchi dushmanni o'ldirganda uning qonini ichadi. Dushmanning bosh chanog'i ustidan teri qoplab, idish o'rnida ishlatadi.... Dushmanning shilib olingan terisidan echki terisiga o'xshash yopinchiq qiladi».

Tayanch iboralar: K. Rasmusse, Ch.Darvin, «Bigl» kemasi, Avstraliya aborigenlari, vebb, seno, V.A.Shurelman, yagan, alakaluf, bushmen, defloratsiya, gerontokratiya, gerontitsid.

Takrorlash uchun savollar

1. Ilk ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rekonstruksiya qanday amalga oshiriladi?
2. Inisiyatsiya atamasini izohlab bering.
3. Aholi soni o'sishining asosiy omillarini ko'rsating?

4. Ovchi-termachi jamoalarning mavsumiy muqim yashashga o'tish sabablarini ko'rsating?
5. Jamoa hayotida urf-odat va an'analarning o'rni to'g'risida tushuncha bering.
6. Ilk ibtidoiy jamoada yurish-turish qoidalari buzilganda qanday choralar qo'llanilgan?

Mustaqil ish mavzulari

1. Ilk ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
2. Ibtidoiy jamoa boshqaruvida urf-odat va an'analarning o'rni.
3. O'zlashtiruvchi xo'jalik.
4. Ibtidoiy jamoa jins-yosh tuzilishi.
5. Ilk ibtidoiy jamoa ijtimoiy normalari.

7. Ibtidoiy jamoaning so'nggi davri

- 1. Oila. 2. Xususiy mulkning paydo bo'lishi. 3. Jamoa boshqaruvi. 4. Ma'naviy madaniyat. Ilmiy bilimlarning o'sishi. 5. Yozuvning paydo bo'lishi***

1. Oila. So'nggi ibtidoiy jamoa bosqichida juft oila hukm surar edi. Ilgarigidek, har ikki tomon istagi bo'yicha nikoh bekor qilinishi mumkin edi va guruh munosabatlari belgilari bilan birga bordi. Ishlab chiqarish xo'jaligiga ega bo'lgan urug'larda poliginiya (yunon tilida poly- ko'p va gynyoxotin) ko'p xotinlik, qisman sororat (lotin tilida sororopa, singil) bir yoki ikki va undan ko'proq singillar bilan bir vaqtning o'zida nikohda bo'lish, keyinchalik vafot qilgan xotinining singlisi bilan nikoh amal qilar edi. Chunki dehqonchilikda ayollar mehnatiga ehtiyoj katta edi. Aksincha, ovchi va termachi qabilalarda poliandriya (yunon tilida poly – ko'p va andros-er) – ko'p erlilik, jumladan, levirat (lotin tilida levr – qayniuka, urning ukasi) – ikki yoki undan ko'proq aka-ukalar bilan bir vaqtda nikoh keng tarqalgan edi. Bu yerda erkak ovchi asosiy ish kuchi edi. Ilk vaqt-larda oila xo'jaligining ikki shakli yonma-yon bordi: poliginiya va poliandriya. Hali ham nikohgacha bo'lgan aloqalar saqlanib qoldi va rag'batlantirildi. Chunki qiz bola tug'ishga qobiliyatini ko'rsatishi lozim edi.

Nikohlar uzoq vaqt krosskuzen ((ingliz tilida cross-kesishadigan va cousin-akasining o'g'li, akasining qizi yoki kesishgan-kuzen nikohi)

onasining ukasini qizi yoki otasining singlisini qizi bilan nikoh) shaklida saqlanib qoldi. Qarindosh urug' jamoalari o'rtasida aloqalar kengayishi bilan va ularni kengaytirish uchun krosskuzenlik boshida majburiy bo'lmay qoldi. Keyinchalik esa yo'q bo'lib ketdi. Bu bilan nikohlar ayirbosh-lash xususiyatini yo'qotdi va jamoa uchun ayollarning ishchi kuchini qoplashni talab qildi. Nikoh uchun to'lov (qalin) paydo bo'ldi. Ota-onalar hali tug'ilmagan bolalarning nikohi to'g'risida ahdlashadigan bo'ldilar (qorin ahdi) yoki chaqaloqlar (beshik ahdi)ning nikohi to'g'risida, balo-g'atga yetmaganlarning kelishuvi amalga oshirildi. O'tgan asrning 70-yillarigacha bu odatlar o'zbek oilalarida kuzatiladi. Agar ilgari erkak va ayol er-xotin bo'lish niyatini oddiygina e'lon qilgan bo'lsalar yoki boshqa yo'l bilan bildirgan bo'lsalar, endi nikohni amalga oshirish uchun u yoki bu darajada murakkab marosimlar, odatlar paydo bo'ldi. Bunday marosim ma'lum bir urf-odatlarini bajarishga olib keldi. Har ikki tomon ota-onalar, qarindosh-urug'lar sovg'alar ayirboshlaganlar. Kelinni o'g'irlash odati ham shu davrda paydo bo'ldi.

2. Xususiy mulkning paydo bo'lishi. Dastlab xususiy mulk ba'zi bir oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari, mehnat qurollari va qurol-yarog' ko'rinishida, chorvador qabilalarda chorva mollari sifatida jamg'arildi. Asir olinganlar ham qul qilinib, xususiy mulkka aylantirildi. Xususiy mulk, eng avvalo, urug'-qabila yo'lboshchilari, harbiy boshliqlar va kohinlar qo'lida to'plandi. Ular dastlab urug' yoki jamoaga tegishli mulk (oziq-ovqat, chorva mollari, qurol-aslaha, ov o'ljalari, harbiy o'ljalar, ekin yerlari)ni o'zlashtirib oldilar. Misol uchun, melaneziya-liklarda (Gazel yarim oroli) yo'lboshchilar jamoaning barcha boyligi chig'anoqlar xazinasining saqlovchilari edilar. Chig'anoqlar xazinasini yo'lboshchilar jamoa ehtiyojlari uchun ishlatishlari zarur edi. Lekin ularni jamoaning kambag'al a'zolariga qarzg'a berib, o'z maqsadlari, ya'ni boyish maqsadida foydalanganlar. Urug'-qabila oqsoqollari, harbiy boshliqlar urushlardan olingan o'ljalarning ancha qismini o'zlashtirib olganlar (qurol-aslaha, asirlar, oziq-ovqat, chorva mollari va h.k). Ular jamg'arilgan mol-mulklarini o'z o'g'illariga meros qilib qoldirganlar. Jamoaning mehnatsevar, tadbirkor, omadli oddiy jamoa a'zolari ham anchagina mulk to'plagan.

Xususiy mulkning shakllanishi yangi va eski tartiblar o'rtasida keskin ziddiyatlar sharoitida bordi. Yuzaga kelayotgan xususiy mulkchilik ishlab chiqarishning ko'p sonli jamoachilik shakllari va jamoa-

urug' manfaatlari ustunligi psixologiyasini bartaraf qilishga to'g'ri keldi. Jamoa urf-odati, an'analari boy jamoa a'zolaridan boylikni boshqa kambag'al jamoa a'zolari bilan bo'lishishni talab qilar edi. Boyib ketgan urug'-qabila oqsoqollari, harbiy boshliqlar, boy oila boshliqlari o'z obro'-e'tiborlari va ta'sirini yo'qotmaslik uchun mo'l-ko'l ziyofatlar berishi, qarindoshlarga sovg'alar, nochor jamoalarga moddiy yordam berishlari shart edi. Baxil, xasis boy o'z obro'-e'tiborini yo'qotib, mulkidan mahrum bo'lishi mumkin edi.

XVII–XVIII asrlarda Sibirning bug'uchilik bilan shug'ullanadigan xalqlarida alohida bir oila yuz boshdan ortiq bug'u podasiga ega bo'lishi mumkin emas edi. Bu miqdordan ortiqcha bug'u podasi, agar u ko'ngilli ravishda tarqatib berilmasa, qarindoshlar va qo'shnilar tomonidan tortib olingan. Ayrim paytlarda jamoa bilan o'z mol-mulkini bo'lishmagan xasis boy o'ldirilgan. Bunday holni papuaslar turmushida ko'rish mumkin. Papuaslarda boyning yaqin qarindoshlari: «Sen yagona boy odam bo'lishing mumkin emas, biz barchamiz teng bo'lishimiz lozim, sen bor-yo'g'i biz bilan tengsan» degan so'zlar bilan boyni o'z kamoni bilan o'zini otib o'ldirishga majbur qilganlar. Ba'zi jamiyatlarda esa ortiqcha mahsu-lotning paydo bo'lishiga salbiy qaraganlar. Misol uchun, Markaziy Afrika-dagi bemba qabilasida omadi chopgan dehqon va yovvoyi asalari yig'uv-chisi zararkunanda, jodugar deb e'lon qilingan. Ijtimoiy tabaqalashuv davrida jamg'arilgan mol-mulk barchaning ko'z oldida yo'q qilish odati keng tarqalgani tabiiy hol bo'lgan. Ko'pgina urug'-qabilalarda yo'l-bosh-chi yoki boy odam vafot qilganda, uning boyligi namoyishkorona urug'-doshlari ko'z oldida yo'q qilingan. Misol uchun, Melaneziya orollarida bu hududda boylik mezoni sanalgan bo'yralar zaxirasi tizimli yo'q qilingan.

Dastlab yer jamoa mulki edi. Yerga xususiy mulkchilik keskin kurashlar natijasida asta-sekin shakllandi. Oila doimo o'zi ishlov bergan yerga to'la egalik qilishga urinar edi. Ko'chmanchi va yarim ko'chman-chi qabilalarda yaylov, o'tloq yerlarda jamoa mulki uzoq saqlanib qoldi. Dehqonchilik jamoalarida esa o'tloq, daryo, o'rmonlar umumiy jamoa mulki bo'lib qoldi. Oilaning mustahkamlanishi, mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida mehnat unumdorligining o'sishi, ortiqcha mahsulotning paydo bo'lib, uning ayrim oilalar, yo'l-boshchilar, harbiylar, kohinlar, ayrim mehnatsevar oilalar qo'lida to'planishi kabi omillar xususiy mulkning to'la qaror topishiga olib keldi.

Ibtidoiy jamoaning so'nggi davrida ishlab chiqarish o'sdi va ixtisoslashdi. Bu ishlab chiqarishni individuallashtirdi. Yakka tartibda

ishlab chiqarish o'z navbatida qo'shimcha mahsulotning paydo bo'lishiga imkoniyat yaratdi. Mehnat unumdorligining o'sishi va mehnatning ixtisoslashuvi natijasida mahsulotni ayirboshlash uchun maxsus ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va mahsulot muntazam ayirboshlash amaliyotini yaratdi. Ana shunday qilib, erkin begonalashadigan xususiy mull paydo bo'ldi. U ibtidoiy jamoa davri jamoa yoki shaxsiy mulkidan farq qilar edi. Bu odamning ekspluatatsiya munosabatlariga yo'l ochdi.

3. Jamoa boshqaruvi. Ibtidoiy jamoa bir necha qon-qarindosh oiladan tuzilgan. Jamoa ma'lum bir hududda ovchilik, terimchilik bilan shug'ullanib, hayot kechirgan. Ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganda, odatda jamoa bir necha xo'jalik guruhlariga bo'lingan. Har bir guruhga hayotiy tajribaga ega bo'lgan, ko'pincha jamoada yoshi ulug' bo'lgan kishilar boshchilik qilganlar.

Jamoaning boshlig'i yoki oqsoqoli hokimiyati o'z tajribasi, namunali faoliyati, tafakkuri, aql-zakovatining boshqalardan ustunligiga asoslangan edi. U urug'doshlar ichida obro'-e'tiborga ega bo'lib, uning aytganlari so'zsiz bajarilgan. Oqsoqolning hokimiyati rasman hech qanday kuchga ega bo'lmagan, lekin uning maslahatlari yoki buyruqlari so'zsiz bajarilgan. Oqsoqolning hokimiyati urug'ning barcha manfaatlariga xizmat qilib, kundalik hayotda uning so'zlari yoki buyrug'i bilan bu hokimiyat amalga oshirilishi mumkin edi. Oqsoqol xo'jalik hayotida boshliq, kichik harbiy to'qnashuvlarda yo'lboshchi, urug'ning urf-odatlarini, an'analarini saqlovchisi edi. Odatda dastlab urug' oqsoqoli xo'jalik hayotida boshqa jamoa a'zolari bilan yonma-yon mehnat qilgan, iste'molda hech qanday imtiyozga ega bo'lmagan. Jamoa o'zining ichidan eng obro'li, yoshi ulug' kishini oqsoqol qilib saylab qo'ygan. Keyinchalik urug' oqsoqollari ortiq-cha mahsulotning paydo bo'lishi bilan o'z ulushlarini ko'paytirganlar. ularning bir qism hokimiyati harbiy yo'lboshchi, koinlarga o'tgan.

Jamiyatning tashkil etilishigacha bo'lgan davrda ibtidoiy jamoada hokimiyat xalqning qo'lida edi. Jamoaning rivojlanishi bilan katta xo'jalik ishlari muhokamasi, jamoa ichida yuz bergan hodisa, harbiy kelishmov-chiliklar va hokazolar jamoa a'zolari yoki qarindoshlar yig'inlarida tan olingan boshliq rahbarligida hal qilana boshlandi. Jamoa-urug'chilik va urug'-qabilachilik tuzumining va ayniqsa, segmentar tashkilot ((lotin tilida segmentum-bo'lak)ning urug' yoki jamoaning guruhlariga bo'linishi, ular ham o'z navbatida, yanada kichik bo'g'inlarga bo'linib ketadi) rivojlanishi bilan jamoa hokimiyati

organlarining pog'onalashuvi boshlanishiga turtki berdi. Shaxsiy yo'lboshchilik qilishning yangi mexanizmlari paydo bo'ldi. Yig'in va kengashlarga barcha balog'atga yetganlar, to'la huquqli jamoachilar yoki qarindosh-urug'lar ishtirok etar edilar. Qaror birgalikda qabul qilinardi. Shu bilan birga fikrlarning birligiga erishishga katta e'ti-bor berilgan. Shu sababli, bir xil qarorga kelish yo'lboshchilar, jamoaning boshqa obro'li odamlarini obro'-e'tibori va ishontira bilish qobiliyatiga bog'liq edi.

Jamoaviy hokimiyat organlarining pog'onaviy bo'ysunishi uy xo'jaliklari boshliqlarining jamoa va urug' kengashlarida vakilligi yo'li bilan, bunday kengashlarning boshliqlari—fratriya (yunon tilida—birodarlik-bir qabilani tashkil etgan bir necha urug'lar guruhi) va qabilalar kengashlarida vakilligi bilan amalga oshirish mumkin edi. Lekin vakillik tamoyili barcha a'zolarining ishtirokini siqib chiqarmadi. Misol uchun, Luis Morgan Shimoliy Amerikadagi irokezlarning jamoa boshqaruvida shunday holatni kuzatgan: Irokez qabilasida urug' kengashiga balog'at yoshiga yetgan erkaklar, fratriya qabilalar kengashiga urug' boshliqlari kirgan. Bu potestar (lotin tilida—hokimiyat) pog'onaning har bir darajasi o'z vakolati sohasiga ega. Uy xo'jaliklari kengashida barcha ichki masalalar, urug' kengashlarida xo'jalik, ijtimoiy va mafkuraviy hayotning muammolari, qabila kengashlarida urug'lar orasidagi va boshqa qabilalar bilan munosabatlar ko'rilgan. Qabila kengashi qabiladoshlarning oliy manfaatlarini himoya qilgan. U urug' boshliqlarini tasdiqlagan, hatto ularni urug'ning xohish-irodasiga qarshi almashtirishi mumkin bo'lgan. Urug'lar o'rtasidagi janjallarni hal qilgan, elchilarni jo'natib, elchilarni qabul qilgan. Urush e'lon qilgan va katta janglar paytida alohida harbiy qismlar harakatini muvofiqlashtirgan, qabilalararo ittifoqni shakllantirgan.

Qabila kengashi kam chaqirilgan. Barcha darajadagi yo'lboshchilar uchun yaroqli, qobiliyatli va loyiq kishilardan saylangan yo'lboshchida xo'jalikni boshqarish ko'nikmasi, mehnatsevarlik, tashkilotchilik qobiliyati, urf-odatlarini bilish, saxiylik, harbiy ishga qobillik yoki diniy rasm-rusumlarni bilish sifatlariga ega bo'lishlari shart edi. Ba'zi joylarda yo'lboshchilarning funksiyasi ajratilmagan, ba'zi joylarda sharoitdan kelib chiqib, yo'lboshchilik harbiy boshliq, kohin-sehrgar yoki tabib, oddiy oqsoqollarga bo'lingan. Ularning har biri o'z sohasida mukammal bo'lishlari shart bo'lgan. U yoki bu qabilada ma'lum bir faoliyat (qabila oqsoqoli, harbiy boshliq, kohin) alohida ahamiyat kasb

etgan. Yo'lbosh-chining saylanish jarayonida ayni shu faoliyat qobiliyatiga urg'u berilgan.

Bo'lg'usi yo'lboshchining hayotiy tajribasiga ham e'tibor berilgan. Ko'p urug'li jamoada ko'p sonli urug'ning vakilini yo'lboshchi etib saylash ehtimoli yuqori bo'lgan. Ortiqcha mahsulot va shaxsiy boylikning paydo bo'lishi yo'lboshchilik tashkilotiga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. O'z boyligi, saxiyligi bilan ajralib turadigan odamlar yo'lboshchilikka birinchi davogar bo'la boshladilar. Ular nafaqat boylikka, balki yuqorida sanab o'tilgan sifatlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Ijtimoiy va mulkiy tabaqalanish jamoalarda qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning murakkablashuvi tashkiliy boshqaruv funksiyalari yoki hokimiyat funksiyasini mustahkamlashni talab qildi. Jamoaning yuqori tabaqasining mol-mulki va imtiyozlarini oddiy jamoachilar, kambag'allar va boshqa tazyiqlardan himoya qilish kerak edi. Ibtidoiy tenglik, demokratiya ruhi bilan sug'orilgan an'anaviy urug'-qabila hokimiyati buning uchun yaroqsiz edi. Ular dastlab potestar (davlatgacha bo'lgan hokimiyat tashkiloti), keyin esa yangi siyosiy tashkilot (davlat)ga o'z o'rnini bo'shatib bera boshladi.

Shunday muhim shakllardan biri erkaklar yoki maxfiy ittifoqlari edi. Maxfiy ittifoqlar erkaklar ittifoqidan kelib chiqdi. Ularning funksiyasi yaqinligi sabab, ularni yagona rivojlanayotgan muassasa deb qarash mumkin. Etnologik kuzatishlardan ma'lumki, so'nggi ibtidoiy jamoalarda erkaklar uylari mavjud bo'lgan. Bu yerda yig'ilishlar o'tkazilib, urug' erkaklarining diniy hayoti o'tgan. Sinflar shakllanishi davrida ular qarindoshlar va qarindosh bo'lmaganlarning alohida ittifoqlarining tashkiliy markazlari bo'lgan. Jumladan, turli jamoa a'zolari ham bu yerga kelganlar. Ko'pgina jamiyatlarda (Shimoliy Amerikada o'qibva, Tropik Afrikada yoruba va boshqalar) ittifoqlar asosan boy odamlarning birlashmalariga kirish uchun katta miqdorda natural va pul to'lovlari, juda katta chiqim talab qilingan. Yana shu bilan birga, ijtimoiy mavqega erishish, hatto ittifoqda boshchilik qilish shartlangan edi. Bu ittifoqlar o'z a'zolarini an'anaviy urug' jamoasi hokimiyati ta'siri ostidan chiqarib, ularning ta'sirli mavqei va mulkini himoya qilganlar va norozi bo'lganlarni terror qilganlar. Misol uchun, Yangi Gveniyada duk-duk ittifoqining boshlig'i bo'lgan kishi ittifoq a'zolariga tegishli mevali daraxtlar va butun bir plantatsiyalarga egalik qilish huquqini o'zlashtirib olgan. Shunday tarzda u ularning xususiy

mulkini himoya qilgan. Misol uchun, G'arbiy Afri-kaning qator jamiyatlarida ittifoqlar urug'-qabila hokimiyat tashkilotlarini chetga surib qo'yib, ijtimoiy tartibni himoya qilish, sud ishlarini olib borish, urush va tinchlik masalalarini hal qilish funksiyalarini egallab olganlar.

Erkaklar yoki maxfiy ittifoqlar Melaneziya va G'arbiy Afrika, Mikroneziya, Polineziya, Indoneziya va Amerikada ma'lum edi. Bunday qoldiqlar Osiyo va Yevropaning qadimgi va zamonaviy xalqlarida (O'rta Osiyo xalqlari, xitoyliklar, germanlar) mavjud edi. Lekin ular unchalik ta'sirga ega emas edi.

Sinfiy tabaqalanish davrida faoliyatning differensiatsiyasi va ijtimoiy-potestar hayotning murakkablashuvi hayotning turli sohalarida o'z yo'l boshchilariga ega bo'ldi. Bunday yo'l boshchilar sirasiga urug' boshliqlari, harbiy yo'l boshchilar, kohinlar, kam hollarda sudyalari kirgan. Bu vazifalarning uchalasi ham bir kishining qo'lida to'planishi mumkin edi.

Urug' oqsoqollari, harbiy boshliqlar, kohinlar urug'dan uzoqlashdilar. Urug'-qabila zodagonlari ijtimoiy ishlab chiqarish, ijtimoiy mahsulotni taqsimlashni egallab olib, urug'-qabila hokimiyatini ham o'z qo'llarida to'pladilar. Bu hokimiyat xalqdan uzoqlasha boshladi. Urug'-qabilaga tegishli bo'lgan ijtimoiy mahsulotning bir qismini o'zlashtirib olgan yo'l boshchilar o'z hokimiyatlarini mustahkamlash uchun tan soqchilar, qo'riq-chilar, xizmatkorlar va boshqalar xizmatidan foydalanish imkoniyatini yaratdi. Bir vaqtning o'zida diniy hokimiyat-kohinlikni ham bajaradigan yo'l boshchilarning hokimiyati yanada kuchli edi.

Harbiy yo'l boshchilar urug'-qabila zodagonlari ichidan va o'zining qobiliyatini ko'rsatgan askar-jamoatchilar orasidan ham chiqishi mumkin edi. Ijtimoiy tabaqalanish davrida harbiylarning faoliyati kuchaygan paytda harbiy yo'l boshchilarning mavqei boshqa yo'l boshchilar mavqei-dan ko'ra kuchaydi. Urug'-qabila zodagonlari o'z mol-mulklarini saqlab qolish va himoya qilish maqsadida harbiy boshliqlarning kuchayishiga xalaqit bermadilar. Aksincha, ularni qo'llab-quvvatlab, ular bilan hamkor-lik qildilar.

Yo'l boshchilar kuchli qo'riqchilar qismi, urug' aslzodalari bilan birgalikda oddiy jamoa a'zolarining qarshiligini sindirishga erishadilar. Endilikda urug' jamoasidagi xalq yig'inlari o'z kuchini yo'qota boshladi. Yo'l boshchilar asosiy muammolarni endi tor doirada hal qila boshladilar. Yo'l boshchi o'z atrofiga yaqin qavm-qarindoshlari, urug'doshlarini to'p-ladi. Urug' oqsoqollari hududlarga, joylarga mas'ul

ishlarga aynan o'z qarindoshlarini tayinlaganlar. Yo'lboshchi oldidagi qurolli guruh harbiy bo'linmaga aylanib, yo'lboshchining bevosita o'ziga bo'ysungan. Diniy muassasa, mafkura yo'lboshchining hokimiyatini mustahkamlashga yordam berdi.

Yo'lboshchi hokimiyatining siyosiy tashkilotga aylanishining muhim belgilaridan biri qo'shimcha mahsulotni ko'ngilli qayta taqsimlash shakllaridan tartibga solingan soliqqa tortish edi. Soliqlar miqdori belgilanib, uning to'lov muddati ham aniqlashtirilgan.

Davlat tuzilmasining yana bir belgisi-aholining urug'-qabila belgilari asosida emas, hududiy tamoyil bo'yicha bo'linishi bo'ldi. Eski urug'-qabila birliklari bilan mos kelmaydigan, ba'zida esa ularning nomlarini saqlab qolgan tuman, viloyat, okruglar paydo bo'ldi. Bu qon-qarindosh urug'chilikdan qo'shni jamoaga o'tishning oxirgi natijasi edi. Ammo uzoq vaqt urug'-jamoqa qoldiqlari, urug'chilikning urf-odatlarini, an'analari saqlanib qoldi.

4. Ma'naviy madaniyat. Ilmiy bilimlarning o'sishi. Mehnat jarayoni davrida, ayniqsa, odamni o'rab turgan tabiiy muhit to'g'risida foydali bilimlar to'planib boradi. Ovchilik, baliqchilik, terimchilikka asoslangan o'zlashtiruvchi xo'jalikda odam o'zining xo'jalik hududida uning o'ziga xos xususiyatlari, boyligini chuqur bilishi lozim edi.

Avstraliya aborijenlari, bushmenlar misolida ko'rinadiki, ibtidoiy jamoa odamlari amaliy geografiya, meteorologiya, astronomiya, zoologiya va botanika, mineralogiya sohasida boy ma'lumotlarga ega bo'lganlar. O'zlarining xavfsizliklarini ta'minlash, yashash, och qolmaslik uchun ular ov joylari topografiyasi, hayvonlarning yuradigan yo'llari va qiliqlarini, o'simliklarning foydali va zararli xususiyatlari, turli minerallar, yog'och turlari va boshqa narsalarning xossalarni bilishlari; ob-havoni oldindan bilish, joyni, shamol yo'nalishlarini aniqlash, izlarni o'qishlari shart edi. Ibtidoiy ovchilar joyga ustalik bilan moslashganlar va relyefning o'ziga xos xususiyatlaridan mohirona foydalanganlar. Ular yovvoyi hayvonlar yuradigan barcha so'qmoqlar, daralarni bilib, ularni doimo nazorat ostida saqlaganlar. Ibtidoiy ovchilar hayvon va qushlar izlarini bilibgina qolmay, ularning oxirgi izlari yo'nalishini ko'zdan kechirib yoki g'or og'zidagi chiqishni hidlab, u yerda hayvon bor-yo'qligini ayta olganlar. Termachilar bir necha yuz yeyishga yaroqli o'simlik turlari, jumladan, qaynatish yo'li bilan zaharini yo'q qilish mumkin bo'lgan o'simliklarni bilganlar. Hozirgi etnologlardan biri, ibtidoiy odamning tunda yo'lni topish uchun yulduzli osmonni yaxshi bilish zarurligining guvohi bo'lgan.

Amaliyotda fizik va kimyoviy bilim asoslari jamg'arila bordi. Tabiatga fizik ta'sir qilish ilk qurollardan boshlandi. Odam murakkab tuzilmali qurolni o'zlashtirib, richagni kashf qildi. Otiladigan nayza va kamonni ixtiro qilib, qurolning otish masofasini 2-3 marta oshirdi. O'rmon qabilasi veddlar kamonni oyoqlari bilan tortib, kamon o'qini 330 metr uzoqlikda otadilar, bug'uni 35 metr masofadan aniq nishonga olib, urib yiqitadilar.

Tibbiyot, farmakologiya va toksikologiya kabi amaliy sohalar yaxshi rivojlangan. Odamlar suyakning sinishi, yaralar, jarohat, lat yeyish, chiqqan suyaklarni davolashning amaliy usullarini yaxshi bilganlar. Kasal tishlarni sug'urib olish, shamollash, yaralar, zaharli chaqishlarni davo-lashni oddiy jarrohlik operatsiyalarini bilganlar. Mezolit davridan bosh suyagini trepanatsiya qilish, singan oyoq-qo'llarning qismlarini amputatsiya qilish ko'nikmasiga ega bo'lganlar. Ibtidoiy odam o'ngacha sanashni bilgan. Doira, to'g'ri chiziq, nuqtaning tosh, yog'ochdagi tasvirlari topilgan. Vaqt hisobi mavsumlar bo'yicha bo'linib chiqarilgan.

Sug'orish inshootlarini qurish geometriya va matematika asoslarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Uy-joy, diniy e'tiqod inshootlari, mudofaa devorlarini qurish va suv havzalarida suzish uchun transport vositalaridan foydalanish matematika va mexanikaning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Metall rudalarini quyishning paydo bo'lishi bilan metallshunoslik qandaydir darajada kimyo fani asoslarining paydo bo'lishiga olib keldi. Uzoq joylarga suzish, harbiy yurishlar, podaning orqasidan ko'chib yurish, uzoq-uzoqlarga ozuqa izlab urug'larning ko'chishi va astronomik kuzatishlar geografiya fani va xarita tuzishning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Polineziyaliklar o'zlarining ming kilometrlarga cho'zilgan uzoq sayohatlarida oqim, shamol yo'nalishlari, dengiz yo'llari va orollarni aks ettiradigan tayoqcha, qamish poyalari, toshchalar, chig'anoqlar hamda xaritalardan foydalanganlar. Ovchilik, termachilik, dehqonchilik va chorvachilik mashg'ulotlari flora va fauna to'g'risida ulkan ma'lumotlar jamg'armasini shakllantirdi. Odamlar o'simliklarning foydali xusu-siyatlarini o'rgandilar va o'simliklardan shifobaxsh malhamlar tayyorlab, yara-jarohatlar, turli kasalliklarni davolash malakasini hosil qildilar. Yirtqich hayvonlar yetkazgan jarohatlar, harbiy to'qnashuvlarda yarador bo'lish jarrohlikni keltirib chiqardi. Ilk metall jarrohlik asboblari yasash imkoniyatini yaratdi. Dastlab diniy mifologiya bilan bog'langan tarixiy xotira, tarixiy ong unsurlari shakllandi. Har bir urug' o'zining kelib chiqishi va o'zidan

oldin o'tgan ajdod-avlodlari, ularning mashg'ulotlari, urf-odatlari, turmush tarzi to'g'risida tasavvurlarga ega bo'ldi. Bular to'g'risida turli afsona, rivoyat va eposlar yaratildi. Urug' jamoasi va uning a'zolari o'z urug'larining kelib chiqishi, geneologiya daraxti to'g'risida tasavvur-bilimni shakllantirdi. Shajara daraxtini tasavvur qilish urug'ning uzoq o'tmishi, kechasi va buguni to'g'risida yaxlit bilim tizimini yuzaga keltirdi. Qator paleolit jamoalarida shajarashunoslikning o'ziga xos tarixiy bilim sohasi sifatida mavjudligi etnologiyada asoslanadi. Polineziyada urug' odatda 20 avlod bo'yicha hisoblanadi. Bu orollarni o'zlashtirishdan boshlab hisoblanadi. Hatto Markiz orollarida 159 avlodning afsonaviy ajdodi osmondan boshlab sanaladi.

Mifologiyada urug' ajdod-avlodlarining o'tmishda tabiat ofatlari, dushmanlarga qarshi matonatli kurashlari yorqin aks ettirilgan. San'at jamiyat va davlatning vujudga kelishi arafasida sayqal topdi. Suyak, yog'och, metall, yarim qimmatbaho toshlar, oltin va kumushdan nafis san'at asarlari yaratildi. Bular sirasiga oltin va kumush haykalchalar, harbiy qurollar (xanjar, pichoq, nayza, qalqon, qilich, oybolta, sovut va dubulg'a), zargarlik buyumlari, idish-tovoqlar, hashamatli kiyimlar va egar-jabduqlar kiradi.

Badiiy quymachilik, metall buyumlarga oltin zarhal berish, suyak, tilla-kumush bilan ziynatlangan soplar, qimmatbaho toshlar va metallar bilan qo'shib ishlangan harbiy qurol-yarog'lar, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-bosh va poyabzallar paydo bo'ldi. Turli hayotiy manzaralar, ov, o'simlik, hayvonlarning nafis tasviri tushirilgan pichoq, xanjar, qilich, qalqon soplari va idish-tovoqlar yasala boshlandi. Metallarga badiiy ishlov berish san'ati yuksak rivojlanganini namunalari skif-sarmat, sak qabilalaridan qolgan buyumlarda ko'rish mumkin.

5. Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv o'z taraqqiyotida to'rt bosqichni bosib o'tdi. Piktografik yozuv yoki rasmlı yozuv birinchi bosqich hisoblanadi. Piktografiya (lotin tilida pictus-manzarali chizilgan va yunoncha grapho-yozaman) tosh, yog'och, loy kabi ashyolarga muloqot uchun ataylab tasvirlashdir. Piktografik yozuv piktogramma deb ataladigan rasm vositasida tushunchani alohida so'zlarga bo'lmay uzatadi. Shunga tegishli ravishda piktogrammaning alohida unsurlari yaxlitlikning bir qismi sifatida chiqib, faqat bir-biri bilan bog'liqlikda to'g'ri tushunilishi mumkin. Piktogramma sxematik tasvir bo'lib, badiiy qiymati ahamiyatli bo'lmay, rasm nimadir xabar beradi. U kimga kerak bo'lsa, to'g'ri bilishi—anglashi lozim edi. Toshga bitilgan piktogramma petroglif deb ataladi. Uning shakllanishini asosiy manbasi ibtidoiy

tasviriy san'at edi. Ibtidoiy san'atning ilk izlari yuqori (so'nggi) paleolit (er.avv. 40-25 mingyil-liklar)ga tegishli. Piktografiya shakllanishining to'la tugallanish davri neolit davri (er.avv. 8-6 ming yil). Bu davrda piktografiya hikoyaga qo'shimcha emas, xabarlarini mustaqil uzatish uchun foydalanila boshlagan.

Piktografiyaning o'rniga ideografik yozuv keldi. Bu inson tafakkurining yanada rivojlanishi, odamning katta mavhumlashtirishlarga qobiliyatining shakllanishi, nutqning alohida unsurlar – so'zlarga bo'lish qobiliyatining shakllanishi bilan bog'liq edi. Ideografiya (yunon tilida idea tushuncha va grapho-yozaman ma'nosini bildiradi) so'zlarda jo qilingan, uzoqlashtirilgan tushunchalarni bildiradi. Ideografik yozuv xabarni so'zma-so'z belgilaydi. So'z tarkibini uzatishdan tashqari, so'z tartibini ham uzatadi. U qat'iy o'rnatilgan va barqaror yozilgan grafik belgilarga ega. Bunda yozuvchi piktografiyadan farq qilgan holda, ularni kashf qilmay, tayyor to'plamdan foydalanadi.

Ideografik yozuv piktografiya asosida paydo bo'ldi. Bu jarayon bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Shartli piktogramma alohida unsur-larga bo'lindi va mustaqil mazmun kasb etib, so'z ma'nosining shartli belgisiga aylandi.

Davlat va jamiyatning paydo bo'lishi ideografik yozuvning yanada rivojlanishiga olib keldi. Tez yozish, murakkab va uzun matnlarni uzatish ehtiyojlari paydo bo'ldi. Bu rasmlarni yanada sxemalashtirish, ularni yanada shartli belgilar-mixxat va iyerogliflarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Tayanch iboralar: Juft oila, poliginiya, sororat, poliandriya, levirat, krosskuzen, qalin, qorin ahdi, beshik ahdi, xususiy mulk, papuaslar, bamba qabilasi, jamoa mulki, ishlab chiqarishning o'sishi, mehnatning ixtisoslashuvi, ekspluatatsiya, xalq hokimiyati, fratriya, qabila kengashi, irokez, potestar, ijtimoiy tabaqalashuv, ojibva, Yoruba, farmakologiya, toksikologiya, tibbiyot, trepanatsiya, amputatsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Oilaning paydo bo'lishi bosqichlarini ketma-ketlikda ko'rsating.
2. Nikoh marosimlarining shakllanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Xususiy mulkning paydo bo'lish sabablarini tushuntiring?
4. Jamoa boshqaruvining asosiy xususiyatlarini izohlab bering.

5. Jamoa boshqaruvi to'g'risidagi etnologik kuzatishlarning ahamiyati nimada?
6. Ilk ilmiy tasavvurlar to'g'risida tushuncha bering.
7. San'atning genezisi.
8. Yozuvning shakllanish bosqichlarini ko'rsating?

Mustaqil ish mavzulari

1. Oila genezisi.
2. Xususiy mulk paydo bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni.
3. Urug'-jamo boshqaruvi genezisi.
4. Jamoa boshqaruvida urf-odat va an'analarning o'rni.
5. Ma'naviy madaniyat.
6. Ibtidoiy tasviriy san'at.
7. Yozuvning shakllanishi.

II.bob. INSONIYAT TARIXINI O'RGANISH

1. Insoniyat tarixini o'rganish

1. Qazilma qoldiqlarning tashkil topishi. 2. Qazilma qoldiqlarni qidirish. 3. Ilmiy qazishmalar. 4. Qazilma qoldiqlarni rekonstruksiya qilish. 5. Moddiy madaniyatning suyak topilmalari va qoldiqlari

1. Qazilma qoldiqlarning tashkil topishi. Qadimgi odamlar to'g'risida ko'pgina bilimlarga ega bo'lishimizning asosiy omili qachonlardir yashagan mavjudotlarning yer bag'rida saqlanib qolgan qazilma qoldiqlaridir. Odatda, bizgacha yetib kelgan topilmalar gavydaning eng katta qismlari, tishlar va suyaklardir. Yumshoq qismlar odatda chirib ketadi va haqiqatan ham o'limtiklar bilan ovqatlanadigan hayvonlar, chiritish bakteriyalari va shamollatish ko'pchilik jaslarni to'la yo'q bo'lishga duchor qiladi.

Yangi ilmiy fan – toponomiyaning guvohlik berishicha, qadimgi odamlarning qoldiqlari va ular bilan bir vaqtda yashagan hayvonlar, faqat ularning o'limidan keyin dafn qilingan hollarda, toshga aylanib, eng yaxshi holatda saqlanib qoladi. Bu, misol uchun, ko'llarda suv tez ko'tarilib, qirg'oq bo'ylab qoldiq qatlamlari hosil bo'lgan joylarda va vulqon otulgach, vulqon kuli bilan qoplangan joylarda yuz beradi. Tezlikda dafn qilish o'liklarni o'limtik yeydigan mavjudotlardan, sovuq, issiq, shamol va kislotali suvlarning ta'siridan himoya, yorilib ketish, parchalanib ketish, suyak qoldiqlarining bo'linib ketishiga olib kelishdan saqlab qoladi. Mayitlarni ko'mish organizmning chirish jarayonini sekinlashtirdi.

Vaqt o'tishi bilan kalsiy va kremniy tarkibida bo'lgan aralashtirilgan minerallar bilan qo'shib, suyak qoldiqlarida oqsillar yo'q bo'lib ketadi. Minerallar suyaklarni yanada mustahkamroq, og'ir va qattiq qiladi va tabiiy sementlaydigan narsalar bu qoldiqlarni qatlamli bo'r, loyli yoki qumli jismlar qazilma qoldiqlar ko'milgan og'ir tobutlarga aylantiradi. Suyak va tishlar qazilma qoldiqlari – odatda, qadimgi odamdan bevosita qolgan yagona qoldiqlardir. Biroq ba'zi o'ziga xos sharoitlarda teri va hatto, odamning go'shti 2 ming yil, undan ko'proq saqlanib qoladi. Misr va Peruda qadimgi sog'onalarda qurib qolgan murdalarni sahroning quruq shamoli chirishdan himoya qilib, ularning teri va sochlarini saqlab qoldi. Bundan 2 ming yil oldin chilvir ip bilan bo'g'ib, botqoqlikka tashlangan qurbonlarning yumshoq va

qayishqoq terilarini saqlash imkoniyati tug'ildi. Botqoqlikning zich qatlami ularni yo'q bo'lib ketishidan saqlab qoldi. Ana shunday ajoyib topilmalar bo'lmish Paziriq vodiysi va Oltoydan topilgan jasadlarning yoshi 2400 yilga tengdir. Bu yerda qadimgi yo'lboshchilar qabrida paydo bo'lgan muz turli xil hayvonlarning tasviri (tatuировка) tushirilgan odam terisini yo'qolib ketishidan saqlab qoldi.

2. Qazilma qoldiqlarni qidirish. Paleontologlar odatda qoldiqlarni yer yuzasidan yoki unga yaqin joydan topadilar. Ko'pgina qazilmalar yer negizida yuz beradigan o'zgarishlar oqibatida topiladi. Qazilma qoldiqlari mavjud bo'lgan tog' toshlari yoki qo'shni bo'lgan tosh qoyasining pastga tushishi qoldiq qatlamlarda buzilishiga (eroziya) olib keldi. Issiq va sovuq, shamol va yomg'ir yer yuzasida bo'lgan tog' jismlarini buzadi va keyin ularni yuvib, yanada chuqur va odatda qadimgiroq bo'lgan jismlarning o'zini ochadi.

Misol uchun, Shimoliy Pokistondagi sivalik tog'larining ko'tarilishi natijasida yoshi 8 mln.dan 14 mln. yilgacha bo'lgan odamsimon maymunlar ponginae qazilma qoldiqlarining ochilishiga sabab bo'ldi. Afrikadagi ulkan Rift vodiysida yer tubi bloklarining siljishi Turkana ko'li suv sathining pasayishiga olib keldi. Bu undan ko'ra qadimgiroq «Olduvay ko'li»ni quritdi. Natijada qadimgi qirg'oqbo'yi qoldiqlari ochilib, bu yerdan avstralopitekklarning qazilma suyaklari, Homo habilis va Homo erectus odamlari turlari hamda odamlar ov qilgan yoki odamlar yegan hayvon tanalari, qurol sifatida odamlar ishlatgan, ushatilgan tosh parchalari topildi.

Paleontologlar, qadimgi odamlarning qoldiqlarini izlab, bundan 5 mln. yil ilgari qit'alarda hosil bo'lgan qatlam qoldiqlarini o'rgandilar. Qadimgi ko'llar qirg'oqlaridan tashqari, topilmalar bo'lish ehtimoli bo'lgan g'orlar, quruq daralar va bepoyon to'lqinsimon yarim sahrolar (misol uchun, Efiopiya va Keniyada) o'rganildi. Kutilmagan qimmatli topilmalar ba'zida kar'er, shaxta va tog' konlarida uchraydi.

Qazilma gominidlarni izlash ko'pincha uzoq mehnat talab qiladigan ishni tashkil qiladi. Tadqiqotchilar, odatdan tashqari shakl va rangda bo'lgan kichik narsalarni izlab, ba'zida keng qiyaliklar va katta tuproq uyumda mavjud bo'lgan jismlarni chuqur tekshiradilar. Odamning qazilma suyaklari ba'zida kulrang yoki oq, ko'pincha qora rangda ham bo'lib, odatda, bir-biridan ajralgan parchalar shaklida uchraydi. Ayrim vaqtlarda yosh tadqiqotchi yillar o'tib, zaruriy malaka va tajribaga ega bo'ladi. Topilmalar bo'lishi ehtimoli bo'lgan bo'shliq yerlarni ko'zdan kechirish butun bir guruhlarining uzoq mehnatini talab

qiladi. Shimoliy Keniyadan 200 gominidning qoldiqlarini topish uchun olti kishilik guruhning 11 yil mehnat qilishiga to'g'ri keldi. Ular har yilda 800 km maydonni tekshirdilar. Buning natijasida qazilma qoldiqlarining faqat 9 ta bosh chanoqlari topilgan edi. O'z o'liklarini birinchi bor dafn qilishni boshlab bergan neandertallargacha odamning butun skeleti hozirgacha topilgani noma'lum.

3. Ilmiy qazishmalar. Yer yuzidan topilgan, tartibsiz sochilib yotgan qazilma suyak qoldiqlari yoki tosh qurollar bizga qadimgi odam to'g'risida chala-yarim ma'lumot beradi. Yer yuzasidagi tasodifiy topilmalar-suyak-lar, uy-ro'zg'or buyumlari va arrachalarning topilishiga olib kelishi mumkin. Qaysiki, ular bir joyda va bir vaqtga tegishli bo'lib, qadimgi qatlamda yaxshi saqlanib qolgan. Bunday joylarni qat'iy qazish qadimgi ajdod-larimiz, ularning turmush tarzi va ularni o'rab turgan muhit to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berishi mumkin.

Qazilmalar tekshirish kerak bo'lgan maydonni xaritalashdan boshlanadi. Paleontologlar yoki arxeologlar maydonni tomonlari uzunligi 1 m bo'lgan bo'linmalari shaklida bo'ladi. Dastlab yuzaga yotgan topilmalar yig'iladi. Keyin kvadratlar blok yoki transheya shaklida qazilib, har bir qatlam birdaniga ochiladi. Tog' jismlari qoplamini ochish uchun cho'kich yoki belkurak ishlatiladi. Keyin esa ish sekinlashadi. Tadqiqot-chilar belkurakcha va zubilani ishga soladilar. Zond yoki mo'yqalam bilan buyumlarga yopishgan jismlar tozalanadi. Elakchalar bilan mayda tishlar va suyak parchalari ajratiladi.

Ishchilar har bir qazilma qoldiq, maishiy buyum yoki toshni raqamlaydilar. Uning turgan holatini xaritada belgilaydilar va qaysi qatlamdan topilgani yozib qo'yiladi. Mo'rt buyumlar saqlovchi narsa bilan qoplanadi. Ish hajmi beqiyos katta bo'lishi mumkin. 46 oy davomida bir guruh olimlar 32 ming qazilma topilmalar, moddiy madaniyatning 37 ming buyumini Tanzaniyaning Olduvay g'oridagi 13 uchastkaning 43 qatlamidan topdilar. Ko'chirilgan bo'sh tog' jismlari bilan uzunligi 1,6 km, chuqurligi 3 m, kengligi 3 metrli transheyani to'ldirish mumkin edi.

Ayrim qazishmalarda o'ziga xos usullarni qo'llashga to'g'ri keldi. Misol uchun, Janubiy Afrika g'orlarida brekchiy deb atadigan sementlaydigan tabiiy birikmalar bag'rida cho'kkan avstralopitekklarning mo'rt suyaklari uchraydi. Bu birikmalarni faqat alohida monolit parchalariga ajratish mumkin. Undan suyaklarni ajratib olish uchun butun bir haftalar ketadi. Suv bosgan maydonlarni tadqiq qilish suv osti

ishlari bilan bog'liq. Suv ostida suzishga o'rgatilgan arxeologlar guruhlarini bir-birlarini almashtirib, navbat bilan maxsus moslashtirilgan asboblardan qum yoki loyqani elakdan o'tkazadilar va topilmaning joyini aniqlab, ularni yuqoriga ko'taradilar. Qazilmalar – bu faqat birinchi qadam. Undan so'ng ma'lumotlarni tadqiq qilish, interpretatsiya (talqin qilish) va yangi topilmalarni yozib, chop etish jarayoni boshlanadi.

4. Qazilma qoldiqlarni rekonstruksiya qilish. Qazilma bosh chanoqlari va suyak bo'g'inlarini rekonstruksiya qilish va gavdaning yumshoq yo'qotilgan qismlarini qayta tiklash zamonaviy odamning tarixgacha bo'lgan ajdodlarining tashqi ko'rinishini tasavvur qilishga yordam beradi.

Eng avvalo, muzey preparatorlari suyaklarni tozalaydilar. Parmalash, vibratsiya va qum purkash orqali tozalash bilan namunalarga yopishgan qum zarralari yo'q qilinadi. Bir qancha qayta yuvishlar va uksus kislotasi bilan ishlov berish sementlangan brekchiydan tozalashga olib keldi. Nam suyak qoldiqlarini butil spirtiga osib qo'yib, quritish mumkin. Laboratoriya mutaxassislari mo'rt suyaklarni turli xil aralashmalar, eritilgan sun'iy plastmassalar yoki suvga aralashtirilgan emulsiyalar yordami bilan qotiradilar.

Keyin mohir anatomlar suyak parchalarini bosh chanog'i yoki skelet qismlariga o'xshatib birlashtiradilar. Yetmagan qismlarini plastmassa imitatsiyalari bilan almashtiradilar. Ma'lum bir suyaklarning shakli va o'lchamlari qazilma mavjudot boshi va oyoqlarini qanday tutganini ko'rsatadi. Bir rekonstruksiyanı tayyorlash va qismlarini birlashtirishga haftalar, hatto, mashaqqatli mehnat oylari ketadi.

Anatomiyaga ixtisoslashgan rassom va haykaltaroshlar bosh chanoq va skeletlar bo'yicha bosh va gavdani rekonstruksiya qiladilar. Oyoq suyaklarining mustahkamligi va ularning o'lchamlari bo'yicha harakatga keltiradigan muskullarning kattaligi to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Qabariqlar, chuqurlar va suyaklarning boshqa alohida ustki qismlari bo'yicha muskullarning birikish joylari va ularning shakli to'g'risida tasavvur hosil qilish mumkin. Misol uchun, suyak qabariqlari va bosh chanog'i taroqlari bo'yicha ko'rinadiki, yirik muskullar boshni kuchli oldinga chiqib turadigan yuz qismi bilan ushlab turadi yoki kuchli jag'larni harakatga keltiradi. Bularning barchasi rassomlarga bosh suyagi yoki jag'ni muskul bilan qoplashga yordam beradi. Dastlab muskullar va yog' qatlamlari, keyin teri va sochlar qo'shiladi.

Lekin qazilma mavjudotning to'la qiyofasini qayta tiklash skeletni uning saqlanib qolgan qismlariga qarab rekonstruksiya qilishdan ko'ra katta noaniqlik bilan bog'liq. Chunki yumshoq to'qimalar hamma vaqt ham suyaklarga o'z belgisini qoldirmaydi. Bir gominidning bosh suyagi ustida ishlaydigan ikki haykaltarosh, bir-biridan juda farq qiladigan odamning boshiga turli darajada o'xshaydigan ikkita boshni qayta tiklashlari mumkin. Xuddi shunday o'tkir chamalashlar bilan terining jun qatlami, sochlar rangi, ko'z va terini tiklash mumkin.

5. Moddiy madaniyatning suyak topilmalari va qoldiqlari. Tajribali mutaxassislar uchun suyak qoldiqlari va moddiy madaniyat buyumlari qadimgi hayotning ensiklopediyasidir.

O'nlab suyak va tishlarning o'lcham va tuzilishlarini taqqoslash, olimlarga, bosh chanog'i va oyoq suyaklarining parchalarini neandertallar yoki aytaylik, driopitekklarga tegishli ekanini aniqlashga yordam beradi. Anatomik ma'lumotlar odamlarning jismoniy imkoniyatlari va ularning turmush tarzi to'g'risida so'zlaydi. Suyaklarning uzunligiga qarab gavda tuzilishi va bo'yi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Yelka belbog'iga qarab primatlarning qaysi biri daraxt shoxlarida osilib turish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Bosh chanog'idagi orqa miya o'tadigan teshikning turishiga qarab ma'lum mavjudot boshini tik ushlagan yoki u oldinga chiqqanligini bildiradi. Suyaklar katta va boshqa barmoqlar bo'g'inlari bo'yicha ilk primatlarga o'xshab buyumlarni qo'l bilan qisib ushlash yoki ularni aniq ushlab olish yoki bunday qobiliyatni yo'qligini bilish mumkin. Son suyaklari, oyoq barmoqlariga qarab daraxtda o'rmalab yuradigan to'rt oyoqlilarni ikki oyoqlilardan, tik yuradiganlarni yurish vaqtida gavadasi har tomonga chayqaladiganlardan ajratish mumkin.

Bosh chanog'i bo'yicha miya hajmi, ko'rish va hid bilishni baholash mumkin. Jag'lar va suyaklar, asosan ularning tuzilishi, o'lchamlari shakli va yeyilish darajasi ularning egasi qanday ovqatlangani haqida ishonchli guvohlik beradi. Ammo qazilma suyak qoldiqlari bundan tashqari yana boshqa bir narsa to'g'risida ham hikoya qilishi mumkin. Mutaxassislar ularga qarab, ba'zi yara va kasalliklar to'g'risida hamda qurbonning sog'ayishi qay darajada muvaffaqiyatli bo'lganligi to'g'risida xulosalar chiqarishlari mumkin. Tishlar va uzun suyaklar bo'yicha odamning o'imi arafasidagi yemishi aniqlanadi.

Tarixgacha bo'lgan gominidlar to'g'risida moddiy madaniyat buyumlariga qarab ma'lumot olish mumkin. Dastlab ular asosan tosh va suyakdan zarur bo'lgan ashyolarni, keyinchalik loydan kulolchilik

buyumlarini tayyorlaganlar. Bu ma'lumotlarga ko'ra, texnikaning rivojlanishi, qadimgi odam qanday qilib ozuqa topish, isinish va boshpana qurishning samarali yo'llarini topgani to'g'risida fikr yuritish mumkin. Tadqiqotning yangi usullari qadimgi odam qanday qurollardan foydalanганиni ochib beradi. Eksperimentatorlar, bizning ajdodlarimizning tosh qurollarini tayyorlash va qo'llash usullarini yangidan o'chadilar. «Zamo-naviy paleolit» ovchilari hisoblangan eskimoslarning manzilgohlaridagi hayvon qoldiqlari va qazilma qurollar tarixgacha bo'lgan odamning ijtimoiy hayoti to'g'risida tushuncha hosil qilishga yordam berdi.

Eskimoslar va qadimgi manzilgohlardagi qoldiqlarni taqqoslash olimlarga, tarixgacha bo'lgan ovchilarning guruhlarini sonini baholash, ularning a'zolari faoliyat sohalari, alohida manzilgohlarda turish vaqtining uzunligini aniqlash va bu yilning qaysi vaqtida yuz berganini bilish imko-niyatini beradi.

Tayanch iboralar: Toponomiya, Paziriy vodiysi, tatuirovka, paleontolog, Rift vodiysi, brekchiiy, muzey preparatorlari, anatomlar, anatomiya, miya hajmi, ilmiy qazishma, eksperimentatorlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Qazilma qoldiqlar qanday tashkil topadi va saqlanib qoladi?
2. Qazilma qoldiqlarni qidirish jarayonini tasvirlang?
3. Qazilma qoldiqlarni rekonstruktsiya qilish to'g'risida tushuncha bering?
4. Qazilma qoldiqlarni izlab topgan mashhur olimlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Mashhur arxeolog, etnograf olimlar va ularning ilmiy kashfiyotlari to'g'risida ma'lumot bering?

Mustaqil ish mavzulari

1. Qadimgi qazilma topilmalarning mashhur tadqiqotchilari.
2. Ibtidoiy jamoa davri tadqiqotlari asosida taklif qilingan atamalar.
3. Ilmiy qazishmalar jarayoni.
4. Qazilma qoldiqlarni rekonstruktsiya qilish muammolari.
5. Mashhur arxeolog, etnograf olimlar va ularning ilmiy kashfiyotlari.

2. Atrof-muhitni bilish uchun kalitlar

1. Atrof-muhitni bilish uchun kalitlar. 2. Nisbiy vaqt hisobi. 3. Absolyut xronometriya. 4. Qazilma qoldiqlarni o'rganish. 5. Muzei ekspozitsiyalari

1. Atrof-muhitni bilish uchun kalitlar. Relyefning qadimgi shakllari, qazilma o'simlik va hayvonlarga qarab iqlim sharoiti, qadimgi odamlar yashagan joy to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Qatlamli qoldiqlarni chuqur tadqiq qilish qadimgi ko'l, daryo va qoyalarni topish imkoniyatini beradi. Ko'l tubida kichik zarralarning buzilmagan qoldiqlari to'planib qoladi. Yirik donli qoldiqlar boshqa sementlaydigan qatlamlar bilan bog'liq holda, qadimgi daryolar tubini tashkil qilishi mumkin. Qadimgi daryolarning qoldiqlarining yuqorisidagi qum to'lqinlari bo'yicha, ularning oqimi tezligi va yo'nalishi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. O't ildizlari oralig'idagi qotib qolgan tuproq qatlami yomg'irlar vaqtida ko'llar va daryolar qirg'oqlaridan toshganda, qoldiqlarning o'tirib qolganini bildiradi.

Hozirgi dengiz sathidan yuqori joylashgan dengiz qirg'oqlari bo'yi qoyalaridagi g'orlarga qarab o'sha davrlarda dengiz sathi hozirga qaraganda, yuqori bo'lgan vaqtlarda qadimgi qirg'oqlarning holati to'g'risida mulohaza qilish mumkin.

Barglar, novdalar, ildizlar va qazilma o'simliklarning changi ko'p narsalar to'g'risida hikoya qilishi mumkin. Bir joyda bir-birini qoplagan qatlamlardan topilgan palma, dub bargli o'simliklarning izchil qatlamlari iqlimni sovushidan darak beradi. Qayin, dub va lipa daraxtlari tarkibida bo'lgan izchil qatlamlari bilan qoplangan muz ko'lining botqog'i so'nggi muzlik davridan keyin iqlimning iliqlashganidan darak beradi. Daraxtlarning changlari donli va yovvoyi o'tlar changlari bilan almashuvi o'rmonni tozalashdan keyin o'simliklarni madaniy ekish boshlanganining jiddiy belgisini bildiradi. Hayvonlarning qoldiqlari ham yo'qolib ketgan landshaftlar to'g'risida qimmatli ma'lumot beradi. Loyqa cho'kindilarda chig'anoqlar qatlamining mavjudligi qadimgi daryolarning joylashgan o'rnini ko'rsatadi. Chig'anoqlarning yaxshi saqlanganini siyrak uchraydigan ohakli tuproqlarda shilliqqurt chig'anoqlariga qarab xulosa chiqarish mumkin. Tarixgacha bo'lgan o'rmonlar, tundralar va o'tloqlarda shilliqqurtlarning turli xillari keng tarqalgan edi va ularning chig'anoqlari turli balandlikdagi tuproqlarda saqlanib qolgan. Ba'zi manzilgohlarning turli qatlamlarida bo'lgan

umurtqalilarning qoldiqlariga qarab ularning yashash sharoitlarining o'zgarganini ko'zdan kechirish mumkin. Misol uchun, Olduvayda ma'lum bir vaqtda namlikni sevadigan kemiruvchilar ko'rsichqonlar bilan almashdi. Ko'rsichqonlar yo'lni quruq tuproqda qazadilar. Bu qurg'oqchilik mavsumi kirganidan darak beradi. Yevropada muzlik davrida iqlim o'zgarishlari natijasida issiq o'rmon joylarida to'g'ri qoziq tishli fillarga o'xshash fauna turlari: qo'y, ho'kiz, jundor mamont va boshqa sovuq cho'l, tundrada yashashga moslashgan hayvonlarga almashdi.

2. Nisbiy vaqt hisobi. Nisbiy vaqt hisobi – bu ma'lum qazilmaning boshqa ro'zg'or ashyosi yoki boshqa qatlamga nisbatan katta yoki kichikligini aniqlashdir. Bu hali ma'lum obyektning yoshi to'g'risida bizga hech qanday ma'lumot bermaydi, lekin olimlar, uni yoshi yanada aniq belgilangan boshqa obyektga solishtirishlari mumkin. Shu bilan birga, yoshni aniqlashning bir necha usullari qo'llanilishi mumkin.

Biostratigrafik usul jismlarning turli qatlamlarda saqlanib qolgan qazilma hayvon yoki o'simliklarning turli tiplarini qiyoslashga asoslangan. Odatda qadimgi shakllar keyingi shakllarga qaraganda chuqurroq yotadi. Tarixgacha bo'lgan yovvoyi cho'chqa va fillarning avlodlarini evolutsion izchillikda o'rganish, olimlarga, Sharqiy Afrikaning bir vaqtning o'zida bir-biridan uzoq bo'lgan qismlarida paydo bo'lgan qatlamlarini tadqiq qilishga yordam beradi. Bu o'z navbatida, olimlarga, qazilma odamning ancha qadimgi topilmalarini qiyoslashga yordam beradi.

Paleomagnet usuli o'tmishda yerning magnit maydoni yo'nalishining davriy o'zgarishlari bilan bog'liq. Magnitlangan zarralar o'zining paydo bo'lish davrida mavjud bo'lgan mineral qoldiqlarga muvofiq ravishda joylashgan. Bu qoldiqlar bo'yicha ularning shakllanishi davrida dafn qilingan suyak qoldiqlari va moddiy madaniyat buyumlarining nisbiy yoshi to'g'risida fikrlash mumkin.

Olimlar, topilmalar yoshini ularning tashqi ko'rinishi bo'yicha taxminan aniqlashlari mumkin. Suyak morfologiyasi (uning shakli va tuzilishi)ni puxta o'rganish bu qoldiqlarning yoshi stratigrafik o'rnatilgan o'sha evolutsion izchillikda taqash mumkin. Suyak qoldiqlarining nisbatan yoshini aniqlash ma'lum qazilma suyaklarda mavjud bo'lgan kimyoviy unsurning yoshi ko'rsatilgan boshqa suyaklarda bo'lgan kimyoviy unsurlar bilan qiyoslashga asoslangan. Suyaklar zax yerosti suvlaridagi flor va uranni yutadi. Uzoq vaqt

ko'milgan suyak tarkibida fluor va uran ko'p to'planadi. Shu sababli, suyakdagi fluor yoki uranning miqdorini o'lchash suyakning nisbiy yoshini aniqlashga yordam beradi. Lekin bu bir joyda va bir xil sharoitdagi suyaklarga tegishli xolos.

3. Absolyut xronometriya. Xronometriya usullari yordami bilan tarixgacha bo'lgan ashyo-buyumlarning taxminan absolyut yoshi aniqlanadi. Quyida keltirilgan usullar buyum atomlarining tuzilishidagi doimiy tezligining o'zgarishi bilan bog'liq o'zgarishlarni o'lchashga bog'liq.

1. Dendroxronologiya qadimgi daraxtlarning mavjud davrlarida qisman bir-birini yopgan yog'ochlaridagi yillik halqalarni hisoblashga asoslangan. Bu usul asosan ba'zi tarixgacha bo'lgan, yoshi 6500 yilgacha bo'lgan maydonlarning yoshini aniqlashda qo'llaniladi.

2. Varv tahlili-ko'llarning qishda muzlagan joylarida bir mavsum davomida ko'lda hosil bo'lgan cho'kindi qatlamlarining yillik lentasi. Bu usuldan asosan so'nggi pleystosen vaqtini aniqlashda foydalaniladi.

3. Chuqur suvli cho'kindilarda kislorod izotoplarini tahlil qilish kislorod-18 izotopi miqdorining o'zgarishini aniqlashga imkon beradi. Qaysiki, kislorod-18 izotopining o'zgarishi haroratning global tebranishlari bilan bog'liq. Bu usul pleystosen davri va undan ilgari haroratning ilishi va sovushi davrlarini aniqlashda foydalaniladi.

4. Radiouglerod metodi yordami bilan yoshni aniqlash. Organik jismda uglerod (uglerod-14)ning radiaktiv izotopi miqdorini o'lchashga asoslangan. Hayvonlar va o'simliklarda ularning o'limidan so'ng kislorod-14 ning miqdori muntazam tezlikda kamaya boradi. Bu usul organik jism (misol uchun, suyaklar)ning 50 ming yillik vaqtgacha bo'lgan yoshini aniqlashda qo'llaniladi.

5. Termolyunesent usulda yoshni aniqlash. Bu qachonlardir tarixga-cha bo'lgan qizdirishga duch kelgan, ma'lum bir minerallarni qizitishda nurlanadigan yorug'lik energiyasini o'lchash bilan bog'langan, taralayot-gan nur issiqligi tarixgacha bo'lgan davrda qachon yuz berganidan dalolat beradi. Bu kuydirilgan sopol parchalari va loy haykalchalar yoshi 8 ming yilgacha bo'lgan gulxanlardagi toshlarga nisbatan qo'llaniladi.

6. Aminokislotali ratsemizatsiya organizmlarda ularning o'limidan keyin yuz beradi. Optik faol oksid aminokislotalari (qutblashgan nur yo'nalishini o'zgartiradigan) sekin ratsemizatsiyaga duch keladi. Boshqacha aytganda, optik faollik holatiga o'tadi. Bu usul yoshi 100 ming yil va undan ko'proq bo'lgan suyak qoldiqlariga nisbatan ishlatiladi.

7. Uran qatorlari izotoplari bo'yicha yoshni aniqlash. Uran-234 ni radioaktiv parchalanish tezligiga va uning protaktiniy-231, keyin toriy-230 ga aylanishiga asoslangan. Bu usul voqealarni yoshini bir necha ming yildan 150 ming yil ilgarigacha yoshini aniqlashga yordam beradi

8. Kaliy-ozonli usul. Yoshi 1 mln. yildan oshgan vulqon jismlariga nisbatan ishlatiladi.

Paleontologlar uchun, ayniqsa, 4, 7, 8 usullari yaroqli, ammo o'rganiladigan namunalarni boshqa narsalar bilan ifloslanishi natijalarni soxtalashtirishi mumkin. Shu sababli mutaxassislar, olingan ma'lumotlarni imkoniyat bo'lsa bir necha usullar vositasida qayta tekshiradilar.

4. Qazilma qoldiqlarni o'rganish. Biz yuqorida sanab o'tgan usullarga qaramay, Homo sapiensning turli ajdodlarini izlash yechimining kaliti yo'qolgan boshqotirmalarni yechishga o'xshaydi. Qazilma primatlar qoldiqlarining ko'pgina to'plamlari quyi jag' yoki tishlarning parchalari-gina xolos. Boshqa ko'pgina suyaklar va gavdaning yumshoq qismlari allaqachon yo'q bo'lgan. Ular yirtqichlar tomonidan burdalab tashlangan yoki suv oqizib ketgan. Qadimgi primatlarning to'la skeletlari juda kam saqlanib qolgan.

Qazilma topilmalarining bunday kambag'alligi sababli paleantropologlar qadimgi gominidlarning to'la bo'lmagan qoldiqlari, ba'zida turli jins va yosh vakillari bo'yicha aniqlaydilar. Ular suyak kasalliklari natijasida kuchli farq qilishi mumkin. Shuning uchun ajablanarli emas, mutaxassislar u yoki bu qazilma qoldiqlar kimga tegishli ekanligi to'g'risida bir xil fikrga kela olmaydilar.

Yana shuningdek, qadimgi odamlarning turmush tarzi to'g'risidagi savollarga javob berish qiyin. Chunki ularning harakatlari ko'p hollarda hech qanday qazilma iz qoldirmagan va uzoq saqlanadigan yog'och qurollar kam saqlanib qolgan. Biz faqat qadimgi odam hozirgi ibtidoiy hayot kechiradigan kishilar kabi terimchilik bilan shug'ullanadi va shuningdek, terilgan ildiz va mevalarni «uyga» olib ketish uchun ildizlardan tayyorlangan savatchalardan foydalanadi deb o'ylashingiz mumkin.

U yoki bu joylar yoki davrlarga tegishli topilmalarning butunlay yo'qligi qazilma primatlar tarixida mashaqqatli bo'sh joylarni qoldiradi. Bu yetmagan bo'g'inlarning noto'g'ri qayta tiklanishiga olib keladi. Hatto qazilma qoldiqlarning yoshini aniqlash begona qo'shilmalar yoki jismlarning stratigrafik izchilligini buzadigan tuproq qatlamlarining ko'chishi sababli, qiyinchilik tug'iladi.

Shunga qaramasdan, bizning qadimgi odamlar to'g'risidagi bilimlarimiz qazilma topilmalarni tadqiq qilish, biokimyoning rivojlanishi va hozirgi kunda nisbatan ibtidoiy hayot kechiradigan odamlarni o'rganish natijasida boyib bormoqda. Keniyadan 1968-yil qadimgi gominidlar qoldiqlarining bor-yo'g'i 3 nusxasi topilgan. 1984-yilda faqat Koobi Fori manzilgohining o'zidan 150 topilma qazib ochildi.

5. Qadimgi odamni izlash. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganish fan tarixida tizimli ravishda olib borildi. XIX asrgacha etnologik kuzatishlar, ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirildi. XIX asrda arxeologiya fanida insoniyat evolutsiyasi va ibtidoiy jamoani o'rganish bo'yicha qazilma ishlarining boshlanishi natijasida shu davrdan boshlab antroposotsiogenezni o'rganishning amaliy yutuqlari bilan boyidi. Natijada olib borilgan arxeologik izlanishlar yutuqlari ibtidoiy jamoa tarixining mukammal yoritilishiga sabab bo'ldi. Turli mamlakat olimlari, bu sohada ulkan yutuqlarga erishdilar.

Quyida bizning turimizning kelib chiqishi, uning ilk taraqqiyot davri madaniyati tadqiqotlari bilan shug'ullangan arxeologlar va boshqa olimlar to'g'risida ma'lumot beriladi:

Bass Jorj Fletcher amerikalik arxeolog. U boshliq ekspeditsiyasi Turkiya qirg'oqlarida halokatga uchragan jez asri kemasini o'rganishi bilan fanda suvosti arxeologiyasining birinchi qadami tashlandi.

Binford Luis R. amerikalik arxeolog. XX asrning 60-yillarida jahon miqyosida qiyosiy arxeologik va etnografik tadqiqotlar asosida, eski konsepsiyalar qayta qurib chiqilgandan so'ng, «yangi arxeologiya» ning asoschisi bo'ldi.

Bingam Xayram (1875–1956) amerikalik arxeolog. 1911-yil Kolumb-gacha bo'lgan Amerika sivilizatsiyasining mo'jizalaridan biri bo'lgan Perudagi And tog'ida inkalar shahri Vilcabambani (Machu–Pikchu) qayta kashf qildi.

Blek Devidson (1884–1934-yillar) kanadalik anatom. 1929-yil Xitoydan topilgan *sinanthropus pekinensis* (*Homo erectus*) tishini tasvirladi. Keyinchalik Pekin yaqinidagi Chjoukoudyan hududidagi g'or manzilgohlarning qazishmalariga rahbarlik qildi.

Bolk Luis golland anatomi. 1926-yil inson odamsimon maymunning neotenik tipi degan farazni ilgari surdi.

Bushe de Pert Jak (1788–1868) fransuz arxeologi. Somma daryosi graviylaridan qo'l boltalari va hayvonlarning qazilma qoldiqlarini topdi. Odamning tarix oldi hayoti uzoq biologik o'tmishga taqaladi degan farazni ilgari surdi.

Bul Marsellin (1861–1942) amerikalik arxeolog. XX asrning 50-yillarida Iroqdagi Jarmo shahri qazilmalari, Yaqin Sharqda qishloq xo‘jaligi janubroqda joylashgan boy vodiy «Hosildor yarim oyda» emas, balki Taurus – Zagros tog‘ belbog‘ida boshlanganini ko‘rsatdi.

Brested Jeyms Genri (1865–1935) amerikalik arxeolog va misrshunos. Misrdan Iroqqacha cho‘zilgan hosildor yerlar belbog‘ini belgilash uchun «Hosildor yarim oy» atamasini kiritdi. Qaysiki, bu havzada dunyo sivilizatsiyasiga asos solindi.

Breyl Anri (1877–1961) fransuz ruhoniysi va arxeologi. Paleolit davri g‘or san‘ati bo‘yicha yirik olim.

Brum Robert (1866–1951) shotland paleontologi. Janubiy Afrikada avstralopiteklarning qoldiqlarini ochdi va 1938-yil *austrolopitecus robustus* turini tasvirlab, uni *parantropus robustus* deb atadi.

Dart Raymond Artur Avstraliyada tug‘ilgan. Janubiy afrikalik antropolog. 1925-yil ilk topilgan avstralopitek *australopitecus africanus*ni tasvirladi.

Darvin Charlz Robert (1809–1882) angliyalik tabiatshunos. O‘zining (1859-yil ilgari surilgan) tabiiy tanlanish yo‘li bilan evolutsiya nazariyasi asosida, birinchi bor Afrikada paydo bo‘lgan odamning kelib chiqishining ilmiy asosiga poydevor qo‘ydi.

Duglas Endryu Ellikot (1867–1962) amerikalik astronom va arxeolog. Dendroxronologiya (daraxt halqalari bo‘yicha uning yoshini aniqlash) usulini ishlab chiqdi.

Dyubua (Mari) Ejen (Fransua Toma 1858–1940) golland anatomi. 1891-yil Yava orolidan *Homo erectus*ning qoldiqlarini birinchi bo‘lib topdi va uni *pitecantropus erectus* deb atadi.

Figgins Djessi amerikalik paleontolog. Folsoma (Nyu Meksika shtati) yonidagi qazilmalar vaqtida tarixgacha bo‘lgan mamontning qovurg‘alari orasida qolgan tosh o‘q uchini topdi. Bu qadimgi odamning Amerika qit‘asida bo‘lganidan guvohlik beradi.

Fryer Jon (1740–1807) angliyalik antikvar. Tarixgacha bo‘lgan arxeologiyaning asoschisi. 1790-yil Sharqiy Angliyadan (Suffolk va Norfolk grafligi) bir qatlamda yotgan kremniy quroli va o‘lib ketgan hayvonlarning qoldiqlarini topdi.

Baron de Geyer Gerard Yakob (1858–1943) shved geologi. Yillik halqa varv (bir mavsumda ko‘lda hosil bo‘ladigan yillik cho‘kindi qatlami)ni hisoblashga asoslangan xronometrik yoshni aniqlash usulini ishlab chiqdi.

Gudoll Jeyn van Loik Angliyada tugʻilgan, etnolog. Uning XX asrning 60-70-yillarida Tanzaniyadagi Gombe Strim qoʻriqxonasida shimpanze-ning xatti-harakatini chuqur tekshirishlari bilan inson xatti-harakatining shakllanishini ochib berdi.

Gekkel Ernest Genrix (1834–1919) nemis biolog evolutsionisti. Odamsimon maymun va odam oraligʻidagi taxmin qilinayotgan yetish-maydigan oraliq boʻgʻin pitekantropus atamasini kiritdi.

Jefferson Tomas (1743–1826) AQSHning uchinchi prezidenti. Shimoliy Amerika arxeologiyasi tadqiqotlarini oʻzining Virginiya shtatida qadimgi qabr tepaliklarini qazish va stratigrafik kuzatishlari bilan hayratda qoldirdi.

Yoxanson Donald amerikalik antropolog. 1974-yil Efiopiyada bizga maʼlum boʻlgan eng qadimgi avstralopitek («Losi») ning skeletini topdi. 1978-yilda bu turni australopitecus abarensis deb atadi.

King Uilyam irland anatomi. 1864-yil fanga Homo neandertalensis ilmiy atamasini kiritdi.

Fon Kyonigsvald Gustav Genrix Ralf nemis antropologi. 1935-yil fanga Gigantropitecus atamasini kiritdi hamda Yava orolidan Homo erectusning qoldiqlari megantropus paleoavanicusning salmoqli quyi jagʻini topdi.

Larte Eduarrrd Arman Izidor Ippolit (1801–1871) fransuz geologi, arxeolog va paleontolog. Fanga druopitecus va ptiopitecus atamalarini kiritdi. Dordonida paleolit davri gʻor manzilgohlarida qazishlar olib bordi.

Larte Lui fransuz arxeologi va geologi. 1868-yil Dordoni departamentidagi Kro-Manon qoyasidan kromanon deb ataladigan odamning qoldiqlarini topdi.

Liki Jonatan Luis Likining toʻngʻich oʻgʻli. 1960-yil Tanzaniyadagi Olduvay gʻoridan Homo habilis turiga mansub birinchi qazilma qoldiqlarini topdi.

Liki Luis Seymur Bezett (1903–1972) angliyalik antropolog. Sharqiy Afrikadagi oʻz ekspeditsiyalarida odam evolutsiyasi Afrikadan boshlanga-nini isbotladi.

Liki Meri antropolog. 1913-yilda Angliyada tugʻilgan, Luis Likining xotini. Australopitekus boysus (1959-yil) qoldiqlarini topdi. Keyinchalik Tanzaniyadagi Olduvay gʻoridagi qazilmalarga rahbarlik qildi. Shuningdek, Laetoli (Tanzaniya)dan odamning bizga maʼlum boʻlgan eng qadimgi izlarini topdi.

Liki Richard E. Keniya milliy muzeyi direktori, Luis Likining o'g'li. 1967-yil u, rahbarlik qilgan ekspeditsiya Omo (Efiopiya) hududida bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi zamonaviy odamning bosh chanoqlaridan birini topdi. 1968-yilda u Turkana ko'li (Rudolf) atrofidan ilk gominidlarning ko'pgina yangi qoldiqlarini topdi.

Luis J. Edvard olim. 1932-yil birinchi bo'lib Ramapitecus (Rama maymun) urug'ini topdi. Fanga bu atamani olib kirdi. Ramapitecus odamning hozir munozara qilinadigan ajdodi degan farazni ilgari surdi.

Libbi Uillard Frank (1908–1980) amerikalik ximik. 1947-yil yoshni aniqlashning radiouglerod usulini kashf qildi.

Linney Karl (1707–1778) shved botanigi. Tirik organizmlar turkumlarining zamonaviy tizimini ishlab chiqdi va 1758-yil bizning turimizga Homo sapiens nomini berdi.

Lebbok Ser Jon (1834–1913) ingliz ishqiboz arxeologi. Fanga «paleolit» (qadimgi tosh asri), «neolit» (yangi tosh asri) atamalarini kiritdi.

Layell Ser Charlz (1797–1875) ingliz geologi. Hozirgi geologiya fanining asoslarini yaratishga yordam berdi.

Marshall Ser Jon Xyuberd (1876–1958) ingliz arxeologi. Uning hozirgi Pokiston hududidagi Xarappa (1921-yil) va Moxenjodarodagi (1922-yil) qazishmalari er. avv. 2500–1750-yillarda gullab-yashnagan Hind daryosi havzasidagi tarixgacha bo'lgan sivilizatsiyani ochishga olib keldi.

Mellart Jeyms ingliz arxeologi. Uning 1961–1965-yillarda Chatal-Guyukdagi (Turkiya) qazishmalari Yaqin Sharqdagi bizga ma'lum bo'lgan neolit shaharlarini kashf qilishga olib keldi.

Morgan Luis Genri (1818–1881) amerikalik olim. Ilmiy antropologiyaning asoschisi. Uning «Qadimgi jamiyat» (1877-yil) asarida madaniyatning yovvoyilikdan varvarlik orqali sivilizatsiyaga tomon taraqqiyoti ko'rsatilgan.

Pitri Ser Uilyam Metyu Flindres (1853–1942) ingliz arxeologi, misrshunos. Arxeologik qazilmalarni o'tkazishning ilmiy darajasini ko'tardi. Asosiy e'tiborini qazishma detallari va qazishma natijalarini puxta chop etishga qaratdi.

Pitt-Rivers Ogastas Genri (1827–1900) ingliz arxeologi. Arxeologik qazishmalar o'tkazishning qator zamonaviy ilmiy usullarini amalga kiritdi.

Shaafgauzen Germann nemis antropologi. 1856-yil neandertal odamning qoldiqlarini topdi va bu to'g'risida hisobot yozdi.

Shyotenzaki Otto nemis professori. 1908-yilda Mayer qishlog'ida Geydelberg odam jag'ining quyi qismi to'g'risida batafsil ma'lumotni chop qildi.

Saymons Elvin L amerikalik paleontolog. XX asrning 60-yillarida Fayum vohasidan (Misr) qadimgi primatlarning muhim qazilma topilmalarini topdi.

Stivens Jon Lloyd (1805–1952) amerikalik arxeolog. U 1839–1942-yillarda o'rta asrlar mayya madaniyati inshootlarining xarobalarini tadqiq qilish natijasida Markaziy Amerika arxeologiyasi asoslarini yaratdi.

Vulli Ser Charlz Leonard (1880–1960) ingliz arxeologi. Uning shumerlarning qadimgi Ur (1922–1934-yillar) shahrida o'tkazgan qazish-malari Mesopotamiyaning qadimgi sivilizatsiyalari tarixini tiklashga yordam berdi.

6. Muzey ekspozitsiyalari. Dunyoning minglab muzeylarida dunyoning barcha burchaklarida arxeologik qazishlar vaqtida topilgan tarixgacha bo'lgan odamning suyak qoldiqlari, mehnat qurollari namoyish qilinadi va saqlanadi. Quyida dunyoning asosiy muzey kolleksiyalarining qisqacha ma'lumoti beriladi:

Avstriya.

Vena: Tabiiy tarix muzeyi. Muzeyning tarixgacha bo'lgan hayot bo'limida sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasi muzeylarining buyumlari to'plangan: tosh asrining moddiy madaniyati buyumlari, jez asrining mehnat qurollari va yarog'lari, temir asri qurollari va metall quyish uskunalari.

Belgiya.

Bryussel: Sanoat va tarix qirollik muzeyi (tarixgacha bo'lgan davr arxeologik topilmalari). Muzey ekspozitsiyalari butun dunyodan to'plangan tarixgacha bo'lgan davr arxeologik topilmalari kolleksiyasidan iborat.

Bolgariya.

Sofiya: Tarix muzeyi. Neolit davridan boshlab mahalliy topilmalar.

Kanada.

Ottava: Odam milliy muzeyi. Qadimgi topilmalardan Shimoliy Amerikaga mansub bo'lgan buyumlar mavjud.

Xitoy.

Pekin: Xitoy fanlar akademiyasining arxeologiya instituti. Kolleksiyada Xitoy tarixining tarixgacha bo'lgan davriga alohida ahamiyat beriladi.

Pekin: Umurtqalilar paleoantologiyasi va antropologiya instituti. Mashhur Xitoy eksponatlari tarkibiga Lyutszyandan topilgan odamning bosh chanog'i kiradi.

Kolumbiya.

Bogota: Milliy muzey. Tarixgacha bo'lgan qazilma topilmalar mavjud.

Kipr: Arxeologiya muzeyi. Eksponatlar orolning tarixigacha bo'lgan davrini yoritadi.

Slovakiya.

Brno: Antropos muzeyi. So'nggi paleolit eksponatlari.

Daniya.

Kopengagen: Milliy muzey. Jez va temir asrlarining ajoyib buyumlari, tarixgacha bo'lgan qadimiyatlarga mansub eksponatlar to'plangan.

Silkesborg: Silkesborg muzeyi. Bu yerda yoshi ikki ming yilga teng bo'lgan butun dunyoga mashhur Tolluntlik (botqoq odami) qoldiqlari saqlanadi.

Misr.

Qohira: Misr qadimiyatlari muzeyi. Sulolagacha bo'lgan va fir'avnlr davrlariga tegishli qazishmalar topilmalari to'plangan.

Qohira: Misr milliy muzeyi. Eksponatlar tarixgacha bo'lgan vaqtdan toki eramizdan avvalgi IV asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Efiopiya.

Addis – Abeba: Efiopiya milliy muzeyi. Ilmiy ahamiyat kasb etadigan gominidlarning qazilma topilmalari, jumladan, australopitecus afarensis turi qoldiqlari mavjud.

Fransiya.

Bordo: Akvitaniya muzeyi. Border va Perigor hududlaridan topilgan buyumlar kolleksiyasi.

Karnak: Karnak muzeyi. Tarixgacha bo'lgan davr muzeyi. Tarixgacha eksponatlar kolleksiyasi (kulolchilik buyumlari, taqinchoqlar asosan qabr-qo'rg'onlardan topilgan buyumlar). Tarixgacha bo'lgan mahalliy yodgorliklar asosan ulkan, vertikal turgan toshlarning uzun qatorlari yoritiladi.

Lez-Eyzin, Dordon. Tarixgacha bo'lgan davr milliy muzeyi. So'nggi paleolit davri mahalliy konlarini qazish vaqtida topilgan buyumlarga alohida e'tibor beriladi.

Montinyak-Lasko, Dordon; Lasko g'ori. Tarixgacha bo'lgan ajoyib qoya tosh tasvirlari.

Nansi: Yer to'g'risidagi fanlar muzeyi. Ekspozitsiya hayotning qadimgi organizmlardan odamgacha bo'lgan hayot evolutsiyasini tasvirlaydi.

Nitsa: Terra Amata muzeyi. Yoshi 400 ming yilgacha faraz qilinadigan mahalliy qazilma qoldiqlari.

Parij: Luvr muzeyi. Uning kolleksiyalarida eng qadimgi sivilizatsiyalarga tegishli eksponatlar mavjud.

Parij: Odam muzeyi. Neandertal va kromanonlarning qazilma qoldiqlari va moddiy madaniyatlar buyumlari mavjud.

Perigor. Dordon Perigor muzeyi. Eksponatlar ichida neandertal skeleti va so'nggi paleolit davri bizonlari bo'lgan freskalar saqlanadi.

Germaniya.

Berlin: Berlin Yaqin Sharq davlat muzeyi. Yaqin Sharq qadimiyatlari va ularning ichida Shumer muhrlari mavjud.

Berlin: Tarixgacha bo'lgan davr qadimgi tarix muzeyi.

Gvatemala: Gvatemala shahri arxeologiya muzeyi. Maya madaniyati buyumlari va boshqa eksponatlar.

Vengriya.

Budapesht: Vengriya milliy muzeyi. Paleolit, neolit, jez va temir davrlari aks etgan.

Hindiston.

Kalkutta: Hindiston muzeyi. Tarixgacha bo'lgan davr va yanada kechki davr qadimiyatlari aks etgan.

Indoneziya.

Cheanjar: Gedong Artiya muzeyi. Paleolit, neolit va boshqa tarixgacha bo'lgan davr qurollari.

Eron.

Tehron: Arxeologiya muzeyi. Paleolit davri va boshqa keyingi davrlar qadimiyatlari.

Iroq.

Bag'dod: Iroq muzeyi. Mezolit va neolit davri qurollari hamda tarixgacha bo'lgan davrning ko'p sonli tilla buyumlari.

Isroil.

Xayfa. Tarixgacha bo'lgan davr va tabiiy tarix muzeyi.

Quddus: Tarixgacha bo'lgan davr muzeyi. Isroildagi tarixgacha bo'lgan manzilgohlarning buyumlari.

Italiya.

Milan: Arxeologiya muzeyi. Neolit va tarixgacha bo'lgan eksponatlar.

Rim: Paleontologiya Italiya instituti kolleksiyasi.

Rim: Universitetining antropologiya muzeyi. Skeletlar hamda neandertallarning suyaklari.

Yaponiya.

Tokio: Tokio milliy muzeyi. Tarixgacha bo'lgan davr yapon topilmalari mavjud.

Iordaniya.

Ummon: Iordaniya arxeologiya muzeyi. Ekspozitsiyalar so'nggi paleolitdan o'rta asrlargacha bo'lgan barcha davrlarni qamrab oladi.

Keniya.

Nayrobi: Keniya milliy muzeyi. Ba'zi bir muhim qazilma topilmalar. Jumladan, Proconsul avstralopiteklar, Homo habilis va Homo erectus.

Meksika.

Mexiko: Yukatan arxeologiya muzeyi. Meksikaning ispan istilosigacha bo'lgan Meksika madaniyatlari ko'rsatilgan.

Mexiko: Milliy arxeologiya muzeyi. Ekspонатlarda tarixgacha bo'lgan Meksika tarixi aks ettirilgan.

Niderlandiya.

Amsterdam: Amsterdam universiteti arxeologiya muzeyi. Yaqin Sharq va Misrdan vazalar, jez va boshqa topilmalar ekspонатlari.

Pokiston.

Karachi milliy muzeyi. Son daryosi vodiysidan paleolit davri qurollari. Hind daryosi vodiysi sivilizatsiyasi yodgorliklari.

Panama.

Panama shahri: Panama odami muzeyi. Ekspонатlar arxeologiya va etnografiyaga bag'ishlangan.

Peru.

Lima: San'at muzeyi. Kolumbgacha madaniyat aks etgan.

Polsha.

Varshava: Milliy arxeologiya muzeyi. Polshaning tarixgacha bo'lgan va keyingi davrlari arxeologiyasi aks etgan.

Janubiy Afrika (JAR)

Pretoriya: Transvaal muzeyi. Ekspонатlar ichida australopitekus, afrikanus va robustus turlari qoldiqlari bor.

Ispaniya.

Madrid: Milliy arxeologiya muzeyi. Ambronadan tarixgacha bo'lgan topilmalar.

Santelyana-Del-mar, Santander. Altamir g'ori so'nggi paleolitning ajoyib g'or tasvirlari.

Shvetsiya.

Stokgolm: Tarix muzeyi. Shvetsiyadan topilgan tarixgacha bo'lgan ekspонатlar.

Shveytsariya.

Bern: Bern tarix muzeyi. Asosan paleolit davridan boshlab tarixgacha bo'lgan buyumlar.

Suriya.

Damashq: Damashq milliy muzeyi. Mamlakatning eng qadimgi sivilizatsiyalari aks ettirilgan.

Tanzaniya.

Dor-us-Salom: Tanzaniya milliy muzeyi. Ekspонатlar ichida avstralopiteks boysning birinchi topilgan bosh chanoqlari.

Turkiya.

Anqara: Anatoliya sivilizatsiya muzeyi. Paleolit, neolit, xalkolit (mis asri), jez asrlari va keyingi davrlar ekspонатlari aks etgan.

Istambul: Istambul arxeologiya muzeyi. Ilk sivilizatsiyalar: Shumer, Akkad, Xett, Osuriya, Misr madaniyatlari va boshqa buyumlar aks etgan.

Buyuk Britaniya.

Eyvber, Uiltshir: Eyvber shahri muzeyi. Mahalliy so'nggi paleolit topilmalar. Eyvber tarixgacha bo'lgan yerto'la inshootlari bilan qoplangan.

Birmingem: Shahar muzeyi. Qadimgi tarixga doir butun dunyodan to'plangan topilmalar.

Kembrij: Antropologiya va arxeologiya muzeyi. Tosh asridan boshlab butun dunyodan to'plangan ekspонатlar.

Kardiff: Uels milliy muzeyi. Arxeologiya kolleksiyalari mavjud.

London: Insoniyat muzeyi. Asosan Shimoliy va Janubiy Amerikaning arxeologik topilmalari mavjud bo'lgan etnografiya muzeyi.

Manchester: Manchestyer muzeyi. Arxeologik ekspонатlar ichida qadimgi Misrdan ko'pgina buyumlar mavjud.

Oksford: Nafis san'at va arxeologik Ashmol muzeyi. Buyuk Britaniyaning qadimgi muzeyi.

AQSH.

Ostin, Texas: Texas memorial muzeyi. Ekspozitsiyalar odam evolutsiyasi va Amerika hindulari madaniyatini aks ettiradi.

Berkli, Kaliforniya: Robert T.Loui nomli muzey. Turli qit'alardan antropologik va arxeologik ekspонатlar.

Chikago, Illinoys: Tabiatshunoslik va dala muzeyi. Arxeologik va antropologik ekspонатlar.

Sinsinatti, Ogay Sinsinatti shahri tabiatshunoslik muzeyi. Arxeologik buyumlar ichida Amerika hindulari madaniyati yodgorliklari mavjud.

Rossiya.

Leningrad: Rossiya Fanlar akademiyasi arxeologik institutining Leningrad bo'limi. Ko'pgina arxeologik eksponatlar ichida zubr yelka suyagiga kirib qolgan o'q uchi bor.

Moskva: D.I Anuchin nomidagi antropologik muzeyi. Tarixigacha bo'lgan davr arxeologiya va antropologiyasiga bag'ishlangan.

O'zbekiston.

Toshkent: O'zbekiston tarix muzeyi. Tarixgacha bo'lgan davr va undan keyingi davrlar eksponatlari aks etgan.

Tayanch iboralar: Nisbiy vaqt hisobi, biostratigrafik usul, paleomagnit usul, dendroxronologiya, absolyut xronometriya, dendroxronologiya, varv tahlili, radiouglerod metodi, termolyunesent usul, aminokislotali ratsemizatsiya, kaliy-ozonli usul.

Takrorlash uchun savollar

1. Atrof-muhitni bilish uchun kalitlar deganda nimani tushunasiz?
2. Nisbiy vaqt hisobi to'g'risida tushuncha bering.
3. Absolyut xronometriya nima?
4. Qazilma qoldiqlarni o'rganish qanday amalga oshiriladi?
5. Eng mashhur antropologiya muzeylarining bir nechtasi va ularda saqlanayotgan eksponantlar to'g'risida ma'lumot bering.

Mustaqil ish mavzulari

1. Qazilma qoldiqlarni o'rganish.
2. Qadimgi odamlar qoldiqlarini izlash muammolari.
3. Qadimgi topilmalarning eng noyob namunalari.
4. Arxeologik qazilma qoldiqlarni o'rganishning ilmiy metodlari.

GLOSSARIY

A

Antropologiya – o'tmishdagi va hozirgi zamondagi odamlarning morfologik va fiziologik o'ziga xos tomonlarini o'rganadi. Shu bilan birga uning ichiga odamlarning maymunsimon qazilma qoldiqlarini o'rgana-digan maxsus bo'lim-tarixiy antropologiya mavjud. Insoniyat rivojlangan to'rtlamchi geologiya – bizning sayyoramizning to'rtlamchi geologik tarixiy voqealarini qayta tiklaydi.

Arxeozoologiya – eng qadimgi hayvonlar qazilma qoldiqlarini o'rganadi.

Abu Rayhon Beruniy (buyuk ensiklopedist olim, 973–1048-yillar) – o'zining «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» asarlarida bir necha xalqlarning islomgacha bo'lgan hayotini tasvirlaydi. «Hindiston» asarida hindlarning urf-odatları, naql-rivoyatlari haqida boy ma'lumot beradi.

Avstralopitek – janub maymuni.

Afrika avstralopiteki – Afrika janub maymuni.

Arxantrop – tik yuradigan odam.

B

Boys avstralopiteki – tadqiqot ishlarini mablag' bilan ta'minlagan ingliz tadbirkori Charls Boys nomiga qo'yilgan.

Brokenxillik odam – «Rodeziya odami» yoki «Kabvedagi bosh chanog'i».

E

Etnologiya – zamonaviy qoloq jamiyatlar madaniyatining barcha tomonlarini o'rganadi. Ibtidoiylikda tarixiy jarayonni o'z kuzatishlari va xulosalarida loyihalashtiradi.

Egzogamiya – nikoh turi.

F

Fratriya – yunon tilida birodarlik - bir qabilani tashkil etgan bir necha urug'lar guruhi.

G

Gominizatsiya – insonning shakllanishi.

Gliptodontlar – ulkan zirhli hayvonlar.

Gerontitsid – keksalarning ko'ngilli o'limi.

Golosen – muzlikdan keyingi davr.

Gominizatsiya – odamning shakllanishi.

H

Homo habilis – bilag'on odam.

Homo erectus – tik yuradigan odam.

I

Ijtimoiy potestar – lotin tilida potestus-hokimiyat, etnologiyada davlatgacha bo'lgan jamiyatda hokimiyatni tashkillashtirish.

Infantitsid – lotin tilida infans-bola va caedes-o'ldirish.

J

Jamoa arafasi – ibtidoiy odam podasi.

K

Ksenofont (yunon tarixchisi, er. avv. V asr oxiri IV asrning birinchi yarmi) – qadimgi Kichik Osiyo xalqlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Kliver – terini yog’dan tozalash uchun ishlatiladigan tosh qirg’ich.

Krosskuzen – ingliz tilida cross- kesishadigan va cousin-akasini o’g’li, akasini qizi yoki kesishgan kuzen nikohi onasining ukasini qizi yoki otasining singlisini qizi bilan nikoh.

L

Levirat – lotin tilida levr – qayniuka, erning ukasi

M

Mahmud Qoshg’ariy (O’rta Osiyolik olim, XI asr) – turkiy qabilalar to’g’risida ma’lumot beradi.

Mais – shirin kartoshka

Merganets – odam badanini bo’yashga ishlatilgan bo’lishi mumkin.

Mongoloid – yuzi keng, yassiroq, to’la gavdali eskimos.

N

Neolit – yangi tosh davri.

Neoteniya – katta yoshli turlarda alohida o’ziga xususiyatlarini saqlanib qolishi.

O

Orinyak bosqichi – XX asr arafasida fransuz arxeologi Anri Breyl yuqori paleolitning boshlarini shunday deb belgiladi.

P

Paleografiya – to’rtlamchi geologiya ma’lumotlari. fizik geografiyaning natijalarini qayta rekonstruksiya qilib, to’rtlamchi paleolandshaftni qayta tiklash uchun geografik muhit dinamikasini qayta tahlil qiladi.

Poliedir – ko’p qirrali.

Poliginiya – yunon tilida poly- ko’p va gyny- xotin.

Potestar – lotin tilida hokimiyat.

Poliandriya – yunon tilida poly – ko’p va andros-er.

Parantropus – odamga yaqin tur.

Pleistosen – muzlikdan oldingi davr.

Q

Qudratli avstralopitek – bir vaqtda parantropus («odamga yaqin»).

S

Sandon – toshdan yasalgan ish taxtalari.

Sibling – qarindosh aka-singillar.

So’nggi muzlash – vyurm davri deb belgilanadi.

Strabon (yunon tarixchisi er.avv. I asri) – qadimgi Kavkaz va Janubiy Yevropa xalqlari to’g’risida ma’lumot bergan.

Sororat – lotin tilida soror-opa-singil.

Segmentar tashkilot – lotin tilida segmentum-bo’lak.

Soqov – unsiz, imo-ishora.

T

Tit Lukretsiy Kar (rimlik faylasuf. er.avv I asr) – «Narsalarning tabiati to’g’risida» poemasida insoniyat jamiyati, tabiat dunyosining shakllanishini falsafiy tasvirlaydi. Ilk bor fanda insoniyat tarixini uch bosqichga bo’ladi.

Yu

Yu. Sezar (rimlik siyosiy arbob, er. avv. I asr), Tatsit (er.avv. I asr- eramizning I asri) qadimgi german qabilalari to’g’risida ajoyib ma’lumotlarni qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, 1998-yil.
2. Sagdullayev A.S. Kabirov A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent 1995-yil.
3. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi. Toshkent 1998-yil.
4. Алексеев В.П. В поисках предков. Антропология и история. –М., 1972. 200 с.
5. Алексеев В. Становление человечества. –М., 1984. 180с.
6. Григорьев Г.П. Начало верхнего палеолита и происхождение Homo Sapiens. –Л., 1977. 212 с.
7. Нефёдов С. А. История древнего мира. –М., 2006. 388 с.
8. История первобытного общества. Эпоха первобытной родовой общины. –М., 2007. 574 с.
9. История первобытного общества. Эпоха классовообразования. –М., 1988. 566 с.
10. Ламберт Д. Доисторический человек. Кембриджский путеводитель. –Л., 1976. 297 с.
11. Мартынов А.И. Археология. –М., 1996. 416 с.
12. Палеолит СССР / Археология СССР. –М., 1984. 384 с.
13. Первобытное общества. –М., 1975. 288 с.
14. Семенов С.А. Развитие техники в каменном веке. –Л., 1968. 362 с.
15. Семенов С.А. Происхождение земледелия. –Л., 1974. 318 с.
16. Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. –М., 1974. 312 с.
17. Тайлор Э.Б. Первобытное культура. –М., 1989. 576 с.
18. Этнография, как источник реконструкции истории первобытного общества. –М., 1979. 168 с.
19. История первобытного общества. Общие вопросы. Проблемы Антропосоциогенеза. –М., 1983. 432 с.
20. Малая история искусств. Первобытное и традиционное искусство. –М., 1973. 450 с.
21. Придо Т. Возникновение человека. Кроманонский человек. –М., 1979. 160 с.
22. Ранов В.А. Древнейшие страницы истории человечества. –М., 1988. 160 с.
23. Столяр А.Д. Происхождение изобразительного искусства. –М., 1985. 300 с.
24. Токарев С.А. Ранние формы религии. –М., 1990. 624 с.
25. Алексеев В.П., Першиц А.И. История первобытного общества. –М., 2004 г.

26. Дьяконов И.М. Возникновение скотоводства и ремесла. Общие черты первого периода истории древнего мира. под.ред. И.М. Дьяконова, Лекция 1.

27. Лаванов Й.М. От первобытности к цивилизации (критика марксистской схемы). –М., 1998.

28. Шнирельман В.А. Происхождение производящего хозяйства. – М., 1989.

29. Токарев С.А. Ранние формы религии. –М., 1990. 624 с.

30. Шнирельман В.А. Возникновение производящего хозяйства. – М., 1989 448 с.

31. Ранов В.А. Древнейшие страницы истории человечества. –М., 1988. 160 с.

32. Крахмал К.А. O'zbekistonning ilk antropogen tarixini o'rganish uchun yangi ma'lumotlar. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali. 2006-yil 5-6-son. 76-80-betlar.

33. Mirsoatov T.M. O'rta Osiyo neolit davridagi madaniy xo'jaliklar haqida. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali. 1987-yil 10-son. 38-42-betlar.

34. Крахмал К.А. «К изучению истории раннего антропогена в долине реки Ангрен» «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali. 2006-yil. 5-6-son.

35. Аширов А.А. «Авеста» некоторые аспекты древних земледельческих традиций. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali. 2005-yil 1-2-son. 112-117-betlar.

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Ibtidoiy jamoa tarixiga kirish	3
2. Ibtidoiy jamoa tarixi tarixshunosligi.....	19
 I.Bob. Inson evolutsiyasi	
1. «Odam maymunlar» va ilk odamlar.....	25
2. Tik yuradigan odam.....	36
3. Inson evolutsiyasi va yo‘nalishi.	47
4. Zamonaviy odam yerni o‘zlashtiradi.....	64
5.Mezolit.....	75
6. Ilk ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar.....	94
7. Ibtidoiy jamoaning so‘nggi davri.....	103
 II.Bob. Insoniyat tarixini o‘rganish	
1. Insoniyat tarixini o‘rganish.....	115
2. Atrof-muhitni bilish uchun kalitlar.....	121
Glossariy	135
Foydalanilgan adabiyotlar	137

RAVSHAN RAJABOV

IBTIDOIY JAMOA TARIXI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	E.Majidov
Musahhih:	F.Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Hasanova

**Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 30.09.2013.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 9,0. Nashriyot bosma tabog'i 8,75.
Tiraji 500. Buyurtma №127.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**